

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM YAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

*O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2019

UO‘K: 336.226.11(075)

KBK: 65.216.4ya7

Taqrizchilar: *i.f.d., prof. O. Abduraxmonov;*
i.f.d., prof. M. Almardonov

J-67 Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish: Darslik / A.S.Jo‘rayev, M.S.Usmanova, A.M.Amanov, Sh.U.Qiyosov; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 432 b.

Mazkur darslikda “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va unga tenglashtirilgan to‘lovlar tarkibi, jismoniy shaxslar to‘laydigan har bir soliq turini hisoblash va to‘lash tartibi, davlat soliq xizmati organlarining vakolatlari va vazifalari kabi masalalar keng yoritib berilgan.

Darslik 5230800-“Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 336.226.11(075)

KBK: 65.216.4ya7

ISBN 978-9943-13-815-5

© A.S.Jo‘rayev, M.S.Usmanova,
A.M.Amanov, Sh.U.Qiyosov, 2019
© “IQTISOD-MOLIYA”, 2019

KIRISH

Mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlab, demokratik davlat qurish yo‘li-dan borayotgan respublikamizning bozor munosabatlariga o‘tishi sharoitida ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi soliq tizimida ham chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talabidir. Zero, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning erkinlashuvi va islohotlarning chuqurlashuvi jarayoni byudjet-soliq tizimini ham muntazam takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Soliq siyosati soliq tizimi islohotlarining muhim yo‘nalishi sifatida iqtisodiyotni tartibga solish hamda uning barqarorligini ta‘minlash jarayonida har qachongidan ham muhimroq bo‘lib bormoqda.

Respublikamizda yuritilayotgan soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosati iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada rivojlanishini rag‘batlantirishni kuchaytirishga, mamlakat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishida uning rolini oshirishga, yangi ish joylarini shakllantirish va aholi bandligini ta‘minlashga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish hamda yuritish uchun qo‘shimcha ravishda qulay shart-sharoitlar yaratishga hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek – «Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur. O‘z ehtiyoji uchun obyektlar qurayotgan, yangi tashkil etilgan kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga yagona soliq to‘lovini ma‘lum muddatga kechiktirish huquqini berish darkor. Shuningdek, kichik korxonalar uchun qo‘shimcha qiymat solig‘i to‘lashga o‘tishni rag‘batlantirish shart. Shu bilan birga, tez rivojlanayotgan, yiriklashib borayotgan korxonalarni rag‘batlantirish siyosatiga o‘tish lozim. Soliq imtiyozlari

berishda individual yondashuvlardan voz kechib, ularni faqat iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlari uchun qo'llash amaliyotiga o'tishni taklif etaman».¹

Ma'lumki, jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar byudjet daromadlari tizimida katta ulush egallamaydi, ammo, soliq tizimida munosib ahamiyatga egadir. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarni nazariy jihatdan tadqiq etish va ushbu soliqlarni soliq-byudjet tizimidagi rolini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan aholining soliqlar xususidagi fikrlarini ijobiy tarzda bo'lishini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va ulardan beriladigan imtiyozlarni talaba-o'quvchilarga to'laroq yetkazish, ushbu yo'nalish bo'yicha istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlari ta'lim yo'nalishlari uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalar tayyorlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimida tadbiq etishni amalga oshirish hukumatimiz diqqat e'tiborida bo'lgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu boisdan ham ushbu darslik jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari 5230800 - "Soliqlar va soliqqa tortish" bakalavriat yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Darslik O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni, Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligiga oid me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlandi.

Ushbu darslikda jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar o'nta bobga bo'lib o'rganilgan bo'lib, har bir bob qo'yilgan savollar orqali batafsil yoritib berilgan.

Birinchi bobda "Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish" fani soliq nazariyasi fanining tarkibiy qismi sifatida tutgan o'rni hamda uning maxsus, ya'ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan asosda o'rganiladigan bo'limi ekanligi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy shaxslarni soliqqa tortish fanining tutgan o'rni batafsil yoritib berilgan.

Darslikning ikkinchi bobida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar, soliqlarning guruhlariga ajratilishi, jismoniy shaxslardan undiri-

¹ *Mirziyoyev Sh.M.* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T: "O'zbekiston" NMIU, 2018. 55-bet.

ladigan bevosita va bilvosita soliqlarning tarkibi hamda ularning byudjet daromadlaridagi ahamiyati yoritilgan.

Darslikning uchinchi bobida jismoniy shaxslar daromadlarining tarkibi, jismoniy shaxslarning mehnat haqi va unga tenglashtirilgan shaklda oladigan daromadlari, moddiy naf tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar – fuqarolarga mulk huquqida tegishli bo‘lgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan daromadlar ekanligi, mulkiy daromadlarning tarkibiy tuzilishi o‘rganib chiqilgan.

Yillik daromad haqidagi deklaratsiyani taqdim etuvchi jismoniy shaxslar toifasi, deklaratsiya taqdim etuvchi chet el fuqarolari, yillik umumiy daromad tarkibiga kiritiluvchi daromadlar, soliqqa tortiluvchi daromaddan chegirmalar va jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq bo‘yicha imtiyozlar darslikning to‘rtinchi bobida keltirilgan bo‘lib, unda jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishning mohiyati va zarurligi o‘rganib chiqilgan.

Darslikning beshinchi bobida tadbirkorlik tushunchasi, tadbirkorlik faoliyatining mulkiy asosi, tadbirkorlik va uning turlari, tadbirkorlik faoliyatining subyektlari, yakka tartibdagi tadbirkorlik, jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va majburiyatlari, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi va xususiyatlari, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda talab qilinadigan hujjatlar, yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga belgilangan muddatlar va uni rad etish tartibi yoritilgan.

Darslikning oltinchi bobida jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘ining to‘lovchilari, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining obyekt va soliq solinadigan bazasi, mol-mulkning kadastr qiymati, jismoniy shaxslar mol-mulkining tarkibi, mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozga ega jismoniy shaxslar tarkibi, mol-mulk solig‘ining to‘lov xabarnomalariga asosan to‘lash muddatlari o‘rganilgan.

Darslikning yettinchi bobida jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘ini to‘lovchi jismoniy shaxslar, yer solig‘ining obyektleri, jismoniy shaxslarning egaligidagi yerlar va soliq solinadigan obyektler tarkibi, yer solig‘i bo‘yicha imtiyozga ega jismoniy shaxslar, yer solig‘ining to‘lov xabarnomalariga asosan to‘lash muddatlari o‘rganilgan.

Sakkizinchi bobda tadbirkorlik faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchilar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni undirish xususiyatlari, jismoniy shaxslar tomonidan davlat bojini to'lash tartibi, yuridik shaxslarni tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarini soliqqa tortish xususiyatlari, konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi batafsil o'rganilgan.

Darslikning to'qqizinchi bobi "Jismoniy shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish" deb nomlanib, unda jismoniy shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilishni tashkil etish, uchastka soliq inspektori tushunchasi hamda uning ishini tashkil qilishning huquqiy va me'yoriy asoslari, uchastka soliq inspektorining asosiy vazifalari, uchastka soliq inspektorining huquq va majburiyatlari, uchastka soliq inspektori ishini tashkil etish, jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar summasini hisoblab chiqarish, to'lash va qaytarish tartibi, jismoniy shaxslarning davlat byudjeti oldidagi qarzlari, soliq qarzlarini majburiy undirish tartibi, soliq qonunchiligini buzgan jismoniy shaxslarga qo'llaniladigan choralar, jismoniy shaxslarni soliq to'lashga doir muddatlarini belgilash, davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslarning soliqqa oid ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash kabi masalalar o'rganilgan.

Darslikning o'ninchi bobi "Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning xorijiy mamlakatlar amaliyoti" deb nomlanib, unda zamonaviy soliqqa tortish tizimining shakllari va usullari, jahon soliq modellari, rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimining tamoyillari va xususiyatlari o'rganib chiqilgan.

Darslik yakunida jismoniy shaxslarni soliqqa tortishga oid barcha masalalarni o'z ichiga qamrab olgan test savollari, atamalar sharhi hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan. Test savollari talabalarni o'zlarining ustida yanada ko'proq ishlashlariga, fanni chuqurroq o'rganishga yordam beradi, degan umiddamiz.

Ushbu darslik kamchiliklardan holi emas. Ular keyingi nashrlarda albatta e'tiborga olinadi.

I BOB. “JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQQA TORTISH” FANINING PREDMETI VA METODI

1.1. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanini o‘qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

“Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanining boshqa fanlar singari o‘ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Bu fanni o‘qitishning zarurligi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlari davrida soliq munosabatlarining ahamiyati o‘sib borayotganligidan kelib chiqadi.

“Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fani soliq voqeliklarini (harakatlarini) chuqur o‘rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini o‘rgatadi.

“Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fani soliq amaliyotidagi eng to‘g‘ri, eng mukammal va eng progressiv voqeliklarni o‘rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya voqeliklarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to‘g‘ri, ma‘qul va ilg‘or tajribalar olinib amaliyotga yo‘l ko‘rsatish uchun o‘rgatiladi.

Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun yo‘l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o‘zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo‘ldan adashmaydi.

“Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanini o‘qitishning zarurligi amaliyotda yo‘ldan adashmaslik, soliqlar bo‘yicha keraksiz o‘zgarishlarga yo‘l qo‘ymaslik, amaliyotda katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir.

“Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fani soliq nazariyasi fani bilan chambarchas bog‘liqdir, uning maxsus bo‘limi, ya‘ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo‘limidir. Chunki ushbu fan soliq nazariyasi qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo‘lganligi bois, “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fani ham moliya

fani bilan chambarchas bog‘liq. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanining o‘ziga xos xususiyatlari soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlarini o‘rgatadi.

“Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fani davlat byudjeti fani bilan ham o‘zaro bog‘liqdir. Chunki soliqlar oxir-oqibatda byudjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo‘lmasa byudjet munosabatlarining o‘zi bo‘lmaydi. Bu fan soliq nazariyasi, soliq huquqi, soliq ma‘murchiligi, soliq tushumlari hisobi va prognozi kabi fanlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

1.2. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanining predmeti, vazifasi va o‘rganish usullari

Har qanday fan o‘zining predmetiga, ya’ni izlanish obyektiga ega bo‘ladi. Masalan, texnologiya fanining predmeti bo‘lib kimyoviy moddalarning tarkibini o‘rganish hisoblansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmining xarakteristikasi hisoblanadi. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanining predmeti davlat bilan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar o‘rtasidagi soliq munosabatlarini (harakatini), soliqlar mexanizmini har tomonlama o‘rganishdan iboratdir.

Fanning predmeti soliq voqealari pul munosabatlarini o‘rganishdan iborat bo‘lar ekan, bu pul munosabatlari soliq to‘lovchilar (jismoniy shaxslar) bilan soliqni o‘z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o‘rtasidagi munosabatlardir. Fanning mohiyati shu o‘rtadagi munosabatni chuqur o‘rganish, ularni to‘g‘ri tashkil qilishni ta’minlashdir. To‘g‘ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e’tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlilik va insoflilik tamoyiliga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytsak, byudjetga soliqlarni olishda soliq to‘lovchilar bo‘yniga ortiqcha og‘irlik qo‘ymaslik, ularni o‘z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so‘ndirib qo‘ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez-tez o‘zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e’tibor berish ko‘zda tutiladi. Bu yerda tomonlarning do‘stona munosabatda bo‘lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo‘lishini ta’minlash lozim.

Fanning predmetini chuqur o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo‘ravonlik munosabati bo‘lguday

bo'lsa, ikkinchi tomon unga javoban o'z daromadlari, boshqa soliq obyektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday huquqiy hujjatlarning ham kuchi yetmay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq obyektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi. Demak, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Fanning vazifalari soliq mutaxassisi va boshqa davlat soliq xizmati organlari xodimlarini nazariy jihatdan qurollantirish hamda amaliyotda adashmaslik uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o'rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini mamlakatimiz amaliyotiga moslab zarur joylarini tatbiq etishdan iboratdir.

Demak, fanning asosiy vazifasi yuqori malakali soliq mutaxassislari tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlashdan iboratdir.

Har bir fanning shakllanishi fanning predmetini shakllanishi bilan birgalikda, uning ilmiy bilish usullarining qaror topishi bilan ham bog'liq. Har qanday fanni o'rganishdagi usullar umumiy tavsifga ega, lekin har bir fan o'z predmetidan kelib chiqib, o'zining ilmiy bilish usullariga ega. Shuning uchun, fanni o'rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo'linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o'rganishning birdan-bir to'g'ri ilmiy usuli dialektik usuldir. Shuning uchun, ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan jismoniy shaxslarni soliqqa tortish fanining nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko'rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo'ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun, ushbu usul tadqiqotning induksiya va deduksiya usullarini o'z ichiga oladi.

Xususiy, yakka dalil olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo'lsa – bu induksiyadir. Avval, boshdanoq barcha xususiy hollarni o'z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa bu – deduksiyadir.

Shu bilan birga, barcha iqtisodiy fanlar kabi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish fanining ham o'ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida obyektning faqat bir tomoniga, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tibor qaratiladi

va xalal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta'siri e'tiborga olinmaydi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish fani shuningdek, o'z predmetini o'rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil – bu o'rganilayotgan butun obyektни qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish, bo'lsa, sintez esa, o'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliqlarga doir murakkab nazariy masalalar mana shu yo'l bilan o'rganiladi.

Fan o'z predmetini o'rganishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holda tahlilni qo'shib olib borish muhim o'rin tutadi. Soliqlarning nazariy masalalarini mikroiqtisodiy jihatdan o'rganishda iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar nuqtayi nazaridan, ular bilan davlat byudjeti o'rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya'ni soliqlarning nazariy masalalari makroiqtisodiy darajada o'rganiladi.

Shuningdek, fan o'z predmetini o'rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullaridan ham foydalanadi. Jumladan soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulida tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, soliqlar o'zgarishini yalpi talab va yalpi taklifga ta'sirini mana shu usul bilan ifodalash mumkin.

1.3. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli

Soliqlarning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun hamda hozirgi O'zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uni tashkilotchisi ekanligidan jismoniy shaxslarni soliqqa tortish fani davlatning o'ta zarur bo'lgan xilma - xil vazifalari bilan chambarchas bog'liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun-qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya'ni

solliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyatini o‘rganish jismoniy shaxslarni solliqqa tortish fanining diqqat - markazida turadi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti – erkin iqtisodiyot, pulli munosabatlar iqtisodiyotidir. Solliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir. Bozor iqtisodiyoti qonunlari – jismoniy shaxslarni solliqqa tortish fanining asosini tashkil etadi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib jismoniy shaxslarni solliqqa tortish mexanizmini tushunib bo‘lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o‘rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini solliqlar orqali taqsimlash vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to‘g‘risidagi ta‘limot – davlatning iqtisodiyotni boshqarishda bosh rol o‘ynashi jismoniy shaxslarni solliqqa tortish fanining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda yetakchilik, boshqaruvchilik rolini o‘ynaydi. Davlat solliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o‘rganib chiqib, uni amaliyotga tatbiq qilishni o‘z zimmasiga oladi.

Solliq xizmati xodimlari o‘zlariga qonuniy hujjatlarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jihatdan solliqlarni bilibgina qolmasdan, solliqlarning mohiyati, belgilari, ularning obyektiv zarurligiga, davlatning solliq siyosati, solliqlar tizimi, solliqqa tortish tizimi, solliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun esa jismoniy shaxslarni solliqqa tortish fanini chuqur o‘rganish kerak. Shuni nazarda tutish zarurki, Leonardo da Vinchi aytganidek: “Nazariya qo‘mondon, amaliyot askarlardir” nazariya amaliyotni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi kompasdir. Har qanday vazifalarni kadrlar hal qiladi. Shuning uchun, ular chuqur nazariy bilimga va kasb mahoratiga ega bo‘lishlari zarur.

Fanning mazmunini chuqur egallagan har qanday mutaxassis jismoniy shaxslarni solliqqa tortish jarayonini o‘rganishda va ularni hayotga to‘g‘ri hamda to‘liq tatbiq etishda adashmaydi. Shunday ekan bu fan davlat solliq xizmati xodimlari, solliq sohasi vakillari, ilmiy xodimlar uchun o‘zlarining ilmiy salohiyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.4. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanini o‘qitishda soliq xizmati organlari axborot tizimi tarkibidagi asosiy dasturiy mahsullarni qo‘llash tartibini o‘rganishning ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridanoq Davlat soliq xizmati organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalariga jiddiy e’tibor qaratila boshlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi soliq idoralarida ma’lumotlarni qayta ishlashning yagona kompyuter tizimini yaratish to‘g‘risida”gi 388-sonli qarori bilan davlat soliq xizmati organlarida axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalarini o‘z ichiga olgan axborot tizimlarining shakllanishiga asos solingan va ushbu tizim orqali soliq ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan birga, Axborot-texnologiya ta’minoti boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etilgan. Ushbu Qarorni amalga oshirish maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat soliq boshqarmasi, Davlat soliq inspeksiyasi bosqichlariga tegishli bo‘lgan dasturiy mahsullari ishlab chiqarila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 14-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi soliq organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va uning xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 359-sonli qarori bilan Davlat soliq qo‘mitasi qoshida xo‘jalik hisobidagi “Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi” (YaTIAM) tashkil etilgan va soliq ma’lumotlarini qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan maxsus dasturiy mahsullarni yaratish ishlarini tizimli ravishda tashkil etish imkoni yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlash, soliq to‘lovchilarni hisobga olishni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarga identifikatsion raqamlar berish va qo‘llash tizimi to‘g‘risida”gi 130-sonli qarori qabul qilindi va unga ko‘ra:

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi 1997-yil 1-apreldan boshlab soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamlarini berish va qo‘llash tizimi joriy etildi;

- O‘zbekiston Respublikasida soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamlarini berish va qo‘llash tizimi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi;

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga 1997-yil 1-aprelgacha soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamlarini bank hujjatlarining barcha shakllariga majburiy kiritish to‘g‘risidagi masalani hal qilish tavsiya etildi.

Yuqoridagi qarorga asosan, Davlat soliq qo‘mitasining 1997-yil 25-martdagi 78-sonli buyrug‘ida ko‘rsatilishi bo‘yicha, ro‘yxatdan o‘tkazilgan ma‘lumotlarni kompyuterga kiritish, identifikatsion raqam olganligi haqidagi guvohnomani tuman (shahar) DSIIlarida 5 ish kuni mobaynida (hozirda 2 ish kuni) berish belgilab qo‘yilgan. Soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamlarini berish va qo‘llash tizimi to‘g‘risidagi nizomni joriy etishdan maqsad soliqlar to‘liq to‘lanishini va maxsus jamg‘armalarga mablag‘lar ajratilishini hamda ham soliq organlarining, ham soliq to‘lovchilarning davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini ta‘minlash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining barcha vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, bank muassasalari hamda boshqa muassasalar, tashkilotlar va korxonalar bilan o‘zaro hamkorligini ta‘minlovchi soliq to‘lovchilarni kodlashtirishning yagona tizimini shakllantirishdan iborat.

Davlat soliq qo‘mitasining 1996-yil 18-oktyabrdagi “Qog‘ozsiz ish yuritish texnologiyasiga to‘liqligicha o‘tish” haqidagi 229-sonli buyrug‘iga asosan, 1997-yil 1-yanvardan boshlab yuridik shaxslarning hisobvaraqalari, qarzdorlik bo‘yicha (1-NN) va soliq va tushumlar bo‘yicha (1-N) ko‘rinishdagi hisobotlar ko‘rsatilgan qonun hujjatlariga asosan faqatgina kompyuterda yuritish belgilanganligi uchun ushbu hisobotlarni kompyuterda yuritish bo‘yicha dasturiy mahsullar ishlab chiqarilgan edi. Hozirgi kunda bu ko‘rinishdagi hisobotlarni yuritish bo‘yicha ishlab chiqarilgan dasturiy mahsullar ham yangi versiyalarga almashtirildi (“Davlat byudjeti va maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini yuritish” dasturiy majmuasi, “Yuridik shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish” dasturiy mahsuli).

Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 23-avgustdagi 181-sonli “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan axborot-kommuni-

katsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari to‘g‘risidagi nizom, bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reyestri tasdiqlangan.



Interaktiv xizmatlar ko‘rsatishdan maqsad, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish vositasida jismoniy va yuridik shaxslar bilan tezkor o‘zaro hamkorligini ta‘minlash, shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan keng foydalanishini ta‘minlashdan iboratdir.

Hozirgi kunda Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarga interaktiv xizmat turlari joriy etilgan va ular rasmiy www.my.soliq.uz web portalida joylashtirilgan.

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan joriy etilgan interaktiv xizmatlardan foydalanish uchun barcha soliq to‘lovchilarga keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratilgan.

1.1-jadval

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlari turlari

	<p>Soliq organlari haqida Davlat soliq qo‘mitasining maqomini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat soliq qo‘mitasi tuzilmasi, rahbarlar tarkibi, funksiyalari, vazifalari, vakolatlari hamda asosiy faoliyati -Davlat soliq xizmati organlarining tuzilmasi, tarkibi, funksiyalari va asosiy faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etish -Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslari to‘g‘risida ma’lumot taqdim etish -Davlat soliq xizmati organlariga ishga kirish uchun elektron rezyume qabul qilish</p>
	<p>Jismoniy va Yuridik shaxslarning murojaatlari Mazkur xizmat jismoniy va yuridik shaxslarni davlat soliq xizmati organlariga murojaatlarini jo‘natish uchun mo‘ljallangan. Xat yozish va jo‘natish uchun elektron raqamli imzoga ega bo‘lish kerak. Mazkur</p>

	<p>xizmat yordamida yuborilgan murojaat soliq organlari tomonidan rasmiy deb qabul qilinadi va belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> -Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan murojaatni yuborish -Yagona portal orqali murojaatni yuborish -Kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish ahvoli yuzasidan ma’lumot taqdim etish
	<p>Elektron qabulxona O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Raisi, Rais o‘rinbosarlari, markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, hududiy davlat soliq xizmati organlari rahbarlari qabuliga yozilish imkoniyatini taqdim etish.</p> <ul style="list-style-type: none"> -Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslari qabuliga yozilish -Davlat soliq xizmati organlari rahbarlari qabuliga Yagona portal orqali yozilish
	<p>Normativ-huquqiy hujjatlar</p> <p>Soliqqa tortish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar, soliqqa tortish masalalariga taaalluqli O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan ma‘muriy hujjatlar, soliq organlari tomonidan boshqa vazirliklar bilan birga ishlab chiqilgan ma‘muriy hujjatlar, soliqqa tortish bo‘yicha boshqa normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida ommabop ma’lumot taqdim etiladi</p>
	<p>Soliq organlarining rasmiy tushuntirishlari</p> <p>Ushbu xizmat orqali soliq to‘lovchilarning soliq solish masalalariga oid murojaatlari va ularga davlat soliq xizmati xodimlari tomonidan beriladigan rasmiy javoblari taqdim etiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning murojaatlari asosida berilgan rasmiy tushuntirishlarini taqdim etish - Ko‘p uchraydigan savollarga javob berish - Soliq nizolari yuzasidan qabul qilingan Ekspert kengashi qarorlarini taqdim etish



Tekshirish reja-jadvalidan ko'chirmalar

Yuridik shaxslar uchun. Yuridik shaxs-soliq to'lovchining «Shaxsiy kabinetida»da ERI mavjud bo'lgan taqdirda, mazkur yuridik shaxs uchun so'rov bo'yicha nazorat qiluvchi organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar tekshiruv reja-jadvalidan tegishli davr uchun ko'chirma taqdim etiladi. Ushbu ko'chirmada belgilab berilgan davrda tekshiruvlar reja-jadvalida tashkilotning mavjudligi (yoki mavjud emasligi), tekshiruvni o'tkazish muddatlari hamda tekshiruvda ishtirok etayotgan nazorat qiluvchi organlar ro'yxati haqida ma'lumot beriladi.

-Yuridik shaxs uchun tekshirish reja-jadvalidan ko'chirmalar taqdim etish

-Nazorat qiluvchi organ uchun tekshirish reja-jadvalidan ko'chirmalar taqdim etish



Byudjet bilan o'zaro hisob-kitoblar Soliq qarzi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma berish



Yuridik shaxslar uchun. Yuridik shaxs-soliq to'lovchining «Shaxsiy kabinetida»da ERI mavjud bo'lgan taqdirda, belgilab berilgan davrda shakllantirilgan solishtirish dalolatnomalari, shuningdek, mazkur yuridik shaxs uchun istalgan hisobot davriga soliq va to'lovlar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqqartochkalaridan nusxa ko'rinishida byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar bilan o'zaro hisob-kitoblar to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi.


- Yuridik shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha shaxsiy kartochkalaridan nusxa berish





- Yuridik shaxslarga solishtirma dalolatnomalarini taqdim etish





- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha to'lov topshiriqnomasini shakllantirish






- Yuridik shaxsning soliq qarzi to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etish




	<ul style="list-style-type: none"> - Yuridik shaxsning asosiy bank hisob raqamini yopish uchun soliq qarzi yo‘qligi to‘g‘risida ma’lumotnoma taqdim etish - Yuridik shaxsning ortiqcha to‘langan soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlarini hisobga olish va qaytarish
	<p>Byudjet bilan o‘zaro hisob-kitoblar Soliq qarzi mavjud emasligi to‘g‘risida ma’lumotnoma berish Jismoniy shaxslar uchun. Jismoniy shaxs-soliq to‘lovchining «Shaxsiy kabinetida mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, xususiy tadbirkorlarning soliqlari bo‘yicha berilgan sanaga shakllantirilgan shaxsiy kartochkalarining nusxalari ko‘rinishida o‘zaro hisob-kitoblar to‘g‘risida shaxsiy ma’lumot taqdim etiladi. ERI mavjud bo‘lgan taqdirda, soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha solishtirish dalolatnomalarini avtomatik tarzda shakllantirish amalga oshiriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Jismoniy shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha shaxsiy kartochkalaridan nusxa berish - Jismoniy shaxslarga solishtirma dalolatnomalarini taqdim etish - Jismoniy shaxslarning soliqlarni to‘lash bo‘yicha to‘lov kvitansiyasini shakllantirish - Jismoniy shaxsning soliq qarzi to‘g‘risidagi ma’lumotni taqdim etish - Yakka tartibdagi tadbirkorning asosiy bank hisob raqamini yopish uchun soliq qarzi yo‘qligi to‘g‘risida ma’lumotnoma taqdim etish - Yakka tartibdagi tadbirkorning ortiqcha to‘langan soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlarini hisobga olish va qaytarish
	<p>Jismoniy shaxslar soliqlari bo‘yicha maslahatchi Jismoniy shaxslar uchun. Mazkur xizmat orqali jismoniy shaxslar yer va mol-mulk solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha</p>

	<p>qat'iy belgilangan soliqlar to'lash muddatlari, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Jismoniy shaxslarning soliqlari bo'yicha maslahatchi - Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori - Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori - Jismoniy shaxslarning yer solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori - Jismoniy shaxslarning suv resurslaridan foydalanish solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori - Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq va sug'urta badalini hisoblash elektron kalkulyatori - Uchastka davlat soliq inspektorlari to'g'risida ma'lumot berish
	<p>Elektron soliq hisobotlari</p> <p>Yuridik shaxslar uchun. ERI bilan tasdiqlangan elektron hujjat ko'rinishidagi soliq hisob-kitoblari va moliyaviy hisobotni qog'ozdagi nusxalarini olmagan holda soliq to'lovchilar tomonidan avtomatlashtirilgan holda shakllantirish, jo'natish hamda davlat soliq xizmati organlari tomonidan qabul qilish.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Soliq solishning umumbelgilangan tartibini qo'llagan yuridik shaxslarning soliq hisobotini yuborish - Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llagan yuridik shaxslarning soliq hisobotini yuborish - Yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlarini yuborish - Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga ajratmalar bo'yicha soliq hisobotlarini yuborish

	<p>Elektron soliq deklaratsiyalari Jismoniy shaxslar uchun. ERI bilan tasdiqlangan elektron hujjat ko‘rinishidagi soliq deklaratsiyalarini qog‘ozdagi nusxalarini olmagan holda soliq to‘lovchilar tomonidan avtomatlashtirilgan holda shakllantirish, jo‘natish hamda davlat soliq xizmati organlari tomonidan qabul qilish.</p>
	<p>Yakka tartibdagi tadbirkorlarning elektron h‘isobotlari Mazkur xizmat yakka tartibdagi tadbirkorlardan hisobotlarni elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash uchun qaratilgan.</p>
	<p>Soliq to‘lovchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish - STIRni aniqlash</p> <ul style="list-style-type: none"> - Soliq to‘lovchilarni hisobga olish - Yuridik shaxslarning ro‘yxatga olish ma‘lumotlarini taqdim etish - Jismoniy shaxslarning ro‘yxatga olish ma‘lumotlarini taqdim etish - STIRni aniqlash va guvohnomasini shakllantirish - Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni hisobga olish bo‘yicha elektron arizalarni qabul qilish
	<p>Tovarlarni olib keluvchi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish “Tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo‘lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni internet tarmog‘i orqali davlat ro‘yxatidan o‘tkazish” interaktiv davlat xizmati O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladi, unda tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo‘lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish internet tarmog‘i orqali amalga oshiriladi.</p>

	<p>Tashqi iqtisodiy faoliyatni olib boruvchi soliq to'lovchilarning arizalari</p> <ul style="list-style-type: none"> - Erkin muomaladagi valyutaga eksport qilinganda imtiyoz va preferensiyalar berilishining asoslanganligi bo'yicha ariza-ma'lumotnoma qabul qilish - Chet elda ochilgan hisob raqamlardagi mablag'lar harakati bo'yicha axborot qabul qilish - Valyuta tushumiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotnoma qabul qilish
	<p>Kichik biznes toifasiga mansubligi to'g'risidagi ma'lumotnoma berish</p> <ul style="list-style-type: none"> -Soliq solish tartibini belgilash bo'yicha xulosalar berish -Yagona soliq to'lovini to'lash muddatini uzaytirish yuzasidan arizalarni qabul qilish -Kichik biznes toifasiga mansubligi haqida ma'lumotnoma taqdim etish
	<p>Rezidentligini tasdiqlash</p> <p>Interaktiv xizmatidan foydalanganda, davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar o'rtasida tuzilgan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish bo'yicha xalqaro Kelishuv qoidalarini qo'llash maqsadida murojaat qilgan yuridik yoki jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlari ekanliklarini tasdiqlab beradi.</p> <p>Xizmatdan foydalanish uchun elektron raqamli imzo bo'lishi shart.</p>
	<p>Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini ro'yxatdan o'tkazish</p> <p>Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ro'yxatdan o'tkazish</p>

	<p>Soliq tekshiruvi natijalari Jismoniy shaxslar uchun. Jismoniy shaxs-soliq to'lovchining «Shaxsiy kabinetida» ERI mavjud bo'lgan taqdirda, xususiy tadbirkorlarning soliq tekshiruvlari natijalari to'g'risida shaxsiy ma'lumot taqdim etiladi.</p>
	<p>QQS to'lovchilari Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar to'g'risida Soliq kodeksi bilan ruxsat berilgan ma'lumotlarni elektron ko'rinishida taqdim etish.</p>
	<p>Kontragent haqidagi ma'lumot Soliq to'lovchilar so'roviga asosan ular haqidagi ma'lumotlarni boshqa soliq to'lovchilarga taqdim etish. «Kontragent haqida ma'lumot» interaktiv xizmati soliq to'lovchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda biznes-hamkorlar o'rtasida o'zaro ishonchni oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.</p>
	<p>O'z biznesingni yarat Interaktiv davlat xizmatini ko'rsatishdan maqsad, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagidagi yuridik va jismoniy shaxslarga zarur ma'lumotlar berish, ularga qulay shart-sharoit yaratish hamda ko'rsatilayotgan axborot xizmatlari sifatini oshirishdan iborat. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagidagi yuridik va jismoniy shaxslar uchun o'z biznesini yaratish, yuritish, qayta tashkil qilish va tugatishga oid tegishli ma'lumotlar joylashtiriladi.</p>
	<p>Imtiyozlar ma'lumotnomasi Soliq to'lovchi yuridik shaxslarning soliq imtiyozlari to'g'risida axborot taqdim etish. Mazkur xizmat Davlat soliq qo'mitasining www.soliq.uz rasmiy saytida soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlari to'g'risidagi axborotlarni taqdim etishga qaratilgan.</p>

	<p>Soliq nizolarini ko‘rib chiqish Mazkur xizmat orqali soliq solish qonunchiligini amalda qo‘llash jarayonida soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasida yuzaga kelgan o‘ta murakkab va munozarali masalalar hamda ushbu nizoning yechimi yuzasidan Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Ekspert kengashi qarorlari taqdim etiladi.</p>
	<p>Ko‘p uchraydigan savollar Mazkur xizmat orqali jismoniy va yuridik shaxslar soliq solish masalalariga oid eng ko‘p uchraydigan savollar va ularga berilgan javoblar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.</p>
	<p>STIRingizni aniqlang Jismoniy shaxslar uchun. Soliq to‘lovchiga o‘zining soliq to‘lovchining individual raqami (STIR)ni bilish imkoni taqdim etiladi. Soliq to‘lovchi (jismoniy shaxs) DSIda ro‘yxatdan o‘tkazish amalga oshiriladigan ro‘yxatdan o‘tkazish hujjatlari, ayrim faoliyat turlari bilan shug‘ullanish uchun litsenziyalar, shuningdek pul-hisob-kitob to‘lov hujjatlarida o‘z STIRni aniq yozishi shart. Soliq to‘lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida, Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan «STIRingizni aniqlang» yangi interaktiv xizmati joriy etilgan va har bir jismoniy shaxs uchun o‘z STIRini mustaqil ravishda aniqlab olish imkoniyati yaratilgan.</p>

DSQning 2005-yil 5-avgustda “Davlat soliq xizmati organlarida avtomatlashtirilgan kompyuter dasturiy mahsullarni amalga joriy etish to‘g‘risida”gi 148-sonli buyrug‘iga asosan joriy qilingan dasturiy mahsullar

Soliq organlarini tashkil etishning butun tizimida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, soliqqa oid ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan holda qayta ishlash bo‘yicha kompyuter dasturiy mahsullarini amalga joriy etish maqsadida DSQning 2005-yil 5-avgustda “Davlat soliq xizmati organlarida avtomatlashtirilgan kompyuter dasturiy mahsullarni amalga

joriy etish to‘g‘risida”gi 148-sonli buyrug‘i chiqdi. Buyruqda O‘zbekiston Respublikasi DSQ da ishlab chiqilayotgan dasturiy mahsullar bo‘yicha tuzilgan mas’ul ishchi guruh a’zolarining ro‘yxati hamda dasturiy mahsullar texnik topshiriqlarini ishlab chiqish, dasturiy mahsullarni ishlab chiqish va quyida keltirilgan dasturiy mahsullarni tajribaviy ishga tushirish muddatlari belgilab berildi.

Davlat soliq qo‘mitasining 2011-yil 1-martdagi “Davlat soliq qo‘mitasida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarni **WEB texnologiyasi** asosida takomillashtirish, ma’lumotlar bazasini Oracle platformasiga o‘tkazish va umumlashtirish chora-tadbirlar rejasi”ga muvofiq, hamda 2012-yil 11-fevraldagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarning ma’lumotlar bazasini shakllantirish va ulardan foydalanishni tartibga solish hamda interaktiv Davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha reglamentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 64-sonli buyrug‘iga asosan Davlat soliq xizmati organlarida joriy etilgan dasturiy mahsullarni takomillashtirish va birlashtirilishi natijasida dasturiy mahsullar joriy qilindi. Shuningdek, Davlat soliq qo‘mitasining 2015-yil 12-iyuldagi “Davlat soliq xizmati organlarida axborot tizimlarini ishlab chiqish, ularning toifasini belgilash, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda axborot tizimlarini topshirish va qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqidagi 226-sonli buyrug‘iga asosan quyidagi dasturiy mahsullar joriy qilindi.

1.2-jadval

Soliq solish bazasini kengaytirish, qo‘shimcha soliq solish obyektlarini aniqlash, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, soliqdan qochish va shu kabi qo‘shimcha manbalarni aniqlashga xizmat qiluvchi dasturiy mahsullar ro‘yxati

1.	«Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-4)» dasturiy majmuasi
2.	«Qayta ishlash va tahlil» dasturiy mahsuli
3.	«To‘lovlar monitoringi» dasturiy mahsuli
4.	«Eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish» dasturiy mahsuli
5.	«Soliq to‘lovchilarning egaligidagi yer fondi (STEYEF)» dasturiy mahsuli
6.	«Tahlika tahlil» («Risk analiz») dasturiy mahsuli
7.	«Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy majmuasi
8.	«Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuli

9.	«Bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik yig'img'lar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haqlar va ijara to'lovlari hisobini yuritish va nazorat qilish» dasturiy mahsuli
----	---

Barcha qayd etilgan dasturiy mahsullar soliq tizimining barcha bosqichlarida muvaffaqiyat bilan qo'llanilib kelinmoqda hamda mutaxassislar tomonidan yuzaga kelayotgan o'zgarishlar e'tiborga olinib, takomillashtirilib borilmoqda.

1.3-jadval

Ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ro'yxatga olish, soliq to'lovchilar va soliq obyektlari hisobini yuritish hamda statistik ma'lumotlarni tayyorlash ish jarayonini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ro'yxati

1.	«Davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini yuritish (1-N)»
2.	«Bank-DSQ»
3.	«Jamg'arib boriladigan pensiya badali kunlik tushumlarini qayta ishlash»
4.	«Kompyuter texnikasini hisobga olish tizimi»
5.	«Davlat soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarni fiydalanish darajasini aniqlash»
6.	«Davlat soliq xizmati organlarida interaktiv xizmatlar ko'rsatish bo'yicha mas'ul hodimlar hisobini yuritish»
7.	«Soliq to'lovchilar tarixi»
8.	«Interaktiv xizmatlardan foydalanish statistikasi»
9.	«Yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish»
10.	«Soliq qarzini yuritish hisoboti »
11.	«Yuridik shaxslar imtiyozlari hisobini yuritish»
12.	«Elektron tarzda yuborilgan hisobotlarini qabul qilish (WEFOINS)»
13.	«Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalarini tugatish tartibi»
14.	«Yuridik shaxslar bo'yicha statistik ma'lumot»
15.	«Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini aniqlash»
16.	«Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish»
17.	«Yakka tartibdagi tadbirkorlardan hisobotlarni elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash»
18.	«Davlat boji»
19.	«Soliq to'lovchi jismoniy shxslar haqida ma'lumot»

20.	«Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish»
21.	«Tekshiruvchi hodimlarning xizmat safari hisobini yuritish »
22.	«Nazorat kassa mashinalarini ro'yxati va nazoratini olish»
23.	«Naqd pul tushumlari hisobini yuritish»
24.	«Ma'muriy amaliyotni hisobga olish»
25.	«Moliyaviy sanksiyalarni sud tartibida qo'llash to'g'risida davlat soliq xizmati organlarining murojaatlari va ularning natijalari hisobini yuritish»
26.	«Tekshirishlarni muvofiqlashtirish»
27.	«Ichki idoraviy hujjatlar elektron axborot tizimi»
28.	«Hujjatlar bajarilishini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi»
29.	«Kadrlarga oid ma'lumotlar bazasi»
30.	«Quyi davlat soliq xizmati organlari faoliyatini masofadan turib nazorat qilish tizimi»

Yuqorida qayd etilgan dasturiy mahsullar soliq tizimining barcha bosqichlarida, shu jumladan, soliq tizimi o'quv muassasalarining o'qitish tizimini takomillashtirish maqsadida DSQ ning 2007-yil 29-iyundagi 153-sonli buyrug'iga asosan o'quv jarayoniga joriy qilindi. O'quv jarayonida bo'lg'usi mutaxassislar soliq tizimida axborotlarni ishlash va tahlil qilishning yagona kompyuter tizimida ishlatiladigan dasturiy mahsullarni ishlatish texnologik jarayonlarini o'rganadilar. Shu bilan biralikda, tizimning ma'lumotlar bazasidagi axborotlardan foydalanish hamda SIAIJa ishlash asoslarini o'rganib, hamda kelajakda bu dasturiy mahsullardan erkin foydalana olish imkonini beradigan bilimlar olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. "Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish" fanini o'qitish nima uchun kerak?
2. "Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish" fani nimani o'rgatadi va uning qanday vazifalari bor?
3. "Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish" fanining qanday o'rganish usullari mavjud?

4. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanining mazmunida nimalarni o‘rgatish maqsadi yotadi va uning mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi roli qanday?

5. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanini o‘qitishda soliq xizmati organlari axborot tizimi tarkibidagi asosiy dasturiy mahsullarni qo‘llash tartibini o‘rganishning ahamiyati nimadan iborat?

6. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan qanday interaktiv xizmatlari turlari mavjud?

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR VA ULARNING AHAMIYATI

2.1. Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlar va ularni guruhlariga ajratilishi

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig‘indisi jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bunday shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmaganlar va chet el davlatlari fuqarolari kiradi. Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarining 20-25 foizini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z daromadidan olinadi. Ular to‘laydigan soliqlar va yig‘imlar asosan byudjetga naqd pul to‘lash yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda, jismoniy shaxslar o‘z daromadlaridan, mol-mulkidan va egallab turgan yerlaridan turli xil soliqlar hamda yig‘imlar to‘laydilar.

Jismoniy shaxsning huquq layoqati – bu fuqarolik huquqlari, burchlariga ega bo‘lishi tushuniladi. Yuridik me‘yorlarga muvofiq bu layoqat 18 yoshda, ya‘ni fuqaro balog‘at yoshiga yetganda yuzaga keladi (F.K. - 22 modda).

Soliq tizimining asosi bo‘lgan soliqlar o‘ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko‘ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ularning obyektiga, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga ta‘sir etishiga, undirilish usullari, paydo bo‘lishiga (subyektiga), byudjetga yo‘naltirilishiga va boshqa belgilariga ko‘ra ularning tasniflanishidir.

Soliqlarni bunday tartibda guruhlarga ajratishdan maqsad ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funktsiya va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda davlat byudjetini doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta'minlashda, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'ymasdan faoliyat ko'rsatishi uchun soliqlarning har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil qilishdan iborat.

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki boshqacha qilib aytganda undirib olish manbaiga qarab ikki guruhga to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi. Soliqlarni belgilaydigan va ulardan tushgan mablag'ni tasarruf etishiga, ya'ni byudjetga o'tkazish nuqtayi nazaridan soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Shuningdek, soliqlar paydo bo'lish manbaiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga bo'linadi. Soliqlarning qayd etilgan guruhlarga ajratib o'rganishni alohida kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Soliqlarni obykti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona bojlari, yig'implari va boshqalar kiradi.

2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to'lovchi subyektlar tasarrufida mavjud bo'lgan mol-mulkdan, yerdan va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqlardan iborat.

3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va boshqalar kiradi.

2.2. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tizimida respublika byudjeti asosiy o'rinni egallaydi. U umumdavlat resurslarning bir qismini bevosita davlat hokimiyatining ijro etuvshi va farmoyish

beruvshi oliy organi – O‘zbekiston Respublikasi hukumatida markazlashuvni ta‘minlaydi. Markazlashgan resurslar umumdavlat ahamiyatga molik bo‘lgan, umuman olganda jamiyat manfaatlarini ifodalaydigan tadbirlarni (xalq xo‘jaligi ahamiyatidagi qurilishlarni, eng muhim ijtimoiy tadbirlarni, mudofaa, boshqaruv, tashqi iqtisodiy aloqalari, davlatning moddiy va moliyaviy zaxiralarni) mablag‘ bilan ta‘minlashga ishlatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjet tizimining muhim tarkibiy qismini mahalliy byudjetlar tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab ehtiyojlarni to‘laroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlar bilan muvofiqlashtirib borish imkonini beradi. Mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjet daromadlarining ko‘payishi va resurslarning tejankorlik bilan sarflanish tadbirlarini amalga oshiradi. Joylarda iqtisodiy va ijtimoiy yuksalish sur‘atlari mahalliy xo‘jalik salohiyatini safarbar qilish, mablag‘larni tejab ishlatish bilan bevosita bog‘liqdir. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muvaffaqiyatli bajarilishini ta‘minlaydi. Mahalliy byudjetlar hisobidan uy-joy kommunal xo‘jaligi va obodonlashtirish, maorif va sog‘liqni saqlash muassasalari (maktablar, kasalxonalar, maktabgasha tarbiya muassasalari va boshqalar), ijtimoiy ta‘minot sohasidagi tadbirlar mablag‘ bilan ta‘minlanadi.

Soliqlarning umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo‘linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo‘linishi xususiyatidan hamda soliq tushumlarining yo‘nalishidan kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o‘zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o‘z byudjetiga va uni ta‘minlaydigan manbalarga ega bo‘lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat ko‘lamida juda katta vazifalarni: mudofaa, xavfsizlikni saqlash, tartib intizom o‘rnatish, bozor infratuzilmasini yaratish, mehnatkashlarning ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator yumushlarni bajaradi. Shuning uchun uning byudjeti ham, soliqlari ham salmoqli bo‘lishi shart. Umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo‘yicha tegishli byudjetlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Mahalliy soliqlar – mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalarga qarab belgilanib, ularga doimiy va to‘liq biriktirib berilgan. Mahalliy hukumatlar asosan mehnatkashlarga yaqin bo‘lganligidan ular ijtimoiy masalalarni: maktab, sog‘liqni saqlash, madaniyat, maorif, shaharlar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va yig‘imlar ularning byudjet xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini ko‘paytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Faqat o‘z daromad manbaiga to‘liq ega bo‘lgan mahalliy hokimiyatlar o‘z faoliyatlarini to‘liq amalga oshirishlari mumkin. Aks holda har xil moliyaviy kamchiliklarga yo‘l qo‘yish ehtimoli bor.

Mahalliy byudjetlarning soliq va yig‘imlari kam bo‘lganligidan bu byudjetlarning daromad va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir.

Mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar O‘zbekiston Respublikasi hududidagi yuridik va jismoniy shaxslar mahalliy soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadilar.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning byudjetda tutgan salmog‘i hozirda 20-25 foizni tashkil etmoqda. Jismoniy shaxslar umumdavlat va mahalliy soliqlarni to‘laydilar. Bu soliqlarni hisoblab shiqarish va to‘lash tartiblari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda jismoniy shaxslar o‘z daromadlaridan, mol-mulkidan va egallab turgan yerlaridan soliqlar hamda yig‘imlar to‘laydilar.

Soliqlar va yig‘imlar yordamida davlat ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, tadbirkorlikning ustuvor turlarini rag‘batlantirish orqali eng zarur ijtimoiy muammolarni hal qilish dolzarb masalaga aylanib qoldi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar ikki turga:

- umumdavlat soliqlari;
- mahalliy soliqlarga bo‘linadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq;
- tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i;

- O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qiluvchi jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan aksiz solig‘i;

- yer qa‘ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa‘ridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- davlat boji;

- yagona ijtimoiy to‘lov.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga quyidagilar kiradi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im.

Jismoniy shaxslar tomonidan olinadigan daromad solig‘i.

Jismoniy shaxslarning ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlari proporsional stavkada soliqqa tortiladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan olinadigan daromadlar tarkibiga:

-mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar;

-mulkiy daromadlar;

-moddiy naf tarzidagi daromadlar;

-boshqa daromadlar kiradi.

2.1-jadval

Davlat byudjeti daromadlari tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining dinamikasi²

(mln so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%	Summa	%
Davlat byudjetining jami solikli daromadlari (maqsadli jamg‘armalarsiz)	36184,9	100	40505,8	100	44469,6	100	62229,5	100
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	3648,8	10,1	4040,4	10,0	4476,1	10,1	5198,8	8,4

² Byudjet parametrlari to‘grisidagi Prezident qarorlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami solikli tushumlarga nisbatan daromad solig'ining salmog'i 2015-yilda 10,1 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 10 %ni, 2017-yilda 10,1 %ni tashkil etgan, 2018-yilga kelib 8,4 foizni tashkil etgan. Bu yerda shuni ko'rish mumkinki, davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i kamayish tendensiyasiga ega. Bu jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq stavkalarining kamaytirilishi bilan izohlanadi.

Respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo'nalishi soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha choralar ko'rilishiga qaratilgandir. Xususan, keyingi yillarda mamlakatimizdagi bir qator soliq stavkalari ahamiyatli darajada pasaytirilib borilmoqda.

Quyidagi 2.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, oxirgi to'qqiz yil mobaynida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari 2010-yilda 11;17;22 foiz qilib belgilangan edi. 2011-yilda EKIXning 5-barobarigacha qilib belgilanib, uning stavkasi 10;16;22 foiz, 2012-yildan 9;16;22 foiz, 2013-yildan 8;16;22 foiz va 2014-yildan 7,5;16;22 foiz qilib belgilangan edi. 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashda eng kam ish haqining bir baravarigacha "0" darajali stavkani nazarda tutuvchi to'rt pog'onali (2014-yilda 3 pog'onali bo'lgan) soliq stavkalarini qo'llash tartibi joriy etildi. Bunda, soliq stavkalari daromadning boshqa guruhlari bo'yicha 2014-yil stavkalariga nisbatan bir foizli punktga oshirilib 8,5;17;23 foiz belgilandi. 2016-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari 0;7,5;17;23 foiz qilib belgilandi. 2017-yilda mos ravishda 0;7,5;17;23 foizli stavkalari amal qildi. 2018-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari 0;7,5;16,5;2,5 foiz qilib belgilandi.

**Respublikamizda jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning
soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi, (%)³**

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	11 17 22	10 16 2	9 16 22	8 16 22	7,5 16 22	0 8,5 17 23	0 7,5 17 23	0 7,5 17 23	0 7,5 16,5 22,5
2	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,5	0,75 0,9 1,13	0,9 1,1 1,35	1,04 1,25 1,55	1,2 1,4 1,8	1,3 1,6 2,2	1,5 1,8 2,5 1,8	1,7 2,1 2,9 2,1	0,2 0,25 0,35 0,25
3	Fuqarolarning Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari	4,0	4,5	5,5	6,0	6,5	7,0	7,5	8,0	8,0

³ Byudjet parametrlari to'g'risidagi Prezident qarorlari asosida tayyorlandi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2008-2010 yillarda 0,5 foizni, 2015-yilda turar joylar, kvartiralar (shaharda joylashgan umumiy maydoni 200 kv metrdan yuqori bo'lganlardan tashqari), dala hovli, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar uchun - 1,6 foiz;

Shaharda joylashgan turar joylar, kvartiralarning umumiy maydoni:

200 kv metrdan 500 kv metrgacha bo'lgan – 1,6 foiz;

500 kv metrdan yuqori bo'lgan – 2,2 foiz qilib belgilandi.

2018-yil 1-yanvardan boshlab, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari mol-mulkning kadastr qiymatidan belgilandi (*2017- yilda mol-mulkning inventarizatsiya qiymatidan*):

- turar joylar, kvartiralar, dala-hovli qurilmalari (umumiy maydoni 200 kv m dan oshiq bo'lganlari bundan mustasno), boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar uchun **0,2 foiz** miqdorida (*2017- yilda 1,7% edi*);

- shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni 200 kv metrdan 500 kv metrgacha bo'lgan turar joy va kvartiralarga **0,25 foiz** miqdorida (*2017- yilda 2,1% edi*);

- maydoni 500 kv metrdan oshiq bo'lgan turar joy va kvartiralar uchun esa **0,35 foiz** miqdorida (*2017- yilda 2,9% edi*);

- boshqa aholi punktlarida joylashgan umumiy maydoni 200 kv metrdan oshiq bo'lgan turar joy va kvartiralar, dala hovli qurilmalari uchun **0,25 foiz** miqdorida (*2017- yilda 2,1% edi*) belgilandi.

O'zbekiston Respublikasida yerga egalik qilish va yerdan foydalanish pullidir. Yer uchun haq yillik yer solig'i sifatida undiriladi. «Yer to'g'risida»gi qonunga muvofiq, yerga egalik qiluvchi yoki undan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar yillik yer solig'i to'laydilar. Uning hajmi mazkur uchastkadagi yer sifatiga, qayerda joylashganiga hamda suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanadi.

O'zbekiston soliq qonunchiligida yerlar o'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida degan tushunchalar mavjud. Amaliyotda esa jismoniy shaxslar yerlari tomorqa yerlari va qo'shimcha, ya'ni tashqaridan olingan yerlarga bo'linadi.

2.3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, umumiy tushumga nisbatan yer solig'ining salmog'i 2015-yilda 2,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 2,1 %ni, 2017-yilda 2,5 %ni ko'rsatib turibdi. Bu ko'rsatkich esa 2018- yilga kelib 2,0 %ni tashkil etgan.

Yer solig'i stavkalari har yili yangi yil uchun byudjet parametrlari tasdiqlanayotganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

belgilanadi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarga belgilangan tartibda yetkaziladi.

Byudjet daromadlarida yer solig‘ining dinamikasini tahlil qilganimizda ushbu soliqning har yili absolyut summada o‘sib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu holatga yer solig‘i bo‘yicha soliq stavkalarining har yili qaytadan indeksatsiya qilinayotgani va qo‘shimsha soliqqa tortiladigan yer obyektlarining aniqlanayotganligi bilan izohlaymiz.

2.3-jadval

**Davlat byudjeti daromadlari tarkibida
yer solig‘ining dinamikasi⁴**

(mln so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%	Summa	%
Davlat byudjetining jami solikli daromadlari (maqsadli jamg‘armalarsiz)	36184,9	100	40505,8	100	44469,6	100	62229,5	100
Yer solig‘i	929,6	2,6	873,5	2,1	1102,5	2,5	1266,6	2,0

Yer uchastkasi jismoniy shaxsga ajratilgandan so‘ng yerning sifati soliq to‘lovchi jismoniy shaxsning aybi bilan yomonlashganda soliq yil boshida belgilangan (ya‘ni yer ajratilgan davrdagi) stavka bilan hisoblab chiqariladi va undiriladi. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq to‘lovchilarning hisobi davlat soliq xizmati organlari har bir yilning 1-yanvardagi holati bo‘yicha davlat kommunal xo‘jalik organlari (texnik inventarlash byurolari)da mavjud bo‘lgan imoratlar va mol-mulk egalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga binoan amalga oshiriladi. Mulkchiligida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo‘lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar hisoblanadi.

Quyidagi 2.4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, umumiy tushumga nisbatan mol-mulk solig‘ining salmog‘i 2015-yilda 4,7 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilda 4,6%ni, 2017-yilda 4,5 %ni ko‘rsatib turibdi. Bu ko‘rsatkich esa 2018- yilga kelib 3,5 %ni tashkil etgan. Byudjet daromadlaridagi salmog‘i kamayish tendensiyasiga ega.

⁴ Byudjet parametrlari to‘g‘risidagi Prezident qarorlari asosida tayyorlandi.

**Davlat byudjeti daromadlari tarkibida
mol-mulk solig'ining dinamikasi⁵**

(mlrd so'mda)

Ko'rsatkichlar	2015-yil		2016-yil		2017-yil		2018-yil	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%	Summa	%
Davlat byudjetining jami solikli daromadlari (maqsadli jam-g'armalarsiz)	36184,9	100	40505,8	100	44469,6	100	62229,5	100
Mol-mulk solig'i	1716,7	4,7	1874	4,6	1988,8	4,5	2158,9	3,5

Byudjet daromadlarida mol-mulk solig'ining salmog'ini tahlil qilganimizda ushbu soliqning har yili absolyut summada o'sib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu holatga mol-mulklar inventarizatsiya baholarining indeksatsiya qilinayotgani va qo'shimcha soliqqa tortiladigan mol-mulk obyektlarining hisobga olinayotganligi sabab bo'lmoqda.

**2.3. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan
to'g'ri va egri soliqlarning tarkibi va ularning byudjet
daromadlaridagi ahamiyati**

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarga bo'linadi. Bevosita soliqlarni to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalar zimmasiga yuklatish holati bu yerda bo'lmaydi. Bu soliqlar tarkibiga barcha daromaddan to'lanadigan soliqlar va mol-mulk (resurs) soliqlari kiradi.

Bevosita soliqlardan to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari oshirilsa, korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari kamaya boradi va oxir-oqibatda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir

⁵ Byudjet parametrlari to'g'risidagi Prezident qarorlari asosida tayyorlandi.

ko'rsatadi. Demak, bu guruh tarkibiga kiruvchi soliqlarning stavkalari to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog'liqdir.

Bilvosita soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin, soliq og'irligini haqiqatdan ham byudjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni bilvosita soliqlarning barchasi bevosita iste'molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo'shimcha ravishda qo'yiladi.

Bilvosita soliqlarning ijobiy tomoni shundaki, ular respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni respublikadan tashqariga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlarning serob bo'lishiga yordam beradi hamda inflyatsiya darajasini (muomaladagi ortiqcha pul massasini) birmuncha jilovlab turadi. Bilvosita soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi ilmiy asoslanmasdan oshirib yuborilsa bunday holatda korxonalar o'z tovarlarini sotish qiyinchiligiga duch kelishlari mumkin.

Jahon soliq amaliyotida Davlat byudjeti daromadlari tarkibida bevosita va bilvosita soliqlarning nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga baho berish mumkin. Masalan, AQShda byudjet daromadlari tarkibida bevosita soliqlar salmog'ining 90 foizga yaqin bo'lishi bu mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Quyidagi 2.5-jadvalda O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida bevosita soliqlarning tarkibi va undagi o'zgarishlar ko'rib chiqilgan.

Keltirilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, 2012-2017 yillar mobaynida bevosita soliqlarning mamlakat davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i o'zgaruvchan tendensiyasiga ega. Bu esa, xalqaro byudjet amaliyotida shakllangan tendensiyalar nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Chunki, mazkur tendensiyalarga muvofiq, bozor iqtisodiyoti sharoitida bevosita soliqlarning davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i barqaror tarzda saqlab turilishi yoki o'sish tendensiyasiga ega bo'lishi lozim.

2.5-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari
tarkibida bevosita soliqlarning o‘rni⁶**

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar							2018-yilda 2012-yilga nisbatan o‘zgarishi, punktda
		2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	
1.	Daromadlar (maqsadli jamg‘armalardan tashqari) jami	100	100	100	100	100	100	100	X
2.	Shu jumladan: bevosita soliqlar	26,6	26,1	26,2	23,6	23,0	24,0	20,6	-6,0

Bilvosita soliqlar tarkibiga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, bojxona boji, benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun soliqlari kiradi.

2012-2018 yillar mobaynida bilvosita soliqlarning O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

2.6-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibida
bilvosita soliqlarning o‘rni⁷ (foizda)**

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar							2018-yilda 2012-yilga nisbatan o‘zgarishi, punktda
		2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	
1.	Davlat byudjeti daromadlari –jami	100	100	100	100	100	100	100	X
	Shu jumladan: bilvosita soliqlar	49,5	53,1	53,5	52,9	55,1	54,6	53,7	+4,2

Mazkur tendensiyaning mavjudligi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning hozirgi holati nuqtayi nazaridan ijobiy hisoblanadi. Buning sababi shundaki, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-2017 yillardagi «O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qarorlari asosida tuzildi.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-2017 yillardagi «O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qarorlari asosida tuzildi.

iqtisodiy konyunkturaning o'zgarishlariga bevosita bog'liq bo'lmagan barqaror daromad manbalari hisoblanadi va bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlarning asosiy qismini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijtimoiy xarajatlarini o'sish tendensiyasiga ega ekanligi davlat byudjeti daromadlari hajmini uzluksiz oshirib borishni taqozo qiladi. Bu esa, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabi barqaror daromad manbalarini byudjet daromadlarining tarkibidagi yuqori salmog'ini ta'minlashni taqozo qiladi.

To'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimni tashkil etib, bir-biri bilan o'zaro bog'langandir.

Yevropa mamlakatlarida bilvosita soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida bilvosita soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi.⁸

2.4. Soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilar faoliyatiga oid dasturiy mahsullarni mohiyati va ahamiyati

Davlat soliq qo'mitasining 2011-yil 1-martdagi "Davlat soliq qo'mitasida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarni **WEB texnologiyasi** asosida takomillashtirish, ma'lumotlar bazasini Oracle platformasiga o'tkazish va umumlashtirish chora-tadbirlar rejasi"ga muvofiq, Davlat soliq xizmati organlarida joriy etilgan jismoniy shaxslarning faoliyatiga oid joriy etilgan dasturiy mahsullarning ma'lumotlar bazasi ajratilib, "Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi-jismoniy shaxslar" dasturiy majmuasiga birlashtirildi.

"Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish" va "Jismoniy shaxslarning soliq solish obyektlarini hisobga olish" dasturiy mahsullarining mazmun-mohiyati bir ekanligi, farqi esa faqat Toshkent shahrida obyektlarga tayanganligi, qolgan barcha DSIlarda fuqarolar STIRlariga bog'langanligini inobatga olib, ularni bir nom bilan, ya'ni

⁸ Пансков В.П., Князев В.Г. Налоги и налогообложения. М.: МТсФЭР, 2003. С. 57-59.

“Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlari” dasturiy mahsul deb yuritish maqsadga muvofiq deb topildi.

DSQ ning 2011-yil 24-sentyabrdagi “WEB texnologiyasi asosida qayta ishlab chiqilgan “Jismoniy shaxslarning soliq solish obyektlarini hisobga olish” hamda “Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy majmualarini davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etish to‘g‘risidagi 270-sonli buyrug‘iga asosan dasturiy majmua joriy etildi.

“Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy majmuasini joriy qilish maqsadlari.

“Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy majmuasini yaratishdan maqsad:

- mol-mulk, yer va yakka tartibdagi soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar to‘g‘risida (yashash manzili, soliq to‘lov obyekti, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi va hokazo) to‘liq ma’lumotlar bazasini yaratish;

- mol-mulk va yer solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarni to‘liq hisobga olishni, soliqlarni hisoblanishi va byudjetga o‘z vaqtida to‘liq undirilishini nazorat qilish; yakka tartibdagi tadbirkorlarning daromad solig‘idan, pensiya badallaridan hisoblangan va to‘langan to‘lovlar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish va nazoratini olib borish;

- uchastka soliq inspektorlarining ish samaradorligini oshirish, ro‘yxatga olish bilan bog‘liq bo‘lgan va o‘z hududidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha dasturiy mahsulda soliq to‘lovchilarning ro‘yxatini olib, nazorat ishlarini amalga oshirish;

- DSI larda shakllantirilgan ma’lumotlar bazasini mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo‘limlari, yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlari, harbiy komissariyatlar, hokimiyatlar huzuridagi ro‘yxatga olish organlari, fuqarolik holatlariga dalolatnoma yozish bo‘limlari (FHDYo), notarial idoralaridagi mavjud ma’lumotlar bilan doimiy bir xil bo‘lishiga erishishdan iborat.

Dasturiy majmuada ma’lumotlar bazasidan jismoniy shaxslarga taalluqli bo‘lgan barcha axborotlarni olish mumkin. Ya’ni:

- davlat soliq inspeksiyalarida hisobga olingan soliq to‘lovchilar, ularga tegishli bo‘lgan soliq obyektlari, hisoblangan soliqlar, to‘langan to‘lovlar, boqimanda va ortiqcha to‘lovlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- viloyat hududidagi soliq inspeksiyalari miqyosida hisobga olingan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar soni, hisoblangan soliq

summalari, undirilgan soliq summalari, boqimanda va ortiqcha to'lovlar to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar; soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga berilgan soliq imtiyozlari, berilgan imtiyoz turlari, imtiyoz berilgan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyat turlari, ularga hisoblangan soliq summalari, pensiya badallari, mavjud boqimandalari hamda ortiqcha to'lovlari to'g'risida umumiy ma'lumot;

- import tovarlarni olib keluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, ular to'g'risida batafsil ma'lumotlar;

- jismoniy shaxslarga egalik huquqi berilgan va tijorat maqsadida foydalanilayotgan xususiy obyektlar hamda ularni soliqqa tortilishi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- soliq to'lovchi jismoniy shaxsning varaqasi (alohida har bir jismoniy shaxsning pasport ma'lumotlari, yashash manzili, egalik huquqi berilgan mol-mulk obyektining inventar bahosi, yer maydoni, tadbirkorlik faoliyatiga tegishliligi hamda soliq majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar) kabi ma'lumotlarni olish mumkin.

Dasturiy majmua natijaviy ma'lumotlari asosida mol-mulk, yer solig'i to'lovchilar hamda yakka tadbirkorlar sonini o'tgan davrlarga nisbatan o'zgarish dinamikasini, sabablarini hamda ularning byudjetga to'lagan to'lovlari hajmidan kelib chiqib, o'zgarishlarni tuman, (shahar) DSI lar miqyosida nazorat qilish, imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxslar ro'yxatini doimiy ravishda tegishli idoralar bilan solishtirish hamda berilgan imtiyozlarning turlari, imtiyoz berilgan obyektlarning qiymati bo'yicha tegishli tartibda ko'rsatmalar berish imkoni tug'iladi.

Dasturiy majmua ma'lumotlari asosida jismoniy shaxslarga egalik huquqi berilgan va tijorat maqsadida foydalanilayotgan xususiy obyektlar soni dinamikasi hamda ulardan undirilgan soliqlar hajmidan kelib chiqib, o'zgarishlarni tahlil qilish, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalarida va DSI larda ro'yxatga olingan tadbirkorlarning faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasini doimiy tahlil qilib borishga imkon yaratiladi. Shuningdek, vakolatli idoralar bilan o'tkazilgan solishtirishlar natijasida qo'shimcha soliq obyektiga egalik huquqini qo'lga kiritgan jismoniy shaxslarni hisobga olinishi va soliqqa tortilish dinamikasini tahlil qilish, o'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlangan holatlar bo'yicha soliq qonunchiligiga

o'zgartirishlar kiritish va byudjet parametrlarini belgilash bo'yicha takliflar kiritish imkoni tug'iladi.

“Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy majmuasida ishlash texnologiyasi

Ma'lumki Respublikamiz soliq tizimida yuritilib kelinayotgan jismoniy shaxslar bilan ishlash bo'yicha bir qator dasturiy mahsullar yangi WEB texnologiyasi asosida qayta ishlab chiqilgan. “Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy majmuasi Respublikaning barcha hududiy Davlat soliq inspeksiyalari uchun yagona dasturiy majmua qilib belgilandi.

WEB texnologiyasi asosida qayta ishlab chiqilgan “Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy majmuasi (mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha 2009-yildan boshlab) Toshkent shahrining hududiy DSIlari uchun yagona dasturiy majmua sifatida amaliyotga kiritildi.

Dasturiy majmuaning afzalliklari shundaki, u yagona tizimga keltirilgan bo'lib, unda bajarilgan har qanday amal bir lahzaning o'zida markazlashgan tizimda shakllanadi.

Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyini sozlash

Dasturiy mahsulni sozlash uchun birinchi navbatda, kompyuterda **c:\WINDOWS\system32\drivers\etc\hosts** fayli F4 tugmasini bosish bilan ochiladi hamda bo'sh satrga Davlat soliq inspeksiyasining server kompyuterining IP adresini yozib, kamida bitta bo'sh joy tashlab, davomiga **fzklHHXX lan** (HH-viloyat kodi, XX-DSI kodi) yoziladi (SIAIJ-4 dasturdagi kabi).

Misol uchun, Qarshi tuman DSIni olsak, **10. 15. 82. xx** IP adresi hamda **fzkl1007 lan** bu yerda 10-Qashqadaryo viloyat DSB kodi, 07-Qarshi tuman DSI kodi hisoblanadi.

So'ng, Mozilla Firefox dasturiga kirib, manzil satriga **fzklHHXX lan** yozilib, ishga tushiriladi. (HH-viloyat kodi, XX-DSI kodi).

Dasturiy mahsulda **Ctrl+F5** tugmalarini birgalikda bosib, xotirani to'liq tozalash yo'li bilan qayta yuklash, **F5** tugmasini bosish esa oynani qayta yuklash funksiyasini bajaradi. Dasturiy majmua 15 turdagi turli logotipli dasturiy mahsullardan (modullardan) tashkil topgan. Bu dasturiy modullarga keyinchalik DSQ tomonidan qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Har bir dasturiy mahsul faqat o'ziga yuklatilgan vazifani bajaradi va ularga kirish maxsus **Login** va **parol**

bilan himoyalangan. Ularni foydalanuvchi tomonidan o‘chirish yoki qo‘shib qo‘yishning imkoni yo‘q.

Dasturiy mahsulning **past chap** burchagida «Menyu» tugmasi mavjud. Ushbu tugma orqali dasturiy majmuadan chiqish amali bajariladi. **Past o‘ng** burchagida dasturiy majmuada (yoki ayrim modulda) aks etgan yangiliklar yoki bajarilishi lozim bo‘lgan e‘lon (yangiliklar) aks etadi. Bu oynani ish jarayonida yopib qo‘yish mumkin.

Dasturiy majmuaning asosiy modullari

<http://fzcls1007.lan> – bu yerda 10 –viloyat kodi va 07-tuman kodi.



Administrator – dasturiy majmuani boshqarish va foydalanuvchilarni kiritish moduli.



KLS – Jismoniy shaxslarning shaxsiy hisobvaraqlari bilan ishlash moduli.



Bank – Bank hujjatlarini kiritish moduli.



Sverka – Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarga soliq majburiyatlari bo‘yicha solishtirma dalolatnoma shakllantirish moduli.



Registratsiya – Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olish moduli. (01-03-09-16 shakllar).



Akt proverok – Tekshirish dalolatnomalarini ro‘yxatga olish moduli.



Otcheti – UDSI lar faoliyatini baholash va hisobotlarni shakllantirish moduli.



SQL – Dasturiy majmuadagi modullariga yangi o‘zgartirishlarni kiritish va dasturiy majmuani tanlangan ko‘rsatkichlar bo‘yicha xatlovdan o‘tkazish moduli.



Izmenit parol – Foydalanuvchi parolini o‘zgartirish moduli.



Elektronnie inkassovie porucheniya – Elektron usulda inkasso qo‘yish moduli.



Musodara mollari reyestri – Davlat hisobiga o‘tkazilgan mol-mulklarning hisobini yuritish moduli.

Har bir modul o'z tarkibida:

- Bosh menyu;
- Yordamchi qatorini o'z ichiga oladi.

Har bir dasturiy modulni Bosh menyusi ekranni yuqori qismida joylashgan bo'lib, bir necha bandlardan iborat bo'ladi. Bandlardan birini tanlanishi band osti menyusini ishga tushiradi.

Yordamchi qator har dastur ichida qismida joylashgan bo'lib, funksional klavishalarni vazifasini ko'rsatib turadi.

“Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy mahsulini takomillashtirish hamda ma'lumotlar bazasi daxlsizligini ta'minlash maqsadida, 2010-yil davomida qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, inspektorlarning ma'lumotlar bazasi bilan ishlash vakolatlari to'liq takomillashtirilib, vazifalar qayta taqsimlandi. Natijada uchastka davlat soliq inspektorlari uchun ham dasturiy mahsuldan foydalanish imkoniyatlari yaratildi.

Dasturiy mahsul ma'lumotlar bazasiga kiritilgan har bir o'zgartirishlar kim tomondan amalga oshirilganligini elektron tarixini avtomatik ravishda saqlab qoluvchi tizim yaratildi.

Ma'lumotlar bazasi to'liq shifrlandi va soliq qarzi yoki ortiqcha to'lovlarni hisobotlarda yashirib ko'rsatish holatlarining oldi olindi.

Dasturiy majmua ma'lumotlar bazasining shakllanish manbalari

Ma'lumotlar bazasining shakllanish manbalari 2.1-rasmda ko'rsatilgan. Dasturiy majmua foydalanuvchilar uchun qator afzalliklarni yaratdi.

Jumladan:


- tuman (shahar) Davlat soliq inspeksiyalarida mol-mulk, yer va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchi jismoniy shaxslarning hisobga olinishini va to'lovlarini to'liq nazoratga olishni ta'minlash;

- yakka tadbirkorlarga hisoblangan soliq to'lovlarini o'z vaqtida undirilishi hamda vaqtinchalik faoliyatini to'xtatganlik holatlarini qayd etilishi yuzasidan nazoratni kuchaytirish;

- soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning kitoblarda yuritilayotgan shaxsiy hisobvaraqlarini ishlatmasdan dasturiy mahsulda yuritish

evaziga soliq inspektorlarini qo‘shimcha soliq obyektlarini aniqlashga jalb qilish;

- hisobga olingan mol-mulk, yer va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchi jismoniy shaxslarga to‘lov xabarnomalarini dasturiy mahsul orqali chiqarib berishni ta‘minlash;



2.1-rasm. Ma'lumotlar bazasining shakllanish manbalari

- muddatida to‘lanmagan soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq to‘lovchilarning ro‘yxatini olish hamda undirish choralari ko‘rish;

- soliq to‘lovchilarga belgilangan imtiyozlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida qo‘llanilishini ta‘minlash;

- jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlarni, yig‘imlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri byudjetga undirilishi ustidan nazoratni kuchaytirish;

- importyor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan tadbikorlar tomonidan respublikamiz hududiga olib kirgan tovar moddiy boyliklari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi.

“Jismoniy shaxs-larning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy mahsuli amaliyotga joriy etilgandan so‘ng, har yili o‘rtacha 251,3 mln so‘mlik qat‘iy blankalarga buyurtma berilishi bekor qilindi. Masalan, aholidan soliq to‘lovlarini naqd pulda qabul qilish uchun ishlatiladigan umumiy qiymati 102,7 mln so‘mlik jami 4,5 mln dona 5-

shakl patta blankalari, jismoniy shaxslarni soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga olish uchun ishlatiladigan 11,3 mln so'mlik jami 1,3 mln dona 01-shakl blankalari, jismoniy shaxslarning STIR ma'lumotlariga o'zgartirish kiritish uchun ishlatiladigan 4,7 mln so'mlik jami 550 ming dona 03 - shakl blankalari, mol-mulk, yer va suv soliqlari to'lovchilarni hisobga olish uchun ishlatiladigan 94,6 mln so'mlik jami 100 ming dona 09 - shakl blankalari, 38 mln so'mlik jami 40 ming dona jismoniy shaxslarning shaxsiy hisobvaraqlarini yuritish kitoblari va boshqa ish qog'ozlari bekor qilindi.

2.5. Soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartiboti va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni va shu kabi bevosita soliqqa oid qonun hujjatlari orqali tartibga solinadi.

Soliq haqidagi qonun hujjatlarining boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridan o'rin olgan normalari Soliq kodeksiga muvofiq bo'lishi lozim. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Soliq kodeksidan boshqacha qoidalar belgilangan yoki nazarda tutilgan bo'lsa, unda xalqaro shartnoma qoidalarida belgilangan shartlar amalda qo'llaniladi.

Soliq solish – yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

Belgilanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo'yishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas. Olingan manbalaridan qat'i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi lozim, soliq imtiyozlarini belgilashda esa albatta ijtimoiy

adolat prinsiplariga rioya etilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasining pul birligi – so‘mda hisoblab chiqariladi.

Amaldagi Soliq kodeksining 31-moddasiga muvofiq soliq to‘lovchilar quyidagi huquqlarga egadirlar:

- davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar haqida axborot olish.

Soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar o‘zlari ro‘yxatdan o‘tgan quyi Davlat soliq xizmati organlariga borib, byudjet oldidagi o‘z majburiyatlarini xatolarsiz bajarish maqsadida tegishli axborotlarni yoki maslahatlarni bepul olish imkoniyatlariga ega.

- Soliq kodeksida, boshqa qonunlar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilab qo‘yilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalanish.

- Byudjetga ortiqcha miqdorda tushgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summasini qaytarish to‘g‘risida yozma ariza bilan murojaat qilish.

Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, gohida soliq to‘lovchilarning o‘zlari, gohida esa soliq idoralarining ongli harakatlari tufayli soliqlar va yig‘imlardan ortiqcha to‘lovlarni undirish amalga oshiriladi, ayniqsa, chorak yakuni yoki moliyaviy yil yakunlanayotgan vaqtda ayrim soliq turlaridan prognoz-rejalarni bajarish maqsadida korxonalarining bankdagi hisob raqamlaridan inkassa topshiriqnomasi orqali qonunchilikka zid ravishda majburiy undirish holatlari ko‘p uchrashi mumkin. Byudjetga ortiqcha undirilgan soliqlar 15 ish kun muddat ichida soliq to‘lovchilarga qaytarilishi yoki boshqa soliqlar va yig‘imlardan qarzi mavjud bo‘lgan holda o‘sha qarzni qoplash imkoniyati paydo bo‘ladi.

- Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha byudjet oldidagi o‘z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlaridagi mavjud ma‘lumotlar bilan tanishish.

Ushbu bandga muvofiq soliq to‘lovchilar quyi soliq idoralariga berilgan soliq turlari bo‘yicha belgilangan prognoz – reja va shu kabi xo‘jalik va moliyaviy faoliyatlariga tegishli bo‘lgan soliqqa tortish masalalari bo‘yicha ma‘lumotlar bilan tanishish imkoniyatlariga egadirlar.

- Soliq organlari o'tkazgan tekshiruv materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish, tekshiruvlarning natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda soliq organiga o'zining yozma e'tirozlarini o'n kunlik muddat ichida taqdim etish.

Soliq to'lovchilar faoliyati soliq organlari tomonidan tekshirilganda aniqlangan xato va kamchiliklar, qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, hisoblangan moliyaviy jarimalar to'g'risida tuzilgan dalolatnoma korxonaga mansabdor shaxslariga (bosh hisobchisiga) tanishtirilishi shart. Tekshirish natijalarini korxonaga rahbariyati nohaq deb hisoblashi hamda e'tiroz bildirishi ham mumkin. Bunday holatda, soliq to'lovchi soliq idorasi rahbariyati nomiga yoxud yuqori soliq idoralariga yozma murojaat qilishlari mumkin. Soliq idoralarida ekspert komissiyasi tuzilgan bo'lib, ushbu komissiya tomonidan soliq to'lovchilarning yozma e'tirozlari bir oy muddat ichida ko'rib chiqiladi va natijasi arizachiga bildiriladi. Bunday holatda tekshirish natijasida soliq to'lovchiga nisbatan qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda moliyaviy jarimalarni byudjetga undirish to'xtatilmaydi.

- Soliq organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari ustidan yuqori soliq organlariga yoki sudga shikoyat qilish.

Soliq organlari o'zlariga berilgan vakolat doiralarida qabul qilgan qarorlari ayrim hollarda soliq to'lovchilarning e'tirozlarini keltirib chiqarishi mumkin yoki ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlarini soliq to'lovchi qonunga zid deb hisoblashlari va ularga barham berish maqsadida yuqori soliq organlari (Davlat soliq boshqarmasi, Davlat soliq qo'mitasi)ga yoxud sudga shikoyat bilan da'vo qilishlari mumkin. Bunday holat amaliyotda ba'zida uchrab turadi.

- Soliq solish obyektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish.

Soliq to'lovchilar soliq hisob-kitobini quyi soliq idoralariga qonunchilikda belgilangan muddatlarda topshirgandan so'ng, xato va kamchiliklarni aniqlashsa uni qayta tuzatib darhol soliq idoralariga qayta soliq hisob-kitoblarini topshirishlari lozim bo'ladi. Aks holda, qonun oldida javob berishga to'g'ri keladi.

Soliq to'lovchilar Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Soliq kodeksiga ko‘ra soliq to‘lovchilar quyidagi majburiyatlarga egadirlar:

- belgilangan tartibda va muddatlarda soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tish, pochta manzili o‘zgargan taqdirda esa (notijorat tashkilotlar qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan taqdirda ham), bu haqda soliq organlarini o‘n kunlik muddat ichida yozma ravishda xabardor etish.

Soliq to‘lovchilar amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tgandan so‘ng, albatta quyi soliq idoralaridan ham ro‘yxatdan o‘tishi va tegishli ravishda soliq to‘lovchining identifikatsion raqami (STIR)ni olishi shart. STIR Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan markazlashgan tartibda ro‘yxatga olinadi va soliq to‘lovchilarga quyi soliq idoralari tomonidan yetkaziladi.

- Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning tegishli summasini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda to‘lash.

Soliq to‘lovchilar hisobot davrida hisoblangan soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida, to‘liq miqdorda byudjetga to‘lab berishlari shart. Aksincha, soliq idoralari tomonidan o‘z vaqtida byudjetga o‘tkazilmagan soliqlar va yig‘imlar summasiga nisbatan har bir kechiktirilgan kun uchun 0,045 foiz miqdorida jarima (penya) hisoblanadi.

- Buxgalteriya hisobini va hisob hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiq yuritish.

Korxonada o‘zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini yuritishda qonunchilik bilan belgilab berilgan hisob va buxgalteriya hisobi hujjatlarini yuritishga majburdir. Korxonada buxgalteriya hisobini yuritish tegishli qonunchilik normalari asosida amalga oshiriladi.

- Moliyaviy hisobotni, soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblarni yoki daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to‘lovchilar har bir soliq turi bo‘yicha hisob-kitoblarni belgilangan muddatlardan kechiktirmasdan soliq idoralariga taqdim etadi. Aks holda, korxonaga va korxonaning mansabdor shaxslariga nisbatan moliyaviy va ma‘muriy jazo choralari qo‘llaniladi.

- Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish, to‘lash bilan bog‘liq hujjatlar va ma‘lumotlarni, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yuzasidan imtiyozlar huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to'lovchilarga soliq kodeksida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida yoki boshqa qonun hujjatlarida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan imtiyozlar ko'zda tutilgan holda, ular imtiyoz olish huquqini tasdiqlovchi tegishli qonun hujjatlarini quyi soliq idoralariga taqdim etishi shart. Imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lgandagina ular imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash masalalarini tekshirish uchun soliq organlarining mansabdor shaxslarini daromad olish yoki soliq solish obyektlarining saqlanishi bilan bog'liq binolar va joylarga kirishiga ruxsat berish.

Nazorat organlari tekshiruv rejasiga asosan Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilar faoliyati tekshirilganda korxonalar soliqqa tortish obyekti bilan bog'liq bo'lgan barcha obyektlarini ko'zdan kechirishga va bundan tashqari tekshirishga sharoit yaratib berishlari lozim. Aks holda, soliq idoralarining qonuniy talablari bajarilmagan hisoblanadi va ularga nisbatan qonunchilikda ko'zda tutilgan tegishli jazo choralari qo'llaniladi.

- Soliq organlarining soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini bartaraf etish to'g'risidagi talablarini bajarish.

Soliq idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yoki ularning boshqa vakolat doirasidagi qonuniy talablari soliq to'lovchilar tomonidan bajarilishi majburdir.

Soliq to'lovchilar Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida o'z zimmalariga yuklatilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Soliqqa tortish obyektiga qarab soliqlar qanday guruhlanadi?
2. Oborotdan olinadigan soliq'larga qaysi soliqlar kiradi?
3. Daromaddan olinadigan soliq'larga qaysi soliqlar kiradi?
4. Mol-mulk va yer maydonlaridan olinadigan soliq'larga qaysi soliqlarni kiritish mumkin?
5. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga qarab qanday guruhlanadi?
6. Jismoniy shaxslar to'laydigan umumdavlat soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?

7. Jismoniy shaxslar to'laydigan mahalliy soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?

8. Jismoniy shaxslar to'laydigan bevosita soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi va u nima uchun bevosita soliq deb ataladi?

9. Jismoniy shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?

10. Jismoniy shaxslar bilvosita soliqlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsating?

11. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning farqi nimadan iborat?

12. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning o'ziga xos xususiyatlari nima?

13. Soliq to'lovchilar qanday huquqlarga ega?

14. Soliq to'lovchilar qanday majburiyatlarga ega?

III BOB. JISMONIY SHAXSLARNING JAMI DAROMADLARI TARKIBI VA ULARNI SOLIQQA TORTISHNING ASOSLARI

3.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyati, soliq to‘lovchilar, soliq obyekti va bazasi

O‘zbekiston soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i asosiy soliq turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soliq to‘g‘ri soliqlar tarkibiga kiradi va aholining real daromadiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa O‘zbekistonda erkin tadbirkorlikning yanada rivojlanib borayotganligi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, ishbilarmonlik sohasidagi daromadlarga cheklanishlarning bekor qilinishi bilan topilayotgan daromadlar o‘rtasidagi farq ko‘zga tashlanib qolmoqda, ya‘ni yuqori daromad oladigan jismoniy shaxslar soni asta-sekin ko‘payib bormoqda. Shuning uchun ham amaldagi soliq qonunchiligimiz kam va yuqori daromad oladigan jismoniy shaxslarni tabaqalashtirishga qo‘l keladi, daromadlarni adolatli ravishda soliqqa tortishni ta‘minlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi aholi daromadlarini soliqqa tortish tizimi 1991-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmaganlarni soliqqa tortish to‘g‘risida”gi qonuni asosida joriy etilgan. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi mamlakatimizda deyarli har yili o‘zgartirilib, takomillashib kelmoqda. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning samarali tizimini yaratishga oid vazifalarning ahamiyati mazkur tizimning ijtimoiy masalalarga daxldorligi, aholi turmush darajasiga ko‘rsatadigan ta‘siri bilan bog‘liqdir. Shundan kelib chiqqan holda daromad solig‘ining shkalasi muntazam ravishda takomillashtirilib kelinmoqda.

Ma‘lumki, soliq qonunchiligida soliqqa tortish maqsadida soliq to‘lovchilar ikkiga bo‘lingan, ya‘ni yuridik va jismoniy shaxslarga. Jismoniy shaxslarga – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar kiradi. Soliq

solish maqsadida jismoniy shaxslar rezidentlar va norezidentlarga bo‘linadi.

Soliq kodeksining 19-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O‘zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi.

Chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning quyidagilar sifatida turgan davri uning O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda turgan vaqtiga kiritilmaydi:


- diplomatik yoki konsullik maqomiga ega bo‘lgan shaxs sifatida;
- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga ko‘ra tuzilgan xalqaro tashkilotning xodimi sifatida;
- diplomatik yoki konsullik maqomiga ega bo‘lgan shaxslarning oila a‘zosi sifatida, bunday jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmagan taqdirda;
- faqat bir chet davlatdan boshqa chet davlatga O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali o‘tish (tranzit o‘tish) uchun;
- agar bu jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasida faqat turist sifatida, davolanish yoki dam olish maqsadlari bilan turgan bo‘lsa.

Jismoniy shaxslar to‘layotgan soliqlar ichida byudjet tushumlaridan salmoqli o‘rinni egallaydigan soliq bu – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idir. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 1991-yilning mart oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida”gi qonuni asosida joriy etilgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i – davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalaridan biri bo‘lib, u umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi.

Bugungi kunda jismoniy shaxslar to‘layotgan soliqlar va yig‘imlar davlat byudjeti daromadlarining qariyb 15-20 foizini tashkil etmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining byudjeti daromadlaridagi salmog‘ini tahlil etar ekanmiz, ushbu ko‘rsatkich 2004- yilda 12,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2006-yilda 14,9 foizni,

2008-yilda 12,5 foizni, 2010-yilda 11,7 foizni, 2012-yilda 11,5 foizni, 2014-yilda 11 foizni, 2016-yilda 10 foiz bo‘lgan. 2017-yilda esa 10,1 foizni, to‘g‘ri soliqlardagi ulushi esa 41,9 foizni tashkil etgan (3.1-rasm).



3.1-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i dinamikasi⁹

3.1-rasm ma’lumotlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini byudjet daromadlari tarkibida ahamiyatli ekanligidan darak beradi.

Soliq kodeksining 167-modasiga ko‘ra moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilari hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning – O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga Soliq kodeksining 182-moddasida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda va stavkalar bo‘yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliq solish obyekti hisoblanadi:

⁹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 2003-2017 yillardagi “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida tayyorlangan.

- O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;

- O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, qat’iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq solish obyekti bo‘lmaydi.

Soliq kodeksining 170-modasiga muvofiq soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Agar soliq to‘lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko‘ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron bir ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Jismoniy shaxsning chet el valyutasida ifodalangan daromadlari daromadlar amalda olingan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

3.2. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi

Soliq kodeksining 171-moddasiga binoan jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:

- 1) mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

Yuridik shaxslar amalga oshiradigan quyidagi xarajatlar jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi:

- mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarda band bo‘lgan xodimlarni mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho‘r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta’minlash xarajatlari;

- kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar, shu jumladan a‘zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a‘zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi

qo‘mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar mustasno;

- xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari;

- diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o‘tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo‘lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo‘l kartochkalarini olish, shuningdek, yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta‘minlash bilan bog‘liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlar;

- xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formali kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida oziq-ovqat bilan ta‘minlash xarajatlari;

- xodim boshqa joyga ishga o‘tkazilganda yoxud ko‘chib borganda ko‘chish, mol-mulkini ko‘chirib borish, joy ijarasi (yo‘l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash yoki bu xarajatlarning o‘rnini qoplash xarajatlari;

- xizmat safarlaridagi quyidagi kompensatsiya to‘lovlari:

- tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to‘lashni qo‘shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yo‘l hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, temir yo‘l transportidagi (agar temir yo‘l qatnovi bo‘lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo‘l haqi qiymati miqdorida, biroq aviachipta qiymatining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda;

- uy-joyni ijaraga olish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda – qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida;

- tasdiqlovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to‘lovlar;

- qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun to‘lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

– qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to‘lovlar.

• qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to‘lanadigan kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar):

– doimiy ishi yo‘lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo‘lgan, shuningdek, vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar);

– xizmat ishlari uchun shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarlari mustasno;

– dala ta‘minoti;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va normalar bo‘yicha boshqa kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar).

• mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘lig‘iga boshqacha shikast yetganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

– jabrlanuvchi mehnatda mayib bo‘lguniga qadar olgan o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to‘lovlar (voyaga etmagan shaxs mehnatda mayib bo‘lib qolgan taqdirda, zararning o‘rni uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda qoplanadi);

– maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo‘shimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki baravari miqdoridagi to‘lovlar;

– jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo‘shimcha xarajatlar tariqasida har oyda eng kam ish haqining ellik foizi miqdoridagi to‘lovlar;

– xodimning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o‘rtacha ish haqi miqdoridagi to‘lovlar;

• boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

– marhumning o‘rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni

undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'g'ri keladigan ulushi miqdoridagi to'lovlar;

– boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o'rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to'lovlar;

- talabalarning ta'lim olishi uchun O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurti bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha pullik – shartnoma asosida o'tkaziladigan to'lovlar;

- O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga hayotni uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha to'lanadigan sug'urta mukofotlari. Hayotni uzoq muddatli sug'urtalash shartnomasi muddatidan ilgari bekor qilinganda va sug'urtalovchi sug'urta qilinuvchiga sug'urta mukofotining bir qismini yoki hammasini qaytarsa, qaytarilgan sug'urta mukofoti miqdori jismoniy shaxsning soliq solinadigan jami daromadi tarkibiga kiritiladi;

- yuridik shaxsdan – ish beruvchidan:

– yosh oilalar a'zolari tomonidan uy-joy olish uchun olingan mablag'lar;

– qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan banklar tomonidan ushbu maqsadlar uchun beriladigan ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badal sifatida quruvchi shaxs tomonidan olingan mablag'lar.

Uy-joy olingan (mulkka bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, ushbu bandda ko'rsatilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi;

- xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi:

- mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

- ilmiy daraja va faxriy unvon uchun qo‘shimcha to‘lovlar;
- rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar;
- kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiya);
- ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash.

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar ham kiradi:

- predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to‘lovlar;

- yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xshash organi) a‘zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar;

- O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining xodimlariga xizmatni o‘tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to‘lanadigan pul ta‘minoti, pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar.

Rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofot;
- 2) yuridik shaxsning mukofotlash to‘g‘risidagi qoidasida nazarda tutilgan rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar;
- 3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;
- 4) ta‘tilga qo‘shimcha haqlar hamda moddiy yordam;
- 5) ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar;
- 6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to‘lov.
- 7) mehnat natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan bir yo‘la beriladigan mukofotlar.

Kompensatsiya to‘lovlari

Mehnatga haq to‘lash tarzida daromadga kiritiladigan kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar) jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsiyentlar bo'yicha to'lovlar);

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

4) ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek, bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek, doimiy ishi ishlarni vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan ustamalar;

6) yuridik shaxs joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishlash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo'lga ketadigan kunlar, shuningdek, xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, maosh miqdorida to'lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqti uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti;

9) xizmat safarlari vaqtidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqti umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida

belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganliklari munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

11) xizmat ishlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar;

12) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash uchun Soliq kodeksi 171-moddasi ikkinchi qismining 9-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymatini qoplash.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lashga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq:

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'tilga haq to'lash, shuningdek, ushbu ta'tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lash;

b) noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek, og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;

v) o'qish bilan bog'liq ta'tilga va ijodiy ta'tillarga haq to'lash;

g) o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;

2) asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar;

3) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

4) O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to'lash;

5) qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) boshqa yuridik shaxslardan avvalgi ish joyida lavozim bo'yicha maoshi miqdorlari ma'lum bir muddat davomida saqlab qolingan holda ishga olingan, shuningdek, vaqtinchalik vazifani bajarib turganda xodimlarga maoshdagi farqni to'lash;

7) yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun haq to'lash;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash;

10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qarori bilan majburiy progul vaqti yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun haq to'lash;

11) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek, tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

12) yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o'quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga haq to'lash;

15) yuridik shaxsning mablag'lari hisobidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo'shimchalar, stipendiyalar;

16) oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislariga ta'til vaqti uchun yuridik shaxs hisobidan to'lanadigan nafaqalar;

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- foizlar;
- dividendlar;
- mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mol-mulkni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilish qiymati, ko'chmas mulk bo'yicha esa, inventarizatsiya qiymati hamda realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi farq daromad deb e'tirof etiladi;

- sanoat mulki obyektlariga, seleksiya yutug'iga berilgan patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs

foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;

- royalti;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxonalar mulkdori, oilaviy korxonalar ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi.

Mol-mulkini ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs, agar ushbu daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lov manbaida soliq solinmasa, belgilangan muddatlarda jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya taqdim etish bilan bir qatorda ijaradan daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzda deklaratsiya ham taqdim etadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Agar soliq to'lovchi daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo'lsa, shuningdek, oldin taqdim etilgan deklaratsiyada noto'g'ri ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini o'zidagi mavjud axborot asosida eng yuqori stavka bo'yicha hisoblashga va to'lanishi lozim bo'lgan, hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi to'g'risida soliq to'lovchiga o'n kunlik muddat ichida to'lov xabarnomasini topshirishga haqli. Soliq to'lovchi tomonidan jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya yoki to'g'rilangan deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yakuniy summasi ushbu deklaratsiya hisobga olingan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to'laydilar.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to‘laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo‘yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to‘langan summalar o‘rtasidagi farq kelgusi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to‘lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Soliq to‘lovchi tomonidan yuridik shaxsdan moddiy naf tarzida olingan daromadlar quyidagilardir:

- yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to‘lash, shu jumladan:

- jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta‘lim muassasalarida o‘qitish, tarbiyalash;

- kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari haqini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

- sanatoriy-kurortlarda davolanish yo‘llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

- yuridik shaxsning jismoniy shaxs daromadi bo‘lgan boshqa xarajatlari.

- soliq to‘lovchining manfaatlarini ko‘zlab tekinga, shu jumladan hadya shartnomasi asosida berilgan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati;

- tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xodimlarga realizatsiya qilinadigan narxi va shu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan qiymati o‘rtasidagi salbiy tafovut;

- qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo‘l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo‘yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

- jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summolari;

- ish beruvchi tomonidan to'lovlar hisobiga to'lanib, xodimdan ushlab qolinishi lozim bo'lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to'lovchi yuridik shaxsdan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olgan taqdirda, ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati ularni olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jismoniy shaxs yuridik shaxsdan aksiz to'lanadigan tovarlar yoki qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olsa, bunday tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatida aksiz solig'ining va qo'shilgan qiymat solig'ining tegishli summasi hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- pensiyalar va qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar;
- stipendiyalar;
- fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;

- donorlik uchun pul mukofotlari;
- alimentlar;
- hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, ipak qurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

- jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo'yicha) olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati;

- musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

- yutuqlar;
- grant beruvchidan olingan grantlar, shu jumladan chet davlatlar grantlari bo'yicha olingan summalar;

- jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foiz tarzidagi va boshqa daromadlar, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

- yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar;

- O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

- xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

- xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo‘shatish nafaqasi va boshqa to‘lovlar;

- moddiy yordam tariqasida:

- vafot etgan xodimning oila a‘zolariga yoki oila a‘zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to‘lovlar;

- xodimga mehnatda mayib bo‘lganligi, kasb kasalligi yoxud sog‘lig‘iga boshqacha shikast yetganligi bilan bog‘liq to‘lovlar;

- favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan to‘lovlar;

- bola tug‘ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o‘tishi munosabati bilan beriladigan to‘lovlar;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag‘lar berish tarzidagi to‘lovlar.

- qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlari haqini to‘lash bo‘yicha har oylik kompensatsiya pul to‘lovlari;

- ishlamaydigan pensionerlarga yuridik shaxs tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar;

- sug‘urta to‘voni summalari;

- ma‘naviy zararni kompensatsiya qilish bo‘yicha pul to‘lovlari.


3.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsning daromadlariga, bundan dividendlar va foizlar tarzida to‘lanadigan daromadlar mustasno, 12 foizli stavka bo‘yicha soliq solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to‘lanadigan daromadlarga 5 foizli stavka bo‘yicha soliq solinadi.

Soliq qonunchiligiga binoan 1998-yildan respublikamizda jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi 15, 25, 35, 40, 45 foiz, ya'ni 5 pog'onali qilib belgilandi. 2000-yildan boshlab 4 pog'onali, ya'ni 15, 25, 36, 40 foiz, 2001-yildan esa 3 pog'onaliga o'tildi, uning stavkasi 12, 25, 30 foizni, 2002-yildan 13, 23, 33 foiz qilib belgilandi.

Aholining keng qatlamini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish hamda ularning real daromadlarini yanada oshirish maqsadida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi ham pasaytirib borilmoqda. Buni quyidagi diagramma ma'lumotlari asosida ko'rib o'tish mumkin:



3.2-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari (quyi va yuqori miqdorlari)ning o'zgarish dinamikasi¹⁰

Jismoniy shaxsning – O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublikasidagi daromadlar manbaidan olingan, daromadlariga manbada chegirmalarsiz quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

- dividend va foizlarga – 10 foiz;

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida tayyorlangan.

- xalqaro tashishlarda transport xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) – 6 foiz

- mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha olingan daromadlarga hamda yuqoridagi bandlarda ko'rsatilmagan boshqa daromadlarga – 20 foiz.

To'lov manbaida soliq solish to'lov O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning hududidan tashqarida sodir etilganligidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

3.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar

Soliq kodeksining 179-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

- moddiy yordam summolari:

- favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summolari – to'laligicha;

- vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari – eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

- boshqa hollarda – soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda.

- yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summolari, turistik yo'llanmalar bundan mustasno:

- O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to'liq yoki qisman qoplash summolari;

- O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek, ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga maxsus mo'ljallangan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshga to'lmagan (o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) bolalari uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari;

- o‘z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko‘rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to‘langan summalar, shuningdek, yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko‘rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog‘liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to‘langan taqdirda, shuningdek, sog‘liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan naqd pul mablag‘lari bevosita xodimga, xodim yo‘qligida, uning oila a‘zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo‘ljallangan mablag‘lar xodimning bankdagi hisobvarag‘iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summolari va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

- vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta‘minlash markazlari ko‘magida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laganidan keyin xususiy korxonalar mulkdori, oilaviy korxonalar ishtirokchisi hamda fermer xo‘jaligi boshlig‘i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

- O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

- xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

- donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek, qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

- jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan:

- qimmatli qog‘ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);
- yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarni;
- ketma-ket keladigan o‘n ikki oylik davr ichida bir martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, uy-joylarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mustasno.

- uy xo‘jaligida, shu jumladan dehqon xo‘jaligida yetishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo‘ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog‘dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to‘lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to‘lovchi tomonidan unga yoki uning oila a‘zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

- xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

- yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo‘lgan qiymatdagi:

- xodimlar natura shaklida olgan sovg‘alar;
- ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo‘lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a‘zolari tomonidan olingan sovg‘alar va boshqa turlardagi yordam.

- jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek, tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san‘at asarlarining, adabiyot va san‘at asarlari ijrochilarining, shuningdek, kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo‘rlariga (huquqiy vorislariga) to‘lanadigan pul mukofotlari mustasno;

- davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;

- jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek, banklardagi omonatlar bo'yicha foizlar hamda yutuqlar;

- xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek, ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning xulosasi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan – grant oluvchidan olgan grant summasi;

- mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to'lovlar;

- olingan alimentlar;

- fuqarolarning sug'urta to'voni sifatida oladigan summalari;

- qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar;

- uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

- davlat pensiyalari;

- jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

- fuqarolarning soliq solinadigan va O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga mol-mulkni sug'urta qilish hamda hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summalari;

- yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektiga – yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo‘naltiriladigan daromadlari summalari. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo‘llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi;

- quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalari:

- yosh oila a‘zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun yoki ko‘p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo‘naltirilganda;

- qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibda uy-joy qurishni ushbu maqsadlar uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan banklarning kreditlari hisobidan amalga oshirayotgan quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo‘naltirilganda.

Yuqorida ko‘rsatilgan mol-mulk olingan (mol-mulkka bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) sanadan e‘tiboran besh yil ichida sotilsa, mazkur bandeda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi.

- fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

- O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olish uchun (o‘zining o‘qishi yoki yigirma olti yoshga to‘lmagan farzandlarining o‘qishi uchun) yo‘naltiriladigan summalari;

- O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan summalari.

- jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar, agar mazkur ulushlar, paylar va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o‘rtasida amalga oshirilsa.

- paxta yig'im-terimi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinadigan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari.

- aksiyadorlik jamiyatlari chet ellik xodimlarining boshqaruv xodimi sifatida o'z faoliyatidan olgan daromadlari.

Soliq kodeksining 180-moddasiga muvofiq soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi:

- xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

- xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

- xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

- xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga va konsullik muassasalariga xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

- xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari – agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

- konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar – ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha.

- yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan shaxslar – yakka tartibdagi tadbirkor bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga ko‘ra bajargan ishlari uchun olgan daromadlari bo‘yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) ozod qilinadi:

- “O‘zbekiston Qahramoni”, “Sovet Ittifoqi Qahramoni”, “Mehnat Qahramoni” unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi “Shuhrat” ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Mazkur imtiyoz tegishli “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma‘lumotnomasi asosida beriladi;

- urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma‘lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi.

- bolalikdan nogiron bo‘lib qolganlar, shuningdek, I va II guruh nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma‘lumotnomasi asosida beriladi;

- sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Imtiyoz “Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” yoki “Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy

xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

- ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar. Imtiyoz har bir bola uchun Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnoma asosida beriladi;

- ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Imtiyoz erning (xotinning) vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma, bolalar tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma, yangi nikohdan o'tmaganlik hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma'lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

- bolaligidan nogiron bo'lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog'liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi, birgalikda yashashga taalluqli qismida – fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Soliq kodeksining 180-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan imtiyozlar tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi. Imtiyozlarga bo'lgan huquqlar kalendar yili davomida vujudga kelgan taqdirda, imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Agar jismoniy shaxs Soliq kodeksining 180-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan bir nechta asos bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqqa ega bo'lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta imtiyoz beriladi.

Soliq kodeksining 180-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan imtiyozni qo'llash jismoniy shaxsning asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi

bo'yicha, asosiy ish joyi bo'lmagan taqdirda – yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, jismoniy shaxs imtiyoz yo'qotilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak. Soliq kodeksining 180-moddasi ikkinchi qismida sanab o'tilgan imtiyozlar jismoniy shaxslarning foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyozni qo'llash asosiy ish joyi bo'yicha amalga oshiriladi, agar foizlar va dividendlar asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyoz jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan qo'llaniladi. Shunga o'xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

3.5. Chet ellik jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solishning xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq solinadi.

Rezident – chet ellik jismoniy shaxsdan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi singari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq undiriladi. Norezident – chet ellik jismoniy shaxslardan to'langan joyidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq undiriladi. Soliq solish maqsadida norezident jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiradigan norezident sifatida yoki doimiy muassasa bilan bog'liqlikda bo'lmagan norezident shaxs sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiradigan norezident jismoniy shaxs doimiy muassasa bilan

bog‘liq bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari bo‘yicha soliq to‘lovchi hisoblanadi.

Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish o‘zarolik prinsipi bo‘yicha tugatilishi yoki cheklanishi mumkin. Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog‘ida bunday bitimlarning shartlariga O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to‘lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha xarajatlarini o‘z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlar kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

Chet ellik jismoniy shaxsning – O‘zbekiston Respublikasi rezidentining daromadlariga qonunchilikda belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadi.

Ko‘chmas mulk, yuridik shaxslarning – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining ustav kapitalidagi aksiyalari va ulushlari (paylari) bir chet ellik jismoniy shaxs tomonidan boshqa jismoniy shaxsga – O‘zbekiston Respublikasi rezidentiga yoki norezidentiga, yuridik shaxsga – O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga realizatsiya qilingan taqdirda, ushbu daromadlar bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini ushlab qolish majburiyati soliq agenti deb e’tirof etiluvchi daromadni to‘lash manbaiga (mol-mulkni sotib oluvchi zimmasiga) yuklatiladi. Aksiyalar qimmatli qog‘ozlarning birja bozori va uyushgan birjadan tashqari bozorida realizatsiya qilinganda O‘zbekiston Respublikasining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi hisob-kitob-kliring palatasi soliq agenti deb e’tirof etiladi.

Chet ellik jismoniy shaxs tomonidan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash, ushlab qolish, o‘tkazib berish, soliq agenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasdiqlaydigan shakl bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisob-kitobini va aksiyalar oldi-sotdisi bo‘yicha bitimlar reyestrini taqdim etish, soliq to‘langanligi to‘g‘risida ma’lumotnoma berish va mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazish (rasmiylashtirish) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar sotuvchida – chet ellik jismoniy shaxsda mol-mulk realizatsiya qilingan yildan keyingi yilning 1 apreliga qadar daromadlarni

deklaratsiya qilish bo'yicha majburiyat yuzaga kelsa, soliq agenti tomonidan ushbu moddaga muvofiq ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya taqdim etilayotganda davlat soliq xizmati organi tomonidan qayta hisoblab chiqarilishi mumkin.

3.6. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish tartibi

Eng kam ish haqining karrali miqdorlarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdorining joriy yil 1 yanvaridagi holati inobatga olinadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi. Jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan sovg'a, moddiy yordam va boshqa turlardagi yordam olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlari to'g'risida deklaratsiya topshirganda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq Kodeksining 179-moddasi 1-bandining to'rtinchi xatboshisida hamda 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilmagan holda ushlab qolinadi. Ma'lumotnoma va soliq to'lovchining identifikatsiya

raqami taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi ilgari asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi. Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon ilgari va yangi ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mehnat shartnomasi bekor qilingandan so'ng xodimga ilgari asosiy ish joyida to'lovlar amalga oshirilgan taqdirda, mazkur to'lovlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq Kodeksining 179-moddasi 1-bandining to'rtinchi xatboshisida hamda 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilmagan holda solinadi. Asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish jami daromad summasidan soliq Kodeksining 179-moddasi 1-bandining to'rtinchi xatboshisida hamda 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilmagan holda, belgilangan stavkalar bo'yicha hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha amalga oshiriladi.

Soliq agentlari jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summalari va turlari haqida, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda ma'lumot-noma berishlari shart.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yakuniy summasi jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma'lumotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

3.7. Soliq agentlarining daromad solig'ini ushlab qolish va byudjetga o'tkazish bo'yicha majburiyatlari

Soliq kodeksining 187-moddasiga muvofiq soliq agentlari:

- soliq davri tugaganidan keyin o'ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga to'lov manбайдan soliq solinmagan moddiy naf

tarzida daromadlar olgan jismoniy shaxslar to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnoma taqdim etish.

- yilning har oyida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summolari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summolari to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etishi shart. Yil yakunlari bo'yicha hisoblangan va amalda to'langan daromadlarning summolari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summolari to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etiladi.

Ma'lumotlarda hisoblangan quyidagi:

- mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, jismoniy shaxslarning daromadlaridan ushlangan soliq summolari va har bir jismoniy shaxs bo'yicha fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga to'langan badallar to'g'risidagi;

- mulkiy daromadlar (bundan dividendlar va foizlar mustasno) va moddiy naf tarzidagi daromadlar, har bir jismoniy shaxs bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lov manbaida ushlab qolingani summolari to'g'risidagi axborot aks ettiriladi.

To'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi byudjetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- pul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda, biroq hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay;

- to'lov natura holida amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to'lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo'lsa.

Agar yuridik shaxsning bank hisobvarag'ida ish haqini to'lash va bir vaqtning o'zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolingani

solliqlarni byudjetga o'tkazish uchun mablag'lar yetarli bo'lmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bank hisobvarag'idagi qoldiq mablag'larga mutanosib summada byudjetga o'tkaziladi.

Bankda hisobraqamiga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lash sanasi soliq to'lovchi hisobraqamidan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun, boshqalar, shu jumladan jismoniy shaxslar uchun esa – mablag'lar kredit muassasasining kassasiga o'tkazilgan kun hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning hisob-kitob varag'idan soliq summasi jismoniy shaxs tomonidan to'langanda, to'lov sanasi jismoniy shaxs hisobraqamidagi mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqning yil mobaynida to'lab borilgan summalari tegishli hisobot yili uchun soliq to'lovchiga hisoblab chiqarilgan soliq hisobiga o'tkaziladi.

Mol-mulkini ijaraga berayotgan jismoniy shaxslar uchun 2019 yilda ijara haqining minimal stavkalari quyidagicha belgilandi:

- Aholi turar joylari (1 kv.metr) uchun oylik ijara haqining minimal stavkalari:

Toshkent shahri – 10 000 so'm

Nukus shahri, viloyat markazlarining shaharlari – 6 500 so'm

Boshqa aholi punktlari – 3 000 so'm.

- Noturar joylari (1 kv.metr) uchun oylik ijara haqining minimal stavkalari:

Toshkent shahri – 20 000 so'm

Nukus shahri, viloyat markazlarining shaharlari – 13 000 so'm

Boshqa aholi punktlari – 6 000 so'm¹¹.

Mazkur me'yorni joriy qilinishi jismoniy shaxslarning daromadlarini legallashtirishga imkon beradi va tegishli byudjetga qo'shimcha tushumlar tushishiga olib keladi.

Shuningdek, avtotransport vositalarini ijaraga berishda – har bir avtotransport uchun uning turiga qarab tabaqalashtirilgan holda, yengil avtotransport uchun (haydovchi o'rnini hisobga olmagan holda 8 o'rindiqdan ko'p bo'lmagan passajir, yuk tashishga mo'ljallangan

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4086-sonli qarorining 24-ilovasi.

avtotransport vositasi) – oyiga 480 000 so‘m, boshqa transport vositalari uchun (mikroavtobuslar, avtobuslar, yuk avtomobillar) – oyiga 940 000 so‘m qilib belgilandi.¹²

3.8. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar faoliyatiga oid dasturiy mahsullarning mohiyati va ahamiyati

«Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni axborot-hisobga olish tizimi» dasturiy mahsulining «Jismoniy shaxslar shaxsiy hisobvaraqlari» moduli

Dasturiy mahsuldan ko‘zlangan asosiy maqsad, «Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni axborot-hisobga olish» (ORACLE) dasturiy majmuasidan shaxsiy hisobvaraqlar bilan ishlash bo‘linmasi ajratilib alohida **fiz_ks.exe** moduliga aylantiriladi va ushbu dastur modulini faqatgina shaxsiy hisobvaraqlar bilan ishlovchi ya‘ni 09-16-shakllar hujjatlarini kirituvchi xodimga maxsus kodli parol orqali ma‘lumotlarni kiritishga ruxsat beriladi.

«Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni axborot-hisobga olish tizimi» dasturiy mahsulining «Bank hujjatlarini kiritish» moduli

Dasturiy mahsuldan ko‘zlangan asosiy maqsad, «Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni axborot-hisobga olish» (ORACLE) dasturiy majmuasidan bank hujjatlari bilan ishlash bo‘linmasi ajratilib alohida **fiz_bank.exe** moduliga aylantiriladi va ushbu dastur modulini faqatgina bank hujjatlarini kirituvchi xodimga maxsus kodli parol orqali ma‘lumotlarni kiritishga ruxsat beriladi.

«Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlarini deklaratsiyalash» dasturiy mahsuli

Ushbu dasturiy mahsul davlat soliq inspeksiyalarida jismoniy shaxslarning asosiy va asosiy bo‘lmagan ish joylaridan olgan daromadlari haqidagi ma‘lumotlarni kompyuter bazasiga kiritish, qayta ishlash natijasida hosil bo‘lgan natijalarni ShHVlarga o‘tkazish, jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya blankalarini, shuningdek, barcha zaruriy hujjatlarni chop etish uchun mo‘ljallangan.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi PQ-4086-sonli qarorining 24-ilovasi.

DSIlarda jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari haqidagi ma'lumotlar dastur yordamida kompyuter bazasiga kiritiladi va Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash markaziga yuboriladi. Ushbu yuborilgan avtomatik ravishda saralanib, jismoniy shaxslarning yashash manziliga qarab tegishli DSIlarga yetkazib beriladi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni axborot – hisobga olish tizimi dasturiy mahsulini “jismoniy shaxslarni administratori” moduli

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni hisob ma'lumotlar bazasi dasturiy mahsulini asosiy maqsadlari quyidagilardir:

- soliqlarni yig'ish bo'yicha soliq, inspektorlarining ish faoliyatini DSQning hamma pog'onalarida yanada samarali bo'lishini ta'minlash;
- har bir soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliqar bo'yicha aniq ma'lumotlarni ko'rsatish;
- turli foydalanuvchilarning haqiqiy va to'la ma'lumotlari bilan DSQda hamda undan tashqarida ta'minlash;
- ma'lumotlardan kelajakda foydalanish uchun, ularni himoya qilish.

Texnik jihatdan amalga oshirish talabi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni hisob ma'lumotlar bazasi dasturini asosiy modullari.

- ❖ Soliq hujjatlarini yig'ish va hisob hamda normativ-ma'lumot axborotlarini uzatish tizimi.
- ❖ DSQ ma'lumotlarni qayta ishlash tizimiga kirish uchun axborot terminali.
- ❖ Ma'lumotlarni qayta ishlash modulining arxiv-qidiruv tizimi.
- ❖ Himoya tizimi.
- ❖ Soliq hujjatlarini yig'ish va hisob hamda normativ-ma'lumot axborotlarini uzatish tizimining asosiy funksiyalari.
- ❖ Birlamchi hujjatlar (01.03.09 shakllar va b.) tizimga xabarni uzatish (uzatish - birlamchi hujjat yoki hujjatlar to'plami) usuli orqali tushishi kerak, bunda yuqori xavfsizlik kafolatlangan hamda birlamchi hujjatlarning kirish tezligini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lish kerak.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni hisob ma'lumotlar bazasi dasturini texnik tasnifi.

Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlarini ishlashning yagona kompyuter tizimiga bo'lgan asosiy texnik talablar.

Davlat Soliq Qo‘mitasi ma’lumotlarini ishlashning yagona kompyuter tizimi DOS, Windows, MAC OS va serverlardan UNIX hamda Microsoft Windows NT boshqaruvi ostidagi ishchi stansiyalardan foydalanishi, bunda global, taqsimlanadigan ma’lumotlar bazasi, tarmoq printerlari, skanerlar va boshqa periferik qurilmalar boshqaruvini ta’minlashi kerak.

Dastur ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va kerakli axborotni qidirish uchun zarur samaradorlikka ega bo‘lgan maksimal tezlikni saqlashi kerak. Dastur qog‘oz uzatkichlar, fakslar, tasvirlar, ASCII va binar ma’lumotlari yoki ovoz ma’lumotlari ko‘rinishidagi istalgan ma’lumot bilan samarali ishlashni tashkil etish uchun mo‘ljallangan.

Dastur ofis ilovalari, qidiruv tizimlari, shuningdek, keng masshtabli ilovalarni kliyent-server muhitidan foydalangan holda yaratish imkoniyatini ta’minlaydi.

Dastur ma’lumotlarga kirishning operativligini ta’minlashi kerak, bu o‘z navbatida hujjatlarni kartoteka, jildlardan qidirish bilan bog‘liq bo‘lgan qog‘ozli texnologiyani bartaraf etish imkoniyatini beradi.

Dasturni maqsadi va tafsifnomasi

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni hisob ma’lumotlar bazasi dasturini majmua ShEHM mashinalarini IBM PC\AT turi uchun ORACLE qobig‘ida ishlab chiqilgan. Bu dasturda ishlash uchun lokal informatsion setni (LIVS) zamonaviy WINDOWS NT yoki NOVELL operatsion sistemalariga asoslangan qobig‘i bo‘lishi kerak.

Dasturiy mahsulot jismoniy soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga olishni hamda shaxsiy hisobvaraqlarni tuman darajasida yuritishni avtomatlashtirishga asoslangan.

Dasturiy mahsulot quyidagilar bilan ta’minlaydi:

- Jismoniy shaxslarni 01 shakllardagi ma’lumotlarini kompyuterga kiritish orqali ro‘yxatga olishni ta’minlaydi.
- Jismoniy shaxslar haqidagi ma’lumotlarni 03, 09, 16 shakllarda to‘ldirib kompyuterga kiritish orqali o‘zgartiradi;
- Har kunlik bank tushumlari asosidagi ma’lumotlarni kompyuterga kiritiladi;
- Soliq to‘lovchilarga hisoblangan soliqlarni, qayta hisobotlarni ShXV kiritish va o‘tkazish;
- DSI taalluqli bo‘lgan ma’lumotlarni kiritish:
 - a) DSI reyestr hisoblari kiritish;

b) DSI Inspektorlari ma'lumotnomasini kiritish;

v) DSI pasportini kiritish;

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni hisob ma'lumotlar bazasi dasturini tashkiliy tuzilishi.

Dastlab dasturni ishga tushirish "FIZLTD" yorlig'ini ishga tushirish bilan boshlanadi va ekran shakli asosida quyidagi dastur modullari ko'rinadi:

1. Ro'yxatga olish,
2. Jildlar,
3. Bank hujjatlari,
4. Eksport-Import,
5. Shaxsiy hisobvaraqlari,
6. Hisobotlar,
7. Ma'lumotlar,
8. Chiqish menyulari chiqadi.

Har bir modul o'z tarkibida:

- Bosh menyu;
- Yordamchi qatorini o'z ichiga oladi.

Har bir dasturiy modulni Bosh menyusi ekranni yuqori qismida joylashgan bo'lib, bir necha punktlardan iborat bo'ladi. Punktlardan birini tanlanishi punkt osti menyusini ishga tushiradi.

Yordamchi qator har dastur ichki qismida joylashgan bo'lib, funksional klavishlar vazifasini ko'rsatib turadi.

“JISMONIY SHAXSLARNING JAMI DAROMADLARI TARKIBI VA ULARNI SOLIQQA TORTISHNING ASOSLARI” MAVZUSI YUZASIDAN

KEYS-STADI

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

O'quv fani: “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish”.

Mavzu: Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

Keysning asosiy maqsadi: Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

O‘quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash va byudjetga to‘lashning amaldagi tartibini chuqur o‘rganadilar;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i obykti, jami daromadlari tarkibi va bazasini aniqlaydilar;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlardan foydalanadilar va ularni qo‘llay oladilar;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalaridan foydalanib, soliq summasini aniqlaydilar;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini amaliy ma‘lumotlar asosida hisoblash va byudjetga to‘lashga doir ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli bajarish uchun talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur:

Talaba bilishi kerak:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lovchilar, soliq obykti, jami daromadlar tarkibi, soliq bazasi, soliq imtiyozlari va stavkalari, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash uslubiyati va byudjetga to‘lash tartibi. Jami yillik daromadlarni deklaratsiyalash tartibi.

Talaba amalga oshirishi kerak:

- jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibi va bazasini aniqlaydi; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar va soliq stavkalarini qo‘llaydi; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblaydi va byudjetga o‘tkaziladigan summasini aniqlaydi; jami daromadlarni deklaratsiyalash tartibini qo‘llaydi; hisoblangan daromad solig‘i summasini to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Talaba ega bo‘lmog‘i kerak:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga doir normativ ko‘nikmalarga;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash va byudjetga undirish ko‘nikmalariga.

Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

- O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarori (9-ilova).

- jismoniy shaxsning 2016-yilda olgan daromadlari va to‘lov-kontrakt summasiga doir to‘lov hujjatlari.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Ushbu keysning axborot manbai kabinetli bo‘lib, syujetsiz toifaga kiradi. Keysning obyekti bo‘lib xodimning 2016-yilda olgan daromadlari va xarajatlari hisoblanadi. Vaziyat jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq qonunchiligi va uni hisoblash uslubiyati asosida tuzilgan. Hajmi o‘rtacha, tizimlashtirilgan bo‘lib, treningga mo‘ljallangan o‘quv mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko‘ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Ushbu keysdan “Soliqlar va soliqqa tortish”, “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanlarida foydalanish mumkin.

KEYS STADI

Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash asosida soliq imtiyozlaridan foydalanish

KIRISH

Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlarning mohiyati umumiy soliqlarning mohiyatidan kelib chiqadi va ular soliq tizimining asosiy qismini tashkil etadi. Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlar soliq-byudjet siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida, ular daromadlarining muayyan qismini davlatning markazlashgan fondini shakllantirish uchun davlat byudjetiga undirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Jismoniy shaxslardan



olinadigan daromad solig'i davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish bilan bir vaqtda, ularning faolligini oshirishga, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda, ularning daromadlarini aniqlash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.



Nazarimizda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mexanizmidagi muammolardan ko'ra, aholi daromadlarini oshirish va ularni qonuniyligini ta'minlashga doir muammolar ko'proq. Chunki, haqiqiy erishilgan va qonuniy asosiga ega bo'lgan daromadlarni soliqqa tortish mexanizmi davr talabiga mos ravishda shakllantirilgan. Bu bilan jismoniy shaxslarning olayotgan barcha daromadlari soliqqa tortilayapti, deb bo'lmaydi.

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash uslubiyatini o'zlashtirish darajasini tekshirish.

VAZIYAT

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs 2016-yilda quyidagi daromadlarga va xarajatlarga ega bo'lgan:

Xodimning yanvar-sentyabr oylaridagi mehnatiga oyiga 1 400 000 so'mdan, oktyabr-dekabr oylarida esa 1 610 000 so'mdan haq to'langan. Uning daromadi yil boshidan daromad 17 430 000 so'mni $(1\,400\,000 \times 9 + 1\,610\,000 \times 3)$ tashkil qilgan.

Akademik litseyini tugatgan farzandi 2016–2017-o'quv yilida oliy ta'lim muassasasiga 1-kursga to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinganligi uchun 9 000 000 so'm shartnoma majburiyatlarini naqd pulda to'ladi.

Xodimning asosiy ish joyi byudjet tashkiloti bo'lganligi bois, unga 2016-yilda to'langan ish haqi va boshqa daromadlariga to'lov manbaida soliq undirilgan.

2017-yil 20-yanvar kuni xodim bilan birga ishlaydigan hamkasbi farzandining to'lov-kontrakt to'lovi uchun daromad solig'idan imtiyozdan foydalanayotganligi haqida gapirib berdi va bu imtiyozning afzalliklari haqida batafsil tushuntirib berdi.



Vaziyatda keltirilgan xodim o'ylanib qoldi. Nima uchun men ham farzandimni to'lov-kontrakt summasi uchun daromad solig'i bo'yicha imtiyozdan foydalanmadim. Agar foydalanganimda daromadimning ancha qismi yonimga qolar edi, deb afsuslandi. Imtiyozdan foydalanayotgan xodim unga yana bir

yaxshilab so'rab-surishtirish kerak, balki bir iloji topilib qolar deb maslahat berdi. Xo'sh, sizningcha vaziyatda keltirilgan xodim qanday yo'l tutishi kerak?

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

1. Xodim soliq qonunchiligini bilmaganligi uchun soliq imtiyozidan foydalana olmadimi? Yoki xodimda soliq imtiyozidan foydalanish imkoniyati hali ham bormi?

2. Xodim soliq imtiyozidan foydalanishi uchun nima qilishi kerak?

3. Xodimning 2016 yilda olgan jami daromadlari (soliq to'langanidan keyin) qanchani tashkil etgan (soliq imtiyozidan foydalanmaganda)?

4. Xodimning 2016 yilda olgan jami daromadlari (soliq to'langanidan keyin) qanchani tashkil etishi mumkin (soliq imtiyozidan foydalananda)?

5. Siz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?



AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA-BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO‘YICHA TALABALARGA USLUBIY KO‘RSATMALAR

TALABALARGA YO‘RIQNOMA

Ish bosqich-lari	Maslahatlar va tavsiyalar
1. Keys bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishing. “Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i” haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo‘lgan butun axborotni diqqat bilan o‘qib chiqish lozim. O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma’lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing. Siz uchun muhim bo‘lgan satrlarni belgilang. Vaziyatning har bir bandini sinchkovlik bilan o‘rganib, ularga soliq qonunchiligi asosida baho bering. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining har bir elementiga diqqatingizni jalb qiling. Ushbu vaziyatning har bir holatiga soliq qonunchiligidan javob toping.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichiklarga diqqatingizni jalb qiling. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga doir soliq qonunchiligini sinchkovlik bilan tahlil qiling va vaziyatning har bir bandiga doir o‘z fikringizni shakllantiring. Vaziyatga doir fikrlaringizni soliq qonunchiligi bilan asoslang va o‘zingizga ishonch hosil qiling. O‘zingizni soliq maslahatchisi sifatida his qilib, vaziyatda keltirilgan xodimga amaliy yordam ko‘rsata olishingizni va olgan bilimlaringiz orqali kimningdir muammosini hal qilayotganingizga ishonch hosil qiling.
4. Muammoli vaziyatni echish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash uslubiyatidan foydalanib, qo‘yilgan savollarga javob bering va topshiriqlarni bajarishga kirishing. Muammoni echish uchun barcha vaziyatlarni ko‘rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning echimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq echimini toping. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda keltiring va xodimga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsating. Vaziyatda keltirilgan savol va topshiriqlarning javoblarini asoslab bering.

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari (mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Talabalar ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot obyekti aniqlangan mak. 0,5 ball	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan mak. 0,5 ball	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko'rsatilgan mak. 0,5 ball	Jami mak. 1,5 ball

Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Talabalar ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot obyekti aniqlangan mak. 0,5 ball	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan mak. 0,5 ball	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko'rsatilgan mak. 0,8 ball	Jami mak. 1,8 ball

1,8-1,5 ball – a'lo, 1,4- 1,2 ball – yaxshi, 1,1- 1,0 ball – qoniqarli

O'quv-uslubiy materiallar

Jismoniy shaxslarning **jami daromadiga** quyidagilar kiradi:

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar **mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar** deviladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 179-moddasi 31-bandiga asosan fuqarolarning soliq solinadigan **ish haqi va boshqa daromatlari** O'zbekiston Respublikasi **oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun** (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) **yo'naltiriladigan summalari miqdorida daromad solig'idan ozod**

Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni **to'lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va to'lash majburiyati yuridik shaxslar**, faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda chet el yuridik shaxslarining vakolatxonolari zimmasiga yuklatiladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo'llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi. Bunda **jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini**, shuningdek eng kam ish haqining karrali miqdorlarida nazarda tutilgan **imtiyozlarni hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdorining joriy yilning 1 yanvaridagi holati inobatga olinadi.**

Jismoniy shaxsning **jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya** soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi **yozma arizasidan** iborat bo'ladi.

Soliq to'lovchilar daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning **1 aprelidan** kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo'lmagan daromadlarni olgan soliq to'lovchilar doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani **ixtiyoriy ravishda** taqdim etishi mumkin.

JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I STAVKALARI:



Eng kam ish haqining

1 barobarigacha miqdoriga – **0 %**

1-5 barobarigacha miqdoriga – **7,5 %**

5-10 barobarigacha miqdoriga - **17 %**

10 barobaridan ortiq miqdoriga - **23 %**



ForexAW.com



Yechish ketma-ketligi

1. Xodimning vaziyati tahlil qilinadi, muammo va uni echish ketma-ketligi, asosiy vazifalari bilan tanishiladi.

2. Keysdagi holatlarni aniqlashtirish: Xodim qanday yo‘l tutishi kerak?

3. Soliq qonunchiligi asosida xodimning daromad solig‘idan foydalanish uchun amalga oshirishi kerak bo‘lgan vazifalar ketma-ketligi ko‘rsatiladi.

4. Xodim vaziyati keltirilgan ko‘rsatkichlar asosida hisob-kitob qilinadi va soliq summasi aniqlanib, imtiyozdan foydalanish imkoniyati izlab topiladi.

5. Soliq qonunchiligi va hisob-kitoblar asosida xodim to‘lagan daromad solig‘ining to‘lov-kontraktga yo‘naltirilgan summasiga mos qismi, ya’ni unga qaytariladigan summasi aniqlanadi.

Keysologning javob variant

1. Xodim soliq qonunchiligini bilmasada, amalda uni hech qanday buzilishiga sababchi bo‘lmagan. U 2016 yilda olgan daromadlaridan to‘lov manbaida soliq to‘lagan. Farzandining o‘qishi uchun to‘lov-kontrakt summasini sof daromadidan to‘lab bergan, ya’ni soliqqa tortilgan daromadidan.

Xodimda soliq imtiyozidan foydalanish imkoniyati mavjud. Soliq to‘lovchilar daromadlar bo‘yicha jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo‘lmagan daromadlarni olgan soliq to‘lovchilar doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

2. Xodim soliq imtiyozidan foydalanishi uchun pasporti, asosiy ish joyidan olgan daromadlari va to‘lagan soliqlari ko‘rsatilgan ma’lumotnoma, farzandining to‘lov-kontrakt shartnomasi, to‘langan summa kvitansiyasi, farzandining o‘qiyotganligi haqidagi ma’lumotnomani doimiy yashash joyidagi davlat soliq inspeksiyasiga 2017 yil 1 aprelgacha taqdim etishi va soliq hisob-kitobini qayta amalga oshirishi kerak.

3. Xodimning yanvar–sentyabr oylaridagi mehnatiga oyiga 1 400 000 so‘mdan, oktyabr-dekabr oylarida esa 1 610 000 so‘mdan

haq to'langan. Yil boshidan daromad 17 430 000 so'mni ($1\,400\,000 \times 9 + 1\,610\,000 \times 3$) tashkil qiladi.

23%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisob-kitob qilamiz va yanvar-dekabr oylari uchun JShDSni hisoblaymiz:

$$1\,797\,312 + (17\,430\,000 - 15\,628\,800) \times 23\% = 2\,211\,588 \text{ so'm.}$$

Yanvar-noyabr oylarida 1 991 064 so'm JShDS ushlab qolingani. Dekabr oyidagi soliq summasi 220 524 so'mga ($2\,211\,588 - 1\,991\,064$) teng.

ShJBPHga majburiy badallar summasi 158 671,2 so'mga ($(17\,430\,000 - 1\,562\,880) \times 1\%$) teng.

Yanvar-noyabr oylarida ShJBPHga 143 873,6 so'm o'tkazilgan, dekabr oyida ajratmalar 14 797,6 so'mni ($158\,671,2 - 143\,873,6$) tashkil qiladi.

Dekabr oyi uchun byudjetga 205 726,4 so'm ($220\,524 - 14\,797,6$) JShDS o'tkaziladi.

Dekabr oyi uchun majburiy sug'urta badallari 120 750 so'mni ($1\,610\,000 \times 7,5\%$) tashkil etadi.

Soliq va sug'urta badallari ushlab qolingani keyin xodim qo'liga 1 268 726 so'm ($1\,610\,000 - 220\,524 - 120\,750$) ish haqi oladi.

4. Xodimning akademik litseyni tugatgan farzandi 2016-2017 o'quv yilida oliy ta'lim muassasasiga 1-kursga to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinganligi uchun 9 000 000 so'm shartnoma majburiyatlarini naqd pulda to'lagan.

Xodim jami yillik daromadlarini deklaratsiyalaganda to'lov-kontrakt summasiga yo'naltirilgan 9 000 000 so'm soliq bazasidan chegirib tashlanadi, ya'ni quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

$$17\,430\,000 - 9\,000\,000 = 8\,430\,000$$

Mazkur holatda xodimning daromad solig'i bazasi 8 430 000 so'mni tashkil etadi. Undan hisoblangan daromad solig'i summasi 573 516 so'mni tashkil etadi.

Xodim amalda 2 211 588 so'm daromad solig'ini to'lagan. Xodim deklaratsiya topshirishi natijasida daromad solig'i qayta hisob-kitob qilindi va soliq imtiyozini qo'llashi natijasida 573 516 so'm to'lashi kerakligi aniqlandi. Demak, xodim amalda to'lagan va to'lashi kerak bo'lgan summa o'rtasidagi farqni 1638072 ($2\,211\,588 - 573\,516$) davlat byudjetidan qaytarib olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

5. Keysda keltirilgan vaziyat bo'yicha echim xulosasi shundan iboratki, xodim soliq imtiyozlaridan foydalanish va to'lagan daromad solig'ining ortiqcha qismini qaytarib olish imkoniyatiga ega.

2019 YIL YANVAR OYI UCHUN JISMONIY SHAXSLAR DAROMADIDAN OLINADIGAN SOLIQ VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR HISOB-KITABI USLUBIYATI

- Yanvar oyida ish soatlari soni:

 - 5 kunlik (40 soatlik) ish haftasida - 168;

 - 6 kunlik (40 soatlik) ish haftasida - 167;

 - 36 soatlik ish haftasida - 150.

- Ish kunlari soni:

 - 5 kunlik ish haftasida - 21;

 - 6 kunlik ish haftasida - 25.

- 2019 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslarning ayrim turdagi daromadlariga eng kam stavka bo'yicha JShDS solinishi bekor qilindi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning daromadlariga 12%lik stavka bo'yicha soliq solinadi (Soliq kodeksi-ning 181-moddasi 1-qismi).

 - Yanvar oyi uchun eng kam ish haqi (EKIH) miqdori 202 730 so'mni (13.10.2018 yildagi PF-5553-son) tashkil etadi.

 - Butun yil davomida JShDSni va EKIHI baravarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarishda 2019 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra belgilangan EKIHI – 202 730 so'm qo'llanadi (Soliq kodeksi 186-moddasining 1-qismi).

 - 2019 yilda fuqarolarning ShJBPHga majburiy oylik badallari stavkasi xodimga hisoblangan ish haqi (daromad) soliq solinadigan summasining 0,1%ini tashkil etadi (26.12.2018 yildagi PQ-4086-son qarorning 5-bandi).

 - ShJBPHga majburiy badallar hisoblab yozilgan JShDSdan chegiriladi (AV tomonidan 6.10.2005 yilda 1515-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Nizomning 3-bandi).

 - O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida 2019 yil 1 yanvardan boshlab fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallari to'lovi bekor qilindi (29.06.2018 yildagi PF-5468-son Farmonning 3-bandi «a» kichik bandi).

I. AN'ANAVIY HISOB-KITOB

Xodimning yanvar oyidagi ish haqi 1 000 000 so'mni tashkil qildi.

Olingan daromadga 12%lik stavka bo'yicha solinadigan JShDS:
 $1\ 000\ 000 \times 12\% = 120\ 000$ so'mga teng.

Majburiy badallar summasi $1\ 000\ 000 \times 0,1\% = 1\ 000$ so'mni tashkil etadi.

Yanvar oyi uchun byudjetga 119 000 so'm ($120\ 000 - 1\ 000$) o'tkaziladi

JShDS va majburiy badallar ushlanganidan keyin xodimga 880 000 so'm ($1\ 000\ 000 - 120\ 000$) to'lanadi.

II. IMTIYOZLARNI HISOBGA OLGAN HOLDA

1-VAZIYAT Daromaddan EKIHning 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadigan imtiyoz qo'llanilgan holda JShDS hisob-kitobi

Soliq kodeksining 180-moddasiga muvofiq imtiyozga ega bo'lgan xodimning mehnat haqi 1 800 000 so'mni tashkil qildi.

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismiga muvofiq ushbu imtiyozga ega bo'lgan fuqarolarning (*masalan, 16 yoshdan oshmagan ikki va undan ortiq bolalari bo'lgan yolg'iz onalar*) jami daromadidan har oyda EKIHning 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadi.

Soliq solinadigan daromadni hisob-kitob qilamiz:

$1\ 800\ 000 - 202\ 730 \times 4 = 989\ 080$ so'mga teng.

Yanvar oyi uchun soliqni hisoblab yozamiz:

$989\ 080 \times 12\% = 118\ 689,6$ so'm.

ShJBPHga majburiy badallar 989,08 so'mni ($989\ 080 \times 0,1\%$) tashkil etadi.

Byudjetga 117 700,52 so'm ($118\ 689,6 - 989,08$) JShDS o'tkaziladi.

Xodim qo'liga 1 684 310,4 so'm ($1\ 800\ 000 - 118\ 689,6$) ish haqi oladi.

2-VAZIYAT Daromaddan EKIHning 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadigan imtiyoz qo'llanilgan holda JShDS hisob-kitobi

Soliq kodeksining 180-moddasiga muvofiq imtiyozga ega bo'lgan xodimning mehnat haqi 800 000 so'mni tashkil qildi.

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismiga muvofiq ushbu imtiyozga ega bo'lgan fuqarolarning (*masalan, 16 yoshdan oshmagan ikki va undan ortiq bolalari bo'lgan yolg'iz onalar*) jami daromadidan har oyda EKIHning 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadi.

Soliq solinadigan daromadni hisob-kitob qilamiz:

$202\,730 \times 4 = 989\,080$ so'mga teng.

Xodimning daromadi (800 000 so'm) imtiyoz miqdoridan (989 080 so'm) kam bo'lganligi bois yanvar oyi uchun soliq hisoblanmaydi.

ShJBPHga majburiy badallar soliq solinadigan daromad mavjud bo'lmaganligi sababli hisoblanmaydi.

Xodim qo'lga 800 000 so'm ish haqi oladi.

3-VAZIYAT Moddiy yordam olinganda imtiyozni hisobga olgan holda JShDS hisob-kitobi

Xodimning mehnatiga yanvar oyi uchun 1 400 000 so'm to'langan.

Unga farzandli bo'lganligi munosabati bilan 2 600 000 so'm moddiy yordam ko'rsatilgan.

Soliq kodeksining 179-moddasi 1-bandining 3 va 4-xatboshilariga ko'ra bir yil davomida EKIHning 12 baravarigacha miqdorda beriladigan quyidagi moddiy yordam summalariga: vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to'lovlar; xodimga mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoxud sog'liqqa boshqacha shikast etganligi bilan bog'liq to'lovlar; bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi munosabati bilan beriladigan to'lovlar; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzidagi to'lovlarga JShDS solinmaydi (*Soliq kodeksining 178-moddasi 16-bandi*). Yil mobaynida hisob-kitob qilishda yil boshida amal qilgan EKIH qo'llaniladi ($202\,730 \times 12 = 2\,432\,760$ so'm).

Soliq solinadigan daromad 1 567 240 so'mga teng.

$(1\,400\,000 + 2\,600\,000 - 2\,432\,760)$.

Yanvar oyi uchun soliqni hisoblab yozamiz:

$1\,567\,240 \times 12\% = 188\,068,8$ so‘m.

ShJBPHga majburiy badallar summasi 1 567,24 so‘mni ($1\,567\,240 \times 0,1\%$) tashkil etadi.

Yanvar oyi uchun byudjetga 186 501,56 so‘m ($188\,068,8 - 1\,567,24$) JShDS o‘tkaziladi.

Xodim qo‘liga 3 811 931,2 so‘m ($1\,400\,000 + 2\,600\,000 - 188\,068,8$) ish haqi oladi.

4-VAZIYAT Qimmatbaho sovg‘a olinganda imtiyozni hisobga olgan holda JShDS hisob-kitobi

Xodimning mehnatiga yanvar oyida 1 500 000 so‘m ish haqi to‘langan. Unga 1 2 000 000 so‘mlik smartfon sovg‘a qilindi.

Soliq kodeksining 179-moddasi 14-bandiga ko‘ra bir yil mobaynida yuridik shaxslardan EKIHNing 6 baravari miqdorigacha bo‘lgan summada olingan sovg‘alarning qiymatiga soliq solinmaydi. Bunda yil mobaynida hisob-kitob qilishda yil boshida amal qilgan EKIHN qo‘llaniladi ($202\,730 \times 6 = 1\,216\,380$ so‘m).

Soliq solinadigan daromad 2 283 620 so‘mga ($1\,500\,000 + 2\,000\,000 - 1\,216\,380$) teng.

Yanvar oyi uchun soliqni hisoblab yozamiz:

$2\,283\,620 \times 12\% = 274\,034,4$ so‘m.

Yanvar oyi uchun ShJBPHga majburiy badallar summasi 2 283,62 so‘mga ($2\,283\,620 \times 0,1\%$) teng.

Byudjetga 271 750,78 so‘m ($274\,034,4 - 2\,283,62$) JShDS o‘tkaziladi.

Xodim qo‘liga 1 225 965,6 so‘m ($1\,500\,000 - 274\,034,4$) ish haqi oladi.

5-VAZIYAT Bir nechta imtiyozni hisobga olgan holda (har oyda daromaddan EKIHNing 4 baravariga teng summani chegirish, moddiy yordam va qimmatbaho sovg‘a olinganda) JShDS hisob-kitobi

Soliq kodeksining 180-moddasiga ko‘ra imtiyozga haqli bo‘lgan xodimga yanvar oyida 1 500 000 so‘m ish haqi to‘langan. Unga

nikohdan o'tishi munosabati bilan 3 000 000 so'm moddiy yordam ko'rsatilgan va 1 800 000 so'mlik qiymatga ega sovg'a topshirilgan.

Quyidagilarga muvofiq:

- Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismiga muvofiq imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan xodimning soliq solinadigan daromadidan har oyda EKIHNing 4 baravariga teng summa ($202\,730 \times 4 = 810\,920$ so'm) chiqarib tashlanadi;

- Soliq kodeksining 179-moddasi 1-bandiga muvofiq, bir yil davomida EKIHNing 12 baravarigacha ($202\,730 \times 12 = 2\,432\,760$ so'm) miqdorda beriladigan moddiy yordam summasiga JShDS solinmaydi;

- Soliq kodeksining 179-moddasi 14-bandiga ko'ra yuridik shaxslardan bir yil mobaynida EKIHNing 6 baravari ($202\,730 \times 6 = 1\,216\,380$ so'm) miqdorigacha olingan sovg'alarning qiymatiga JShDS solinmaydi.

Soliq solinadigan daromadni aniqlaymiz:

$$1\,500\,000 - 810\,920 + 3\,000\,000 - 2\,432\,760 + 1\,800\,000 - 1\,216\,380 = 1\,839\,940 \text{ so'm.}$$

Yanvar oyi uchun soliqni hisob-kitob qilamiz:

$$1\,839\,940 \times 12\% = 220\,792,8 \text{ so'm.}$$

ShJBPHga majburiy badallar summasi 1 839,94 so'mni ($1\,839\,940 \times 0,1\%$) tashkil etadi.

Byudjetga 218 952,86 so'm ($220\,792,8 - 1\,839,94$) soliq o'tkaziladi.

Xodim qo'liga 4 279 207,2 so'm ($1\,500\,000 + 3\,000\,000 - 220\,792,8$) oladi.

III. ODATDAN TASHQARI HOLATLAR

1-VAZIYAT O'rindosh xodim daromadlaridan JShDS hisob-kitobi

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan imtiyozga ega o'rindosh xodimga yanvar oyida 800 000 so'm ish haqi to'langan.

- Asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to'lov manbaida JShDSni hisoblab chiqarish

Soliq kodeksining 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozni qo'llamasdan jami daromad summasidan amalga oshiriladi (*Soliq kodeksining 186-moddasi 8-qismi*).

Yanvar oyi uchun soliqni hisob-kitob qilamiz:

$800\ 000 \times 12\% = 96\ 000$ so'mga teng.

ShJBPHga majburiy badallar 800 so'mga ($800\ 000 \times 0,1\%$) teng.

Yanvar oyi uchun byudjetga 95 200 so'm ($96\ 000 - 800$) JShDS o'tkaziladi.

Soliq ushlanganidan keyin xodim 704 000 so'm ($800\ 000 - 96\ 000$) ish haqi oladi.

2-VAZIYAT Yuridik shaxsga turar joyni ijaraga beruvchi xodimning daromadlaridan JShDS hisob-kitobi

Xodimning yanvar oyi uchun mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadi 1 100 000 so'mga teng. Xodim Toshkent shahrida joylashgan, maydoni 40 kv.m bo'lgan turar joy binosini 1 yanvardan boshlab ijaraga berish to'g'risida ish beruvchi bilan shartnoma tuzdi va har oyda 1 000 000 so'm ijara haqi oladi.

- Jismoniy shaxslarning turar joyni ijaraga topshirishdan oladigan daromadlariga soliq solish ijara (yollash) shartnomasida nazarda tutilgan to'lovdan kelib chiqib amalga oshiriladi, biroq u turar joyni ijaraga beradigan jismoniy shaxslar uchun belgilangan eng kam ijara haqi stavkalaridan hisoblab chiqarilgan miqdordan kam bo'lmasligi kerak (*PQ-4086-son qarorga 24-ilova*).

- Toshkent shahrida bir oylik ijara to'lovining eng kam miqdori etib 1 kv.m turar joy uchun 10 000 so'm; Nukus va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlarda – 6 500 so'm; boshqa aholi punktlarida – 3 000 so'm belgilangan.

- ShJBPHga badallar ish beruvchi va xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlar uchun olingan daromadlardan hisoblab yoziladi. Ijara haqi tarzidagi daromadlar mulkiy daromad bo'lganligi va ishlar bajarish bilan bog'liq bo'lmaganligi bois, undan ShJBPHga ajratmalar qilinmaydi.

Ijara haqidan JShDS summasini hisoblaymiz. Mazkur holatda uning eng kam summasi 400 000 so'mni ($10\ 000 \times 40$) tashkil etadi, u

haqiqatdagi ijara haqidan kamligi bois shartnomada nazarda tutilgan summadan soliq hisoblanadi:

$$1\ 000\ 000 \times 12\% = 120\ 000 \text{ so‘m.}$$

Yanvar oyi uchun mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromaddan soliqni hisoblaymiz:

$$1\ 100\ 000 \times 12\% = 132\ 000 \text{ so‘m.}$$

ShJBPHga majburiy badallar 1 100 so‘mga ($1\ 100\ 000 \times 0,1\%$) teng.

Yanvar oyi uchun byudjetga 130 900 so‘m soliq ($132\ 000 - 1\ 100$) o‘tkaziladi.

Soliq ushlab qolinganidan keyin xodimga 1 848 000 so‘m ish haqi ($1\ 100\ 000 + 1\ 000\ 000 - 132\ 000 - 120\ 000$) to‘lanadi.

JISMONIY SHAXSLAR DAROMADIDAN OLINADIGAN SOLIQ VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLAR HISOB-KITABI USLUBIYATI (2018 YILNING YANVAR OYI UCHUN)

Yanvar oyida ish soatlari soni:

5 kunlik (40 soatlik) ish haftasida -168;

6 kunlik (40 soatlik) ish haftasida -167;

36 soatlik ish haftasida -150.

Ish kunlari soni:

5 kunlik ish haftasida - 21;

6 kunlik ish haftasida - 25.

2018 yil 1 yanvardan boshlab JSHDSning quyidagi stavkalari amal qilmoqda: nol stavkali; eng kam stavka - 7,5%; o‘rtacha stavka -16,5%; eng yuqori stavka - 22,5% (Prezidentning 29.12.2017 yildagi PQ-3454-son qaroriga 8-ilova). Yanvar oyida eng kam ish haqi (EKIH) miqdori 172 240 so‘mni tashkil etadi (20.11.2017 yildagi PF-5245-son).

Butun yil davomida JSHDSni va EKIHI 6 baravarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarishda 2018 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra belgilangan EKIHI-172 240 so‘m qo‘llanadi (Soliq kodeksi 186-moddasining 1-qismi).

2018 yilda fuqarolarning SHJBPHga majburiy oylik badallari stavkasi xodimga hisoblangan ish haqi (daromad) soliq solinadigan summasining 2%ini, nol stavkasida (EKIH 1 baravari) soliq solinadigan daromad chegirilgan holda, tashkil etadi (PQ-3454-son

qarorga 8-ilova). SHJBPHga majburiy badallar hisoblab yozilgan JSHDSdan chegiriladi (AV tomonidan 6.10.2005 yilda 1515-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Nizomning 3-bandi)

2018 yil uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga fuqarolarning majburiy sug'urta badallari stavkasi xodimga hisoblab yozilgan, badallar undiriladigan ish haqi (daromad) summasining 8%i miqdorida belgilangan(PQ-3454-son qarorning 3-bandi).

<i>Soliq solinadigan daromad miqdori</i>	<i>Soliq stavkasi</i>
172 240 so'mgacha	0%
172 241 so'mdan 861 200 so'mgacha (5x172 240)	172 240 so'mdan ortiq summaning 7,5%i
861 201 so'mdan 1 722 400 so'mgacha (10x172 240)	51 672 so'm + 861 200 so'mdan ortiq summaning 16,5%i
1 722 401 so'm va undan yuqori	193 770 so'm +1 722 400 so'mdan ortiq summaning 22,5%i

I. AN'ANAVIY HISOB-KITOB

1-VAZIYAT

Oyiga EKIHNing 1 baravaridan oshmaydigan daromadlardan JSHDS hisob-kitobi Xodima korxonada chorak stavkada ishlaydi. Yanvar oyida u 150 000 so'm ish haqi oldi.

Jismoniy shaxsning 172 240 so'mgacha bo'lgan daromadiga nol stavkasi bo'yicha soliq solinadi Xodimaning ish shchidan JSHDS so'mni (150 000 x 0%) tashkil qiladi.

Xodimaning ish haqtsdan SHJBPHga badallar hisob-kitobida nol stavkasi bo'yicha soliq solinadigan daromad (EKIHNing 1 baravari) chegirilishi sababli ushbu badallar hisoblab o'tkazilmaydi.

Xodimaning daromadlaridan sug'urta badallari 12 000 so'mga (150 000 x 8%) teng.

Sug'urta badallari ushlanganidan keyin xodimaga 138 000 so'm (150 000 -12 000) to'lanadi.

2-VAZIYAT

Oyiga EKIHNing 5 baravaridan oshmaydigan daromadlardan JSHDS hisob-kitobi.

Xodimga yanvar oyida 720 000 so'm ish haqi to'langan.

Olingan daromadga 7,5%lik stavka bo'yicha solinadigan JShDS:
 $(720\ 000 - 172\ 240) \times 7,5\% = 41\ 082$ so'mga teng.

Yanvar oyi uchun ShJBPHga majburiy badallar summasi 10 955,2 so'mni $((720\ 000 - 172\ 240) \times 2\%)$ tashkil etadi.

Yanvar oyi uchun byudjetga 30 126,8 so'm $(41\ 082 - 10\ 955,2)$ soliq o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari 57 600 so'mni $(720\ 000 \times 8\%)$ tashkil etadi.

JSHDS va sug'urta badallari ushlanganidan keyin xodimga 621 318 so'm $(720\ 000 - 41\ 082 - 57\ 600)$ to'lanadi.

3-VAZIYAT

Bir oydagi daromadlar 10 EKIHDan oshmaganda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar oyidagi mehnatiga 1 050 000 so'm to'langan.

16,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisob-kitob qilamiz va yanvar oyi uchun soliqni hisoblaymiz:

$51\ 672 + (1\ 050\ 000 - 861\ 200) \times 16,5\% = 82\ 824$ so'm.

SHJBPHga majburiy badallar 17 555,2 so'mni $((1\ 050\ 000 - 172\ 240) \times 2\%)$ tashkil etadi.

Yanvar oyi uchun byudjetga 65 268,8 so'm $(82\ 824 - 17\ 555,2)$ JSHDS o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari 84 000 so'mni $(1\ 050\ 000 \times 8\%)$ tashkil etadi.

Xodim qo'liga 883 176 so'm $(1\ 050\ 000 - 82\ 824 - 84\ 000)$ ish haqi oladi.

4-VAZIYAT

Bir oydagi daromadlar 10 EKIHDan oshganda JSHDS hisob-kitobi

Xodimning yanvar oyidagi mehnatiga 1 850 000 so'm haq to'langan.

22,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisob-kitob qilamiz va yanvar oyi uchun JShDSni hisoblaymiz: $193\ 770 + (1\ 850\ 000 - 1\ 722\ 400) \times 22,5\% = 222\ 480$ so'm.

SHJBPHga majburiy badallar summasi 33 555,2 so'mga $((1\ 850\ 000 - 172\ 240) \times 2\%)$ teng.

Yanvar oyi uchun byudjetga 188 924,8 so'm $(222\ 480 - 33\ 555,2)$ JShDS o'tkaziladi.

Yanvar oyi uchun majburiy sug'urta badallari 148 000 so'mni (1 850 000 x 8%) tashkil etadi.

Xodim qo'liga 1 479 520 so'm (1 850 000 - 222 480 -148 000) ish haqi oladi.

II. IMTIYOZLARNI HISOBGA OLGAN HOLDA

5-VAZIYAT

Daromaddan EKIHNing 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadigan imtiyoz qo'llanilgan holda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar oyidagi mehnatiga 1 850 000 so'm haq to'langan

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismiga muvofiq ushbu imtiyozga ega bo'lgan fuqarolarning (masalan, 16 yoshdan oshmagan ikki va undan ortiq bolalari bo'lgan yolg'iz onalar) jami daromadidan har oyda EKIHNing 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadi.

Soliq solinadigan daromadni hisoblaymiz:

$$1\,850\,000 - 172\,240 \times 4 = 1\,161\,040 \text{ so'm.}$$

16,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblaymiz va yanvar oyi uchun soliqni hisoblab yozamiz:

$$51\,672 + (1\,161\,040 - 861\,200) \times 16,5\% = 101\,145,6 \text{ so'm.}$$

SHJBPHga majburiy badallar 19 776 so'mni ((1 161 040-172 240) x 2%) tashkil etadi.

Byudjetga 81 369,6 so'm (101 145,6 - 19 776) JShDS o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari 148 000 so'mni (1 850 000 x 8%) tashkil etadi.

Xodim qo'liga 1 600 854,4 so'm (1 850 000- 101 145,6- 148 000) ish haqi oladi.

6-VAZIYAT

Moddiy yordam olish chog'ida imtiyozni hisobga olgan holda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar oyidagi mehnatiga 1 265 000 so'm haq to'langan. Unga farzandining tug'ilganligi munosabati bilan 2 200 000 so'm moddiy yordam berilgan.

Soliq kodeksining 179-moddasi 1-bandining 3 va 4-xatboshilariga ko'ra bir yil davomida EKIHNing 12 baravarigacha miqdorda beriladigan quyidagi moddiy yordam summalariga: vafot etgan

xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to'lovlar; xodimga mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoxud sog'liqqa boshqacha shikast etganligi bilan bog'liq to'lovlar; bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikoxdan o'tishi munosabati bilan beriladigan to'lovlar; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzidagi to'lovlarga JShDS solinmaydi (Soliq kodeksining 178-moddasi 16-bandi). Yil mobaynida hisob-kitob qilishda yil boshida amal qilgan EKIH qo'llaniladi ($172\,240 \times 12 = 2\,066\,880$ so'm).

Soliq solinadigan daromad $1\,398\,120$ so'mga ($1\,265\,000 + 2\,200\,000 - 2\,066\,880$) teng.

16,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblaymiz va yanvar oyi uchun soliqni hisoblab yozamiz:

$$51\,672 + (1\,398\,120 - 861\,200) \times 16,5\% = 140\,263,8 \text{ so'm.}$$

SHJBPHga majburiy badallar summasi $24\,517,6$ so'mni ($(1\,398\,120 - 172\,240) \times 2\%$) tashkil etadi.

Yanvar oyi uchun byudjetga $115\,746,2$ so'm ($140\,263,8 - 24\,517,6$) JShDS o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari $101\,200$ so'mni ($1\,265\,000 \times 8\%$) tashkil etadi.

Xodim qo'liga $3\,223\,536,2$ so'm ($1\,265\,000 + 2\,200\,000 - 140\,263,8 - 101\,200$) ish haqi oladi.

7-VAZIYAT

Qimmatbaho sovg'a olinganda imtiyozni hisobga olgan holda JSHDS hisob-kitobi

Xodimning yanvar oyidagi mehnatiga $1\,300\,000$ so'm haq to'langan. Unga $1\,800\,000$ so'mlik noutbuk sovg'a qilindi.

Soliq kodeksining 179-moddasi 14-bandiga ko'ra bir yil mobaynida yuridik shaxslardan EKIHning 6 baravari miqdorigacha bo'lgan summada olingan sovg'alarning qiymatiga soliq solinmaydi. Bunda yil mobaynida hisob-kitob qilishda yil boshida amal qilgan EKIH qo'llaniladi ($172\,240 \times 6 = 1\,033\,440$ so'm).

Soliq solinadigan daromad $2\,066\,560$ so'mga ($1\,300\,000 + 1\,800\,000 - 1\,033\,440$) teng.

22,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblaymiz va yanvar oyi uchun soliqni hisoblab yozamiz $193\,770 + (2\,066\,560 - 1\,722\,400) \times 22,5\% = 271\,206$ so'm.

Yanvar oyi uchun SHJBPHga majburiy badallar summasi 37 886,4 soʻmga ((2 066 560 -172 240) x 2%) teng.

Byudjetga 233 319,6 soʻm (271 206 - 37 886,4) JShDS oʻtkaziladi.

Yanvar oyi uchun majburiy sugʻurta badallari 104 000 soʻmni (1 300 000 x 8%) tashkil etadi.

Xodim qoʻliga 924 794 soʻm (1 300 000 - 271 206 -104 000) ish haqi oladi.

8-VAZIYAT

Bir nechta imtiyozni hisobga olgan holda (har oyda daromaddan EKIHNing 4 baravariga teng summani chegirish, moddiy yordam va qimmatbaho sovgʻa olinganda) JSHDS hisob-kitobi.

Soliq kodeksining 180-moddasiga koʻra imtiyozga haqli boʻlgan xodimga yanvar oyida 1 300 000 soʻm ish haqi toʻlangan Unga nikohdan oʻtishi munosabati bilan 2 300 000 soʻm moddiy yordam koʻrsatilgan va 1 500 000 soʻmlik qiymatga ega sovgʻa topshirilgan.

Quyidagilarga muvofiq:

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismiga muvofiq imtiyoz olish huquqiga ega boʻlgan xodimning soliq solinadigan daromadidan har oyda EKIHNing 4 baravariga teng summa ($172\,240 \times 4 = 688\,960$ soʻm) chiqarib tashlanadi:

Soliq kodeksining 179-moddasi 1-bandiga muvofiq, bir yil davomida EKIHNing 12 baravarigacha ($172\,240 \times 12 = 2\,066\,880$ soʻm) miqdorda beriladigan moddiy yordam summasiga JShDS solinmaydi;

Soliq kodeksining 179-moddasi 14-bandiga koʻra yuridik shaxslardan bir yil mobaynida EKIHNing 6 baravari ($172\,240 \times 6 = 1\,033\,440$ soʻm) miqdorigacha olingan sovgʻalarning qiymatiga JShDS solinmaydi.

Soliq solinadigan daromadni aniqlaymiz:

$1\,300\,000 - 688\,960 + 2\,300\,000 - 2\,066\,880 + 1\,500\,000 - 1\,033\,440 = 1\,310\,720$ soʻm.

Olingan daromadga 16,5%lik stavka boʻyicha soliq solinadi:

$51\,672 + (1\,310\,720 - 861\,200) \times 16,5\% = 125\,842,8$ soʻm.

SHJBPHga majburiy badallar summasi 22 769,6 soʻmni ((1 310 720 -172 240) x 2%) tashkil etadi.

Byudjetga 103 073,2 soʻm (125 842,8 - 22 769,6) soliq oʻtkaziladi.

Majburiy sugʻurta badallari 104 000 soʻmni (1 300 000 x 8%) tashkil etadi.

Xodim qo'liga 3 370 157,2 so'm (1 300 000 + 2 300 000 -125 842,8 -104 000) oladi.

III. ODATDAN TASHQARI HOLATLAR

9-VAZIYAT

O'rindosh xodim daromadlaridan JSHDS hisob-kitobi

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan imtiyozga ega o'rindosh xodimga yanvar oyida 800 000 so'm ish haqi to'langan.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromatlarga to'lov manbaida JSHDSni hisoblab chiqarish Soliqlik kodeksining 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozni qo'llamasdan jami daromad summasidan amalga oshiriladi (Soliqlik kodeksining 186-moddasi 8-qismi).

Agar asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan daromad oladigan jismoniy shaxs buxgalteriyaga undan JSHDSni eng yuqori stavkada ushlab qolish haqida ariza taqdim etsa, u holda daromad to'lovchi yuridik shaxs imtiyozlarni qo'llamagan holda uni eng yuqori stavkada ushlab qoladi (Soliqlik kodeksining 186-moddasi 9-qismi). Bunday ariza mavjud bo'lmagan hollarda JShDS shkala bo'yicha ushlab qolinadi, soliq to'lovchi esa soliq organlarida o'tgan yil uchun jami daromadlarini keyingi yilning 1 apreliga qadar deklaratsiyalashi shart.

I. O'rindosh buxgalteriyaga JSHDSni eng yuqori stavkada ushlab qolish haqida ariza taqdim etmagan.

Uning yanvar oyida olgan daromadiga 7,5%lik stavka bo'yicha soliq, solinadi:

$(800\ 000 - 172\ 240) \times 7,5\% = 47\ 082$ so'mga teng.

SHJBPHga majburiy badallar 12 555,2 so'mga $((800\ 000 - 172\ 240) \times 2\%)$ teng.

Yanvar oyi uchun byudjetga 34 526,8 so'm (47 082- 12 555,2) JShDS o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari summasi 64 000 so'mni $(800\ 000 \times 8\%)$ tashkil etadi.

Soliq va sug'urta badallari ushlanganidan keyin xodim 688 918 so'm $(800\ 000 - 47\ 082 - 64\ 000)$ ish haqi oladi.

II. O‘rindosh xodim buxgalteriyaga JSHDSni eng yuqori - 22,5%lik stavkada ushlab qolish haqida ariza taqdim etgan.

O‘rindoshning daromadi 1 722 400 so‘mdan oshmasligiga qaramay, xodimning arizasiga ko‘ra uning butun ish haqiga 22,5%lik stavka bo‘yicha soliq solinadi. Yanvar oyi uchun JSHDS summasi 180 000 so‘mga ($800\,000 \times 22,5\%$) teng

Jami ish haqidan (nol stavkasi bo‘yicha soliq solinadigan daromadni chegirmagan holda) SHJBPHga badallar (2%) hisoblab yoziladi. Yanvar oyida ularning summasi 16 000 so‘mni ($800\,000 \times 2\%$) tashkil etadi.

Byudjetga 164 000 so‘m ($180\,000 - 16\,000$) JSHDS o‘tkaziladi.

Yanvar oyi uchun sug‘urta badallari 64 000 so‘mni ($800\,000 \times 8\%$) tashkil etadi.

JSHDS va sug‘urta badallari ushlanganidan keyin o‘rindosh xodim 556 000 so‘m ($800\,000 - 180\,000 - 64\,000$) ish haqi oladi.

10-VAZIYAT

Yuridik shaxsga turar joyni ijaraga beruvchi xodimning daromadlaridan JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar oyidagi mehnatiga 850 000 so‘m haq to‘langan. Xodim Toshkent shahrida joylashgan, maydoni 50 kv.m bo‘lgan turar joy binosini 1yanvardan boshlab ijaraga berish to‘g‘risida ish beruvchi bilan shartnoma tuzdi va har oyda 1000 000 so‘m ijara haqi oladi.

Jismoniy shaxslarning turar joyni ijaraga topshirishdan oladigan daromadlariga soliq solish ijara (yollash) shartnomasida nazarda tutilgan to‘lovdan kelib chiqib amalga oshiriladi, biroq u turar joyni ijaraga beradigan jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara haqi stavkalaridan hisoblab chiqarilgan miqdordan kam bo‘lmasligi kerak (PQ-3454-son qarorga 25-ilova).

Toshkent shahrida bir oylik ijara to‘lovining eng kam miqdori etib 1 kv.m turar joy uchun 4 500 so‘m; Nukus va viloyat bo‘ysunuvdagi shaharlarda - 3000 so‘m; boshqa aholi punktlarida - 1 500 so‘m belgilangan.

Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga 7,5%lik stavka bo‘yicha JShDS solinadi (Soliq kodeksining 181-moddasi).

SHJBPHga badallar ish beruvchi va xodim o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy tisdagi shartnoma bo‘yicha bajarilgan ishlar uchun olingan daromadlardan hisoblab

yoziyadi. Ijara haqi tarzidagi daromadlar mulkiy daromad bo'lganligi va ishlar bajarish bilan bog'liq bo'lmaganligi bois, undan ShJBPHga ajratmalar qilinmaydi.

Ijara haqidani JSHDS summasini hisoblaymiz. Mazkur holatda uning eng kam summasi 225 000 so'mni (4 500 x 50) tashkil etadi, u haqiqatdagi ijara haqidani kamligi bois shartnomada nazarda tutilgan summadan soliq hisoblanadi:

$$1\ 000\ 000 \times 7,5\% = 75\ 000 \text{ so'm.}$$

Yanvar oyi uchun xodimning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadidan 7,5%lik stavka bo'yicha soliq hisoblaymiz:

$$(850\ 000 - 172\ 240) \times 7,5\% = 50\ 832 \text{ so'm.}$$

SHJBPHga majburiy badallar 13 555,2 so'mga ((850 000 - 172 240) x 2%) teng.

Yanvar oyi uchun byudjetga 37 276,8 so'm soliq (50 832-13 555,2) o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari 68 000 so'mni (850 000 x 8%) tashkil etadi.

Soliq va majburiy ajratmalar ushlab qolinganiidan keyin xodimga 1 656 168 so'm (850 000 + 1 000 000 - 75 000 - 50 832 - 68000)to'lanadi.

JISMONIY SHAXSLAR DAROMADIDAN OLINADIGAN SOLIQ VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR HISOB-KITABI USLUBIYATI (2018 YILDA FEVRAL OYI UCHUN)

Fevral oyida ish soatlari soni

5 kunlik (40 soatlik) ish haftasida – 160;

6 kunlik (40 soatlik) ish haftasida – 160;

36 soatlik ish haftasida – 144.

Ish kunlari soni:

5 kunlik ish haftasida – 20;

6 kunlik ish haftasida – 24.

2018 yil 1 yanvardan boshlab JSHDS ning quyidagi stavkalari amal qilmoqda: nol stavkali; eng kam stavka - 7,5%; o'rtacha stavka - 16,5%; eng yuqori stavka - 22,5% (Prezidentning 29.12.2017 yildagi PQ-3454-son qaroriga 8-ilova).

Yanvar-fevral oylarida eng kam ish haqi (EKIH) miqdori 344 480 so'mni (172 240 x 2) tashkil etadi (20.11.2017 yildagi PF-5245-son).

Butun yil davomida JSHDSni va EKIHNi baravarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarishda 2018 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra belgilangan EKIHNi-172 240 so'm qo'llanadi (Soliq kodeksi 186-moddasining 1-qismi).

2018 yilda fuqarolarning SHJBPHga majburiy oylik badallari stavkasi xodimga hisoblangan ish haqi (daromad) soliq solinadigan summasining 2% ini, nol stavkasida (EKIHNi 1 baravari) soliq solinadigan daromad chegirilgan holda, tashkil etadi (PQ-3454-son qarorga 8-ilova).

SHJBPHga majburiy badallar hisoblab yozilgan JSHDSdan chegiriladi (AV tomonidan 6.10.2005 yilda 1515-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Nizomning 3-bandi).

2018 yil uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga fuqarolarning majburiy sug'urta badallari stavkasi xodimga hisoblab yozilgan, badallar undiriladigan ish haqi (daromad) summasining 8% i miqdorida belgilangan (PQ-3454-son qarorning 3-bandi).

Soliq solinadigan daromad miqdori	Soliq stavkasi
344480 so'mgacha	0%
344 481 so'mdan 1 722 400 so'mgacha (5x344 480)	344 480 so'mdan ortiq summaning 7,5%i
1 722 401 so'mdan 3 444 800 so'mgacha (10 x 344 480)	103 344 so'm +1 722 400 so'mdan ortiq summaning16,5%i
3 444 801 so'm va undan yuqori	387 540 so'm + 3 444 800 so'mdan ortiq summaning 22,5%i

1-VAZIYAT

Oyiga EKIHNing 1 baravaridan oshmaydigan daromadlardan JSHDS hisob-kitobi

Xodima korxonada chorak stavkada ishlaydi. Yanvar-fevral oylarida u 150 000 so'mdan ish haqi oldi, yil boshidan jami daromad - 300 000 so'mni (150 000 x 2) tashkil qiladi.

Jismoniy shaxsning 344 480 so'mgacha bo'lgan daromadiga nol stavkasi bo'yicha soliq solinadi. Xodimaning ish haqidan JSHDS 0 so'mni (300 000 x 0%) tashkil qiladi.

Xodimaning ish haqidan SHJBPHga badallar hisob-kitobida nol stavkasi bo'yicha soliq solinadigan daromad (EKIHNing 1 baravari) chegirilishi sababli ushbu badallar hisoblab o'tkazilmaydi.

Xodimning daromadlaridan sug'urta badallari 12 000 so'mga (150 000 x 8%) teng.

Sug'urta badallari ushlanganidan keyin xodimaga 138 000 so'm (150 000 - 12 000) to'lanadi.

2-VAZIYAT

Oyiga EKIHNing 5 baravaridan oshmaydigan daromadlardan JSHDS hisob-kitobi.

Xodimga yanvar-fevral oylarida 720 000 so'mdan ish haqi to'langan, yil boshidan jami daromad - 1 440 000 so'mni (720 000 x 2) tashkil qiladi.

Olingan daromadga 7,5% lik stavka bo'yicha solinadigan JSHDS:
(1440 000 - 344 480) x 7,5% = 82 164 so'mga teng.

Yanvar oyida 41 082 so'm soliq ushlab qolingani. Fevral oyidagi soliq summasi 41 082 so'mga (82 164 - 41 082) teng.

Yanvar-fevral oylari uchun ShJBPHga majburiy badallar summasi 21910,4 summi ((1 440 000 - 344 480) x 2%) tashkil etadi.

Yanvar oyida SHJBPHga 10 955,2 so'm o'tkazilgan, fevral oyida ajratmalar 10 955,2 so'mni (21 910,4 - 10 955,2) tashkil qiladi.

Fevral oyi uchun byudjetga 30 126,8 so'm (41082-10 955,2) soliq o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari 57 600 so'mni (720 000 x 8%) tashkil etadi.

JSHDS va sug'urta badallari ushlanganidan keyin xodimga 621318 so'm (720 000 - 41 082 - 57 600) to'lanadi.

3-VAZIYAT

Bir oyidagi daromadlar 10 EKIHDan oshmaganda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar-fevral oylaridagi mehnatiga 1 050 000 so'mdan to'langan, yil boshidan jami daromad - 2100 000 so'mni (1 050 000 x 2) tashkil qiladi.

16,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisob-kitob qilamiz va yanvar-fevral oylari uchun soliqni hisoblaymiz:

103 344 + (2 100 000 - 1 722 400) x 16,5% = 165 648 so'm.

Yanvar oyida 82 824 so'm soliq ushlab qolingani. Fevral oyidagi soliq summasi 82 824 so'mga (165 648-82 824) teng.

SHJBPHGA majburiy badallar 35110,4 soʻmni $((2\ 100\ 000 - 344\ 480) \times 2\%)$ tashkil etadi.

Yanvar oyida SHJBPHga 17 555,2 soʻm oʻtkazilgan, fevral oyida ajratmalar 17 555,2 soʻmni (35110,4-17 555,2) tashkil qiladi.

Fevral oyi uchun byudjetga 65 268,8 soʻm (82 824-17 555,2) JSHDS oʻtkaziladi.

Majburiy sugʻurta badallari 84 000 soʻmni $(1\ 050\ 000 \times 8\%)$ tashkil etadi.

Xodim qoʻliga 883176 soʻm $(1\ 050\ 000 - 82\ 824 - 84\ 000)$ ish haqi oladi.

4-VAZIYAT

Bir oydagi daromadlar 10 EKIHDan oshganda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar-fevral oylaridagi mehnatiga 1 850 000 soʻmdan haq toʻlangan yil boshidan jami daromad - 3 700 000 soʻmni $(1\ 850\ 000 \times 2)$ tashkil qiladi.

22,5%lik stavka boʻyicha soliq solinadigan daromad summasini hisob-kitob qilamiz va yanvar-fevral oylari uchun JSHDSni hisoblaymiz

$$387\ 540 + (3\ 700\ 000 - 3\ 444\ 800) \times 22,5\% = 444\ 960 \text{ soʻm.}$$

Yanvar oyida 222 480 soʻm soliq ushlab qolingan. Fevral oyidagi soliq summasi 222 480 soʻmga $(444\ 960 - 222\ 480)$ teng.

SHJBPHga majburiy badallar summasi 67110,4 soʻmga $((3\ 700\ 000 - 344\ 480) \times 2\%)$ teng.

Yanvar oyida SHJBPHga 33 555,2 soʻm oʻtkazilgan, fevral oyida ajratmalar 33 555,2 soʻmni $(67110,4 - 33\ 555,2)$ tashkil qiladi.

Fevral oyi uchun byudjeta 188 924,8 soʻm $(222\ 480 - 33\ 555,2)$ JShDS oʻtkaziladi.

Fevral oyi uchun majburiy sugʻurta badallari 148 000 soʻmni $(1\ 850\ 000 \times 8\%)$ tashkil etadi.

Xodim qoʻliga 1 479 520 soʻm $(1\ 850\ 000 - 222\ 480 - 148\ 000)$ ish haqi oladi.

II. IMTIYOZNI HISOBGA OLGAN HOLDA

5-VAZIYAT

Daromaddan EKIHDan 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadigan imtiyoz qoʻllanilgan holda JSHDS Hisob-kitobi.

Xodimning yanvar-fevral oylaridagi mehnatiga 1 850 000 soʻmdan haq toʻlangan, yil boshidan jami daromad - 3 700 000 soʻmni (1 850 000 x 2) tashkil qiladi.

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismiga muvofiq ushbu imtiyozga ega boʻlgan fuqarolarning (masalan, 16 yoshdan oshmagan ikki va undan ortiq bolalari boʻlgan yolgʻiz onalar) jami daromadidan har oyda EKIHning 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadi.

Soliq solinadigan daromadni hisoblaymiz:

$$3\,700\,000 - 344\,480 \times 4 = 2\,322\,080 \text{ soʻm.}$$

16,5%lik stavka boʻyicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblaymiz va yanvar-fevral oylari uchun soliqni hisoblab yozamiz:

$$103\,344 + (2\,322\,080 - 1\,722\,400) \times 16,5\% = 202\,291,2 \text{ soʻm.}$$

Yanvar oyida 101 145,6 soʻm soliq ushlab qolingani. Fevral oyidagi soliq summasi 101 145,8 soʻmga (202 291,2 - 101 145,6) teng.

SHJBPHga majburiy badallar 39 552 soʻmni ((2 322 080 - 344 480) * 2%) tashkil etadi.

Yanvar oyida SHJBPHga 19776 soʻm oʻtkazilgan, fevral oyida ajratmalar 19 779 soʻmni (39 552 - 19 776) tashkil qiladi.

Byudjetga 81 369,6 sum (101 145,6 - 19 776) JSHDS oʻtkaziladi.

Majburiy sugʻurta badallari 148 000 soʻmni (1 850 000 x 8%) tashkil etadi.

Xodim qoʻliga 1 600 854,4 soʻm (1 850 000 - 101 145,6 - 148 000) ish haqi oladi.

6-VAZIYAT

Moddiy yordam olish chogʻida imtiyozni hisobga olgan holda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar-fevral oylaridagi mehnatiga 1 265 000 soʻmdan haq toʻlangan. Yanvar oyida unga farzandining tugʻilganligi munosabati bilan 2 200 000 soʻm moddiy yordam berilgan. Xodimning yil boshidan jami daromadi - 4 730 000 soʻmni (1 265 000 x 2 + 2 200 000) tashkil qiladi.

Soliq kodeksining 179-moddasi 1-bandining 3 va 4-xatboshilariga koʻra bir yil davomida EKIHning 12 baravarigacha miqdorda beriladigan quyidagi moddiy yordam summalariga: vafot etgan xodimning oila aʼzolariga yoki oila aʼzosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan toʻlovlar; xodimga mehnatda mayib boʻlganlik, kasb kasalligi yoxud sogʻliqqa boshqacha shikast etganligi

bilan bog'liq to'lovlar; bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikoxdan o'tishi munosabati bilan beriladigan to'lovlar: qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzidagi to'lovlarga JShDS solinmaydi (Soliq kodeksining 178-moddasi 16-bandi). Yil mobaynida hisob-kitob qilishda yil boshida amal qilgan EKIH qo'llaniladi ($172\,240 \times 12 = 2\,066\,880$ so'm).

Soliq solinadigan daromad $2\,663\,120$ so'mga ($4\,738\,000 - 2\,066\,880$) teng.

16,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblaymiz vayanvar-fevral oylari uchun soliqni hisoblab yozamiz:

$$103\,344 + (2\,663\,120 - 1\,722\,400) \times 16,5\% = 258\,562,8 \text{ so'm.}$$

Yanvar oyida $140\,263,8$ so'm soliq ushlab qolingana. Fevral oyidagi soliqsummasi $118\,299$ so'mga ($258\,562,8 - 140\,263,8$) teng.

SHJBPHga majburiy badallar summasi $46\,372,8$ so'mni ($(2\,663\,120 - 344\,480) \times 2\%$) tashkil etadi.

Yanvar oyida SHJBPHga $24\,517,6$ so'm o'tkazilgan, fevral oyida ajratmalar $21\,855,2$ so'mni ($46\,372,8 - 24\,517,6$) tashkil qiladi.

Fevral oyi uchun byudjetga $96\,443,8$ so'm ($118\,299 - 21\,855,2$) JSHDS o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari $101\,200$ so'mni ($1\,265\,000 \times 8\%$) tashkil etadi.

Xodim qo'liga $1\,045\,501$ so'm ($1\,265\,000 - 118\,299 - 101\,200$) ish haqi oladi.

7-VAZIYAT

Qimmatbaho sovg'a olinganda imtiyozni hisobga olgan holda JSHDS hisob-kitobi

Xodimning yanvar-fevral oylaridagi mehnatiga $1\,300\,000$ so'mdan haq to'langan. Yanvar oyida unga $1\,800\,000$ so'mlik noutbuk sovg'a qilindi. Xodimning yil boshidan jami daromadi - $4\,400\,000$ so'mni ($1\,300\,000 \times 2 + 1\,800\,000$) tashkil qiladi.

Soliq kodeksining 179-moddasi 14-bandiga ko'ra bir yil mobaynida yuridik shaxslardan EKIHning 6 baravari miqdorigacha bo'lgan summada olingan sovg'alarning qiymatiga soliq solinmaydi. Bunda yil mobaynida hisob-kitob qilishda yil boshida amal qilgan EKIH qo'llaniladi ($172\,240 \times 8 = 1\,033\,440$ so'm).

Soliq solinadigan daromad $3\,366\,560$ so'mga ($4\,400\,000 - 1\,033\,440$) teng.

16,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblaymiz va yanvar-fevral oylari uchun soliqni hisoblab chiqamiz:

$$103\,344 + (3\,366\,560 - 1\,722\,400) \times 16,5\% = 374\,630,4 \text{ so'm.}$$

Yanvar oyida 271 206 so'm soliq ushlab qolingani. Fevral oyidagi soliq summasi 103 424,4 so'mga (374 630,4 - 271 206) teng.

Yanvar-fevral oylari uchun SHJBPHga majburiy badallar summasi 60 441,6 so'mga ((3 366 560 - 344 480) x 2%) teng.

Yanvar oyida SHJBPHga 37 886,4 so'm o'tkazilgan, fevral oyida ajratmalar 22 555,2 so'mni (60 441,6 - 37 886,4) tashkil qiladi.

Byudjetga 80 869,2 so'm (103 424,4 - 22 555,2) JSHDS o'tkaziladi.

Fevral oyi uchun majburiy sug'urta badallari 104 000 so'mni (1 300 000 x 8%) tashkil qiladi.

Xodim qo'liga 1 092 575,6 so'm (1 300 000 - 103 424,4 - 104 000) ish haqi oladi.

8-VAZIYAT

Bir nechta imtiyozni hisobga olgan holda (har oyda daromaddan EKIHNing 4 baravariga teng summani chegirish, moddiy yordam va qimmatbaho sovg'a olinganda) JSHDS hisob-kitobi.

Soliq kodeksining 130-moddasiga ko'ra imtiyozga haqli bo'lgan hodimga yanvar-fevral oylarida 1 300 000 so'mdan ish haqi to'langan. Unga nikohdan o'tishi munosabati bilan 2 300 000 so'm moddiy yordam ko'rsatilgan va 1 500 000 so'mlik qiymatga ega sovg'a topshirilgan.

Quyidagilarga muvofiq:

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismiga muvofiq imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan xodimning soliq solinadigan daromadidan har oyda EKIHNing 4 baravariga teng summa (344 480 x 4 = 1 377 920 so'm) chiqarib tashlanadi;

Soliq kodeksining 179-moddasi 1-bandiga muvofiq, bir yil davomida EKIHNing 12 baravarigacha (172 240 x 12 = 2 066 880 so'm) miqdorda beriladigan moddiy yordam summasiga JSHDS solinmaydi;

Soliq kodeksining 179-moddasi 14-bandiga ko'ra yuridik shaxslardan bir yil mobaynida EKIHNing 6 baravari (172 240 x 6 = 1 033 440 so'm) miqdorigacha olingan sovg'alarning qiymatiga JSHDS solinmaydi.

Soliq solinadigan daromadni aniqlaymiz:

$2\,600\,000 - 1\,377\,920 + 2\,300\,000 - 2\,066\,880 + 1\,500\,000 - 1\,033\,440 = 1\,921\,760$ so‘m.

Olingan daromadga 16,5%lik stavka bo‘yicha soliq solinadi:

$103\,344 + (1921\,760 - 1\,722\,400) \times 16,5\% = 136\,238,4$ so‘m.

Yanvar oyida 125842,8 so‘m soliq ushlab qolingani. Fevral oyidagi soliq summasi 10 395,6 so‘mga (136 238,4 - 125 842,8) teng.

SHJBPHga majburiy badallar summasi 31 545,6 so‘mni ((1 921 760 - 344 480) x 2%) tashkil etadi.

Yanvar oyida SHJBPHga 22 769,6 so‘m o‘tkazilgan, fevral oyida ajratmalar 8 776 so‘mni (31 545,6 - 22 769,6) tashkil qiladi.

Byudjetga 1 619,6 so‘m (10 395,6 - 8 776) soliq o‘tkaziladi.

Majburiy sug‘urta badallari 104 000 so‘mni (1 300 000 x 8%) tashkil etadi.

Xodim qo‘liga 1 185 604,4 so‘m (1 300 000 - 10 395,6 - 104 000) oladi.

III. ODATDAN TASHQARI HOLATLAR

9-VAZIYAT

O‘rindosh hodim daromadlaridan JSHDS hisob-kitobi.

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan imtiyozga ega o‘rindosh xodimga yanvar-fevral oylarida 800 000 so‘mdan ish haqi to‘langan. Xodimning yil boshidan jami daromadi – 1600 000 so‘mni (800 000 x 2) tashkil qiladi.

Asosiy bo‘lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to‘lov manbaida JSHDSni hisoblab chiqarish Soliq kodeksining 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozni qo‘llamasdan jami daromad summasidan amalga oshiriladi (Soliq kodeksining 186-moddasi 8-qismi).

Agar asosiy bo‘lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan daromad oladigan jismoniy shaxs buxgalteriyaga undan JSHDSni eng yuqori stavkada ushlab qolish haqida ariza taqdim etsa, u holda daromad to‘lovchi yuridik shaxs imtiyozlarni qo‘llamagan holda uni eng yuqori stavkada ushlab qoladi (Soliq kodeksining 186-moddasi 9-qismi). Bunday ariza mavjud bo‘lmagan hollarda JSHDS shkala bo‘yicha ushlab qolinadi, soliq to‘lovchi esa soliq organlarida o‘tgan yil uchun jami daromadlarini keyingi yilning 1 apreliga qadar deklaratsiyalari shart.

I. O‘rindosh buxgalteriyaga JSHDSni eng yuqori stavkada ushlab qolish haqida ariza taqdim etmagan.

Uning yanvar-fevral oylarida olgan daromadiga 7,5%lik stavka bo‘yicha soliq solinadi:

$(1\ 600\ 000 - 344\ 480) \times 7,5\% = 94164$ so‘mga teng.

Yanvar oyida 47 082 so‘m soliq ushlab qolingani. Fevral oyidagi soliq summasi 47 082 so‘mga (94 164 - 47 082) teng.

SHJBPHga majburiy badallar 25 110,4 so‘mga ($(1\ 600\ 000 - 344\ 480) \times 2\%$) teng.

Yanvar oyida SHJBPHga 12 555,2 so‘m o‘tkazilgan, fevral oyida ajratmalar 12 555,2 so‘mni (25 110,4 - 12 555,2) tashkil qiladi.

Fevral oyi uchun byudjetga 34 526,8 so‘m (47 082 - 12 555,2) JSHDS o‘tkaziladi.

Majburiy sug‘urta badallari summasi 64 000 so‘mni ($800\ 000 \times 8\%$) tashkil etadi.

Soliq va sug‘urta badallari ushlanganidan keyin xodim 688 918 so‘m ($800\ 000 - 47\ 082 - 64\ 000$) ish haqi oladi.

II. O‘rindosh xodim buxgalteriyaga JSHDSni eng yuqori -22,5%lik stavkada ushlab qolish haqida ariza taqdim etgan.

O‘rindoshning daromadi 3 444 800 so‘mdan oshmasligiga qaramay, xodimning arizasiga ko‘ra uning butun ish haqiga 22,5%lik stavka bo‘yicha soliq solinadi. Yanvar-fevral oylari uchun JSHDS summasi 360 000 so‘mga ($1\ 600\ 000 \times 22,5\%$) teng.

Yanvar oyida 180 000 so‘m soliq ushlab qolingani. Fevral oyidagi solpqi summasi 180 000 so‘mga ($360\ 000 - 180\ 000$) teng.

Jami ish haqidan (nol stavkasi bo‘yicha soliq solinadigan daromadni chegirmagan holda) SHJBPHga badallar (2%) hisoblab yoziladi. Yanvar-fevral oylarida ularning summasi 32 000 so‘mni ($1600\ 000 \times 2\%$) tashkil qiladi.

Yanvar oyida SHJBPHga 16 000 so‘m o‘tkazilgan, fevral oyida ajratmalar 16 000 so‘mni (32 000 - 16 000) tashkil qiladi.

Byudjetga 164 000 so‘m ($180\ 000 - 16\ 000$) JSHDS o‘tkaziladi.

Fevral oyi uchun sug‘urta badallari 64 000 so‘mni ($800\ 000 \times 8\%$) tashkil qiladi.

JSHDS va sug‘urta badallari ushlanganidan keyin xodim 556 000 so‘m ($800\ 000 - 180\ 000 - 64\ 000$) ish haqi oladi.

10-VAZIYAT

Yuridik shaxsga turar joyni ijaraga beruvchi xodimning daromadlaridan JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar-fevral oylaridagi mehnatiga 850 000 so‘m haq to‘langan, yil boshidan jami daromad -1 700 000 so‘mni ($850\,000 \times 2$) tashkil qiladi. Xodim Toshkent shahrida joylashgan, maydoni 50 kv.m bo‘lgan turar joy binosini 1 yanvardan boshlab ijaraga berish to‘g‘risida ish beruvchi bilan shartnoma tuzdi va har oyda 1000 000 so‘m ijara haqi oladi.

Jismoniy shaxslarning turar joyni ijaraga topshirishchdan oladigan daromadlariga soliq solish ijara (yollash) shartnomasida nazarda tutilgan to‘lovdan kelib chiqib amalga oshiriladi, biroq u turar joyni ijaraga beradigan jismoniy shaxslar uchun belgalangan eng kam ijara haqi stavkalaridan hisoblab chiqarilgan miqdordan kam bo‘lmasliga kerak (PQ-3454-son qarorga 25-ilova).

Toshkent shahrida bir oylik ijara to‘lovining eng kam miqdori etib 1 kv.m turar joy uchun - 4 500 so‘m; Nukus va viloyat bo‘ysunuvdagi shaharlarda – 3 000 so‘m; boshqa aholi punktlarida - 1500 so‘m belgilangan.

Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga 7,5%lik stavka bo‘yicha JSHDS solinadi (Soliq kodeksining 181-moddasi).

SHJBPHga badallar ish beruvchi va xodim o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy tuzdagi shartnoma bo‘yicha bajarilgan ishlar uchun olingan daromadlardan hisoblab yoziladi. Ijara haqi tarzidagi daromadlar mulkiy daromad bo‘lganligi va ishlar bajarish bilan bog‘liq bo‘lmaganligi bois, undan SHJBPHga ajratmalar qilinmaydi.

Ijara haqidan JSHDS summasini hisoblaymiz. Mazkur holatda uning eng kam summasi 225 000 so‘mni (4500×50) tashkil etadi, u haqiqatdagi ijara haqidan kamligi bois shartnomada nazarda tutilgan summadan soliq hisoblanadi:

$$1\,000\,000 \times 7,5\% = 75\,000 \text{ so‘m.}$$

Yanvar-fevral oylari uchun xodimning mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadidan 7,5%lik stavka bo‘yicha soliqni hisoblaymiz:

$$(1\,700\,000 - 344\,480) \times 7,5\% = 101\,664 \text{ so‘m.}$$

Yanvar oyida 50 832 so‘m soliq ushlab qolingan. Fevral oyidagi soliq summasi 50 832 so‘mga ($101\,664 - 50\,832$) teng.

SHJBPHga majburiy badallar 27110,4 soʻmga ((1700 000 - 344 480) x 2%) teng.

Yanvar oyida SHJBPHga 13 555,2 soʻm oʻtkazilgan, fevral oyida ajratmalar 13 555,2 soʻmni (27110,4-13 555,2) tashkil qiladi.

Fevral oyi uchun byudjetga 37 276,8 soʻm soliq (50 832 - 13 555,2) oʻtkaziladi.

Majburiy sugʻurta badallari 68 000 soʻmni (850 000 x 8%) tashkil etadi.

Soliq va majburiy ajratmalar ushlab qolinganiidan keyin xodimga 1656 168 soʻm (850 000 +1000 000 - 75 000 - 50 832 - 68000) toʻlandi.

JISMONIY SHAXSLAR DAROMADIDAN OLINADIGAN SOLIQ VA BOSHQA MAJBURIY TOʻLOVLAR HISOB-KITOBNI USLUBIYATI (2018 YILNING MART OYI UCHUN)

Mart oyida ish soatlari soni:

5 kunlik (40 soatlik) ish haftasiga -151;

6 kunlik (40 soatlik) ish haftasida -157;

36 soatlik ish haftasida -143.

Ish kunlari soni:

5 kunlik ish haftasida -19;

5 kunlik ish haftasida – 24.

2018 yil 1 yanvardan boshlab JSHDSning quyidagi stavkalari amal qilmoqda: nol stavkali; eng kam stavka - 7,5%; oʻrtacha stavka -16,5%; eng yuqori stavka - 22,5% (Prezidentning 29.12.2017 yildagi PQ-3454-son qaroriga 8-ilova).

Yanvar-mart oylarida eng kam ish haqi (EKIH) miqdori 516 720 soʻmni (172 240 x 3) tashkil etadi (20.11.2017 yildagi PF-5245-son).

Butun yil davomida JSHDSni va EKIHI baravarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarishda 2018 yilning 1 yanvar holatiga koʻra belgilangan EKIHI - 172 240 soʻm qoʻllanadi (Soliq kodeksi 186-moddasining 1-qismi).

2018 yilda fuqarolarning SHJBPHga majburiy oylik badallari stavkasi xodimga hisoblangan ish haqi (daromad) soliq solinadigan summasining 2%ini, nol stavkasida (EKIH 1 baravari) soliq solinadigan daromad chegirilgan holda, tashkil etadi (PQ-3454-son qarorga 8-ilova)

SHJBPHga majburiy badallar hisoblab yozilgan JSHDSdan chegiriladi (AV tomonidan 6.10.2005 yilda 1515-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Nizomning 3-bandi).

2018 yil uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga fuqarolarning majburiy sug‘urta badallari stavkasi xodimga hisoblab yozilgan, badallar undiriladigan ish haqi (daromad) summasining 8%i miqdorida belgilangan (PQ-3454-son qarorning 3-bandi).

Soliq solinadigan daromad miqdori	Soliq stavkasi
516 720 so‘mgacha	0%
516 721 so‘mdan 2 583 600 so‘mgacha (5x516720)	516 720 so‘mdan ortiq summaning 7,5%i
2 583 601 so‘mdan 5167 200 so‘mgacha (10x516720)	155 016 so‘m + 2 583 600 so‘mdan ortiq summaning 16,5%i
5 167 201 so‘m va undan yuqori	581 310 so‘m + 5167 200 so‘mdan ortiq summaning 22,5%i

I. AN’ANA VIY HISOB-KITOB

1-VAZIYAT

Oyiga EKIHNing 1 baravaridan oshmaydigan daromadlardan JSHDS hisob-kitobi.

Xodima korxonada chorak stavkada ishlaydi. Yanvar–mart oylarida u oyiga 150 000 so‘mdan ish haqi oldi, yil boshidan jami daromad 450 000 so‘mni (150 000 x 3) tashkil qiladi.

Jismoniy shaxsning 516 720 so‘mgacha bo‘lgan daromadiga nol stavkasi bo‘yicha soliq solinadi. Xodimaning ish haqidan JSHDS 0 so‘mni (450 000 x 0%) tashkil qiladi.

Xodimaning ish haqidan SHJBPHga badallar hisob-kitobida nol stavkasi bo‘yicha soliq solinadigan daromad (EKIHNing 1 baravari) chegirilishi sababli ushbu badallar hisoblab o‘tkazilmaydi.

Xodimaning daromadlaridan sug‘urta badallari 12 000 so‘mga (150 000 x 8%) teng.

Sug‘urta badallari ushlanganidan keyin xodimaga 138 000 so‘m (150 000 – 12 000) to‘lanadi.

2-VAZIYAT

Oyiga EKIHning 5 baravaridan oshmaydigan daromadlardan JSHDS hisob-kitobi.

Xodimga yanvar–mart oylarida oyiga 720 000 so‘mdan to‘langan. Yil boshidan daromad 2 160 000 so‘mni ($720\,000 \times 3$) tashkil qiladi.

Olingan daromadga 7,5%lik stavka bo‘yicha solinadigan JSHDS:
 $(2\,160\,000 - 516\,720) \times 7,5\% = 123\,246$ so‘mga teng.

Yanvar-fevral oylarida 82 164 so‘m soliq ushlab qoling. Mart oyidagi soliq summasi 41 082 so‘mga ($123\,246 - 82\,164$) teng.

Yanvar–mart oylari uchun ShJBPHga majburiy badallar summasi 32 865,6 so‘mni ($(2\,160\,000 - 516\,720) \times 2\%$) tashkil etadi.

Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 21 910,4 so‘m o‘tkazilgan, mart oyida ajratmalar 10 955,2 so‘mni ($32\,865,6 - 21\,910,4$) tashkil qiladi.

Mart oyi uchun byudjetga 30 126,8 so‘m ($41\,082 - 10\,955,2$) soliq o‘tkaziladi.

Majburiy sug‘urta badallari 57 600 so‘mni ($720\,000 \times 8\%$) tashkil etadi.

JSHDS va sug‘urta badallari ushlanganidan keyin xodimga 621 318 so‘m ($720\,000 - 41\,082 - 57\,600$) to‘lanadi.

3-VAZIYAT

Bir oydagi daromadlar 10 EKIHDan oshmaganda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar–mart oylaridagi mehnatiga oyiga 1 050 000 so‘mdan to‘langan, yil boshidan daromad 3 150 000 so‘mni ($1\,050\,000 \times 3$) tashkil qiladi.

16,5%lik stavka bo‘yicha soliq solinadigan daromad summasini hisob-kitob qilamiz va yanvar–mart oylari uchun soliqni hisoblaymiz:

$155\,016 + (3\,150\,000 - 2\,583\,600) \times 16,5\% = 248\,472$ so‘m.

Yanvar-fevral oylarida 165 648 so‘m soliq ushlab qoling. Mart oyidagi soliq summasi 82 824 so‘mga ($248\,472 - 165\,648$) teng.

SHJBPHga majburiy badallar summasi 52 665,6 so‘mni ($(3\,150\,000 - 516\,720) \times 2\%$) tashkil etadi.

Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 35 110,4 so‘m o‘tkazilgan, mart oyida ajratmalar 17 555,2 so‘mni ($52\,665,6 - 35\,110,4$) tashkil qiladi.

Mart oyi uchun byudjetga 65 268,8 so‘m (82 824 – 17 555,2) JSHDS o‘tkaziladi.

Majburiy sug‘urta badallari 84 000 so‘mni (1 050 000 x 8%) tashkil etadi.

Xodim qo‘liga 883 176 so‘m (1 050 000 – 82 824 – 84 000) ish haqi oladi.

4-VAZIYAT

Bir oydagi daromadlar 10 EKIHDan oshganda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar–mart oylaridagi mehnatiga oyiga 1 850 000 so‘mdan haq to‘langan, yil boshidan daromad 5 550 000 so‘mni (1 850 000 x 3) tashkil qiladi.

22,5%lik stavka bo‘yicha soliq solinadigan daromad summasini hisob-kitob qilamiz va yanvar–mart oylari uchun JSHDS ni hisoblaymiz:

$$581\,310 + (5\,550\,000 - 5\,167\,200) \times 22,5\% = 667\,440 \text{ so‘m.}$$

Yanvar-fevral oylarida 444 960 so‘m JSHDS ushlab qolingan. Mart oyidagi soliq summasi 222 480 so‘mga (667 440 – 444 960) teng.

SHJBPHga majburiy badallar summasi 100 665,6 so‘mga ((5 550 000 – 516 720) x 2%) teng.

Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 67 110,4 so‘m o‘tkazilgan, mart oyida ajratmalar 33 555,2 so‘mni (100 665,6 – 67 110,4) tashkil qiladi.

Mart oyi uchun byudjetga 188 924,8 so‘m (222 480 – 33 555,2) JSHDS o‘tkaziladi.

Mart oyi uchun majburiy sug‘urta badallari 148 000 so‘mni (1 850 000 x 8%) tashkil etadi.

Xodim qo‘liga 1 479 520 so‘m (1 850 000 – 222 480 – 148 000) ish haqi oladi.

5-VAZIYAT

Daromaddan EKIHDning 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadigan imtiyoz qo‘llanilgan holda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar–mart oylaridagi mehnatiga oyiga 1 850 000 so‘mdan haq to‘langan, yil boshidan daromad 5 550 000 so‘mni (1 850 000 x 3) tashkil qiladi.

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismiga muvofiq ushbu imtiyozga ega bo'lgan fuqarolarning (masalan, 16 yoshdan oshmagan ikki va undan ortiq bolalari bo'lgan yolg'iz onalar) jami daromadidan har oyda EKIHNing 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadi.

Soliq solinadigan daromadni hisob-kitob qilamiz:

$$5\,550\,000 - 516\,720 \times 4 = 3\,483\,120 \text{ so'mga teng.}$$

16,5% lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblaymiz va yanvar–mart oylari uchun soliqni hisoblab yozamiz:

$$155\,016 + (3\,483\,120 - 2\,583\,600) \times 16,5\% = 303\,436,8 \text{ so'm.}$$

Yanvar-fevral oylarida 202 291,2 so'm JSHDS ushlab qolingani. Mart oyidagi soliq summasi 101 145,6 so'mga (303 436,8 – 202 291,2) teng.

SHJBPHga majburiy badallar summasi 59 328 so'mni ((3 483 120 – 516 720) x 2%) tashkil etadi.

Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 39 552 so'm o'tkazilgan, mart oyida ajratmalar 19 776 so'mni (59 328 – 39 552) tashkil qiladi.

Byudjetga 81 369,6 so'm (101 145,6 – 19 776) JSHDS o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari 148 000 so'mni (1 850 000 x 8%) tashkil etadi.

Xodim qo'liga 1 600 854,4 so'm (1 850 000 – 101 145,6 – 148 000) ish haqi oladi.

6-VAZIYAT

Moddiy yordam olinganda imtiyozni hisobga olgan holda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar–mart oylaridagi mehnatiga oyiga 1 265 000 so'mdan haq to'langan. Yanvar oyida unga farzandi tug'ilganligi munosabati bilan 2 200 000 so'm moddiy yordam berilgan. Xodimning yil boshidan daromadi 5 995 000 so'mni (1 265 000 x 3 + 2 200 000) tashkil qiladi.

Soliq kodeksining 179-moddasi 1-bandining 3 va 4-xatboshilariga ko'ra bir yil davomida EKIHNing 12 baravarigacha miqdorda beriladigan quyidagi moddiy yordam summalariga: vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to'lovlar; xodimga mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoxud sog'liqqa boshqacha shikast etganligi bilan bog'liq to'lovlar; bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi munosabati bilan beriladigan to'lovlar; qishloq

xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzidagi to'lovlarga JSHDS solinmaydi (Soliq kodeksining 178-moddasi 16-bandi). Yil mobaynida hisob-kitob qilishda yil boshida amal qilgan EKIH qo'llaniladi ($172\,240 \times 12 = 2\,066\,880$ so'm).

Soliq solinadigan daromad 3 928 120 so'mga ($5\,995\,000 - 2\,066\,880$) teng.

16,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblaymiz va yanvar–mart oylari uchun soliqni hisoblab yozamiz:

$$155\,016 + (3\,928\,120 - 2\,583\,600) \times 16,5\% = 376\,861,8 \text{ so'm.}$$

Yanvar-fevral oylarida 258 562,8 so'm JSHDS ushlab qolingan. Mart oyidagi soliq summasi 118 299 so'mga ($376\,861,8 - 258\,562,8$) teng.

SHJBPHga majburiy badallar summasi 68 228 so'mni ($(3\,928\,120 - 516\,720) \times 2\%$) tashkil etadi.

Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 46 372,8 so'm o'tkazilgan, mart oyida ajratmalar 21 855,2 so'mni ($68\,228 - 46\,372,8$) tashkil qiladi.

Mart oyi uchun byudjetga 96 443,8 so'm ($118\,299 - 21\,855,2$) JSHDS o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari 101 200 so'mni ($1\,265\,000 \times 8\%$) tashkil etadi.

Xodim qo'liga 1 045 501 so'm ($1\,265\,000 - 118\,299 - 101\,200$) ish haqi oladi.

7-VAZIYAT

Qimmatbaho sovg'a olinganda imtiyozni hisobga olgan holda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar–mart oylaridagi mehnatiga oyiga 1 300 000 so'mdan haq to'langan. Yanvar oyida unga 1 800 000 so'mlik noutbuk sovg'a qilindi. Xodimning yil boshidan daromadi 5 700 000 so'mni ($1\,300\,000 \times 3 + 1\,800\,000$) tashkil qiladi.

Soliq kodeksining 179-moddasi 14-bandiga ko'ra bir yil mobaynida yuridik shaxslardan EKIHning 6 baravari miqdorigacha bo'lgan summada olingan sovg'alarning qiymatiga soliq solinmaydi. Bunda yil mobaynida hisob-kitob qilishda yil boshida amal qilgan EKIH qo'llaniladi ($172\,240 \times 6 = 1\,033\,440$ so'm).

Soliq solinadigan daromad 4 666 560 so'mga ($5\,700\,000 - 1\,033\,440$) teng.

16,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblaymiz va yanvar–mart oylari uchun soliqni hisoblab yozamiz:

$$155\,016 + (4\,666\,560 - 2\,583\,600) \times 16,5\% = 498\,704,4 \text{ so'm.}$$

Yanvar-fevral oylarida 374 630,4 so'm JSHDS ushlab qolingani. Mart oyidagi soliq summasi 124 074 so'mga (498 704,4 – 374 630,4) teng.

Yanvar–mart oylari uchun SHJBPHga majburiy badallar summasi 82 996,8 so'mga ((4 666 560 – 516 720) x 2%) teng.

Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 60 441,6 so'm o'tkazilgan, mart oyida ajratmalar 22 555,2 so'mni (82 996,8 – 60 441,6) tashkil qiladi.

Byudjetga 101 518,8 so'm (124 074 – 22 555,2) JSHDS o'tkaziladi.

Mart oyi uchun majburiy sug'urta badallari 104 000 so'mni (1 300 000 x 8%) tashkil etadi.

Xodim qo'liga 1 071 926 so'm (1 300 000 – 124 074 – 104 000) ish haqi oladi.

8-VAZIYAT

Bir nechta imtiyozni hisobga olgan holda (har oyda daromaddan EKIHning 4 baravariga teng summani chegirish, moddiy yordam va qimmatbaho sovg'a olinganda) JSHDS hisob-kitobi.

Soliq kodeksining 180-moddasiga ko'ra imtiyozga haqli bo'lgan xodimga yanvar–mart oylarida oyiga 1 300 000 so'mdan ish haqi to'langan. Yanvar oyida unga nikohdan o'tishi munosabati bilan 2 300 000 so'm moddiy yordam ko'rsatilgan va 1 500 000 so'mlik qiymatga ega sovg'a topshirilgan. Xodimning yil boshidan daromadi 7 700 000 so'mni (1 300 000 x 3 + 2 300 000 + 1 500 000) tashkil qiladi.

Quyidagilarga muvofiq:

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismiga muvofiq imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan xodimning soliq solinadigan daromadidan har oyda EKIHning 4 baravariga teng summa (516 720 x 4 = 2 066 880 so'm) chiqarib tashlanadi;

Soliq kodeksining 179-moddasi 1-bandiga muvofiq, bir yil davomida EKIHning 12 baravarigacha (172 240 x 12 = 2 066 880 so'm) miqdorda beriladigan moddiy yordam summasiga JShDS solinmaydi;

Soliq kodeksining 179-moddasi 14-bandiga ko'ra yuridik shaxslardan bir yil mobaynida EKIHning 6 baravari ($172\,240 \times 6 = 1\,033\,440$ so'm) miqdorigacha olingan sovg'alarning qiymatiga JSHDS solinmaydi.

Soliq solinadigan daromadni aniqlaymiz:

$3\,900\,000 - 2\,066\,880 + 2\,300\,000 - 2\,066\,880 + 1\,500\,000 - 1\,033\,440 = 2\,532\,800$ so'm.

Olingan daromadga 7,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadi:

$(2\,532\,800 - 516\,720) \times 7,5\% = 151\,206$ so'm.

Yanvar-fevral oylarida 136 238,4 so'm JSHDS ushlab qolingani. Mart oyidagi soliq summasi 14 967,6 so'mga ($151\,206 - 136\,238,4$) teng.

SHJBPHga majburiy badallar summasi 40 321,6 so'mni ($(2\,532\,800 - 516\,720) \times 2\%$) tashkil etadi.

Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 31 545,6 so'm o'tkazilgan, mart oyida ajratmalar 8 776 so'mni ($40\,321,6 - 31\,545,6$) tashkil qiladi.

Byudjetga 6 191,6 so'm ($14\,967,6 - 8\,776$) soliq o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari 104 000 so'mni ($1\,300\,000 \times 8\%$) tashkil etadi.

Xodim qo'liga 1 181 032,4 so'm ($1\,300\,000 - 14\,967,6 - 104\,000$) oladi.

III. ODATDAN TASHQARI HOLATLAR

9-VAZIYAT

O'rindosh xodim daromadlaridan JSHDS hisob-kitobi.

Soliq kodeksining 180-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan imtiyozga ega o'rindosh xodimga yanvar-mart oylarida oyiga 800 000 so'mdan ish haqi to'langan. Xodimning yil boshidan daromali 2 400 000 so'mni ($800\,000 \times 3$) tashkil qiladi.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to'lov manbaida JSHDSni hisoblab chiqarish Soliq kodeksining 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozni qo'llamasdan jami daromad summasidan amalga oshiriladi (Soliq kodeksining 186-moddasi 8-qismi).

Agar asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan daromad oladigan jismoniy shaxs buxgalteriyaga undan

JSHDSni eng yuqori stavkada ushlab qolish haqida ariza taqdim etsa, u holda daromad to'lovchi yuridik shaxs imtiyozlarni qo'llamagan holda uni eng yuqori stavkada ushlab qoladi (Soliq kodeksining 186-moddasi 9-qismi). Bunday ariza mavjud bo'lmagan hollarda JSHDS shkala bo'yicha ushlab qolinadi, soliq to'lovchi esa soliq organlarida o'tgan yil uchun jami daromadlarini keyingi yilning 1 apreliga qadar deklaratsiyalashi shart.

I. O'rindosh buxgalteriyaga JSHDSni eng yuqori stavkada ushlab qolish haqida ariza taqdim etmagan.

Uning yanvar-mart oylarida olgan daromadiga 7,5%lik stavka buyicha soliq solinadi. JSHDS:

$$(2\,400\,000 - 516\,720) \times 7,5\% = 141\,246 \text{ so'mga teng.}$$

Yanvar-fevral oylarida 94164 so'm JSHDS ushlab qolingani. Mart oyidagi soliq summasi 47 082 so'mga (141246 – 94164) teng.

SHJBPHga majburiy badallar 37 665,6 so'mga ((2 400 000 - 516 720) x 2%) teng.

Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 25110,4 so'm o'tkazilgan, mart oyida ajratmalar 12 555,2 so'mni (37 665,6 – 25110,4) tashkil qiladi.

Mart oyi uchun byudjetga 34 526,8 so'm (47 082-12 555,2) JSHDS o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari summasi 64 000 so'mni (800 000 x 8%) tashkil etadi.

Soliq va sug'urta badallari ushlanganidan keyin xodim 688 918 so'm (800 000 - 47 082 - 64 000) ish haqi oladi.

II. O'rindosh xodim buxgalteriyaga JSHDSni eng yuqori – 22,5%lik stavkada ushlab qolish haqida ariza taqdim etgan.

O'rindoshning daromadi 5 167 210 so'mdan oshmasligiga qaramay, xodimning arizasiga ko'ra uning butun ish haqiga 22,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadi. Yanvar-mart oylari uchun JSHDS summasi 540 000 so'mga (2 400 000 x 22,5%) teng.

Yanvar-fevral oylarida 360 000 so'm JSHDS ushlab qolingani. Mart oyida uning summasi 180 000 so'mni (540 000 - 360 000) tashkil etadi.

Jami ish haqidan (nol stavkasi bo'yicha soliq solinadigan daromadni chegirmagan holda) SHJBPHga badallar (2%) hisoblab yoziladi. Yanvar-mart oylarida ularning summasi 48 000 so'mni (2 400 000 x 2%) tashkil qiladi.

Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 32 000 so‘m o‘tkazilgan, mart oyi uchun 16 000 so‘m (48 000 - 32 000) o‘tkaziladi.

Byudjetga 164 000 so‘m (180 000 - 16 000) JSHDS o‘tkaziladi.

Mart oyi uchun sug‘urta badallari 64 000 so‘mni (800 000 x 8%) tashkil qiladi.

JSHDS va sug‘urta badallari ushlanganidan keyin o‘rindosh xodim 556 000 so‘m (800 000 - 180 000 - 64 000) ish haqi oladi.

10-VAZIYAT

Yuridik shaxsga turar joyni ijaraga beruvchi xodimning daromadlaridan JShDS hisob-kitobi. Xodimning yanvar-mart oylaridagi mehnatiga oyiga 850 000 so‘mdan haq to‘langan. Xodim Toshkent shahrida joylashgan, maydoni 50 kv.m bo‘lgan turar joy binosini 1 yanvardan boshlab ijaraga berish to‘g‘risida ish beruvchi bilan shartnoma tuzdi va har oyda 1 000 000 so‘m ijara haqi oladi.

Jismoniy shaxslarning turar joyni ijaraga topshirishchdan oladigan daromadlariga soliq solish ijara (yollash) shartnomasida nazarda tutilgan to‘lovdan kelib chiqib amalga oshiriladi, biroq u turar joyni ijaraga beradigan jismoniy shaxslar uchun belgilangan eng kam ijara haqi stavkalaridan hisoblab chiqarilgan miqdordan kam bo‘lmasligi kerak (PQ-3454-son qarorga 25-ilova).

Toshkent shahrida bir oylik ijara to‘lovining eng kam miqdori etib 1 kv.m turar joy uchun – 4 500 so‘m; Nukus va viloyat bo‘ysunuvdagi shaharlarda – 3 000 so‘m; boshqa aholi punktlarida – 1500 so‘m belgilangan. Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga 7,5%lik stavka bo‘yicha JSHDS solinadi (Soliq kodeksining 181-moddasi).

SHJBPHga badallar ish beruvchi va xodim o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy tushdash shartnoma bo‘yicha bajarilgan ishlar uchun olingan daromadlardan hisoblab yoziladi. Ijara haqi tarzidagi daromadlar mulkiy daromad bo‘lganligi va ishlar bajarish bilan bog‘liq bo‘lmaganligi bois, undan SHJBPHga ajratmalar qilinmaydi.

Ijara haqidan JSHDS summasini hisoblaymiz. Mazkur holatda uning eng kam summasi 225 000 so‘mni (4 500 x 50) tashkil etadi, u haqiqatdagi ijara haqidan kamligi bois shartnomada nazarda tutilgan summadan soliq hisoblanadi:

$$1\,000\,000 \times 7,5\% = 75\,000 \text{ so‘m.}$$

Yanvar-mart oylari uchun mehnatga haq to'lash tarzidagi daromaddan 7,5%lik stavka bo'yicha soliqni hisoblaymiz:

$$(2\ 550\ 000 - 516\ 720) \times 7,5\% = 152\ 496 \text{ so'm.}$$

Yanvar-fevral oylarida 101 664 so'm JSHDS ushlab qolingani. Mart oyidagi soliq summasi 50 832 so'mga (152 496 -101 664)teng.

SHJBPHga majburiy badallar 40 665,6 so'mga ((2 550 000 - 516 720) x 2%) teng.

Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 27110,4 so'm o'tkazilgan, mart oyida ajratmalar 13 555,2 so'mni (40 665,6 – 27110,4) tashkil qiladi.

Mart oyi uchun byudjeta 37 276,8 so'm soliq (50 832 -13 555,2) o'tkaziladi. Majburiy sug'urta badallari 68 000 so'mni (850 000 x 8%) tashkil etadi.

Soliq va majburiy ajratmalar ushlab qolingani keyin xodimga 1 656 168 so'm ish haqi (850 000 + 1 000 000 - 75 000 - 50 832 - 68 000) to'lanadi.

11-VAZIYAT

SHJBPHga ixtiyoriy badallar o'tkazuvmi xodimning daromadlaridan JSHDS hisob-kitobi

Xodimning yanvar-mart oylaridagi ishhaqi miqdori oyiga 1 200 000 so'mni tashkil qildi. Yil boshidan daromad 3 600 000 so'mni (1200 000 x 3) tashkil etdi. Mart oyida xodim buxgalteriyaga har oyda uning ish haqidan 500 000 so'mni SHJBPHga ixtiyoriy badal sifatida o'tkazishni so'rab ariza taqdim etdi.

SHJBPHga ixtiyoriy badallar summasi xodimning soliq solinadigan daromadlarini aniqlashda chegirib tashlanadi (Soliq kodeksining 179-moddasi 31-bandi).

Soliq solinadigan daromadni aniqlaymiz:

$$3600\ 000 - 500\ 000 = 3\ 100\ 000 \text{ so'm.}$$

16,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisoblaymiz va yanvar-mart oylari uchun ushbu summaga soliqni hisoblab yozamiz:

$$155\ 016 + (3\ 100\ 000 - 2\ 583\ 600) \times 16,5\% = 240\ 222 \text{ so'm.}$$

Yanvar-fevral oylarida 215148 so'm JSHDS ushlab qolingani. Mart oyi uchun soliq summasi 25 074 so'mga (240 222 - 215 148) teng.

Yanvar-mart oylari uchun SHJBPHga majburiy badallar summasi 51 665,6 so'mni ((3100 000 - 516 720) x 2%) tashkil etadi. Yanvar-

fevral oylarida SHJBPHga 41110,4 so‘m o‘tkazilgan, mart oyi uchun ajratmalar 10 555,2 so‘mni (51 665,6 - 41 110,4) tashkil qiladi.

Mart oyi uchun byudjetga 41 110,4 so‘m (51 665,6- 10 555,2) JSHDS o‘tkaziladi.

Majburiy sug‘urta badallari 96 000 so‘mga (1 200 000 x 8%) teng.

Soliq, sug‘urta ajratmalari va SHJBPHga ixtiyoriy o‘tkazilgan badal chegirilgandan keyin xodimga 552 334,4 so‘m (1 200 000 - 500 000 - 51 665,6 - 96 000) ish haqi to‘lanadi.

12-VAZIYAT

Ilgari mazkur hisobot yilida ishlamagan, yangi ishga qabul qilingan xodimning daromadlaridan JSHDS hisob-kitobi.

Mart oyida ilgari mazkur hisobot yilida ishlamagan xodim ishga qabul qilindi. Unga 1 400 000 so‘m maosh belgilandi. Olingan daromadga 7,5%lik stavka bo‘yicha soliq solinadi:

$(1400\ 000 - 516\ 720) \times 7,5\% = 66\ 246$ so‘m.

SHJBPHga majburiy badallar 17 665,6 so‘mni ((1 400 000 - 516 720) x 2%) tashkil etadi.

Mart oyi uchun byudjetga 48 580,4 so‘m (66 246 - 17 665,6) soliq o‘tkaziladi.

Majburiy sug‘urta badallari 112 000 sumga (1 400 000 x 8%) teng.

JSHDS va sug‘urta badallari ushlanganidan keyin xodimga 1 221 754 so‘m (1 400 000 - 66 246 -112 000) to‘lanadi.

13-VAZIYAT

Ipoteka kreditini olgan xodimning daromadlaridan JSHDS hisob-kitobi.

Yosh oila a‘zosi hisoblanadigan korxonada xodimi kvartira sotib olish uchun ipoteka kreditini rasmiylashtirdi. Uning yanvar-mart oylaridagi oylik ish haqi miqdori 1 500 000 so‘mni tashkil etadi. Yil boshidan soliq solinadigan daromad 4 500 000 so‘mni (1 500 000 x 3) tashkil etadi. Mart oyida xodim buxgalteriyaga ipoteka kreditini so‘ndirish uchun har oyda 500 000 so‘mdan hisoblab o‘tkazishni so‘rab ariza topshirdi va barcha zarur hujjatlarni taqdim etdi.

Yosh oila a‘zolari tomonidan kvartira sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular buyicha hisoblab yozilgan foizlarni to‘lash uchun yo‘naltiriladigan ish haqi summalariga jismoniy

shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq solinmaydi (Soliq kodeksining 179-moddasi 30-bandi).

Yanvar-mart oylari uchun soliq solinadigan daromad 4 000 000 soʻmni (4 500 000 - 500 000) tashkil qiladi.

JSHDS summasini aniqlash uchun avvalo 16,5%lik stavka boʻyicha soliq solinadigan daromad summasini hisob-kitob qilamiz va soliqni hisoblaymiz:

$$155\,016 + (4\,000\,000 - 2\,583\,600) \times 16,5\% = 388\,722 \text{ soʻm.}$$

Yanvar-fevral oylarida 314148 soʻm soliq ushlab qolingani. Mart oyi uchun JSHDS summasi 74 574 (388 722 - 314 148) soʻmni tashkil qiladi.

Yanvar-mart oylarida ShJBPHga majburiy badallar summasi 69 665,6 soʻmni ((4 000 000-516 720) x 2%) tashkil qiladi. Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 53110,4 soʻm oʻtkazilgan, mart oyi uchun ajratmalar 16 555,2 soʻmni (69 665,6 – 53110,4) tashkil qiladi.

Mart oyi uchun byudjetga 58 018,8 soʻm (74 574-16 555,2) JSHDS oʻtkaziladi.

Majburiy sugʻurta badallari 120 000 soʻmni (1 500 000 x 8%) tashkil qiladi.

Soliq sugʻurta ajratmalari va kreditni soʻndirish uchun ushlanmalar chegirilganidan keyin xodim 805 426 soʻm (1 500 000 – 500 000 - 74 574 - 120 000) ish haqi oladi.

14-VAZIYAT

Oliy oʻquv yurtida xodim farzandining oʻqishi uchun haq toʻlashda imtiyozni hisobga olgan holda JSHDS hisob-kitobi.

Xodimning yanvar-mart oylaridagi ish haqi miqdori oyiga 1 600 000 soʻmni tashkil qiladi, yil boshidan daromad 4 800 000 sumni (1 600 000 x 3) tashkil etdi. Uning arizasiga binoan mart oyida korxonada xodim oʻgʻlining oʻqishiga 2017-2018 oʻquv yili uchun 3 500 000 soʻm miqdorida haq toʻladi, toʻlangan summa mart oyidan boshlab toʻliq soʻndirilgunga qadar jismoniy shaxsning daromadlaridan ushlab qolinadi.

Fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining Oʻzbekiston oliy oʻquv yurtlarida taʼlim olish uchun (oʻzining oʻqishi yoki 26 yoshga tilmagan farzandlarining oʻqishi

uchun) yo'naltiriladigan summalariga soliq solinmaydi (Soliq kodeksining 179-moddasi 31-bandi).

Xodimning arizasiga ko'ra o'qish haqini so'ndirish uchun uning daromadlaridan har oyda 600 000 so'mdan ushlab qolishga qapop qilindi. Yanvar-mart oylari uchun soliq solinadigan daromad 4 200 000 so'mni (4 800 000 - 600 000) tashkil qiladi.

JSHDS summasini aniqlash uchun avvalo 16,5%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad summasini hisob-kitob qilamiz va unga soliqni hisoblaymiz:

$$155\,016 + (4\,200\,000 - 2\,583\,600) \times 16,5\% = 421\,772 \text{ so'm.}$$

Yanvar-fevral oylarida 347 148 so'm soliq ushlab qolingani. Mart oyi uchun JSHDS summasi 74 574 (421 722 - 347 148) so'mni tashkil qiladi.

SHJBPHga majburiy badallar summasi 73 665,6 so'mni ((4 200 000 - 516 720) x 2%) tashkil qiladi.

Yanvar-fevral oylarida SHJBPHga 65 110,4 so'm o'tkazilgan, mart oyi uchun ajratmalar 8 555,2 so'mni (73 665,6 - 65 110,4) tashkil qiladi.

Byudjetga 65 110,4 so'm (73 665,6 - 8 555,2) JSHDS o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari 128 000 so'mni (1 600 000 x 8%) tashkil qiladi.

Soliq sug'urta ajratmalari va ta'lim olish uchun haq to'lash hisobiga ushlanmalar chegirilganidan keyin xodimga 797 426 so'm (1 600 000 - 74 574 - 128 000 - 600 000) ish haqi to'lanadi.

15-VAZIYAT

Ilgari boshqa korxonada ishlagan yangi ishga qabul qilingan xodimning daromadlaridan JSHDS hisob-kitobi.

Mart oyida yangi xodim ishga qabul qilindi. Unga oyiga 600 000 so'm maosh belgilandi. U avvalgi ish joyidan ma'lumotnoma va STIR ni buxgalteriyaga taqdim etmagan.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingani jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalarini to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi ish joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadap taqdim etishi shart (Soliq kodeksining 186-moddasi 5-qismi). Ma'lumotnoma yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, JSHDS

eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qolinadi. Ma'lumotnoma va STIR taqdim etilgan taqdirda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Shunga asoslanib mart oyida yangi ishga qabul qilingan xodimning 600 000 so'mlik daromadiga eng yuqori stavkada soliq solinadi:

$$600\ 000 \times 22,5\% = 135\ 000 \text{ so'm.}$$

Mart oyi uchun SHJBPHga majburiy badallar quyidagiga teng bo'ladi:

$$(600\ 000 \times 2\%) = 12\ 000 \text{ so'm.}$$

Byudjetga o'tkaziladigan summa quyidagicha hisoblanadi:

$$135\ 000 - 12\ 000 = 123\ 000 \text{ so'm.}$$

Mart oyi uchun majburiy sug'urta badallari quyidagi summani tashkil qiladi:

$$600\ 000 \times 8\% = 48\ 000 \text{ so'm.}$$

Soliq va majburiy ajratmalar ushlanganidan keyin xodimga 417 000 so'm ($600\ 000 - 135\ 000 - 48\ 000$) to'lanadi.

16-VAZIYAT

Daromadlar hisoblab yoziladigan vaqtda ishdan bo'shab ketgan xodimning daromadlaridan JSHDS hisob-kitobi.

Korxonada 2018-yilning mart oyida ishlab chiqarish sexining xodimlariga 2017-yili moliya-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha mukofot to'ldi. 2017-yilda to'liq ishlaganlar 1 500 000 so'mdan olishchdi. Rahbariyatning qaroriga ko'ra 1 500 000 so'mlik mukofot 2017- yilda 12 oy to'liq ishlagan va 2018-yilning 1 yanvaridan ishdan bo'shab ketgan xodimga ham to'landi. Xodim daromadlaridan JSHDSni eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qolish haqida arizani topshirmagan. Unga 2017-yilda to'langan daromatlardan oyiga EKIHning 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadigan imtiyozni hisobga olgan holda, soliq ushlab qolingani, chunki u II guruh nogironi hisoblanadi (Soliq kodeksining 180-moddasi). Mehnat shartnomasi bekor qilingandan so'ng xodimga ilgarigi asosiy ish joyida to'lovlar amalga oshirilgan taqdirda, mazkur to'lovlarga JSHDS Soliq kodeksining 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilmagan holda solinadi (Soliq kodeksining 186-moddasi 7-qismi).

Yuridik shaxs bu xodimga to'lagan daromadning jami summasi va undan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab

qolingani umumiy summasi haqida bu yuridik shaxs hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga 30 kun ichida yozma shaklda ma'lum qilishi shart.

Sobiq xodimning mart oyi uchun daromadi -1 500 000 so'mga 7,5%lik stavka buyicha soliq solinadi, chunki bu summa 2 583 600 so'mdan oshmaydi:

$$(1\,500\,000 - 516\,720) \times 7,5\% = 73\,746 \text{ so'm.}$$

Mart oyi uchun SHJBPHga majburiy badallar quyidagi summani tashkil qiladi:

$$(1\,500\,000 - 516\,720) \times 2\% = 19\,665,6 \text{ so'm.}$$

Uni hioblangan JSHDS summasidan chegirib tashlaymiz va byudjetga quyidagi soliq summasi o'tkaziladi:

$$73\,746 - 19\,665,6 = 54\,080,4 \text{ so'm.}$$

Mart oyi uchun majburiy sug'urta badallari quyidagiga teng:

$$1\,500\,000 \times 8\% = 120\,000 \text{ so'm.}$$

Soliqlar va majburiy ajratmalar ushlanganidan keyin xodimga 1 306 254 so'm ($1\,500\,000 - 73\,746 - 120\,000$) to'lanadi.

Mavzuga doir masalalar:

1-masala. Jismoniy shaxsga 2018-yilning yanvar va fevral oylari uchun 1 200 000 so'm ($600\,000 + 600\,000$) ish haqi hisoblangan. Yanvar oyi uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 55155 so'mni tashkil etgan.

Jismoniy shaxsning fevral oyi uchun hisoblangan ish haqidan ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasini aniqlang?

2-masala. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 180-moddasiga muvofiq har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxsga 2018-yil yanvar oyi uchun 1200000 so'm ish haqi hisoblandi.

Jismoniy shaxsdan ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasini aniqlang?

3-masala. Jismoniy shaxsga 2018-yil yanvar va fevral oylarida 1850000 so'm ($925\,000 + 925\,000$) ish haqi hisoblangan. Shuningdek, fevral oyida 600000 so'm mukofot summasi berilgan.

Jismoniy shaxsga yanvar va fevral oylari uchun hisoblangan ish haqidan ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasini aniqlang?

4-masala. II guruh nogironiga 2018-yil yanvar va fevral oylarida 1200000 so‘m (600000+600000) ish haqi hisoblangan. Yanvar oyida 16168 so‘m soliq ushlangan.

Jismoniy shaxsga fevral oyi uchun hisoblangan ish haqidan ushlanishi lozim bo‘lgan daromad solig‘i summasini aniqlang?

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyatini tushuntirib bering?
2. Qanday shaxslar jismoniy shaxslar hisoblanadi?
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i byudjet daromadlari tarkibida qanday ahamiyatga ega?
5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘lovchilari kimlar?
6. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daromad turlari kiradi?
7. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilanadi?
8. Mehnatga haq to‘lash shaklida olinadigan daromadlar tarkibiga qanday daromadlar kiradi?
9. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga soliq stavkalari qanday belgilanadi?
10. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to‘lov manbaida qanday tartibda soliq stavkalari qo‘llaniladi?
11. Qaysi jismoniy shaxslarning daromadlari har bir to‘liq oy uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdorida soliqdan ozod etiladi?

IV BOB. JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI DEKLARATSIYA ASOSIDA SOLIQQA TORTISH XUSUSIYATLARI

4.1. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni zarurligi va ahamiyati

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy islohotlarga mos ravishda mamlakatimiz soliq tizimida chuqur o‘ylangan chora-tadbirlar, shu jumladan, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda qator samarali hamda ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlat soliqlar yordamida fuqarolarning daromadlari va turmush darajasini tartibga solib turadi. Ushbu ta‘sirning qanchalik darajada bo‘lishi jismoniy shaxslarning daromadlarini legallashtirishni, xususiylashtirishga bo‘lgan qiziqishlarni va mulkning qaysi holatda saqlanishini belgilab beradi. Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, agar ta‘sir darajasi ham, soliq yuki ham yuqori bo‘lsa daromadlarni ko‘proq yashirishga moyillik ortadi, daromad olishga bo‘lgan qiziqishlar bir muncha so‘nadi, aksincha, soliq yuki kam bo‘lsa aks holat yuz beradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jismoniy shaxslarning daromadlarini to‘liq hisobini yuritish va ijtimoiy ahamiyatga ega soliq chegirmalarini qo‘llashda daromadlarni deklaratsiyalash usuli yuqori samara beradi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida xususiylashtirishni rivojlantirish va daromad topishga erkinlik yaratish bilan birgalikda ushbu daromadlarning qonuniyligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda deklaratsiyalash tizimi orqali fuqarolar daromadlarining hisobga olinishi va adolatli soliqqa tortilishi ta‘minlanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalarini pasaytirish va hisobga olish, daromadlarning qonuniyligini ta‘minlash va soliqlarni to‘liq to‘langanligini nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib, bu daromadlarni deklaratsiyalash tizimini joriy etish va uni to‘liq kompyuterlashtirishni taqozo etadi.

Deklaratsiya – bu soliq to‘lovchi tomonidan topshiriladigan, o‘z ichiga daromadlar haqidagi ma’lumotlarni olgan, shuningdek ushbu daromatlarni topish bilan bog‘liq xarajatlar haqidagi ma’lumotlarni aks ettirgan, qayta hisoblangan soliqni belgilangan muddatda ixtiyoriy ravishda to‘lashga majbur etadigan hujjatdir.

Deklaratsiya jismoniy shaxslarning soliq organlariga hisobot davridagi daromadlari va o‘zlariga bevosita daxldor bo‘lgan soliq imtiyozlari haqidagi rasmiy bayonotni berishni anglatadi. Soliq deklaratsiyasi va soliq stavkalari asosida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqni Davlat soliq xizmati organlari nazorat qiladilar. Yillik jami daromad haqidagi soliq deklaratsiyasini, odatda, asosiy ish joyidan tashqarida daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek hisobot yilida asosiy ish joyiga ega bo‘lmagan va qonunchilik doirasida boshqa manbalardan daromad olgan barcha toifadagi jismoniy shaxslar taqdim etishlari shart hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiyalashning murakkab tizim ekanligini hisobga olib, respublikamizda uni joriy etishdan oldin bir nechta hududlar misolida eksperimentlar o‘tkazildi. Eksperiment dastlab 1994 yilda Toshkent shahrining ikkita tumanida, 1995 yilda Toshkent shahrining barcha tumanlariga keyinchalik butun respublikaga joriy etildi. O‘tkazilgan eksperiment o‘z natijalarini berdi. Hozirgi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida ham deklaratsiya taqdim etuvchilar soni hamda ushbu mexanizm orqali byudjetga soliq tushumi tobora ortib bormoqda.

Olib borilgan eksperiment yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlar besh bosqichga bo‘lindi.

Birinchi bosqichda korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga asosiy joyidan tashqaridan daromad olgan fuqarolar to‘g‘risida mahlumotlar taqdim etishlarini so‘rab xatlar yuborildi.

Ikkinchi bosqichda olingan ma’lumotlar qayta ishlandi, tegishliligi bo‘yicha boshqa soliq inspektsiyalariga yuborildi.

Uchinchi bosqichda ikki va undan ko‘p daromad manbasiga ega bo‘lganlar va tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlari to‘g‘risida deklaratsiyalarni to‘ldirishlari bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.

To‘rtinchi bosqichda olingan ma’lumotlar kompyuterlarda qayta ishlandi, daromadlarga soliqlar hisoblandi va ularning tushishi nazoratga olindi.

Beshinchi bosqichda to'lov xabarnomalari yozildi va hisoblangan soliqlar yig'ildi. Respublikamizda daromadlarni deklaratsiyalashning birinchi tajribasi shu tariqa joriy etilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 24 apreldagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida"gi 397-1-son qarorining 5-bandida "2002 yildan e'tiboran, daromadlar olish manbalaridan qat'iy nazar, barcha jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiyalash tizimi joriy etilishi nazarda tutilsin", deya qayd etib qo'yilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 7 dekabrda qabul qilingan qaroriga binoan esa, jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiyalash tizimi 2003 yilda olingan daromadlardan boshlab joriy etilishi belgilab qo'yildi.

Vazirlar Mahkamasiga esa "1997-2001-yillar mobaynida jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiyalash tizimini, shu jumladan deklaratsiya shaklini, uni taqdim etish va ko'rib chiqish tartibini hamda muddatlarini, shuningdek, deklaratsiya taqdim etmaganlik, uni belgilanmagan shaklda taqdim etganlik yoki noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etganlik uchun javobgarlik choralarini ishlab chiqish" vazifasi topshirilgan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2002 yil 5 sentyabrdagi "Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni esa, daromadlarni deklaratsiyalash tizimini yaratish bo'yicha chet el tajribasini chuqur o'rganishni, aholini tegishli tarzda tayyorlashni, zarur qonunchilik va me'yoriy negiz qabul qilinishini, butun bir tashkiliy chora-tadbirlar majmui amalga oshirilishini talab etishini hisobga olgan holda uni 2002-2005 yillarda bosqichma-bosqich joriy etilishini belgilab berdi.

Bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik faoliyati erkinligi tamoyillari amal qilayotgan barcha iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda fuqarolar tomonidan o'z daromadlarini majburiy deklaratsiyalash amaliyoti keng qo'llaniladi. Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirish fuqarolar tomonidan soliqlar to'lash chog'ida, shuningdek uy, yer maydonlari va ko'chmas mulk, qimmatbaho qog'ozlar hamda boshqa qimmatli buyumlarni xarid qilish bilan bog'liq yirik moliyaviy bitimlarni amalga oshirishda qat'iy shart hisoblanadi. Xullas, fuqarolar daromadlarining manbalari oshkoraligi, qonuniyligini tasdiqlash zarur bo'lgan joyda deklaratsiya talab qilinadi.

Xorijiy mamlakatlarda mavjud bo'lgan deklaratsiyalash tizimining asosiy sharti, bir tomondan, o'z daromadlari va ularning manbalari to'g'risida odamlarning o'zlari ixtiyoriy ravishda ma'lumot berishlaridir. Ikkinchi tomondan, deklaratsiya, mol-mulk xarid qilishga sarflangan pul mablag'larining manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etmaslik uchun, o'z daromadlarini atayin kamaytirib ko'rsatganligi yoki ularni yashirganligi uchun iqtisodiy jazo va jarimalarning qonun yo'li bilan mustahkamlangan, hatto jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo'lgan kuchli tizimi mavjuddir.

Fuqarolarning daromadlarini deklaratsiyalash yashirin iqtisodiyotga, pul mablag'larining noqonuniy aylanishiga, korrupsiya va poraxo'rlikka hamda iqtisodiyot sohasidagi boshqa jinoyatlarga qarshi kurashda ta'sirchan vositalardan biri hisoblanadi.

Shuni taassuf bilan e'tirof etish kerakki, bizda korrupsiya va g'ayriqonuniy daromadlarga, savdo-vositachilik faoliyati natijasida tushadigan naqd pullarni yashirishga qarshi qat'iy kurash olib borish zarurligi to'g'risida ko'p gapiriladi-yu, ammo ayni vaqtda jahon amaliyotida hamma tomonidan qabul qilingan mexanizmni joriy etish bo'yicha aniq-ravshan choralar ko'rilmayapti. Bunday mexanizm poraxo'rlik payini qirqib, yashirin iqtisodiyot uchun zamin yaratayotgan, bankdan tashqari pul aylanishini ta'minlayotgan barcha manbalarni tugatishga yordam beradi.

Shuni hisobga olish zarurki, daromadlarni deklaratsiyalashni joriy etmay, fuqarolarning o'z daromadlari va ularni olish manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ixtiyoriy ravishda taqdim etishning barqaror tizimini vujudga keltirmasdan, shuningdek o'z daromadlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishdan bo'yin tovlayotganlarni jazolash choralarini puxta ishlab chiqmay turib korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash borasidagi ishlarni tasavvur qilish qiyin.

Ayni shu boisdan, bunday ishlarning jami qonun hujjatlariga, huquqiy me'yorlarga tayanadigan taraqqiy etgan mamlakatlarda tarkib topgan tajribadan kelib chiqqan holda bizning respublikamizda ham xuddi shunday tizim faollik bilan yaratilishi lozim.

Bundan tashqari, bozor munosabatlariga o'tish tufayli aholi uchun o'z qobiliyatlarini yana ham kengroq namoyon etish, o'zini iqtisodiyotning turli sohalarida yuzaga chiqarish hamda turli qonuniy manbalardan daromad olish imkoniyatlari ochiladi.

Respublikada xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish, kichik biznesni rivojlantirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, mehnatga haq to'lashdagi cheklashlarni bekor qilish, korxonalarining xo'jalik faoliyatiga davlat va nazorat idoralarining aralashuvini keskin kamaytirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning hammasi odamlar uchun faol mehnat qilish va o'z mehnati bilan ko'proq pul ishlab topish imkoniyatini yaratishga qaratilgandir. Shu munosabat bilan aholi daromadlarini hisobga olish, daromadlarning qonuniyligini hamda soliqlar bekamu ko'st to'langanligini nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqdaki, bu ham daromadlarni umumdeklaratsiyalash tizimini joriy etish zarurligini taqozo etadi.

Ayni paytda, fuqarolarning shaxsiy mulkiga tajovuz qilish yoki ularning huquq va erkinliklarini cheklash kabi faktlarga barham berish maqsadida Farmonda shu narsa belgilanganki, daromadlarni deklaratsiyalash mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish chog'ida fuqarolarning konstitutsiyaviy va mulkiy huquqlari buzilishiga, ularning daromadlari va mol-mulki miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor etilishiga, fuqarolarning xususiy turmushiga aralashishga hamda boshqa suiste'molchiliklar va huquqbuzarliklarga qat'iyanoq yo'l qo'yilmaydi. Mansabdor shaxslar jismoniy shaxslarning daromadlari va mol-mulki bilan bog'liq axborot hamda hujjatlardan foydalanish tartibini buzgan hollarda ular javobgarlikka, hatto jinoiy javobgarlikka ham tortiladilar.

Shuning uchun daromadlarni deklaratsiyalashning butun tizimi qonunchilikka asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tegishli tuzilmalar va mutaxassislarni jalb etgan holda "Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiyalash to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqib, Oliy Majlisga tasdiqlash uchun topshirildi.

Daromadlarni deklaratsiyalash tizimini yaratish bo'yicha chet el tajribasini chuqur o'rganishni, aholini tegishli tarzda tayyorlashni, zarur qonunchilik va me'yoriy negiz qabul qilinishini, butun bir tashkiliy chora-tadbirlar majmui amalga oshirilishini talab etishni hisobga olgan holda uni 2002-2005 yillarda bosqichma-bosqich joriy etishga qaror qilindi.

Shu bilan bir vaqtda soliq organlariga jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiyalash tizimi joriy etilgunga qadar fuqarolarning

daromadlarini ixtiyoriy ravishda deklaratsiyalash tizimini takomillashtirish yuzasidan tanlab olish yo‘li bilan tajriba tariqasida ish olib borish, shuningdek ularning javobgarlik choralarini, jumladan zarur ma’lumotlarni taqdim etmaganlik va daromadlarni qasddan yashirganlik uchun qonunchilikda ko‘zda tutilgan jazolarni qo‘llash choralarini belgilash huquqi berildi.

Shuni qayd etib o‘tish kerakki, hozirgi vaqtda amaldagi qonunchilikka muvofiq jismoniy shaxslar asosiy ish joyidan tashqarida olayotgan daromadlar, shuningdek jismoniy shaxs tomonidan uni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazmagan holda bir marotabalik operatsiyalar (savdo, ish, xizmatlar)ni amalga oshirishdan oladigan daromadlari deklaratsiya qilinishi lozim.

Farmonda ko‘rsatib o‘tilganidek, fuqarolarning o‘z jamg‘armalarini banklarga qo‘yishni rag‘batlantirish, pul mablag‘larining bankdan tashqari aylanishini kamaytirish choralari amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida fuqarolarning respublika tijorat banklaridagi depozit hisobvaraqlariga qo‘yiladigan naqd mablag‘lari deklaratsiya qilinmaydi va ularning kelib chiqish manbalarini tasdiqlash talab etilmaydi.

Soliq idoralarini axborot bilan ta’minlashni yaxshilash uchun 2003 yilning 1 iyuliga qadar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzurida jismoniy shaxslar tomonidan taqdim etilgan daromadlar (daromad manbalari) to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni qayta ishlaydigan Markazni tashkil etish, uni zarur texnika bilan jihozlash ko‘zda tutilgan.

Respublikada jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimi joriy etilishi daromadlarni oshkoralashtirish imkonini beradi, yashirin iqtisodiyot yo‘liga g‘ov solib xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yana ham qulayroq shart-sharoitlarni yaratishga ko‘maklashadi, tsivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarini shakllantirishning obyektiv va zarur sharti hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, o‘tgan yillarda bu yo‘nalishda muayyan ishlar amalga oshirildi. Barcha darajadagi davlat soliq organlari zamonaviy shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalari bilan ta’minlangan. Soliq to‘lovchi yuridik shaxslarni identifikatsiyalash raqamlari (STIR)ni berish va qo‘llash tizimi ishlab chiqildi hamda muvaffaqiyatli joriy etildi. Soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro‘yxatga va hisobga olish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. Shu

bilan birga, bizning fikrimizcha, o‘z yechimini kutib turgan bir qator masalalar mavjud.

Ko‘plab chet davlatlar tajribasini o‘rganish va deklaratsiyalashning amaldagi tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, daromadlarni umumdeklaratsiyalash tizimini tadbqiq etish bosqichma – bosqich o‘tkazilishi kerak.

Umuman olganda, ikki va undan ko‘p daromad manbaiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar daromadini yil yakuni bilan deklaratsiyalash zaruriyati:

- birinchidan, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning boshlang‘ich bosqichlarida tadbirkorlik harakatiga keng yo‘l ochilgandan keyin, ularning turli joyda ishlab topadigan daromadlarini aniqlash, hisobga olish va tegishli tartibda soliqqa tortish;

- ikkinchidan, soliqning eng bosh tamoyili - ularning barcha uchun barobarligini ta‘minlash;

- uchinchidan, mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromad solig‘ini hisoblashning o‘sib boruvchi tartibda hisoblash mexanizmining joriy etilishi ham ikki va undan ortiq daromad manbaiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromadlarini yil yakuni bilan qayta deklaratsiyalash mexanizmini obyektiv zaruriyat qilib qo‘ydi.

4.2. Jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlari tarkibi

Deklaratsiya – soliq idoralariga soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar tomonidan topshiriladigan va o‘z ichiga olingan daromadlar va ushbu daromadlar bilan bog‘liq xarajatlar haqidagi ma‘lumotlarni aks ettiradigan hamda soliq to‘lovchining hisoblangan soliqni ixtiyoriy ravishda va belgilangan vaqtda davlat byudjetiga to‘lashga majbur etadigan hujjat hisoblanadi.

Moliya yilida soliqqa tortiladigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar soliq to‘lashga jalb etiladi. Bundan tashqari, asosiy ish joyidan tashqari boshqa daromad manbalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar olgan daromadlari haqida o‘zlari yashab turgan hududdagi soliq idoralariga hisobot davridan keyingi yilning 1 apreliga qadar deklaratsiya topshirishlari lozim bo‘ladi. Yillik jami daromad haqida

deklaratsiya to'ldirish va uni soliq idoralariga taqdim etish O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi asosida amalga oshiriladi.

Deklaratsiya jismoniy shaxslarning soliq organlariga hisobot davridagi daromadlari va o'zlariga bevosita daxldor bo'lgan soliq imtiyozlari haqidagi rasmiy bayonotni berishini anglatadi. Soliq deklaratsiyasi va soliq stavkalari asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliqni Davlat soliq xizmati organlari nazorat qiladilar. Yillik jami daromad haqidagi soliq deklaratsiyasini, odatda, asosiy ish joyidan tashqarida daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, hisobot yilida asosiy ish joyiga ega bo'lmagan va qonunchilik doirasida boshqa manbalardan daromad olgan barcha toifadagi jismoniy shaxslar taqdim etishlari shart hisoblanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi haqidagi deklaratsiya quyidagi hollarda soliq organlariga topshiriladi:

a) mulkiy daromad, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqqi tariqasida olingan daromad (agar bunday daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa);

b) asosiy bo'lmagan ish joyidan (O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek uning hududidan tashqaridagi manbalardan) daromad olgan jismoniy shaxslar tomonidan (asosiy bo'lmagan ish joyidagi mehnat to'lovi bo'yicha daromad oluvchi jismoniy shaxs buxgalteriyaga eng yuqori stavka bo'yicha daromadidan soliq ushlab qolinishi haqida ariza topshirganlar bundan mustasno);

v) rezident - chet ellik jismoniy shaxslar tomonidan;

g) grant olgan jismoniy shaxslar tomonidan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning tegishli xulosasini ko'rsatgan holda;

d) mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxslar deklaratsiyalashning dastlabki va yakuniy deklaratsiya bo'yicha alohida belgilangan tartibda amalga oshiradi;

y) jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida o'zi yoki 26 yoshgacha bo'lgan farzandining ta'lim olish uchun yo'naltiriladigan daromadlari deklaratsiya qilinishi mumkin;

j) O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda

yo'naltiriladigan summalariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni deklaratsiya asosida qo'llashi mumkin.

Agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uning arizasiga ko'ra belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda ushlab qolingani bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar va soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxs, Soliq kodeksining 192-moddasida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda daromadlari to'g'risida deklaratsiya taqdim etadi.

Mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlarga soliq solish. Fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar bunday faoliyatni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Daromadlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini davlat soliq xizmati organining yozma xabarnomasi asosida to'laydi.

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va ulardan foydalanish uchun zarur materiallar olishga doir xarajatlar;
- faqat fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi yozma arizasidan iborat bo'ladi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyasiga asosiy ish joyi bo'yicha to'langan daromadlar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma'lumotnoma ilova qilinadi.

4.3. Deklaratsiyani to'ldirish tartibi. Soliq to'lovchining majburiyatlari

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili;
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlar turlarga ajratib ko'rsatilgan holda olingan jami yillik daromad (bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ushbu operatsiyalarning o'zidan olish mo'ljallanayotgan daromad aks ettiriladi);
- daromadlarning manbalari;
- daromad olish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarning summalari;
- jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar;
- hisoblab chiqarilgan soliq summasi;
- haqiqatda to'langan soliq summasi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya pochta orqali buyurtma xat shaklida, shuningdek elektron shakldagi axborot tarzida taqdim etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya blankalari soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan bepul beriladi.

Jismoniy shaxs taqdim etgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada to'lanishi lozim bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o'zgarishlar kiritishi shart.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddati tugaganiga qadar berilsa, soliq to'lovchi Soliq kodeksda belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanganiga qadar berilsa, soliq to'lovchi soliqning yetishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada aniqlangan xatolik to'g'risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi. Soliq to'lovchilar Soliq kodeksining 189-moddasida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo'lmagan daromadlarni olgan soliq to'lovchilar doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan chet ellik jismoniy shaxs o'tgan soliq davri uchun daromadlar to'g'risida joriy yilning 1 aprelegacha deklaratsiya taqdim etadi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo'yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdorini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning tegishli xulosasini ko'rsatadi.

Mol-mulkini ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs, agar ushbu daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lov manbaida soliq solinmasa, belgilangan muddatlarda jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya taqdim etish bilan bir

qatorida ijaradan daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzdagi deklaratsiya ham taqdim etadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Agar soliq to'lovchi daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organi o'zidagi mavjud ma'lumotlar asosida soliq summasini eng yuqori stavka bo'yicha hisoblashga va soliq to'lovchiga to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan soliq summasi to'g'risida bildirishnoma topshirishga haqli. Soliq to'lovchi tomonidan jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, soliqning yakuniy summasi ushbu deklaratsiya hisobga olingan holda aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4453-sonli Farmoniga asosan, 2013 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya va jismoniy shaxsning mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar bo'yicha yakuniy deklaratsiyalari birlashtirilib o'rniga "Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya"ga unifikatsiya qilingan holda Davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilishi belgilangan. Ushbu me'yorlar O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda O'RQ-343 sonli Qonunga asosan Soliq kodeksiga ham kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, mehnat xaqi shaklidagi daromadni hisoblash, undirish va davlat byudjeti daromadlariga o'tkazib berish ish beruvchi yuridik shaxslar – soliq agentlari zimmasiga yuklatilgan.

4.4. Deklaratsiya taqdim etuvchi chet ellik jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda soliq solinadi.

Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish o'zarolik prinsipi bo'yicha tugatilishi yoki cheklanishi mumkin.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'ida bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlar kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

Chet ellik jismoniy shaxsning - O'zbekiston Respublikasi rezidentining daromadlariga belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi

Ko'chmas mulk, yuridik shaxslarning - O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining ustav kapitalidagi aksiyalari va ulushlari (paylari) bir chet ellik jismoniy shaxs tomonidan boshqa jismoniy shaxsga - O'zbekiston Respublikasi rezidentiga yoki norezidentiga, yuridik shaxsga - O'zbekiston Respublikasi norezidentiga realizatsiya qilingan taqdirda, ushbu daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ushlab qolish majburiyati, agar Soliq kodeksining 194-moddasining oltinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq agenti deb e'tirof etiluvchi daromadni to'lash manbaiga (mol-mulkni sotib oluvchi zimmasiga) yuklatiladi.

Aksiyalar qimmatli qog'ozlarning birja bozori va uyushgan birjadan tashqari bozorida realizatsiya qilinganda O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozoridagi hisob-kitob-kliring palatasi soliq agenti deb e'tirof etiladi.

Chet ellik jismoniy shaxs tomonidan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash, ushlab qolish, o'tkazib berish, soliq agenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasdiqlaydigan shakl bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisob-kitobini va aksiyalar oldi-sotdisi bo'yicha bitimlar reyestrini taqdim etish, soliq to'langanligi to'g'risida ma'lumotnoma berish va mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini ro'yxatdan o'tkazish (rasmiylashtirish) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha amaldagi Soliq kodeksning 155¹-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar sotuvchida — chet ellik jismoniy shaxsda mol-mulk realizatsiya qilingan yildan keyingi yilning 1 apreliga qadar Soliq kodeksning 192-moddasi uchunchi qismiga muvofiq daromadlarni deklaratsiya qilish bo'yicha majburiyat yuzaga kelsa, soliq agenti tomonidan ushbu moddaga muvofiq ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya taqdim etilayotganda davlat soliq xizmati organi tomonidan qayta hisoblab chiqarilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan chet ellik jismoniy shaxs o'tgan soliq davri uchun daromadlar to'g'risida joriy yilning 1 aprelegacha deklaratsiya taqdim etadi.

Chet ellik jismoniy shaxs - O'zbekiston Respublikasining rezidenti belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo'lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet ellik jismoniy shaxs - O'zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo'lsa, joriy yil uchun daromadlar bo'yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlarini soliq solishdan ozod etish tartibi. O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomasini qo'llash huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i byudjetga to'langan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining bunday norezidenti to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini soliq majburiyati bo'yicha da'vo muddati mobaynida byudjetdan qaytarib olish huquqiga ega. Bunda O'zbekiston Respublikasi norezidenti jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi yoki uning summasini kamaytirish to'g'risidagi iltimos bayon etilgan arizani, shuningdek quyidagi hujjatlarni O'zbekiston Respublikasining davlat soliq xizmati organiga taqdim etadi:

- O‘zbekiston Respublikasi bilan ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish to‘g‘risida xalqaro shartnomaga ega bo‘lgan davlatning rezidenti ekanligini rasmiy jihatdan tasdiqlovchi hujjatni;

- olingan daromadlarni tasdiqlovchi hujjatni;

- ushbu O‘zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlardan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘langanligi to‘g‘risidagi tegishli xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan hujjatni.

O‘zbekiston Respublikasining davlat soliq xizmati organi arizani uch oy muddatda ko‘rib chiqadi va hujjatlar ishonchli bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini byudjetdan qaytaradi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi g‘ayriqonuniy qo‘llanilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining davlat soliq xizmati organi O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga asoslangan rad javobini yuboradi. Rezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan soliqni hisobga olish. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan, jismoniy shaxslardan — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlaridan olinadigan daromad solig‘i summalari O‘zbekiston Respublikasida soliq to‘lashda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini hisobga olish uchun chet davlat vakolatli organining ma‘lumotnomasi yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langanligini tasdiqlovchi boshqa hujjat asos bo‘ladi.

4.5. Daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi

Taqdim etish tartibi belgilangan daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya bo‘yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to‘lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e‘tiboran o‘n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo‘yicha olingan daromad summasini, jismoniy

shaxslardan olinadigan daromad solig‘i miqdorini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha organning tegishli xulosasini ko‘rsatadi.

Mol-mulkini ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs, agar ushbu daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘lov manbaida soliq solinmasa, belgilangan muddatlarda jami yillik daromad to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etish bilan bir qatorda ijaradan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e‘tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzdagi deklaratsiya ham taqdim etadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Agar soliq to‘lovchi daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo‘lsa, shuningdek oldin taqdim etilgan deklaratsiyada noto‘g‘ri ma‘lumotlar aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini o‘zidagi mavjud axborot asosida eng yuqori stavka bo‘yicha hisoblashga va to‘lanishi lozim bo‘lgan, hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi to‘g‘risida soliq to‘lovchiga o‘n kunlik muddat ichida to‘lov xabarnomasini topshirishga haqli. Soliq to‘lovchi tomonidan jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiya yoki to‘g‘rilangan deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yakuniy summasi ushbu deklaratsiya hisobga olingan holda aniqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4453-sonli Farmoniga asosan, 2013 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya va jismoniy shaxsning mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar bo‘yicha yakuniy deklaratsiyalari birlashtirilib o‘rniga “Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya”ga unifikatsiya qilingan holda Davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilishi belgilangan. Ushbu me‘yorlar O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda O‘RQ-343 sonli qonunga asosan soliq kodeksiga ham kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga

muvofig, mehnat xaqi shaklidagi daromadni hisoblash, undirish va davlat byudjeti daromadlariga o'tkazib berish ish beruvchi yuridik shaxslar – soliq agentlari zimmasiga yuklatilgan.

Deklaratsiyani taqdim etish tartibini buzganlik uchun jazo choralari. Deklaratsiyani taqdim etish tartibini buzganlik uchun Soliq kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda moliyaviy jazo choralari nazarda tutilgan.

Deklaratsiyani taqdim etmaganlik, o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki belgilanmagan shaklda taqdim etganlik uchun:

- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 115-moddasiga asosan - Soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaganlik va kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaganlik uchun soliq to'lovchi – yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki soliq to'lovchi – jismoniy shaxs mahmuriy javobgarlikka tortiladi.

- O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 174-moddasiga asosan fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi;

Deklaratsiya uzrli sabablar (xizmat safarida bo'lish, kasallik va boshqalar)ga ko'ra o'z vaqtida taqdim etilmagan hollarda, soliq inspeksiyasiga deklaratsiya bilan birga qo'shimcha tarzda tushuntirish xati va kechikish sababini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi.

Deklaratsiyani taqdim etish tartibiga rioya qilinmagan yoki soliq to'liq to'lanmagan taqdirda DSI soliq to'lovchiga jarima (boqimonda, penya)ni ixtiyoriy to'lash to'g'risida talabnoma yuboradi.

Deklaratsiya bo'yicha soliq to'lash tartibi. Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to'laydilar.

Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to'langan summalar o'rtasidagi farq kelgusi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to'lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq to'langan sana quyidagilardir:

- yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag'idan to'langani taqdirda - ularning bankdagi hisobvara-g'idan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun;

- jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag'lari kiritilgan taqdirda - bank kassasiga mablag'lar to'langan sana.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

4.6. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromadlarini soliqqa tortish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-son Qaroriga muvofiq 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab ko'chmas mulkni, shu jumladan uy-joylarni ijaraga topshirishdan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish shartnomada belgilangan ijara haqi miqdoridan kelib chiqqan holda, biroq quyidagilardan:

- yuridik shaxslarga – davlatning ko'chmas mulkidan foydalan-ganlik uchun ijara haqining eng kam stavkalaridan;

- uy-joylarini va transport vositalarini ijaraga topshiruvchi jismo-niy shaxslar uchun - belgilangan ijara haqi stavkalaridan kelib chiqib hisoblangan miqdorlardan kam bo'lmagan holda belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qarorining 24-ilovasiga muvofiq belgilangan.

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari¹³

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich	Oylik ijara to'lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda		
			Toshkent sh.	Nukus sh. va viloyat bo'yisunuvdagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Uy-joylar:				
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv. metri uchun	10 000	6 500	3 000
	noturar joy		20 000	13 000	6 000
2	Avtomobil transporti:				
	yengil avtomobil (yo'lovchilar, bagaj tashishga mo'ljallangan hamda haydovchi o'rnini hisoblamaganda, o'rindiqdagi soni 8 tadan ko'p bo'lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun		480 000	
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari			940 000	

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli Qarori.

Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadga O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 181-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining belgilangan eng kam soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinadi. 2018 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining eng kam stavkasi 7,5 foiz miqdorida belgilangan. Jismoniy shaxsning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadiga dastlabki deklaratsiya O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakli asosida taqdim etiladi.

Belgilangan ijara haqining eng kam stavkalaridan kelib chiqib hisoblangan summa hamda ijara shartnomasida belgilangan ijara haqi miqdori o‘rtasidagi ijobiy farq qo‘shimcha hisoblash deb e’tirof etiladi.

Jismoniy shaxsning uy-joyini ijaraga berishdan olingan daromadi summasi hamda qo‘shimcha hisoblash summasiga jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlariga uy-joy ijaraga berilgan oydan keyingi oying 5-kunidan kechiktirmasdan, taqdim etiladigan dastlabki deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadi. Uy-joy yuridik shaxsga ijaraga berilsa, ijara bo‘yicha daromadlarga soliq solish to‘lov manbaida ijara shartnomasida belgilangan ijara haqi miqdoridan kelib chiqib, biroq belgilangan eng kam stavkalardan kam bo‘lmagan miqdorda amalga oshiriladi. Bir vaqtning o‘zida shuni ma’lum qilamizki, jismoniy shaxslar tomonidan noturar joylarni (yuridik va jismoniy shaxslarga) ijaraga berishda, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadga soliq solish shartnomada belgilangan ijara haqi summasidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Jismoniy shaxs tomonidan noturar joyini jismoniy shaxsga ijaraga berilganda, ijara shartnomasi majburiy tarzda notarial tasdiqlanishi shart. Jismoniy shaxs tomonidan noturar joyini yuridik shaxsga ijaraga berilganda, ijara shartnomasi ixtiyoriy asosda notarial tasdiqlanadi. Jismoniy shaxs tomonidan noturar joyini yuridik shaxsga ijaraga berishdan olingan daromad summasiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lov manbaida, noturar joylar jismoniy shaxslarga berilganda esa – noturar joy ijaraga berilgan oydan keyingi oying 5-kunidan kechiktirmasdan yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan jami yillik daromad to‘g‘risidagi dastlabki deklaratsiya asosida solinadi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, to‘lov manbai soliq agenti hisoblanmasa, jismoniy shaxs mustaqil ravishda yashash joyidagi

davlat soliq xizmati organlariga jami yillik daromad to'g'risidagi dastlabki deklaratsiyani taqdim etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk – turar joy fondini realizatsiya qilishdan olingan daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam stavkasi bo'yicha soliq solinadi. Jismoniy shaxslarning ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr mobaynida ko'chmas mulk – turar joy fondini ikki martadan ortiq sotishdan olingan daromadlariga soliq solinadi. O'n ikki oylik davr ko'chmas mulk – turar joy fondi birinchi marta sotilgan sanadan boshlab hisoblanadi. Ko'chmas mulk – turar joy fondi uchinchi va undan keyingi marta sotilganda, soliq solinadigan daromadlar ko'chmas mulk – turar joy fondining birinchi ikki obyektiga sotilishining hisobi bilan aniqlanadi. Ko'chmas mulk obyektlari – turar va noturar joy fondini sotishdan olingan daromad deganda sotib olingan narx va sotish narxi o'rtasidagi farq tushuniladi, sotib olingan narxi mavjud bo'lmasa – inventarizatsiya qiymati va sotish narxi o'rtasidagi farq tushuniladi. Ko'chmas mulk obyektlari – turar va noturar joy fondini sotishdan olingan daromadlarga soliq solish – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam stavkasi bo'yicha amalga oshiriladi. Ko'chmas mulk obyektiga – turar joy fondi yuridik shaxs tomonidan sotib olingan taqdirda, daromadlarga soliq solish to'lov manbaida, ko'chmas mulk obyektiga – noturar joy fondi jismoniy shaxslarga sotilgan taqdirda yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlariga sotish amalga oshirilgan yildan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmasdan taqdim etiladigan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya asosida amalga oshiriladi. Ko'chmas mulk obyektiga–turar joy fondini sotishdan olingan daromadga soliq solish faqat jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida amalga oshiriladi.

4.7. Jismoniy shaxslar tomonidan elektron tarzda deklaratsiya topshirish xususiyatlari va elektron deklaratsiya topshirilishi bilan bog'liq dasturiy mahsullar

«Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuli O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Birinchi

Prezidentning 2002 yil 5 sentabrdagi «Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3127- sonli Farmoni hamda Adliya vazirligida 2008 yil 21 yanvarda 1760-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining «Soliq deklaratsiyasining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroriga asosan ishlab chiqilgan hamda Davlat soliq qo‘mitasining 2012 yil 11 fevraldagi 64-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan. «Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuli davlat soliq inspeksiyalarida jismoniy shaxslarning asosiy va asosiy bo‘lmagan ish joylaridan olgan daromadlari haqidagi ma‘lumotlarni kompyuter bazasiga kiritish, qayta ishlash natijasida hosil bo‘lgan natijalarni SHHVlarga o‘tkazish, jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya blankalarini, shuningdek barcha zaruriy hujjatlarni chop etish uchun mo‘ljallangan.

Soliq deklaratsiyasini qabul qilish, dasturiy mahsulga kiritish va qayta ishlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatishning maqsadi va vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslardan soliq deklaratsiyalarini qabul qilish va uni dasturiy mahsulga kiritishning asosiy maqsadi va vazifasi soliq to‘lovchilarga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ma‘lumotdarning elektron ko‘rinishda saqlash va soliq to‘lovchilar ustidan vertikal nazoratni o‘rnatish hamda tahlil qilishni soddalashtirish va qulaylashtirish.

2. Soliq deklaratsiyalarini dasturiy mahsul orqali qabul qilish sarf xarajatlarini kamaytirishga va davlat soliq xizmati hamda deklarantlarning vaqtini tejash.

3. Soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan axborot xizmatlar sifatini oshirish; soliq to‘lovchi hamda soliq organlarining o‘zaro munosabatlarida subyektiv aralashuvlarga chek qo‘yish.

Jismoniy shaxslar tomonidan qabul qilib olingan soliq deklaratsiyalarini dasturiy mahsulga kiritilishi elektron bazaning shakllantirishini ta‘minlaydi. Dasturiy mahsul texnik soz holatda bo‘lishini ta‘minlash Axborot tizimi sho‘basi xodimlari hamda soliq deklaratsiyalarini qabul qilish va mazkur ma‘lumotlarni dasturga kiritish va ularning tahlilini olib borish va dasturiy mahsulga kiritilgan ma‘lumotlarni DSQning yagona ma‘lumotlar bazasiga yuklash jismoniy shaxslarga soliq solish bo‘limi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq deklaratsiyalarini qabul qilish, dasturiy mahsulga kiritish va qayta ishlash bo'yicha xizmatning tarkibi jismoniy shaxslarning daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qilish, dasturiy mahsulga kiritish va qayta ishlash xizmatlarini web texnologiyalari orqali amalga oshirishdan iboratdir.

Soliq deklaratsiyasini qabul qilish, dasturiy mahsulga kiritish va qayta ishlash xizmatining mazmuniga quyidagilar kiradi:

- soliq organlari tomonidan soliq deklaratsiyalarini qabul qilish, ro'yxatga olish, dasturiy mahsulga kiritish va qayta ishlash;

- elektron hujjat ko'rinishida soliq deklaratsiyalarini yuborgan soliq to'lovchilarga, ularni qabul qilinganligi yuzasidan tasdiqnoma yuborish;

- belgilanmagan shaklda taqdim etilgan hisobotlar yuzasidan yozma bildirishni jo'natish;

- soliq to'lovchi tomonidan, yozma bildirish olingandan so'ng, belgilanmagan shaklda taqdim etilgan soliq deklaratsiyalarini qaytadan to'g'ri shakllantirish va o'rnatilgan tartibda soliq idoralariga taqdim etilishini nazoratga olish va dasturiy mahsulga belgilangan tartibda kiritish;

- taqdim etilgan deklaratsiyani amaldagi qonunchilikda belgilangan muddatlar davomida saqlash. Soliq deklaratsiyasini qabul qilish, dasturiy mahsulga kiritish va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar Davlat soliq qo'mitasining rasmiy web portalida orqali amalga oshiriladi.

Davlat soliq qo'mitasining rasmiy web portalida soliq to'lovchilariga tasdiqlangan shakllardagi soliq deklaratsiyalarini elektron ko'rinishda shakllantirishda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozimligi ko'zda tutilgan:

- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili;

- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

- soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlar turlarga ajratib ko'rsatilgan holda olingan jami yillik daromad (bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ushbu operatsiyalarning o'zidan olish mo'ljallanayotgan daromad aks ettiriladi);

- daromadlarning manbalari;

- daromad olish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarning summalari;

-jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar;

-hisoblab chiqarilgan soliq summasi;

-haqiqatda to'langan soliq summasi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilgan.

Dasturiy mahsuldagi soliq deklaratsiyalarining himoyasini ta'minlash maqsadida kriptografiya himoya vositalari qo'llaniladi. Soliq deklaratsiyasini dasturiy mahsulga kiritilgan bekor qilib bo'lmaydigan vaqt soliq deklaratsiyasini taqdim etish sanasi va vaqti hisoblanadi. Soliq deklaratsiyasining dasturiy mahsulga kiritilgan vaqti, Davlat soliq qo'mitasining dasturiy-apparat vositalari mazkur ma'lumot dasturiy mahsulga kiritilgan sana va vaqtni ko'rsatgan holda avtomatik tarzda tasdiqlanishini ta'minlaydi.

Soliq deklaratsiyalarini dasturiy mahsulga kirituvchi mas'ul xodimlar soliq to'lovchilardan qabul qilingan ma'lumotda quyidagilarning mavjudligini tekshiradilar:

-ma'lumotlar to'liqligini;

-ma'lumotning barcha majburiy rekvizitlari (soliq to'lovchining identifikatsiya raqamlari, yuridik manzili, sanalar va shu kabilarni) to'ldirilganligini;

-ma'lumotdagi shakllarda nazarda tutilgan barcha ko'rsatkichlarni to'ldirishini, agarda mavjud bo'lmagan holda bu modda ("x" belgi bilan) qo'yilganligini. Ma'lumotga doir e'tirozlar bo'lmagan taqdirda mas'ul shaxs hisobot kuniga hisoblangan soliq to'lovlari summasini soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasiga o'tkazadi. Soliq deklaratsiyasini qabul qilinganligi haqida davlat soliq inspeksiyasining mansabdor shaxsi tomonidan imzolangan holda dasturiy mahsuldan chop etilgan ma'lumotning bir nusxasi soliq to'lovchiga taqdim etiladi. Davlat soliq inspeksiyasining soliq deklaratsiyalarini qabul qiluvchi mas'ul xodimi tomonidan deklarant soliq deklaratsiyasi taqdim etilgandan so'ng, ma'lumot davlat soliq inspeksiyasida yuritiladigan «Soliq deklaratsiyalarini ro'yxatga olish jurnali»ga bir kun muddatda qayd qilinadi.

«Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuli ishlatish texnologiyasi Davlat soliq qo'mitasining 2005 yil 12 noyabrdagi 7/1-sonli Hay'at qarorida berilgan topshiriqqa asosan «Soliq

deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuli ishlab chiqildi va DSQning 2007 yil 6 noyabrdagi 263-sonli buyrug‘i bilan amaliyotga joriy qilindi.

Dasturiy mahsul davlat soliq inspeksiylarida jismoniy shaxslarning asosiy va asosiy bo‘lmagan ish joylaridan olgan daromadlari haqidagi ma‘lumotlarni komp’yuter bazasiga kiritish va qayta ishlash natijasida hosil bo‘lgan natijalarni SHHVlarga o‘tkazish, jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya blankalarini, shuningdek barcha zaruriy hujjatlarni chop etish uchun mo‘ljallangan.

DSIlarda jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari haqidagi ma‘lumotlar dastur yordamida komp’yuter bazasiga kiritiladi va Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash markaziga yuboriladi. Ushbu yuborilgan ma‘lumotlar avtomatik ravishda saralanib, jismoniy shaxslarning yashash manziliga qarab tegishli DSIlarga etkazib beriladi.

«Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlarini deklaratsiyalash» dasturiy mahsuli moduli o‘rnatilgandan so‘ng **Decl_lan.Pro.exe** fayli yuklanadi.

«Soliq deklaratsiyalarini elektron tarzda topshirish» dasturiy mahsuli Jismoniy shaxslar uchun. ERI bilan tasdiqlangan elektron hujjat ko‘rinishidagi soliq deklaratsiyalarini qog‘ozdagi nusxalarini olmagan holda soliq to‘lovchilar tomonidan avtomatlashtirilgan holda shakllantirish, jo‘natish hamda davlat soliq xizmati organlari tomonidan qabul qilish.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2002-yil 5-sentyabrdagi «Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3127-sonli Farmoni hamda Adliya vazirligida 2013 yil 22-martda 2439-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining «Soliq hisobotlarining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroriga asosan ishlab chiqilgan.

Ushbu Reglament O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 23-avgustdagi «Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 181-sonli qaroriga binoan Davlat soliq

qo‘mitasi tomonidan ko‘rsatiladigan elektron soliq deklaratsiyasini qabul qilish va qayta ishlash bo‘yicha bazaviy interaktiv davlat xizmatining (keyingi o‘rinlarda interaktiv davlat xizmati deb ataladi) tartibi, shartlari va muddatlarini belgilaydi.

Reglamentda interaktiv davlat xizmatining tarkibi, mazmuni, xizmat ko‘rsatish turi, shakli va usuli, kutilayotgan natija, xizmat ko‘rsatish muddati va boshqa qoidalar ifodalangan.

Interaktiv davlat xizmatining tarkibi hamda mazmuni. Interaktiv davlat xizmatining tarkibi jismoniy shaxslardan asosiy bo‘lmagan ish joyidan olgan daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani elektron ko‘rinishda jo‘natish, qabul qilish va qayta ishlash xizmatlarini web texnologiyalari orqali amalga oshirishdan iboratdir.

Interaktiv davlat xizmatining mazmuniga qo‘yidagilardan iborat:

-elektron soliq deklaratsiyalarini shakllantirish, elektron raqamli imzo bilan imzolash, shifrlash va elektron hujjat ko‘rinishida soliq idoralariga jo‘natish;

-davlat soliq xizmati organlari tomonidan elektron soliq deklaratsiyalarini qabul qilish, ro‘yhatga olish va qayta ishlash;

-elektron hujjat ko‘rinishida soliq deklaratsiyalarini yuborgan soliq to‘lovchilarga, ularni qabul qilinganligi yuzasidan tasdiqnoma yuborish, shu jumladan, belgilanmagan shaklda taqdim etilgan hisobotlar yuzasidan yozma bildirishni jo‘natish;

-soliq to‘lovchi tomonidan, yozma bildirish olingandan so‘ng, belgilanmagan shaklda taqdim etilgan soliq deklaratsiyalarini qayta to‘g‘ri shakllantirish va o‘rnatilgan tartibda elektron hujjat ko‘rinishida davlat soliq xizmati organlariga jo‘natish;

-elektron ko‘rinishda taqdim etilgan hisobotlarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlar davomida saqlash.

Interaktiv davlat xizmatini ko‘rsatish shakli va usuli. Interaktiv davlat xizmati Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti orqali ko‘rsatiladi.

Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy saytida soliq to‘lovchilarga tasdiqlangan shakllardagi soliq deklaratsiyalarini elektron ko‘rinishda shakllantirish imkoniyati yaratilgan. Shu jumladan, ma‘lumotda soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, soliq davri, soliq summasi, elektron hujjatni jo‘natuvchi soliq to‘lovchining nomi, elektron hujjatni jo‘natuvchining pochta va elektron manzili, hujjat yaratilgan sana ko‘rsatilishi lozimligi ko‘zda tutilgan.

Elektron ko‘rinishda shakllantirilgan soliq deklaratsiyalarining himoyasini ta‘minlash maqsadida kriptografiya himoya vositalari qo‘llaniladi. Soliq deklaratsiyalari soliq to‘lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanib, davlat soliq xizmati organlariga yuboriladi.

Elektron ko‘rinishdagi soliq deklaratsiyalari Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti orqali jo‘natilib, soliq deklaratsiyani qabul qilib oluvchining elektron manzilidan qabul qilib olinganligi to‘g‘risida tasdiqnoma kelgan va bekor qilib bo‘lmaydigan vaqt soliq deklaratsiyani taqdim etish sanasi va vaqti hisoblanadi.

Elektron ko‘rinishdagi soliq deklaratsiyani qabul qilib olish vaqtida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining dasturiy vositalari mazkur ma‘lumotni qabul qilib olganligi to‘g‘risida, qabul qilib olingan sanasi va vaqti ko‘rsatilgan holda, avtomatik tarzda tasdiqlanishini ta‘minlaydi.

Elektron soliq deklaratsiyalarini qabul qiluvchi mas‘ul xodimlar soliq to‘lovchilardan qabul qilingan ma‘lumotda quyidagilarning mavjudligini tekshiradilar:

-ma‘lumotlar shakllarining to‘liqligini;

-ma‘lumotdagi deklarantning elektron raqamli imzoning mavjudligini (elektron hujjat imzolanayotgan paytda elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini amal qilib turganligi ham tekshiriladi);

-ma‘lumotdagi barcha majburiy rekvizitlarini (soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamlari, yuridik manzili, sanalar va shu kabilarni) to‘ldirilganligini;

Ma‘lumotdagi shakllarda nazarda tutilgan barcha ko‘rsatkichlarni to‘ldirilganligini.

Ma‘lumotga doir e‘tirozlar bo‘lmagan taqdirda taalluqli kompyuter dasturi orqali hisobot kuniga hisoblangan soliq to‘lovlari summaları ko‘rsatkichlari hisob varaqlariga yozuvlarni o‘tkazish va byudjet bilan o‘zaro hisob-kitoblarga ko‘ra operativ taqqoslanishni amalga oshirish uchun, soliqlar tushumini hisobga olish, tahlil qilish va soliq statistikasini olib boruvchi tuzilmaga topshiriladi, shundan keyin byudjet bilan hisob-kitoblar haqidagi ma‘lumotlar ko‘chirilib, soliq summalarining shaxsiy kartochkalariga o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot kompyuterdan chiqarilib, belgilangan tartibda hisobotlarni qabul qiluvchi bo‘linmaga topshiriladi.

Elektron shakldagi ma'lumot qabul qilinganligi haqida davlat soliq inspeksiyasining mansabdor shaxsi tomonidan elektron raqamli imzo qo'yiladi va imzolangan ma'lumot soliq to'lovchiga qaytariladi.

Davlat soliq inspeksiyasining hisobotlarni qabul qiluvchi mas'ul xodimi tomonidan deklarantning elektron soliq deklaratsiyasi tushgandan so'ng, uning olinganligi soliq to'lovchilarning «Soliq deklaratsiyalarini ro'yhatga olish jurnali»ga bir kun muddatda qayd qilinadi. Taqdim etilgan elektron soliq deklaratsiyalaridagi ma'lumotlar belgilangan talablarga muvofiq kelmagan taqdirda davlat soliq inspeksiyasi xodimlari tomonidan, Soliq kodeksida belgilangan muddatlarda «Ma'lumotga doir mulohazalar» tayyorlanib, davlat soliq inspeksiyasining mansabdor shaxsi tomonidan elektron raqamli imzo qo'yilib, qayta ishlash uchun deklarantga qaytariladi. Bildirilgan mulohazalarni hisobga olgan holda takroran ishlab chiqilgan elektron soliq deklaratsiyasi davlat soliq xizmati organiga belgilangan tartibda qayta taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan soliq deklaratsiyasiga doir ma'lumotlar maxsus ajratilgan kompyuterlarda saqlanadi. Elektron soliq deklaratsiyalarini saqlash chog'ida ulardan foydalanish va ularning qog'oz nusxalarini chiqarish (chop etish) imkoniyati ta'minlanishi lozim. Elektron shakldagi hisobotlarni saqlash muddati, qog'oz nusxalardagi hisobotlar uchun belgilangan muddatdan kam bo'lmasligi kerak. Elektron shakldagi hisobotlarni jo'natish, qabul qilish va qayta ishlash davomida soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlari tomonidan Adliya vazirligida 2007 yil 13 avgustda 1702-son bilan ro'yhatga olingan «Moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarini elektron shaklda taqdim etishda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha elektron hujjat aylanishining ishtirokchilari uchun yo'riqnoma»ga asosan axborot xavfsizligi ta'minlanishi lozim.

Interaktiv davlat xizmatini ko'rsatish maqsadi va vazifalari

Interaktiv davlat xizmatini ko'rsatishning asosiy maqsadi va vazifasi soliq to'lovchilarga qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Interaktiv davlat xizmatini ko'rsatish soliq to'lovchilarning sarf xarajatlarini kamaytirishga va soliq to'lovchilarning vaqtini tejashga olib keladi. Soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan axborot xizmatlar sifati oshiriladi. Bundan tashqari soliq to'lovchi hamda soliq organlarining o'zaro munosabatlarida subyektiv aralashuvlar cheklanadi.

Interaktiv davlat xizmatini ko'rsatish soliq ma'murchiligini takomillashtirishga, soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'g'risidagi

qonunlar bajarilishini nazorat qilish va tahlil ishlari samaradorligini oshirishga olib keladi. Jismoniy shaxslar tomonidan soliq deklaratsiyalarini elektron ko‘rinishda taqdim etilishi elektron ma’lumotlar bazasini shakllanishini ta’minlanadi.

Interaktiv davlat xizmatini ko‘rsatish muddati. Ma’lumotlarni elektron ko‘rinishda qabul qilish yuzasidan xizmat ko‘rsatish elektron soliq deklaratsiyalari haqiqatda kelib tushgan vaqtda amalga oshiriladi.

Ma’lumotlar olish bo‘yicha kutish vaqti Internet tarmog‘i va kompyuter uskunalari texnik ko‘rsatkichlariga bog‘liq.

Jismoniy shaxs o‘zining davlat soliq xizmati organiga daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyasini elektron tarzda taqdim etish uchun avvalo O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – DSQ deb yuritiladi) Yangi ilmiy axborot markazi tomonidan olingan elektron raqamli imzoga (keyingi o‘rinlarda – ERI deb yuritiladi) bo‘lishi shart. ERIGA ega bo‘lgan jismoniy shaxs uni fleshkaga saqlagan holda, DSQning [htt://soliq.uz/](http://soliq.uz/) yoki [htt://hisob't.uz/](http://hisob't.uz/) elektron manzillaridan biriga kirib, kompyuter ekarinda hosil bo‘lgan o‘ziga tegishli STIRni tanlaydi va parolga ham mazkur STIRni kiritgandan so‘ng quyidagi ko‘rinishdagi oyna shakllanadi.

Elektron shakldagi hisobotlarni jo‘natish, qabul qilish va qayta ishlash davomida soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari tomonidan Adliya vazirligida 2007 yil 13 avgustda 1702-son bilan ro‘yhatga olingan «Moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarini elektron shaklda taqdim etishda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha elektron hujjat aylanishining ishtirokchilari uchun yo‘riqnomaga»ga asosan axborot xavfsizligi ta’minlanishi lozim.

4.8. Jismoniy shaxslar tomonidan daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya ma’lumotlarini internet tarmog‘i orqali elektron tarzda taqdim etish tartibi

Jismoniy shaxslar davlat soliq xizmati organiga daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya ma’lumotlarini elektron tarzda taqdim etish uchun avvalo O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda - DSQ deb yuritiladi) Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan olingan elektron raqamli imzo (keyingi o‘rinlarda - ERI deb yuritiladi) olingan bo‘lishi shart.

Солиқ тўловчи жисмоний шахслар учун интерактив хизматлар

1. Бюджет ва бюджетдан ташқари фондлар билан ҳисоб-китоблар ҳақида маълумот.
2. Солиқ декларацияларини шакллантириш.
3. Якка тартибдаги тадбиркорлар ҳисоботлари.



Тизимга кириш учун JRE компонентасини ўрнатишни лозим. Юклаш учун хабар устига босинг:

Интерактив хизматлари

Хизмат тури	Хизмат тури	Хизмат тури
1. Бюджет ва бюджетдан ташқари ф ондлар билан ҳисоб-китоблар ҳақида маълумот.	2. Солиқ декларацияларини шакллантириш.	3. Якка тартибдаги тадбиркорлар ҳисоботлари.

Авторизация

ЭРИ
505669351 РАХМАТОВ ШЕРЗОД Ш. ✓

Пароль
●●●●●●●●

Кириш

ERiga ega bo'lgan jismoniy shaxs uni fleshkaga saqlagan holda, DSQning <http://soliq.uz/> yoki <http://decl.soliq.uz//> elektron manzillaridan biriga kirib, kompyuter ekranida hosil bo'lgan o'ziga tegishli STIRni tanlaydi va parolga (parol o'zgartirilmagan bo'lsa) ham mazkur STIRni kiritgandan so'ng, «Kirish» tugmasi bosiladi va qo'yidagi ko'rinishdagi oyna shakllanadi.

1. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya ma'lumotlarini elektron tarzda jo'natish

Deklaratsiya taqdim etuvchi jismoniy shaxslar yuqorida qayd etilgan amallarni bajargandan so'ng o'zaro muloqot (dialog) tarzida ishlab chiqilgan dasturiy mahsulning birinchi bosqichida keltirilgan so'rovnomalarni to'ldirib chiqadi.

Русский СТИР: 505669351
Декларация
Шахсий карточка
Далолатнома
Текширишлар
Солиқ объеклари
ЯТТ ҳисоботлари
Реквизитлар

Солиқ тўловчи жисмоний шахслар учун интерактив хизматлар

1. Бюджет ва бюджетдан ташқари фондлар билан ҳисоб-китоблар ҳақида маълумот.
2. Солиқ декларацияларини шакллантириш.
3. Якка тартибдаги тадбиркорлар ҳисоботлари.

Декларацияни шакллантириш ва жуматиш

Декларация турини танлаш

Яиллик
 Истифрорий
 Дастлабдан (ижара бўйича)
 Чет эл жисмоний шахсининг мол-мулкни р еализацияси қилинган олинган дар омадлари

Декларацияни қайси йил учун тўлдирмоқчисиз?

Қайси мамлакат фуқаросизиз?

ШЖБПЕ рақами

Телефон рақамини янги киритиш

Телефон кодини танлаш

Топширилган декларациялар

Jumladan, jismoniy shaxs jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etmoqchi bo‘lganda  hamda daromad olgan hisobot yili tanlanadi.

Shundan so‘ng jismoniy shaxs yil davomida olgan daromad manbalarini (daromad manbalari soni) tanlaydi va har bir daromad manbai bo‘yicha ketma-ketlikda keltirilgan savolnomalarni to‘ldiradi.

Jismoniy shaxslar fuqarolarning sug‘urta badallarini hisoblagan xolda deklaratsiya taqdim etmoqchi bo‘lganda «sug‘urta badallarini hisoblagan xolda deklaratsiya taqdim etmoqchimisiz» satriga belgisi qo‘yiladi hamda shakllangan oynaga ma‘lumotlarni kiritadi.

Фуқароларнинг суғурта бадаллари


Қонун ҳужжатларига мувофиқ суғурта бадалларини ҳисоблаш ва ушлаб қолиш мажбурияти зиммасига юклатилмаган иш берувчидан олинган даромадлар	<input type="text" value="0"/>
Фуқароларнинг суғурта бадаллари ҳисобланмайдиган тўлов турлари (суммаси)	<input type="text" value="0"/>

Soliq kodeksining 180-moddasiga asosan jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod qilingan daromadlari mavjud bo‘lganda «soliq to‘lashdan ozodmisiz» satriga belgisi tanlangandan so‘ng belgisidan biri tanlanadi


12.1) болалигидан ногирон бўлган, доимий парваришни талаб қиладиган фарзанди билан бирга яшаб, уни тарбиялаётган ота-онадан бири. Имтиёз пенсия гувоҳномаси ёки соғлиқни сақлаш муассасасининг доимий парвариш зарурлигини тасдиқловчи тиббий маълумотномаси, биргаликда яшашга тааллуқли қисмида - фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органининг маълумотномаси асосида берилади

Ҳужжат номи	<input type="text"/>
Серияси	<input type="text"/>
Рақами	<input type="text"/>
Ким томондан берилган	<input type="text"/>
Берилган сана	<input type="text"/>

Tanlangan imtiyoz turiga qarab imtiyoz olish uchun asos bo'lgan hujjat ma'lumotlari kiritiladi va «Keyingi bosqichga o'tish» tugmasi bosiladi. Shundan so'ng tanlangan daromad turiga qarab oynalar shakllanadi.



Muloqot (dialog) shaklida keltirilgan bandlar mavjud hujjatlarga asosan to'ldiriladi va «Saqlash va keyingi bosqichga o'tish» tugmasi bosiladi. Agar olingan daromad manbasi noto'g'ri tanlangan bo'lsa «O'tkazib yuborish» tugmasi bosiladi va boshqa daromad turi oynasi shakllanadi.



Jismoniy shaxs daromad manbalari bo'yicha ma'lumotlarni kiritib bo'lgandan so'ng qo'yidagi oyna shakllanadi

Bunda jismoniy shaxslar ish joyidan olingan ma'lumotnomalari, shartnoma nusxalari, imtiyozlar uchun asos bo'lgan hujjatlar nusxalari **Обзор...** tugmasi orqali kompyuter xotirasidan tanlanadi va ilova

tarzida yuboriladi. Barcha ma'lumotlar nusxalari bitta papkaga joylashtirilib, arxivlangan (rar, zir) formatida va 10 mb dan oshmagan hajmda bulishi lozim. Ushbu amallar bajarilgandan so'ng «Saqlash va keyingi bosqichga o'tish» tugmasi bosiladi

Shundan so'ng kiritilgan ma'lumotlarga asosan dasturiy mahsulda deklaratsiya blankasi shakllanadi.

Жисмоний шахслардан олинadиган даромад солиғи суммаси
ҲИСОБ-КИТОБИ

Т/р	Қўрсаткичлар	Солиқ тўловчи томондан тўлдирилди	Солиқ идораси томондан тўлдирилди
1	Жами даромаднинг умумий суммаси	10000	
2	Жами даромаддан chegirmаларнинг умумий суммаси	700	X
3	Солиқ солинадиган база	9900	X
4	Ҳисоблаб чиқарилган жисмоний шахсларнинг даромад солиғи умумий суммаси - жами, шу жумладан	700	X
	<i>бюджетга</i>	650	X
	<i>ШЖБНҚга</i>	50	X
5	Йил давомида тўланган (ушланган) жисмоний шахслардан олинadиган даромад солиғининг умумий суммаси - жами, шу жумладан	700	X
	<i>бюджетга</i>	650	X
	<i>ШЖБНҚга</i>	50	X
6	Жисмоний шахслардан олинadиган даромад солиғи суммаси:	0	X
	<i>бюджетга қўшимча тўланadиган</i>		X
	<i>бюджетдан қайтарыладиган</i>	0	X

Bunda jami daromadlarning umumiy summasi avtomatik shakllanadi. Jismoniy shaxs tomonidan imtiyozlar summasi “jami daromaddan chegirmalarning umumiy summasi” qatoriga kiritilgandan so'ng «Soliq solinadigan baza» avtomat shakllanadi hamda «hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromad solig'i umumiy summasi» kiritilgandan so'ng, shundan byudjetga hisoblangan summa kiritiladi va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasiga hisoblangan summa avtomat shakllanadi.

Shuningdek, «Yil davomida to'langan (ushlab qolingani) daromad solig'i umumiy summasi» qatori xam shu tartibda to'ldiriladi.

Yuqoridagi amallar bajarilgandan so'ng Жўнатиш tugmasi bosiladi va deklaratsiya ma'lumotlari xududiy davlat soliq organiga elektron tarzda yuboriladi.

Deklaratsiya ma'lumotlari jo'natilgandan so'ng jismoniy shaxslarning shaxsiy kabinetida «Yillik deklaratsiya» bo'limida «Jo'natilgan deklaratsiyalar» qismida shakllanadi.

Жўнатилган декларациялар				
Рақамн	Декларация тури	Декларация топширилган йил	Жўнатилган вақти	Харакат
205918	Йиллик	2013	2014.08.15 17:16:00	  

Bunda belgisida yuborilgan deklaratsiya ma'lumotlarini ko'rish, belgisida deklaratsiya ma'lumotlari yuborilganligi to'g'risida ma'lumotnomani chop etish va belgisida yuborilgan deklaratsiya ma'lumotlaridan nusxa olish imkoniyati yaratilgan.

Электрон шаклдаги декларация маълумотлари жунатилганлиги тўғрисида маълумотнома

Электрон шаклдаги декларация маълумотлари жунатилганлиги тўғрисида маълумотнома

Солиқ тўловчи 505669351 (СТИР) ШЕРЗОД РАХМАТОВ ШАЙДУЛЛАЕВИЧ (Ф.И.О)

Йиллик (декларация тури) 2013 (даромад олинган йил) СУРХАНДАРЬИНСКАЯ ШУРЧИНСКИЙ р-ндСига (Туман давлат солиқ инспекцияси)

Жўналитган сана 15.08.2014 (сана) Рўйхатга олиш рақами 205918

Сиз тақдим этган декларация маълумотлари қабул қилинганлиги ёки рад этилганли тўғрисида 3 кун муддатда хабар келади.

[Чоп этиш](#)

2. Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar to'g'risidagi dastlabki tarzdagi deklaratsiya ma'lumotlarini elektron tarzda jo'natish

Soliq kodeksida mol-mulkini ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxslar, agar ushbu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmasa, belgilangan muddatda jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya taqdim etish bilan bir qatorda ijaradan daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzdagi deklaratsiya ham taqdim etishi belgilab qo'yilgan.

Jismoniy shaxslar tomonidan dastlabki tarzdagi deklaratsiya ma'lumotlarini jo'natish uchun yuqorida ta'kidlangandek elektron raqamli imzo olingan bo'lishi shart.

Jismoniy shaxs o'zining shaxsiy kabinetiga kirgandan so'ng «Deklaratsiya» bo'limida **Дастлабки (ижара бўйича)** tugmasi belgilanadi va joriy yil tanlanadi hamda ijaraga berilgan obyektlar soni tanlov asosida qo'yilib, keyingi bosqichga o'tiladi.

Декларация турини танланг

Йиллик
 Ихтиёрий
 Дастлабки (ижара бўйича)
 Чет эл jismonий шахсининг мол-мулкни реализация килишдан олинган даромадлари

Декларацияни қайси йил учун тўлдирмоқчисиз?

Қайси мамлакат фуқаросисиз?

ШЖБПБ рақами

Телефон рақамингизни киритинг

Нечта шартнома бўйича дастлабки декларация топширмоқчисиз?

Қонун ҳужжатларида назарда тутилган бошқа даромадлар бўйича имтиёзлар

Солиқ кодексининг 160 моддасига асосан солиқ тўлашдан озодмисиз?

[Кейинги bosqichga ўтиш](#)

Keyingi bosqichda shartnoma sanasi va raqami, mulk turi, mulkka xos xususiyat va obyektни joylashgan manzili to'g'risida ma'lumotlar joylashtiriladi.

Дастлабки декларация

1-Ижара шартномаси маълумотларини киритинг

Шартнома санаси Шартнома рақами

Мулк тури Мулкка хос хусусият


Вилоят туман(шаҳар)


Ҳафта

	Январь	Феврал	Март	Апрел	Май	Июнь	Июль	Август	Сентябрь	Октябрь	Ноябрь	Декабрь
Ижарага берилган уй-жойнинг умумий майдони (кв.м)	50	50	50	50	50	50	50	50	50	50	0	0
Ижарага берилган яшаш учун мўлжалланмаган жойнинг умумий майдони (кв.м)	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
Шартнома бўйича олинган даромад (сум)	175000	175000	175000	175000	175000	175000	175000	175000	175000	175000	0	0

[Сақлаш](#)

Shundan so‘ng ijara shartnomasiga asosan mulk turiga qarab ijaraga berilgan obyekt maydoni yoki avtomobil transportlari soni va xar oyda olinadigan daromad summasi kiritiladi hamda «Saqlash» tugmasi bosiladi.

Keyingi bosqichda deklaratsiya ilovalari (shaxsini tasdiqlovchi hujjat, shartnoma nusxalari va boshqa hujjatlar)  tugmasi orqali tanlanadi va «Saqlash va keyingi bosqichga o‘tish» tugmasi bosiladi.

Jismoniy shaxs shakllangan dastlabki tarzdagi deklaratsiya blankasini mavjud ma’lumotlarga asosan tekshirib ko‘rgandan so‘ng  tugmasi bosiladi va ma’lumotlar hududiy davlat soliq organiga elektron tarzda jo‘natiladi.

Dastlabki deklaratsiya ma’lumotlari jo‘natilgandan so‘ng jismoniy shaxslarning shaxsiy kabinetida «Dastlabki deklaratsiya» bo‘limida «Jo‘natilgan deklaratsiyalar» qismida shakllanadi. Jismoniy shaxs tugmasi orqali jo‘natilgan deklaratsiyalarni ko‘rish va tugmasi orqali deklaratsiya ma’lumotlari jo‘natilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani chop etish imkoniyati mavjud.

3. Chet ellik jismoniy shaxsining mol-mulkini realizatsiya qilishdan olingan daromadlari bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisob-kitobi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani elektron tarzda jo‘natish

Chet el jismoniy shaxsining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlari bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisob-kitobi (keyingi o‘rinlarda Hisob-kitob deb yuritiladi) aksiyadorlik jamiyatlari - O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari aksiyalari, yuridik shaxslarning - O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining ustav kapitalidagi ulushlari (paylari) va O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ko‘chmas mulk (keyingi o‘rinlarda mol-mulk deb yuritiladi) bir chet ellik jismoniy shaxs tomonidan boshqa jismoniy shaxsga - O‘zbekiston Respublikasi rezidentiga yoki norezidentiga, yuridik shaxsga - O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga realizatsiya qilingan taqdirda to‘ldiriladi.

Hisob-kitobni jo‘natish uchun yuqorida ta’kidlangandek elektron raqamli imzo olingan bo‘lishi shart.

Jismoniy shaxs o‘zining shaxsiy kabinetiga kirdandan so‘ng «Deklaratsiya» bo‘limida Чет эл jismoniy shaxsining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlari tugmasi belgilanadi va daromad olingan yil tanlanib, keyingi bosqichga o‘tiladi.

Декларацияни шакллантириш ва жунатиш [Топширилган декларациялар](#)

Декларация турини танланг

Йиллик
 Иштиёрий
 Дастлабхи (ижара бўйича)
 Чет эл jismoniy shaxsining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlari

Декларацияни қайси йил учун тўлдирмоқчисиз?

Қайси мамлакат фуқаросисиз?

ШЖБПБ рақами

Телефон рақамингизни киритинг

Телефон кодини танланг

mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar soni (chet эллик jismoniy shaxslar uchun)

[Кейинги bosqichga ўтиш](#)

Чет эл jismoniy shaxsining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlari

18.12.2014 Австралийский доллар Валюта курси **1 Австралийский доллар 2084.63 сум**

2014 йил - Чет эл jismoniy shaxsining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlari

Мол-мулкни сотувчи (СТИР) Резидент Нерезидент

Реализация қилинаётган мол-мулк тури

Олди-сотди предмети бўлган мол-мулк тўғрисида маълумот

Мол-мулкни олиш қиймати

мол - мулкни олиш санаси

Сумма

Валюта тури

Мол-мулкни реализация қилиш қиймати

Сумма

Валюта тури

Мол-мулкни реализация қилиш қиймати

Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг мол-мулкни олиш санасидаги сумма нисбатан курси



мол-мулкни олиш санасида пул белгиларини муомалага чиқаришда

Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking mol-mulkni olish sanasidagi va realizatsiya qilish sanasidagi so‘mga nisbatan kursi aniqlanadi.

Чет эл jismoniy shaxsining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlari

01.01.2014 Австралийский доллар Валюта курси

Mol-mulkni sotuvchi chet ellik jismoniy shaxs - O‘zbekiston Respublikasi rezidenti yoki norezidenti belgisi qo‘yilgandan so‘ng stiri, realizatsiya qilinayotgan mol-mulk turi, oldi-sotdi predmeti bo‘lgan mol-mulk to‘g‘risida ma‘lumot, mol-mulkni olish sanasi, summasi va valyuta turi, mol-mulkni realizatsiya qilish summasi va valyuta turi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mol-mulkni olish sanasidagi so‘mga nisbatan kursi, mol-mulkni olish sanasida pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega chet davlat markaziy (milliy) bankining AQSh dollariga nisbatan belgilangan kursi kabi ma‘lumotlar dasturiy mahsulga kiritilgandan so‘ng «Saqlash va keyingi bosqichga o‘tish» tugmasi orqali keyingi bosqichga o‘tiladi.

Yuqorida ta’kidlangandek,  tugmasi orqali hujjat nusxalari ilova qilingandan so‘ng, hisob-kitob blankasi shakllanadi. Jismoniy shaxs o‘zidagi mavjud hujjatlarga asosan ma‘lumotlarni tekshirib ko‘rgandan so‘ng  tugmasi orqali ma‘lumotlar jo‘natiladi.

4. Jismoniy shaxslar tomonidan deklaratsiya ma‘lumotlarini elektron tarzda jo‘natishda yaratilgan qo‘shimcha qo‘layliklar.

Agar jismoniy shaxs daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya elektron tarzda jo‘natish uchun deklaratsiya ma‘lumotlarini dasturiy mahsulga kiritayotgan vaqtda texnik va boshqa sabablarga (elektr energiyasidagi uzilishlar, internet tarmog‘idagi uzilishlar, ma‘lumotlarning to‘liq emasligi) kura uzilishlar sodir bo‘lganda dasturda uzilgan vaqtgacha kiritilgan ma‘lumotlar avtomatik ravishda saqlab qolish imkoniyati yaratilgan.

Рақами	Декларация тури	Декларация тошпирилган йил	Жўнатиш вақти	Харакат
206159	Йиллик	2014	2014.12.17 15:54:41	 
206109	Йиллик	2014	2014.12.09 16:16:51	 
206101	Йиллик	2014	2014.12.09 09:38:39	 

Saqlab qolingani ma‘lumotlar jismoniy shaxslarning shaxsiy kabinetida «Jo‘natishga tayyorlangan deklaratsiyalar» bo‘limida shakllanadi.

Jismoniy shaxs tugmasi orqali jo‘natishga tayyorlangan deklaratsiya ma’lumotlarini o‘chirish, tugma orqali jo‘natishga tayyorlangan deklaratsiya ma’lumotlaridan nusxa olish va ma’lumotlar kiritishni kelgan joyidan davom ettirish imkoniyati yaratilgan.

I БЎЛИМ

1. Асосий иш жойидан олинган даромадлар [Маълумотларни тахрирлаш](#)


Т/р	Меҳнат дафтarchаси юритиладиган асосий иш жойи	Ишлаган даври	Хисобланган даромад суммаси	Бюджетга ушлаб қолинган jismonий шахслардан олинadиган даромад солиғи суммаси
-	-	-	-	-

Асосий иш жойидан олинган Тўланган даромадлар ва ушлаб қолинган jismonий шахслардан олинadиган даромад солиғи суммалари тўғрисидаги маълумотнома илова қилинади.

2. Асосий бўлмаган иш жойидан олинган даромадлар [Маълумотларни тахрирлаш](#)



Т/р	иш жойи	Ишлаган даври*	Хисобланган даромад суммаси	Бюджетга ушлаб қолинган jismonий шахслардан олинadиган даромад солиғи суммаси
-	-	-	-	-

Jismoniy shaxs olgan daromad turi tanlanib [Маълумотларни тахрирлаш](#) tugmasi bosilganda ma’lumotlarni kiritish oynasi shakllanadi.

Асосий бўлмаган иш жойидан олинган даромадлар  

Бу декларацияда асосий бўлмаган иш жойидан олинган даромадлар кўрсатилмаган

[Сақлаш ва кейинги босқич](#)

Bunda  tugmasi orqali ma’lumotlar kiritish oynasini qo‘shish va  tugmasi orqali kamaytirish imkoniyati yaratilgan.

“JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI DEKLARATSIYA ASOSIDA SOLIQQA TORTISH XUSUSIYATLARI” MAVZUSI YUZASIDAN



KEYS-STADI:

Jismoniy shaxslarning jami daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish tartibini bilasizmi?

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

1. O‘quv fani: “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish”

Mavzu: “Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish xususiyatlari” mavzusi bo‘yicha keys.

2. Ushbu keysning asosiy maqsadi: Jismoniy shaxslarning soliq organlariga jami daromadlari to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etish tartibi va byudjetga to‘lash tartibi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

3. O‘quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar:

- jismoniy shaxslarning soliq organlariga jami daromadlari to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etishni amaldagi tartibini chuqur o‘rganadilar;

- jismoniy shaxslarni jami daromadlari tarkibi va shakllanishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlardan foydalanib aniqlik kiritadilar hamda bazasini chuqur o‘rganadilar;

- jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish bo‘yicha imtiyozlar tarkibi va ularni qo‘llashni o‘rganadilar;

- jismoniy shaxslarning jami daromadlarini tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalariga dastlabki va yillik deklaratsiya asosida taqdim etilishi va ular asosida soliq stavkalarini qo‘llanishini o‘rganadilar;

- jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish xususiyatlarini chuqur o'zlashtirgan holda ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

4. Ushbu keysni muvaffaqiyatli bajarish uchun talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur:

Talaba bilishi kerak:

- soliq to'lovchining daromadlar xususiyati va miqdori to'g'risida bayon qilishi va soliqlarni hisoblash uslubiyati va byudjetga to'lash tartibini.

Talaba amalga oshirishi kerak:

- jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibi va bazasini aniqlaydi, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etishni va soliq stavkalarini qo'llaydi; daromad solig'ini hisob-kitobi va byudjetga o'tkaziladigan summasini aniqlaydi; hisoblangan soliq summasini to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Talaba ega bo'lmog'i kerak:

- jismoniy shaxslardan olinadigan soliqqa doir me'yoriy ko'nikmalarga; jismoniy shaxslarning jami daromadlarini hisoblash va byudjetga undirish ko'nikmalariga.

5. Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, "O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati to'g'risida"gi Qonun;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2018 yil Davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi PQ-3454-sonli qarori.

6. Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, syujetsiz toifasiga kiradi. Vaziyat jismoniy shaxslarning jami daromadlarini dastlabki va yillik deklaratsiya taqdim etish bo'yicha soliq me'yoriy hujjatlar asosida hisoblash uslubiyati asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Ushbu keysdan "Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish" va "Soliqlar va soliqqa tortish" fanlari o'quv mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

KEYS-STADI MAZMUNI

Kirish

Respublikamiz soliq tizimida jismoniy shaxslarning jami daromadlarini deklaratsiyalash orqali soliqqa tortish iqtisodiy islohotlarning dastlabki vaqtlardan katta e'tibor berila boshlangan edi, ayniqsa bu boradagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 5 sentyabrdagi



"Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-3127-sonli Farmonida¹⁴ belgilangan talablarni bajarishda jami daromadlarni deklaratsiyalash muhimligiga alohida e'tibor qaratilgan. Respublikamizda aholi daromadlari oshib borishi, ularning real pul daromadlari miqdorining yil sayin mustahkamlanishi, qolaversa, aholi daromadlarining tarkibining o'zgarishi (transformatsiyalashuvi) va unda tadbirkorlik va qimmatli qog'ozlardan keladigan daromadlarning ham oshib borishi bunday daromadlarni soliqqa tortishda deklaratsiyalash usulining ham rolining oshishini taqozo etib bormoqda.

Fikrimizcha, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqqa tortish mexanizmidagi muammolardan ko'ra, aholi daromadlarini oshirish va ularni qonuniyligini ta'minlashga doir muammolar ko'proq. Chunki, haqiqiy erishilgan va qonuniy asosiga ega bo'lgan daromadlarni soliqqa tortish mexanizmi davr talabiga mos ravishda shakllantirilgan. Bu bilan jismoniy shaxslarning olayotgan barcha daromadlari soliqqa tortilayapti, deb bo'lmaydi. Fikrimizcha soliq deklaratsiyasiga "bu soliq to'lovchilar tomonidan o'zlarining olgan daromad manbalari va miqdorlari haqida tizimlashgan axborotlarni tegishli davlat organlariga taqdim etish shakli va vositasi" deb ta'rif berish lozim. Shu jihatdan olganda soliq deklaratsiyasining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Soliqlarning muhim xususiyati soliq manbalari va obyektlarini aniqlash va uni ko'paytirishning muhim vositasi ekanligidir. Bu xususiyati soliq xizmati organlari qo'shimcha soliq manbalari haqida ma'lumotga ega bo'lib, ulardan xabardorligi oshadi. Soliq

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 5 sentyabrdagi "Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risi"da PF-3127-sonli farmoni.

deklaratsiyasining keyingi muhim xususiyati u soliq to'lovchilarga o'zlaridagi daromadlarining soliqqa tortilish darajasini o'lchab beradi. Ya'ni soliqqa tortilmay qolgan qismi yoki ortiqcha to'langan soliqlar xususida axborotga ega bo'ladi. Yana bir xususiyati uning soliq to'lovchilarning soliq savodxonligini oshirishga xizmat qilishi hamda soliqlar yig'iluvchanligi darajasini oshirishga xizmat qilishidir.

Tavsiya etilgan keysni echish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash uslubiyatini o'zlashtirish darajasini tekshirish.

VAZIYAT

“FOREIGN INVEST” qo'shma korxonasida 1 yildan ortiq vaqt mobaynida Koreya Respublikasining fuqarosi hisoblangan 9 nafar jismoniy shaxslar mehnat shartnomasi asosida faoliyat yuritib keladi, korxonamiz ularning asosiy ish joyi hisoblanadi.

Chilonzor tuman davlat soliq organlari bu xodimlarning jami daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya muddatida, ya'ni 1 aprelga qadar topshirilmaganligini ro'kach qilib, korxonani qonunbuzarlikka yo'l qo'yilganlikda aybladi.

Ushbu yo'nalishda ish yuritish qoidalari va chet ellik jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solish bo'yicha talabagaqanday tushuntiribberish mumkin.

Vaziyatda keltirilib chiqqan holda korxonani qonuniy qanday yo'l tutishi mumkin ?

KEYSNI BAJARISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Koreya Respublikasining fuqarosi ya'ni qo'shma korxonani xodimi jami daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya muddatida, ya'ni 1 aprelga qadar topshirishi shartmi?
2. Chet el xodimlari deklaratsiyani o'z vaqtida topshirmasa qonunbuzarlikka yo'l qo'yilganlikda ayblanadimi?
3. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlarigarezidentlar bilan bir xil tartibda soliq stavkalari qo'llaniladimi?

4. Agar chet ellik jismoniy shaxs – O‘zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo‘lsa, joriy yil uchun daromadlar bo‘yicha deklaratsiya taqdim etadimi yoki yo‘q?

5. Agar qo‘shma korxonalar xodimlari (chet ellik shaxslar) 2015 yilda jami 183 kun va undan ortiq muddat O‘zbekistonda turgan bo‘lsalar soliqqa tortish tartibi qanday bo‘ladi?

6. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarisoliqqa tortish tartibini o‘zgarishiga sabab bo‘la oladimi?

7. Chet ellik jismoniy shaxsning – O‘zbekiston Respublikasi rezidentining daromadlariga belgilangan tartibda soliqqa tortish tartibi qo‘llaniladimi?

8. Qo‘shma korxonaning rezidentlari o‘z vaqtida – 1 aprelgacha soliq inspeksiyasiga jami yillik daromadingiz to‘g‘risida deklaratsiya topshirishga ulgurdi, lekin bunda soliq inspeksiyasidan to‘lov xabarnomasini olib, byudjetga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini (JShDS) qo‘shimcha to‘lash kerakligini biladi. Buni qanday muddatlarda qilish kerak? Soliqni qismlarga bo‘lib to‘lash mumkinmi yoki bir yo‘la to‘lash kerakmi?

AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA-BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO‘YICHA TALABALARGA USLUBIY KO‘RSATMALAR

Talabalarga yo‘riqnoma

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyalar
1. Keys bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishing. “Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish xususiyatlari” haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo‘lgan butun axborotni diqqat bilan o‘qib chiqish lozim. O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma’lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing. Siz uchun muhim bo‘lgan satrlarni belgilang. Vaziyatning har bir bandini sinchkovlik bilan o‘rganib, ularga soliq qonunchiligi asosida baho bering. Jismoniy shaxslar daromadlarini har bir elementiga diqqatingizni jalb qiling. Ushbu vaziyatning har bir holatiga soliq qonunchiligidan javob toping.

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Jismoniy shaxslarning dromadlariga doir soliq qonunchiligini sinchkovlik bilan tahlil qiling va vaziyatning har bir bandiga doir o'z fikringizni shakllantiring. Vaziyatga doir fikrlaringizni soliq qonunchiligi bilan asoslang va o'zingizga ishonch hosil qiling. O'zingizni soliq maslahatchisi sifatida his qilib, vaziyatda keltirilgan xodimga amaliy yordam ko'rsata olishingizni va olgan bilimlaringiz orqali kimningdir muammosini hal qilayotganingizga ishonch hosil qiling.
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning echimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq echimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting. Vaziyatda qo'yilgan masalalarni har birini echimini toping va asoslab bering.

"Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldiring

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

(mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Talabalar ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot obyekti aniqlangan mak. 0,5 ball	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan mak. 0,5 ball	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko'rsatilgan mak. 0,8 ball	Jami mak. 1,8 ball

**Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash
mezonlari va ko'rsatkichlari**

Guruhlar ro'yxati	Guruh faol mak. 0,5 ball	Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi mak. 0,5 ball	Javoblar to'liq va aniq berildi mak. 0,8 ball	Jami mak. 1,8 ball
1				
2				
3				

1,8-1,5 ball – a'lo, 1,4- 1,2 ball – yaxshi, 1,1- 1,0 ball – qoniqarli

**KEYS-STADINI TUZGAN MUALLIFLAR TOMONIDAN
VAZIYATLARNING JAVOB VARIANTI**

1-7 gacha bo'lgan savollariga javoblar:

Soliq kodeksining 19-moddasiga ko'ra, soliq solish maqsadida O'zbekistonda doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikda 12 oylik davr ichida jami 183 kun va undan ortiq muddat respublikamizda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston rezidenti deb e'tirof etiladi. Ushbu qoidada belgilangan mezonlarga javob bermaydigan shaxs O'zbekiston Respublikasining norezidenti deb e'tirof etiladi.

Norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga Soliq kodeksi 182-moddasining stavkalari bo'yicha, ya'ni mehnat shartnomalari bo'yicha olingan daromadlarga 20% stavka bo'yicha soliq solinadi (Soliq kodeksining 168-moddasi).

Soliq kodeksining 192-moddasiga ko'ra chet ellik jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasining rezidenti belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo'lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va respublikamiz hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo'lsa, uning mamlakatimizda turgan vaqtda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan 1 oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet ellik jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan

bo'lsa, joriy yil uchun daromadlar bo'yicha deklaratsiya taqdim etmaydi.

Savolingizdan kelib chiqib, agar xodimlaringiz (chet ellik shaxslar) 2014 yilda jami 183 kun va undan ortiq muddat O'zbekistonda turgan bo'lsalar, haqiqatan ham ular O'zbekiston rezidenti hisoblanadi. O'z navbatida, respublikamiz rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxslar belgilangan tartibda va muddatlarda daromadlari to'g'risida deklaratsiya taqdim etadilar.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

- mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa;

- fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;

- asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar;

- ikki yoki undan ko'p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlar;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;

- soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar (Soliq kodeksining 189-moddasi).

Agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uning arizasiga ko'ra belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda ushlab qolingan bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Soliq kodeksining 192-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan chet ellik jismoniy shaxs o'tgan soliq davri uchun daromadlar to'g'risida joriy yilning 1 apreliyacha deklaratsiya taqdim etishi kerak.

Agar soliq to'lovchi daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organi o'zidagi mavjud ma'lumotlar asosida soliq summasini eng yuqori stavka bo'yicha hisoblashga va to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi to'g'risida bildirishnoma topshirishga haqlidir. Soliq to'lovchi tomonidan jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, soliqning yakuniy summasi ushbu deklaratsiya hisobga olingan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyaning ma‘lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to‘laydilar.

Shu bilan birga, jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig‘ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag‘idan chet el valyutasida to‘lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘langan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash to‘lov xabarnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak (Soliq kodeksining 193-moddasi).

Shuni qayd etish lozimki, Soliq kodeksining 194-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi hududida chet ellik jismoniy shaxslarga O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda, Soliq kodeksiga muvofiq soliq solinadi.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog‘ida bunday bitimlarning shartlariga O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to‘lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha xarajatlarini o‘z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlar kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

Chet ellik jismoniy shaxsning – O‘zbekiston Respublikasi rezidentining daromadlariga belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadi.

8-savolga javob: Daromad solig‘ini to‘laymiz

Deklaratsiya – soliq to‘lovchi jismoniy shaxs olgan yillik daromadlar va ulardan ushlangan JSHDS summalari to‘g‘risida doimiy yashash (propiska qilingan) joyidagi soliq inspeksiyasiga taqdim etiladigan hujjat ekanligini eslatib o‘tamiz.

Soliq kodeksining 34-bobida qanday daromadlarga deklaratsiya asosida soliq solinishi, uni taqdim etishning tartibi qandayligi, kimlar deklaratsiya taqdim etishga majburligi, kimlar buni ixtiyoriy ravishda

qilishi mumkinligi, shuningdek unga ko'ra daromad solig'i to'lash tartibi belgilanadi.

QACHON TO'LAYMIZ

Avvalo soliq to'lashning eng oxirgi muddatini aniqlaymiz: u Soliq kodeksining 193-moddasi bilan – o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmasdan deb belgilangan. Masalan, siz soliqni 2014 yil uchun deklaratsiya bo'yicha to'lashingiz shart. Buni 2015 yil 1 iyungacha (1 iyun ham kiradi) qilishingiz kerak. Ya'ni deklaratsiyaning o'zini topshirgandan keyin sizda unga doir tegishli soliqni qo'shimcha to'lash uchun kamida 2 oy bo'ladi.

Biroq soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning ba'zi toifalari JSHDSni deklaratsiya asosida «alohida tarzda» to'laydilar.

Birinchi, ular – agar ushbu daromadga to'lov manbaida daromad solig'i solinmagan bo'lsa, mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar. Bunday vaziyat, misol uchun, agar ijarachi ham jismoniy shaxs hisoblansa, vujudga kelishi mumkin. Ushbu holda soliq ikkita deklaratsiya asosida bosqichma-bosqich to'lanadi: dastlabki deklaratsiya asosida – yil mobaynida har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning 5-kunigacha va yakuniy deklaratsiya asosida – hisobot yilidan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay – haqiqatda olingan daromaddan hisoblangan JSHDS bilan yil mobaynida to'langan daromad solig'i summalari o'rtasidagi farq qo'shimcha to'lanadi (yoki qaytariladi).

Ikkinchi, ular – o'z faoliyatini tugatayotgan, daromadlari kalendar yil mobaynida deklaratsiyalanishi kerak bo'lgan va O'zbekistondan tashqariga chiqib ketayotgan chet ellik jismoniy shaxslar – O'zbekiston rezidentlari. Ushbu holda ular uchun deklaratsiya taqdim etish va soliq to'lash muddatlari boshqacha bo'ladi. Chiqib ketishdan 1 oy avval ular deklaratsiya topshirishlari va u berilgan paytdan boshlab 15 kun mobaynida soliq to'lashlari kerak.

QANDAY TO'LAYMIZ

Shuni qayd etish muhimki, Soliq kodeksida deklaratsiya bo'yicha qo'shimcha hisoblangan JSHDSning butun summasini bir vaqtda to'lash talab qilinmaydi. Binobarin, uni qismlarga bo'lib ham to'lash mumkin, biroq butun summa 1 iyundan kechiktirmay to'lanishi shartiga rioya etish lozim.

Soliqni byudjetga bankdagi o'z hisobvarag'idan pul o'tkazish, plastik kartochka vositasida, shuningdek soliq inspeksiya ko'rsatgan

hisobraqamga bank kassasiga naqd pul mablag‘larini kiritish yo‘li bilan to‘lash mumkin. O‘zbekiston rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar soliqni boshqa davlatda joylashgan bank hisobraqamidan xorijiy valyutada ham to‘lashlari mumkin. Ushbu holda milliy valyutadagi JSHDS summasi to‘lash kunidagi MB kursi bo‘yicha chet el valyutasida qayta hisoblanadi.

Quyidagilar JSHDS to‘lash sanasi deb hisoblanadi:

- bankdagi hisobraqamdan yoki plastik kartochkada to‘lashda – mablag‘lar bank yoki kartochka hisobraqamidan hisobdan chiqarilgan kun;

- naqd pul mablag‘lari kiritilganda – mablag‘lar bank kassasiga kiritilgan sana.

ORTIQCHA TO‘LOVNI QAYTARISH MUMKINMI?

Deklaratsiya ma‘lumotlari bo‘yicha JSHDS ning umumiy summasi hisob-kitob qilinganda haqiqatda to‘langan soliq summasi hisoblab yozilganidan ko‘p bo‘lib chiqadigan vaziyat vujudga kelishi mumkin, ya‘ni soliq bo‘yicha ortiqcha to‘lov hosil bo‘ladi. Biroq sizda boshqa soliqlar (mol-mulk yoki yer solig‘i) bo‘yicha yoki biror-bir soliqqa oid jarimalar va penyalar bo‘yicha qarz mavjud bo‘lsa, ortiqcha to‘langan soliq summasi birinchi navbatda bunday qarzni to‘lashga sarflanadi. Shuningdek siz ortiqcha to‘langan summani JSHDS bo‘yicha ham, boshqa soliqlar bo‘yicha ham bo‘lg‘usi to‘lovlar hisobiga inobatga olishingiz mumkin. Ortiqcha to‘langan soliq summasini qanday tartibda hisobga olish Soliq kodeksining 56-moddasida belgilangan.

Soliqqa oid mavjud barcha qarzlar so‘ndirilgan, hisobga o‘tkazishlar amalga oshirilgandan keyin ortiqcha to‘langan soliqning qolgan summasi qaytarilishi kerak. Soliq kodeksining 57-moddasiga ko‘ra, qolgan summa sizning bankdagi hisobvarag‘ingizga pul mablag‘larini o‘tkazish orqaligina qaytarilishi mumkin. Qaytarish yozma arizangiz asosida, qaytarish to‘g‘risidagi ariza topshirilgan sanadan e‘tiboran 15 ish kuni ichida amalga oshiriladi. Biroq ortiqcha to‘langan soliq summasi hisobga olinishi yoki qaytarilishini soliq davri tugagandan keyin faqat 5 yil mobaynida talab qila olishingizni unutmang.

MUDDATNI O‘TKAZIB YUBORGAN BO‘LSANGIZ

Qo‘shimcha to‘lanadigan JSHDS summasini 1 iyungacha to‘lamagan soliq to‘lovchini nimalar kutadi? Ushbu savolga javoblar Soliq kodeksining 112 va 120-moddalarida berilgan:

- soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar, ya'ni jarima va penyalar qo'llanadi, bunda jarima faqat sud tartibida qo'llanishi mumkin;

- penya belgilangan to'lash muddatidan keyin (ya'ni 2 iyundan boshlab) to'lash kunigacha (to'lash kuni ham kiradi) muddati o'tkazilgan har bir kun uchun qarz summasining 0,033%i miqdorida hisoblanadi. Biroq penya hisoblashda ba'zi bir holatlar ham inobatga olinadi: boshqa soliqlar bo'yicha mavjud ortiqcha to'lovga teng bo'lgan qarz summasiga penya hisoblanmaydi, penya miqdori esa soliq bo'yicha qarz summasining o'zidan oshib ketishi mumkin emas.

Shuni hisobga olish muhimki, hatto penyaning hisoblanishi va to'lanishi ham soliq to'lovchini soliq to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda deklaratsiyalash uslubini joriy etishning ahamiyati nimada?
2. O'zbekistonda jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliqqa tortiladigan daromadlari tarkibini tahlil eting.
3. Daromadlarning deklaratsiyasi qanday hujjat?
4. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni zarurligi nimada?
5. Yillik daromad haqidagi deklaratsiyani taqdim etuvchi jismoniy shaxslar toifasini ayting.
6. Deklaratsiyani taqdim etish tartibi qanday?
7. Chet ellik jismoniy shaxslarning daromadlar deklaratsiyasini taqdim etish tartibi qanday?
8. Deklaratsiya asosida soliq to'lovchi jismoniy shaxslar faoliyatiga oid dasturiy mahsullarning mohiyati va ahamiyati nimada?

V BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

5.1. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning huquqiy asoslari. Qat’iy belgilangan soliqning joriy etilishi va soliq to‘lovchilar tarkibi

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos iqtisodiy faoliyatdir. Boshqacha aytganda, u muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish bo‘yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlar faoliyatining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 25-mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni va hamda boshqa qonunosti me‘yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi. Bu qonun fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatli sharoitlar yaratish, ularning ishchanlik faolligini oshirish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ko‘zda tutadi. Ushbu qonunda tadbirkorlikka quyidagicha ta‘rif berilgan: “Tadbirkorlik-mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishdir”.

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) - belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari – yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy korxonalar, mikrofirmalar va kichik korxonalar.

Oilaviy tadbirkorlik - oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor - tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqsiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir¹⁵.

Yakka tartibdagi tadbirkor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli¹⁶.

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat va dehqon xo'jaligi shakllarida amalga oshirishi mumkin.

Jismoniy shaxslar yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan oddiy shirkat shartnomasining taraflari bo'lishi mumkin.

Oilaviy tadbirkorlikning amalga oshirilishi, oddiy shirkat va dehqon xo'jaligi tuzilishi, faoliyat ko'rsatishi hamda faoliyatining tugatilishi bilan bog'liq munosabatlar qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziligi. -T.: Adolat, 2014 y 2-bob.18 modda 11-bet.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 20 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalarkiritish to'g'risida"gi O'RBQ — №391-sonli Qonuni.

Hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar tayyorlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun ko'pi bilan besh nafar shogirdni ularga tegishlicha haq to'lagan holda jalb etishga haqlidir.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyuldagi 216-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga ko'ra belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tegishli davlat organi tomonidan "bir darcha" prinsipi bo'yicha va qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 maydagi "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibi to'g'risida"gi PQ-357-son qarori asosida ishlab chiqilgan Nizom bilan tartibga solinadi.

Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 2 sentyabrdagi 413-sonli qarori bilan «Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlangan. Unga ko'ra, chetdan tovar olib keluvchi yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish, jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq inspeksiyasida amalga oshiriladi.

Davlat ro'yxatidan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslardan qat'iy belgilangan soliqni undirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 31 mayda 2463-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2013 yil 26 apreldagi 41-son, 2013-24-son qarori asosida ishlab chiqilgan "Davlat ro'yxatidan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslardan qat'iy belgilangan soliqni undirish tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilangan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati nazorat qiluvchi organlar tomonidan ularning qonunchilikda belgilangan vakolatlari doirasida bir kun davomida rejadan tashqari qisqa muddatli, muqobil yoki nazorat tartibida tekshirishlar shaklida amalga oshirilishi mumkin. Istisno

tariqasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlarning moliyaviy va tovar hujjatlarini tekshirish zarurati bo'lgan hollarda, kameral nazorat natijasida aniqlangan soliq qonunchiligi buzilishi holatlari asosida, Kengash qarori bilan yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini bundan ko'proq, lekin 5 ish kunidan oshmagan muddatda tekshirish o'tkazish ko'zda tutilishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2007 yil 3 sentyabrda 1712-son bilan ro'yxatga olingan "Nazorat qiluvchi organlar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirishlarni tashkillashtirish tartibito'g'risida"gi Nizomga asosan tartibga solinadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, byudjet soliq siyosatini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni soliqlar orqali rag'batlantirish hamda ularga barcha qulay shart-sharoitlarni yaratish ustuvor maqsad va vazifa bo'lib kelmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini yuritish va soliqqa tortishning huquqiy asoslari quyidagilar tashkil etadi:

- O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 mayda yangi taxrir ostida tasdiqlangan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida" Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 6-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 357-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 maydagi "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida"gi 357-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 2 sentabrdagi "Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni

davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish tartibi to'g'risida"gi 413-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyuldagi 216-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizom;

-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2007 yil 3 sentyabrda 1712-son bilan ro'yxatga olingan "Nazorat qiluvchi organlar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirishlarni tashkillashtirish tartibito'g'risida"gi Nizom;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi "Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 219-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-sonli Farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 25 avgustdagi «Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1604-sonli qaroriga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi PQ-2700-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun qo'shimcha qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2843-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 iyundagi "Jizzax viloyatida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish hamda tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi VMQ-351-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 iyundagi "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan

takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5087-sonli Farmoni;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 8 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-704-sonli Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2018 yil 7 martdagi “Davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslardan qat’iy belgilangan soliqni undirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi 53 va 25-son Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyuldagi “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5490-sonli Farmoni va boshqalar.

Tadbirkorlikning mohiyati quyidagilar orqali yanada oydinlashadi:

Birinchiidan, tadbirkorlikning subyekti kim bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to‘g‘risidagi Qonuniga muvofiq balog‘at yoshiga etgan har bir fuqaro o‘z mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida o‘z ixtiyor etgan Qonunga zid bo‘lmagan faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin.

Ikkinchiidan, yuqoridagi ta’rifda tadbirkorlikning yana bir tomoni mazmuni ifoda etilgan bo‘lib, u mazmunan boy, xilma xil ko‘rinishiga ega. Tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish mohiyat jihatidan davlat, jamiyat ahamiyatiga molik ish bo‘lmasdan, balki erkin tanlanadigan faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatining uch turi va unga mos ravishda tadbirkorlarning 3 guruhini alohida ko‘rsatish mumkin:

1) yangi tovar yoki xizmat loyihasini tashkil etish. Tadbirkorlikning bu turi bilan intellektual mulk egalari innovatsiya tadbirkorlari shug‘ullanadi.

2) tovar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar.

3) tovarni sotish, qayta sotish va tijorat ishlarini tashkil etish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar.

Uchinchiidan, maqsad jihatidan tadbirkorlikning ikki turini:

a) foyda olishni, iqtisodiy samaraga erishishni maqsad qilgan;
b) ijtimoiy samaraga (masalan, tabiat muhofazasi, yosh avlod tarbiyasi, sog'liqni saqlash) erishishni maqsad qilgan turlarini ajratish mumkin.

Tadbirkorlarga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:


1. Shug'ullanayotgan soha bo'yicha ilm, bilimga egaligi.
2. Tavakkalchilikka asoslangan qarorlar qabul qilish buyicha tashabbuskorlik qobiliyati.
3. Iqtisodiy jarayonlarni chuqur fikrlay olish.
4. Qonunlarga itoatkorligi.
5. Innovatsiyachilikning faolligi.
6. Maqsad sari intiluvchanlik.
7. Tashkilotchilik.
8. Tejamkor bo'lishi.
9. O'z so'zining ustidan chiqish.
10. Ruxiy poklik va xalolligi.
11. O'z jamoasi uchun kurashuvchanlik.

Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 26 dekabrda "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va 2001 yilga bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 500-son qarori va boshqa qonun hujjatlariga binoan 2001 yil 1 yanvardan boshlab joriy etildi.

Ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika byudjetining daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i 2004-2006 yillarda 1.4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 1.1 foiz bo'lgan. 2018 yilgi davlat byudjeti parametrlari bo'yicha ushbu soliq davlat byudjeti daromadlarining 1.7 foizini, to'g'ri soliqlardagi salmog'i esa 8,4 foizni tashkil etmoqda (5.1-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida»gi PQ-4086-son qaroriga asosan ushbu soliqdan tushumlar mahalliy byudjetlarning Davlat

byudjetidagi ulushini ko‘paytirish maqsadida to‘liq miqdorda mahalliy byudjetlar daromadiga o‘tkazilmoqda.



5.1-rasm. Qat’iy belgilangan soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i dinamikasi¹⁷

Soliq kodeksining 370-moddasiga muvofiq bir kalendar yilda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar qat’iy belgilangan soliqni to‘lovchilar hisoblanadi.

Bir kalendar yil davomida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qonun hujjatlarida belgilangan miqdor oshgan oyning keyingi oyidan boshlab yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tadi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish ko‘radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a‘zosigina qat’iy belgilangan soliqni to‘lovchi bo‘ladi.

Quyidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar qat’iy belgilangan soliqni to‘lovchilar hisoblanmaydi:

- meva-sabzavot mahsulotlari eksportini amalga oshiruvchilar;

¹⁷O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 2003-2016 yillardagi “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qarorlari asosida tayyorlangan.

- Elektron tijorat ishtirokchilarining milliy reyestriga kiritilganlar.

5.2. Yakka tartibdagi tadbirkorlarga qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aktsiz solig'i - aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, Soliq kodeksning 48, 50-boblarida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik subyektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi. Bunda xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalarini ham belgilangan muddatlarda topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risidagi arizani olgan tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organ kelgusi ish kuni tugaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi

davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliqni qo'llash tartibi. Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishlari shart.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari quyidagilardir:

- chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;

- Tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o'tkazib bog'langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno, - yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

- tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - har oyning yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

5.3. Xodimlarni yollagan holda faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Xodimlarni yollagan holda faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliqni Soliq kodeksining 374¹-moddasida nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, belgilangan tartibga muvofiq to'laydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor zimmasiga uning har bir xodimi uchun yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha nazarda tutilgan stavkaning 30 foizi, I va II guruh nogironlari bo'lgan xodimlar bo'yicha esa eng kam ish haqining 15 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq to'lash majburiyati yuklatiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatning bir nechta turini amalga oshirgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliq faoliyatning tegishli turlari uchun o'rnatilgan qat'iy belgilangan soliqning eng yuqori stavkasining 30 foizi miqdorida to'lanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor soliq solish mazkur faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan faoliyat turi bilan shug'ullangan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliq bitta fizik ko'rsatkich uchun oyiga o'rnatilgan qat'iy belgilangan soliq stavkasining 30 foizi miqdorida to'lanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliq qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor

tomonidan to‘lash uchun belgilangan muddatlarda, mehnat shartnomasi tuzilgan oydan keyingi oydan boshlab to‘lanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tish joyi bo‘yicha amalga oshirmayotgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tadbirkorning har bir xodimi uchun qat‘iy belgilangan soliqni o‘zi ro‘yxatdan o‘tkazilgan joy va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joy bo‘yicha belgilangan stavkalar o‘rtasidagi yuqori stavkaning 30 foizi miqdorida o‘zi ro‘yxatdan o‘tkazilgan joyga to‘laydi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun har bir yollangan xodimga qat‘iy belgilangan soliqni hisoblashni to‘xtatib turishga asos bo‘ladi.

Agar o‘z faoliyatini to‘xtatgan yakka tartibdagi tadbirkor davlat soliq xizmati organiga yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkalarini belgilangan muddatlarda taqdim etmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliqni hisoblash to‘xtatilmaydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning kasb-hunar kolleji bitiruvchisi bo‘lgan xodimi uchun qat‘iy belgilangan soliqni to‘lashdan ushbu xodim kollejni tamomlaganidan e‘tiboran o‘n ikki oy mobaynida ozod etiladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor qat‘iy belgilangan soliqni to‘lashdan qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ozod etilsa, mazkur imtiyoz yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat‘iy belgilangan soliq to‘lashga ham tatbiq etiladi.

Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi 219-sonli qaroriga asosan “Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida “NIZOM”ga asosan amalga oshiriladi.

Mazkur nizomning amal qilishi yuridik shaxs tashkil etmagan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etilmaydi.

Xodimlarni yollamasdan faoliyatni amalga oshiradigan xususiy tadbirkorlar uchun qonunchilikda xususiy tadbirkorlar uchun nazarda tutilgan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, hisobga qo‘yish va ruxsat

beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishning belgilangan tartibi amal qiladi.

Xususiy tadbirkor xodimlarni yollashni bankda qonunchilikda belgilangan tartibda hisob raqami ochilgandan keyin amalga oshirishi mumkin.

Xususiy tadbirkor xodimlarni yollashni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatida nazarda tutilgan faoliyatning amalga oshiriladigan turiga bog‘liq holda bir nafardan uch nafargacha miqdorda amalga oshirishga haqlidir. Bir necha faoliyat turlari bilan shug‘ullanadigan xususiy tadbirkor, faoliyatning turlari sonidan qat’i nazar, uch nafardan ko‘p bo‘lmagan xodimlarni yollash huquqiga ega.

5.1-jadval

Xodimlarni yollagan holda xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlarining ro‘yxati¹⁸

T/r	Faoliyat turining nomi	Yollanadigan xodimlarning cheklangan soni (nafar)
1.	Chakana savdo (Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatining 1 — 5-bandlari)	1
2.	Qonunchilikda belgilangan ro‘yxat bo‘yicha hunarmandchilik faoliyati	3
3.	Maishiy xizmatlar, qonunchilikda belgilangan ro‘yxat bo‘yicha hunarmandchilik faoliyatidan tashqari (Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatining 6 — 35 ¹ -bandlari)	3
4.	Faoliyatning boshqa turlari* (Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatining 36 — 41, 51 — 59, 62, 64 — 66, 68 — 74-bandlari)	2

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi 219-sonli qaroriga asosan “Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida “NIZOM”

** Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatining 42, 50, 60, 61, 63, 67, 75-bandlarida ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshiradigan xususiy tadbirkor faoliyatining asosiy turi bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish uchun bir nafar xodimni yollashi mumkin.*

Xususiy tadbirkor bilan mehnat munosabatlari o'rnatgan jismoniy shaxslarga xususiy tadbirkorlar sifatida qaralmaydi va ular xususiy tadbirkor nomidan huquqiy hujjatlarni imzolash huquqiga ega emas.

5.4. Qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar, qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

2019 yildan qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 10 kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Masalan, jismoniy shaxslar daromadidan qat'iy belgilangan soliq:

2019 yil yanvar oyi uchun 2019 yilning 10 yanvarga qadar;

2019 yil fevral oyi uchun 2019 yilning 10 fevralga qadar belgilab qo'yilgan.

Qat'iy belgilangan soliq yuridik shaxsni tashkil etmagan tadbirkor tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyda, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lanadi.

Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 10-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik subyekti qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab to'laydi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kollejni tamomlagandan keyin o'n ikki oy ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan e'tiboran qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan olti oy muddatga ozod etiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tilgan paytdan boshlab o'n ikki oy ichida faoliyat tugatilgan yoki faoliyat uch va undan ko'p oyga to'xtatilgan taqdirda, qat'iy belgilangan soliq faoliyat amalga oshirilgan butun davr uchun to'lanadi.

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Misol uchun, oyning boshida emas, balki ikkinchi yarmida boshlasa ham to'liq oy uchun to'lanadi. 2019 yilning 1 yanvardan yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq stavkasi quyidagicha:

**Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy
belgilangan soliq stavkalari¹⁹**

T/r	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (so'mda)			
		Toshkent sh.	Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvdagi shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punkt-lari
1	Chakana savdo:				
	oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	1 000 000	750 000	400 000	300 000
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan*	400 000	200 000	100 000	50 000
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	500 000	250 000	200 000	50 000
2	Maishiy xizmatlar	350 000	200 000	100 000	50 000
3	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan, milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlarini tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	300 000	200 000	100 000	50 000
4	Bolalar o'yin avtomatlari	300 00	200 000	100 000	50 000
5	Boshqa faoliyat turlari	300 000	200 000	100 000	50 000
6	Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari:				
	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun		200 000		
	3 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun		300 000		

*) Uy xo'jaligida, shu jumladan, dehqon xo'jaligida parvarishlangan tirik hayvonlarni (chorva mollari, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliqlar va boshqalar) hamda ularni so'yib, xom yoki qayta ishlangan ko'rinishdagi mahsulotlarni, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan ko'rinishda (manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlaridan tashqari) sotish bundan mustasno.

Soliq to'lovchi tegishli sotilgan mahsulot mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi, bog'dor-

¹⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida»gi PQ-4086-son qaroridan olindi.

chilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkati boshqaruvi tomonidan berilgan, soliq to'lovchi tomonidan unga yoxud uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etganda soliq solishdan ozod qilinadi.

1. Jismoniy shaxs:

a) bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullansa, har bir faoliyat turi uchun alohida-alohida soliq to'laydi;

b) tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalar va binoda amalga oshirsa, yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga ijaraga beruvchi to'g'risida ma'lumotnoma (axborot) taqdim etishi kerak;

v) davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan joyda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, soliqni ro'yxatdan o'tkazilgan joyda va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joyda belgilangan stavkalar orasida eng yuqori stavka bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan joyda to'laydi.

g) I yoki II guruh nogironi bo'lsa, faoliyat turi va uni amalga oshirish joyidan qat'i nazar, qat'iy belgilangan soliqni oyiga eng kam ish haqining 50 foiz stavkasi bo'yicha to'laydi.

2. Jismoniy shaxslarning mol-mulki ijaraga berishdan olgan daromadlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi.

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar. Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oying 10-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi. Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik subyekti qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab to'laydi. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kollejni tamomlagandan keyin o'n ikki oy

ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan e'tiboran qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan olti oy muddatga ozod etiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tilgan paytdan boshlab o'n ikki oy ichida faoliyat tugatilgan yoki faoliyat uch va undan ko'p oyga to'xtatilgan taqdirda, qat'iy belgilangan soliq faoliyat amalga oshirilgan butun davr uchun to'lanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida» 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi 2018 yil 22 oktyabrdagi 850-sonli qaroriga asosan xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini keltirilgan. Jismoniy shaxslar 2019 yil 1 martdan boshlab Qaror bilan tasdiqlangan ro'yxatga kiritilmagan faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin emas. Tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatidan o'tkazish inspeksiyalari va davlat soliq xizmati organlari faoliyat turlari bo'yicha xususiy tadbirkorlarga ruxsatnomalar rasmiylashtirish va ularni davlat ro'yxatidan o'tkazishda tasdiqlangan ro'yxatga qat'iy amal qilinadi.

5.3-jadval

Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari RO'YXATI²⁰

T/r	Faoliyat turining nomi
I.	Chakana savdo:
1.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish (qurilish materiallari, tsement, shifer, yog'och va yog'och mahsulotlari, alkogolli va tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlarining barcha turlari, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo'llanilgan buyumlar, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlar, yangi import avtomobillar, farmatsevtika tovarlarini sotish bundan mustasno)
2.	Ko'chma savdo ob'ektlarida aralash chakana savdo qilish (vaqtincha joylashgan va mavsumiy yoki maqsadli xususiyatga ega bo'lgan, shuningdek, ish kuni tamom bo'lgandan keyin ob'ektni demontaj qilinishi va ko'chirilishini talab etuvchi ob'ektlarda)
3.	Dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan chakana savdo qilish

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida» 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi 2018 yil 22 oktyabrdagi 850-sonli Qarori.

4.	Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
5.	Tovarlarni import qilish va ular bilan chakana savdo qilish (qurilish materiallari, tsement, shifer, yog'och va yog'och mahsulotlari, o'simlik moyi, alkogolli va tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlarining barcha turlari, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo'llanilgan buyumlar, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlar, yangi import avtomobillar va farmatsevtika tovarlarini sotish bundan mustasno), bunda olib kirilayotgan tovarlarning narxi bir oyda 5000 AQSh dollari ekvivalentidan oshmaslik sharti bilan
II.	Qonun hujjatlarida belgilangan ro'yxat bo'yicha hunarmandchilik faoliyati.
III.	Maishiy xizmatlar, II bo'limda nazarda tutilganlaridan tashqari:
6.	Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va shunga o'xshash boshqa xizmatlar
7.	Kir yuvish, quruq va kimyoviy tozalashni tashkil etish, shuningdek, dazmollash xizmatlari
8.	Gilam va gilam buyumlarini ta'mirlash va tozalash
9.	Tikuv, mo'yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni va to'qimachilik galantereyasidan tikilgan buyumlarni ta'mirlash, aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo'yicha tikuv va trikotaj buyumlarini, bosh kiyimlarini va to'qimachilik galantereyasidan buyumlarni tikish, shu jumladan deraza va eshik pardalarini tikish, kashtachilik
10.	Hayvonlar terilari, mo'yna, to'qimachilik, charm buyumlar va boshqa buyumlarni oshlash va bo'yash
11.	Aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo'yicha poyabzal tikish, poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash
12.	Attorlik buyumlarini tayyorlash va ta'mirlash
13.	Bijuteriya va jevablarni tayyorlash va ta'mirlash
14.	Kalitlar tayyorlash
15.	Metall va tunuka buyumlar tayyorlash va ta'mirlash
16.	Gulchambarlar (shu jumladan, motam gulchambarlari), sun'iy gullar, ikebana, gul marjonlarini tayyorlash
17.	To'siqlar, haykallar, metallardan yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta'mirlash
18.	Yog'ochdan eshik, deraza va boshqa buyumlar (mebeldan tashqari) tayyorlash
19.	Inventarni (xo'jalik, sport, baliqchilik va hokazo) ta'mirlash va tayyorlash
20.	Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash
21.	Tayyor mebelni yig'ish, ta'mirlash va drapirovka qilish
22.	Musiqqa asboblarini ta'mirlash va sozlash
23.	Yakka buyurtma bo'yicha qimmatbaho metallardan va toshlardan zargarlik buyumlarini yasash, shuningdek, zargarlik buyumlarini ta'mirlash
24.	Optika, soatlarni ta'mirlash va metall, plastmassa, sopol, fayans, tosh, kartondan mahsulotlarda o'ymakorlik ishlari (qavariq yozuvlar va tasvirlar tushirish)
25.	Radioelektron apparatlar, maishiy mashinalar, maishiy priborlar, ofis mashinalari va hisoblash texnikasini ta'mirlash, o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish
26.	Transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, shu jumladan, transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarining boshqa turlari (akustik tizimlar va qo'riqlash signalizatsiyalarini ta'mirlash va o'rnatish, polirotkalash, kuzovga himoya va bezak qoplamalarini qoplash xizmatlari)
27.	Sanitariya-texnika xizmatlari va payvandlash ishlari
28.	Shisha va oynalarni kesish, shishaga badiiy ishlov berish
29.	Binolarga oyna o'rnatish xizmatlari

30.	Jamoat hojatxonalari xizmatlari
31.	Hammom va sauna xizmatlari
32.	Turar joylarni yig'ishtirish xizmatlari
33.	Hovlilar va bog'larga qarash xizmatlari, shuningdek, ko'kalamzorlashtirish ishlari
34.	Bog'lar, polizlar va dov-daraxtlarni zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish
35.	Video va fotosuratga olish xizmatlari
36.	Xo'jalik mollari va uy-ro'zg'or buyumlarini (mebel, idish-tovoqlar, xo'jalik, sport, baliqchilik anjomlari, maishiy texnika, priborlar va boshqalarni) ijaraga berish
37.	Oilaviy mehmon uylarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etish
IV	Faoliyatning boshqa turlari:
38.	Qadoqlash uskunalaridan foydalanmagan holda uy sharoitida milliy shirinliklar, qandolat mahsulotlari, qurti tayyorlash va sotish
39.	Milliy non va patir tayyorlash va sotish
40.	Popkorn, frezerda muzqaymoq, salqin ichimliklar, ayron va go'ja tayyorlash va quyib sotish
41.	Salatlar va tuzlamalar tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitida donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va o'tirish joylari tashkil etmasdan yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda sotish
42.	O'lchov vositalari tayyorlash va ularni prokatga berish
43.	Aholi uchun turar va noturar joylarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
44.	Repetitorlik xizmatlari
45.	Tarjima xizmatlari, tahrir xizmatlari
46.	Bolalarning o'yinchoq avtomatlari bilan bog'liq xizmatlar
47.	Axborotning kriptografik himoyasi vositalarini loyihalash, yaratish, ishlab chiqarish, sotish, ta'mirlash va ulardan foydalanish
48.	Dizayn bo'yicha xizmatlar (grafik, interer, mebel va hokazolar), shuningdek, chizmachilik-grafika ishlari, shuningdek, rassomlik san'ati
49.	Kompyuter dasturlarini ishlab chiqish xizmatlari, kompyuter o'yinlarini tashkil etish, shuningdek, kompyuter yordamida matnlarni terish va bosib chiqarish xizmatlari, matndan nusxa olish va ko'paytirish bilan bog'liq xizmatlar
50.	Tashrif qog'ozlari va taklifnoma biletlarini tayyorlash va bosish
51.	Muqovalash ishlari
52.	Reklamani ishlab chiqish va joylashtirish
53.	Sug'urta agentlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar
54.	Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish
55.	Tantanali marosimlarni tashkil etish xizmatlari (to'y, yubiley, tug'ilgan kun va hokazolar)
56.	Ko'ylak va kostyumlarni, shuningdek, ularga aksessuarlarni prokatga berish
57.	Ijtimoiy xizmatlar (bolalar, bemorlar va keksa kishilarga qarash xizmatlari)
58.	Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati (sheyping, aerobika, sport seksiyalari, salomatlik guruhlari), trenerlik xizmatlari
59.	To'garaklar tashkil etish va yuritish
60.	Davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati
61.	Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar)
62.	Tegirmonlarda donni maydalash (tozalash) xizmatlari

63.	Mol so'yish xizmatlari
64.	Uy hayvonlariga qarash xizmatlari
65.	Veterinariya faoliyati
66.	Yuklarni avtomobil transportida tashish
67.	Yo'lovchilar va yuklarni daryo transportida tashish
68.	O'simlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xomashyoni etishtirish, yig'ishtirish, tayyorlash va sotish
69.	Gullar va dekorativ daraxtlar etishtirish va sotish (shu jumladan bonsay san'ati)
70.	Akvarium baliqlari, dekorativ qushlar va boshqa hayvonlarni ko'paytirish va sotish
71.	Shisha idishlar va ikkilamchi xomashyoni qabul qilish xizmatlari (metall chiqindilaridan tashqari)
72.	Rieltorlik faoliyati
73.	Jismoniy va yuridik shaxslarga maxsus va qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalangan holda xizmatlar ko'rsatish
74.	Tashkilotlar uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlash bo'yicha xizmatlar
75.	Ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar uchun pudrat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarish
76.	Matritsali printerlar va alfavit-raqam bosma qurilmalar uchun bo'yovchi tasmalarni tayyorlash va qayta ishlash
77.	Qog'ozlar va skorosshivatellar uchun konvertlar, papkalar tayyorlash
78.	Telekommunikatsiyalar operatorlariga, provayderlariga vositachilik xizmatlari ko'rsatish (abonentlar yoki xizmatlar ko'rsatuvchilarga ma'lumot-axborot xizmati ko'rsatish, xizmat ko'rsatuvchilarning xizmatlari uchun to'lovlarni qabul qilish)
79.	Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari
80.	Ekskursiya xizmatlari ko'rsatish bo'yicha turistik faoliyat
81.	Duradgorlik ishlari (aholi buyurtmalari bo'yicha duradgorlik ishlarini amalga oshirish)
82.	Metallni ta'mirlash ishlari (uy sharoitida metallardan tayyorlangan maishiy buyumlarni ta'mirlash (kalitlarning dublikatlarini tayyorlash, soyabonlarni ta'mirlash, boshqa maishiy metall buyumlarni oddiy ta'mirlash)
83.	Yog'och me'morchiligi (bolalar maydonchalari va park zonalarini uchun yog'ochdan yasalgan qurilmalar, haykallar)
84.	Gazlamalarga naqshlar solish (gazlamalar va kiyim ashyolarini qo'lda bo'yash, gazlamalarga,shu jumladan trafaretli bosma va qo'lda rasm chizish usuli bilan rasmlar solish)

Izoh. Agar yakka tadbirkor faoliyatning asosiy turiga nisbatan yordamchi hisoblangan faoliyatni amalga oshirsa, qat'iy belgilangan soliq faoliyatning bir turi uchun to'lanadi.

Ushbu ro'yxatga kiritilgan faoliyat turlari yuridik shaxs shaklidagi tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu ro'yxat doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradigan xususiy tadbirkorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 oktyabrdagi 850-son qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmas-

dan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati”da ko‘rsatilgan 14 ta faoliyat turiga o‘zgartirishlar kiritildi va bitta faoliyat turi chiqarib tashlandi. Xususan:

-qurilish materiallari, tsement, shifer, yog‘och va yog‘och mahsulotlarini sotish;

-alyuminiy (plastik) profildan eshik, deraza va boshqa buyumlar tayyorlash;

-o‘simlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xomashyoni qadoqlash va ulgurji sotish;

-transport vositalarini yuvish, salonni tozalash va shunga o‘xshash boshqa xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini amalga oshiruvchilar;

-chetdan tijorat maqsadida bir oyda 5000 AQSh dollaridan ko‘p tovar olib keluvchilar (importyorlar) **2019 yilning 1 yanvaridan** yuridik shaxs sifatida qayta ro‘yxatdan o‘tishlari talab etiladi.

5.5. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi

1998 yilga qadar suvdan foydalanayotgan korxonalar “suv uchun to‘lov” to‘lashar edi. Iste‘molchilarning suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida Respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, 1998 yil 1-yanvardan boshlab, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, Respublika byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. 2018 yilda Davlat byudjetiga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumi 85,9 mlrd. so‘m bo‘lib, bu byudjet daromadlarining 0,1 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Tadbirkorlik faoliyati davomida suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘laydilar.

Mulkchilik va bo‘ysunish shaklidan qat’iy nazar, issiq suv va bug‘ uzatuvchi korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni ular tomonidan yuzadagi va yer osti manbalaridan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun ishlatilgan suv resurslari hajmi uchun to‘laydilar.

Yer usti va yer osti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslari soliq solish obykti hisoblanadi.

Yer usti manbalariga daryolar, ko‘llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar kiradi.

Yer osti manbalariga artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontal zovur tarmog‘i kiradi.

Foydalanilgan suv resurslarining hajmi **soliq solish bazasi** hisoblanadi.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suv o‘lchagich asboblarning ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi.

5.4-jadval

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning 2019 yil uchun belgilangan STAVKALARI²¹

To‘lovchi	1 m ³ uchun stavka, (so‘m)	
	Yer usti suv resurslari manbalari	Yer osti suv resurslari manbalari
Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suvdan foydalanadigan jismoniy shaxslar	120	150

Suvdan o‘lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suv iste‘molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug‘orish normalaridan yoki ma‘lumotlarning to‘g‘riligini ta‘minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

²¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida»gi PQ-4086-son qaroridan olindi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish yoki suv iste‘moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan soliq davridan keyingi yilning 25 yanvarigacha taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorlar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘laydilar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining to‘rtidan bir qismi miqdorida joriy to‘lovlar to‘lanadi.

Soliq davri mobaynida mo‘ljallanayotgan soliq solinadigan baza o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to‘g‘risida aniqlashtirilgan ma‘lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to‘lovlarga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o‘zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash joriy to‘lovlar hisobga olingan holda soliq to‘lovchilar tomonidan, suvdan foydalanish yoki suv iste‘moli joyida, hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlar summasi hisob-kitobga ko‘ra byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to‘lovlarni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lashni to‘lovchilar tomonidan suvdan foydalanish yoki suv iste‘moli joyida hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati davomida yer qa‘ridan foydali qazilmalarni kavlab olgan, mineral xomashyodan yoki

texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda yer qa'ridan foydalangan holatlarda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'laydilar.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Soliq solish objekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Uglevodorodlar uchun soliq solish objekti quyidagilardir:

- sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan qo'shib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

- uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish objekti bo'lmaydi.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish obyektidir.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat

solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizatsiya qilinmagan bo'lsa, soliq solinadigan baza realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizatsiya qilishning o'rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni kavlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o'rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart. Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizatsiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o'rtacha olingan bahoni hisob-kitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklaratsiya qilinayotgan baholardan yuqori bo'lmasligi kerak. Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xomashyo bo'lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jimoniylar shaxslar uchun — soliq davri va hisobot davri kalendar yil hisoblanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblar Jismoniy shaxslar tomonidan - yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay taqdim etiladi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq jismoniy shaxslar tomonidan - hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay to'lanadi.

Hisobotni taqdim etmaganlik, o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki belgilanmagan shaklda taqdim etganlik uchun:

- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 115-moddasiga asosan - Soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaganlik va kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim

etmaganlik uchun soliq to'lovchi – yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki soliq to'lovchi – jismoniy shaxs mahmuriy javobgarlikka tortiladi.

- O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 174-moddasiga asosan fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

5.6. Yakka tartibdagi tadbirkorlarga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari va preferensiyalar

Mamlakatimizda soliq siyosatini yanada erkinlashtirish, soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish, soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning moliya-xo'jalik faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklash borasida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ortiqcha byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish maqsadida, tadbirkorlarga keng imkoniyatlar berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 29 martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3588-sonli Farmoniga muvofiq, Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy-bezak san'ati buyumlari asosiy turlarining 25 turdagi yangilangan ro'yxati tasdiqlangan.

1. Ganch o'ymakorligi;
2. Yog'och o'ymakorligi;
3. Suyak o'ymakorligi;
4. Tosh o'ymakorligi;
5. Yog'ochdan xalq hunarmandchiligi buyumlari yasash;
6. Metall va tunukadan buyumlar yasash;
7. Qilich, xanjar va pichoq yasash;
8. Zarb, o'yma tasvir (chekanka) usulda yasalgan buyumlar;
9. Chinni (farfor), sopol va ganchdan buyumlar yasash;
10. Qimmatbaho metallardan zargarlik buyumlari yasash;

11. Qo‘lda gilam to‘qish;
12. Qo‘lda gazlama va to‘qma buyumlar to‘qish;
13. Shisha buyumlar tayyorlash;
14. Zardo‘zlik buyumlari tikish;
15. Kashtachilik, kashtado‘zlik;
16. Matoga gul bosish va chokli buyumlar tikish;
17. Milliy xalat (chopon) va bosh kiyimlar tayyorlash;
18. Musiqa asboblari yasash;
19. Miniaturali, rasmi (tasvirli), ornamentli (naqshli) va sirli bezaklar berish;
20. Hajmli va figurali (shakldor) qolipli (andozali) quyma buyumlar yasash;
21. Kichik haykalchalar yasash;
22. O‘yinchoqlar yasash;
23. Novdalardan buyumlar to‘qish;
24. Teridan buyumlar va oyoq kiyimlari tikish;
25. Sovg‘a (suvenir) esdalik buyumlari tayyorlash.

Yuqoridagi faoliyat turlari bo‘yicha yakka tartibda hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar «Hunarmand» uyushmasiga a‘zo bo‘lgan holatda soliqdan imtiyoz qo‘llaniladi.

Ushbu farmon bilan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq, uy sharoitida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san‘ati buyumlarini ishlab chiqarish bo‘yicha yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan band bo‘lgan shaxslar tomonidan qat‘iy belgilangan soliqni to‘lash yuzasidan soliq imtiyozining amal qilish muddati “Hunarmand” uyushmasi a‘zolari - yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 26 dekabrda PF-4589-sonli Farmoni bilan 2017 yilning 1 yanvarigacha uzaytirilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PF-4354**-sonli Farmonga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha **2011 yilning 1 oktabridan** quyidagi huquqiy me‘yorlar, tartiblar va imtiyozlar belgilandi:

- tadbirkorlik faoliyati subyektlarining barcha darajadagi davlat boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, tijorat banklari bilan o‘zaro munosabatlarida tadbirkorlar huquqlari

ustuvorligi prinsipiga amal qilinadi, ya'ni, unga muvofiq, me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlar foydasiga talqin etiladi;

- 2011 yil 1 sentabrdan kichik biznes subyektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada hisobraqami ochganlik uchun to'lov undirishni bekor qilindi;

- xo'jalik subyektlari tomonidan savdo va servis sohasida xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)lar uchun korporativ plastik kartalaridan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshirishda to'lov terminallari cheklarini **birlamchi buxgalterlik** hujjatlariga tenglashtirildi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga bank muassalariga **eng kam ish haqining yigirma barobari** miqdorigacha bo'lgan naqd pul tushumini mustaqil topshirish huquqi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2012-2016 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi PQ-1754-sonli qaroriga asosan 2012 yilning 2-choragidan boshlab, qishloq joylardagi mahallalar hududida maishiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar (sartaroshlar, tikuvchilar, poyafzal, maishiy texnika ta'mirlash bo'yicha ustalar va boshqalar) 3 yil muddatga hamda qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joy qurilishi asosida barpo etilayotgan massivlarda kirxona xizmatlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar 5 yil muddatga qat'iy belgilangan soliq to'lashdan ozod etish kabi imtiyozlar taqdim etilgan edi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 390-moddasiga asosan konsert-tamosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi jismoniy shaxslar mazkur faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliq to'lashdan ozod etilgan.

Shuningdek, Soliq kodeksining 311-moddasiga muvofiq yuridik shaxs tashkil etmagan (yoki tashkil etgan) holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriylik asosida yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek I va II guruh nogironlari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etmagan (yoki tashkil etgan) holda tuzilgan

dehqon xo‘jaliklarining a‘zolari uchun sug‘urta badalining miqdori uning belgilangan miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.

Soliq kodeksining 54-moddasiga o‘zgartirish kiritilib, 2015 yildan yuridik shaxslar singari yakka tartibdagi tadbirkorlarga ham soliq tekshiruvlarda qo‘shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek moliyaviy sanksiyalar summalarini 6 oy mobaynida teng ulushlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lashga huquq berildi.

“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-379-sonli qonuniga asosan:

- Soliq kodeksining 311-moddasiga o‘zgartirish kiritilib, yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a‘zolari tomonidan sug‘urta badallarini to‘lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshirilishi;

- Soliq kodeksining 375-moddasi beshinchi va oltinchi qismlar bilan to‘ldirilib, yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik subyekti qat’iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab to‘lashlari belgilandi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kollejni tamomlagandan keyin o‘n ikki oy ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanadan e‘tiboran **qat’iy belgilangan soliqni to‘lashdan olti oy muddatga ozod etiladi**. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tilgan paytdan boshlab o‘n ikki oy ichida faoliyat tugatilgan taqdirda, qat’iy belgilangan soliq faoliyat amalga oshirilgan butun davr uchun to‘lanishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PF-4609-sonli** Farmoniga asosan quyidagilar belgilandi:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlarida chop etilmagan ularning tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlar masalalarini tartibga soladigan me‘yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlari

talablarini buzish holatlari uchun tadbirkorlik subyektlariga javobgarlik choralari qo'llash taqiqlanadi;

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonini murakkablashtirishni va tadbirkorlik subyektlariga yangi yuridik majburiyatlar yuklatishni nazarda tutadigan, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga yuridik javobgarlikning yangi choralari belgilaydigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ular rasman chop etilgan fursatdan boshlab, **uch oydan oldin** bo'lmagan muddatda kuchga kiritiladi.

- soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'laydigan, shuningdek ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlarini va rentabelligini ta'minlovchi kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini soliq tekshiruvidan o'tkazishga qo'llanilgan moratoriy 2017 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan muddatgacha uzaytirilgan edi (yuridik shaxslarni tugatishdagi, qo'zg'atilgan jinoiy ishlar doirasidagi, shuningdek byudjet va markazlashtirilgan mablag'lar va resurslaridan foydalanish bilan bog'liq rejadan tashqari tekshiruvlar bundan mustasno).

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga ularning hisobvaraqlaridan soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashda banklar xizmatlari uchun to'lovlar undirish amaliyoti bekor qilindi.

Shuningdek, Farmonga asosan investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish samaradorligini oshirish borasida elektron raqamli imzo kaliti sertifikatining amal qilish muddatini **12 oydan 24 oygacha** uzaytirishni nazarda tutuvchi amaldagi qonunchilikka o'zgartirish kiritilishi belgilab qo'yildi.

Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o'rni va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **4725-sonli Farmoni** qabul qilindi.

Farmonning 2-bandi bilan 2015 yilning 1 iyulidan:

- mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo‘jaliklari faoliyatiga oid barcha tekshiruvlar rejali tartibda nazorat organlari tomonidan to‘rt yilda bir martadan, boshqa xo‘jalik subyektlarida esa ko‘pi bilan uch yilda bir marta faqat Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi qaroriga asosan amalga oshirilishi;

- moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan rejali tekshiruvlar o‘tkazish muddati 10 kalendar kunidan oshmasligi;

- tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini rejali tekshirishlar faqat so‘nggi tekshiruvdan keyingi davrni qamrab olishinishi belgilab qo‘yildi.

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qo‘zg‘atilgan jinoiy ishlar bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish subyekt jalb etgan advokat ishtirokida (xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan ushbu huquqning rad etilishi holatlari bundan mustasno) amalga oshirilishi;

- Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni (soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash) birinchi marta sodir etgan, jinoyat aniqlangandan keyin 30 kun ichida davlatga yetkazilgan zararni to‘liq qoplagan, moliyaviy sanksiyalarni to‘lagan shaxsga nisbatan **jinoiy ish qo‘zg‘atilmaligi va u javobgarlikdan ozod qilinishi** belgilab qo‘yildi.

Farmonning 5-bandiga asosan 2015 yilning 1 iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga faoliyatidan kelib chiqqan holda, har bir yollangan ishchi uchun Pensiya jamg‘armasiga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida sug‘urta badali va yakka tartibdagi ish beruvchi tadbirkor uchun belgilangan soliq stavkasining 30 foizi miqdorida soliq to‘lash sharti bilan **bir nafardan uch nafargacha ishchini yollash** huquqi berildi. Yakka tadbirkorlar kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini ishga yollagan hollarda kollejni bitirgandan boshlab o‘n ikki oy mobaynida yollanma ishchilar uchun belgilangan **soliqdan ozod etilishi** belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, **Farmon bilan tasdiqlangan Dasturning 5-bandida** “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunga tadbirkorlik subyektlari uchun qonunchilikda ko‘zda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalar ularning **har qanday yozma murojaatlarisiz** qo‘llanilishi bo‘yicha o‘zgartirish kiritish nazarda tutilyapti.

Dasturning 9-bandida agar shaxs Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni ilk marotaba sodir etib, jinoyat aniqlangan kundan 30 kun davomida, to‘lanmagan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘liq qoplagan, penya va boshqa moliyaviy jarimalarni to‘lagan taqdirda, unga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilmasligi va ushbu shaxs javobgarlikdan ozod etilishini nazarda tutuvchi tartib joriy etish va bunda mazkur huquqbuzarlik va uni sodir qilgan shaxs to‘g‘risida ma‘lumotlar Ichki ishlar vazirligi Axborot markazida ro‘yxatga olinishi belgilab qo‘yildi.

Dasturning 21-bandida tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib keluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini amalga oshirish tartibini soddalashtirish. Bunda, ularni Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida hamda Davlat bojxona organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini bekor qilish, ortiqcha va zamon talablariga javob bermaydigan hujjatlarni chiqarib tashlash orqali bojxona rasmiylashtiruvda ular tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar sonini qisqartirishni nazarda tutish belgilandi.

Dasturning 27-bandida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olishning Internet tarmog‘ida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga integratsiya qilingan Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olish avtomatlashtirilgan tizimi orqali kechayu-kunduz amalga oshirish tartibini o‘rnatish bo‘yicha amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-sonli Farmoniga asosan quyidagilar belgilandi:

2017 yilning 1 yanvaridan boshlab:

- tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi, yuridik shaxslarning tugatilayotganida, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning qonunchilik buzilganligi holatlari bo‘yicha bergan murojaatlari asosida faqatgina Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi qaroriga muvofiq o‘tkaziladigan qisqa muddatli tekshiruvlar bundan mustasno;

- tadbirkorlik subyektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi;

- moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda birinchi marta huquqbuzarliklar sodir etgan tadbirkorlik subyektlari va ularning xodimlari yo‘l qo‘yilgan qonunbuzarliklarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan va etkazilgan moddiy zararni qoplagan taqdirda, insonning sog‘lig‘i va hayotiga zarar etkazilgan holatlar bundan mustasno, ma‘muriy va jinoiy javobgarlikdan, jarimalar va moliyaviy sanksiyalar (penyadan tashqari) qo‘llanilishidan ozod etiladilar;

- noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni birinchi marta sodir etgan shaxslar huquqbuzarlik aniqlangan kundan e‘tiboran bir oy muddatda etkazilgan zararining o‘rnini ixtiyoriy ravishda qoplagan, tadbirkorlik subyekti sifatida ro‘yxatdan o‘tgan va ruxsat etuvchi zarur hujjatlarni rasmiylashtirgan taqdirda ma‘muriy va jinoiy javobgarlikdan ozod etiladilar;

- tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqidan mahrum qilish tarzidagi jinoiy jazo qo‘llanilmaydi;

- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangidan tashkil etiladigan ishlab chiqarish korxonalariga ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish vaqtida amalda bo‘lgan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalarini (resurs va bojxona to‘lovlari bundan mustasno) besh yil mobaynida qo‘llash huquqi beriladi;

- tadbirkorlik subyektlari hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risida ariza bergan taqdirda davlat boji to‘lashdan ozod etiladilar;

- tadbirkorlik subyektlarining eksport kontraktlarini davlat bojxona xizmati organlarida hisobga qo‘yish borasidagi talab, valyuta nazorati organlari tomonidan Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi orqali tashqi savdo kontraktlari nazorati va monitoringini saqlab qolish sharti bilan bekor qilinadi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maxsus turdagi tovarlar eksporti va importini litsenziyalash, shuningdek eksport kontraktlarini ro‘yxatga olish va import kontraktlarini ekspertizadan o‘tkazishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 3 noyabrdagi PF-5215-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 dekabrdagi «Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar eksport qilinishini rag‘batlantirish va raqobatdoshligini ta‘minlash yuzasidan qo‘shimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5286-sonli Farmonlarining 1-ilovalarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 noyabrda «Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3351-sonli Qarorida nazarda tutilgan tovarlarni eksport qilish bo‘yicha kontraktlar bundan mustasno qilinadi;²²

- eksport qilinayotgan tovarlarning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sertifikat ilgari xuddi shunday tovar uchun aynan sertifikat olgan arizachiga bir ish kuni mobaynida beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 martdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun qo‘shimcha qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2843-sonli Qaroriga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida ro‘yxatdan o‘tgan, farmatsevtika tovarlari va preparatlari, elektrotexnika mahsulotlari (kabel-o‘tkazgich mahsulotlaridan tashqari), shuningdek, pardoqlash qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar 2017 yilning 1 aprelidan 2022 yilning 1 yanvarigacha bo‘lgan davrda mulk solig‘i, yer solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashdan ozod etildi.

Mavzuga doir masala:

1-masala. Yakka tartibdagi tadbirkor Nukus shahrida chakana savdo va mayishiy xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan 2019 yil yanvar-aprel oylarida to‘lanishi lozim bo‘lgan qat‘iy belgilangan soliq summasini aniqlang.

2-masala. Yakka tartibdagi tadbirkor Toshkent shahrida chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanadi va u faoliyatiga 1 nafar xodim yollagan.

²²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar eksport qilinishini rag‘batlantirish va raqobatdoshligini ta‘minlash yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2017 yil 15 dekabrda PF-5286-sonli Farmoni)”gi PF-5347-sonli Farmoni asosida o‘zgartirish kiritilgan.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan 2019 yil yanvar-may oylarida to'lanishi lozim bo'lgan qat'iy belgilangan soliq hamda yagona ijtimoiy to'lov summasini aniqlang.


O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari kimlar?
2. Qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari qanday holatda boshqa to'lovlarni to'lashi mumkin?
3. Qat'iy belgilangan soliqning stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtirilgan?
4. Qat'iy belgilangan soliqning stavkalari kim tomonidan tasdiqlanadi?
5. Qat'iy belgilangan soliq miqdorini byudjetga to'lash davri qanday?
6. Qanday holatda dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan savdo qilinganda qat'iy belgilangan soliqni to'lashmaydi?
7. Soliq davrida tadbirkor kasal bo'lganda yoki oilaviy sharoiti tufayli faoliyat yuritmaganda soliqni to'lashi qanday tartibda amalga oshiriladi?
8. Tadbirkor o'z faoliyatini vaqtincha to'xtatganda qanday tartibda hujjatlarni rasmiylashtiradi?
9. Jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatining bir nechta turini amalga oshirganda qanday tartibda soliq to'laydi?
10. Jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalar va binoda amalga oshirsa mol-mulkini ijaraga beruvchilar to'g'risida soliq idoralariga qanday tartibda ma'lumotnoma taqdim etadi?
11. Tadbirkorlarga qanday soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilgan?
12. Jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalar va binoda amalga oshirsa mol-mulkini ijaraga beruvchilar to'g'risida soliq idoralariga qanday tartibda ma'lumotnoma taqdim etadi?

VI BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN MOL-MULK SOLIG‘I

6.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining joriy etilishi, maqsadi va iqtisodiy mohiyati

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 1994 yildan boshlab joriy etilgan. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq muntazam (doimiy) undiriladigan soliq hisoblanadi, ya’ni u bir yilda bir marta muntazam ravishda undiriladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mahalliy soliq bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan va unda ro‘yxatga olingan mol-mulklardan undiriladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq fiskal ahamiyatga ega bo‘lib davlat byudjetining daromadlar qismini shakllantiradi.



6.1-rasm. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i dinamikasi²³

²³O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 2003-2017 yillardagi “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qarorlari asosida tayyorlangan.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, jumladan, 2004-2006 yillarda 0.2 foizni, 2008 yilda 0.3 foizni, 2010 yilda 0.5 foizni, 2012 yilda 0.8 foizni tashkil etgan. 2017 yilda soliqning tushum ko'rsatkichi 1.5 foiz bo'lmoqda. Bundan ko'rinadiki, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning salmog'i 2018 yilda 2004 yilga nisbatan 1.3 foizli punktga ortgan. Bu holatni soliq stavkalarining oshirilishi, soliq obyektlarini ro'yxatga olish jarayonining jadallashuvi hamda soliq to'lovchilar sonining ortishi bilan izohlash mumkin.

6.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq to'lovchilari, soliq obyekti va bazasi

Soliq kodeksining 272-moddasiga muvofiq mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan erini aniqlash imkoni bo'lmasa, shuningdek ko'chmas mulk mulkdori vafot etgan taqdirda, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir.

Jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylari, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlari, joylar, inshootlar soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining kadastr qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan mol-mulkning shartli qiymati belgilanadi hamda o'rnatilgan stavkalar asosida soliqqa tortiladi. Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo'yicha

to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

6.3. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq stavkalari va soliq imtiyozlari

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi hamda soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi. Soliq stavkalari har yili keyingi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

2019 yil uchun soliqning stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan:

6.1.-jadval

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning STAVKALARI²⁴

N	Soliq solinadigan obyektlarning nomi	Soliq stavkasi, mol-mulkning kadastr qiymatiga nisbatan %da*
1	Turar joylar va kvartiralar, dala hovli qurilmalari (umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari bundan mustasno), boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	0,2
2	Shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar va kvartiralar:	
	200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	0,25
	500 kv.m dan oshiq bo'lgan	0,35
3	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lgan turar joylar va kvartiralar, dala hovli qurilmalari	0,25

*) Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning kadastr qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanadi, biroq 42 000 ming so'mdan kam bo'lmasligi kerak.

²⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida»gi PQ-4086-son qaroridan olindi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash organlari belgilagan kadastr qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent va Nukus shaharlari, shuningdek viloyat markazlarida 210 000 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda - 90 000 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'idan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlarni qo'llash maqsadida soliq solinmaydigan maydon umumiy maydonning 60 kv.m hajmida belgilanadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan soliq solinadigan obyektlardan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda yohud ularni yuridik shaxslarga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga ijaraga berilganda shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi obyektlari noturar joy fondi toifasiga o'tkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fondi obyektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Soliq kodeksining 275-moddasiga muvofiq quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulkka jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solinmaydi:

- "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishincha "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

- urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga

(qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

- o‘n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma‘lumotnomasi asos bo‘ladi;

- pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

- I va II guruh nogironlarining. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma‘lumotnomasi asosida beriladi;

- sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar hamda ichki ishlar organlari xodimlari otalarining va beva xotinlarining (beva erlarining). Imtiyoz “Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” yoki “Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yoki frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o‘tmagan taqdirda beriladi.

- energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan turar joylarda muqobil energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar — muqobil energiya manbalari o‘rnatilgan oydan e‘tiboran

uch yil muddatga. Energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan holda muqobil energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida energiya ta‘minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma‘lumotnoma mazkur imtiyozni berish uchun asos bo‘ladi.

O‘n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollar, pensionerlar, I va II guruh nogironlari uchun mol-mulk solig‘idan nazarda tutilgan imtiyozlar qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o‘lchami doirasida beriladi.

Soliq kodeksining 275-moddasida belgilangan imtiyozlar mulkdorning tanlashiga binoan faqat bir mol-mulk obyektiga taalluqli bo‘ladi. Mazkur imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish obyektlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Yuqorida keltirilgan imtiyozlarni olish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar.

6.4. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash tartibi

Jismoniy shaxslar soliq solish obyektlaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalangan yoxud bu obyektlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan taqdirda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar bo‘yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo‘yicha to‘lanadi, ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxonalar turar joydan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) uchun foydalangan taqdirda, mol-mulk solig‘i jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka bo‘yicha to‘lanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchining yashash joyidan qat’i nazar, soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning ma‘lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq kodeksning 275-moddasida ko'rsatilgan imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra kadastr qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyni boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi. Soliq solish obyekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat xokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun to'lash hisobot yilining 15 oktyabriga qadar amalga oshiriladi.

Agar soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha summalar to'langan bo'lsa, soliq va yig'img'lar bo'yicha qarzl'ar mavjud bo'lmasa, ushbu summalar uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi.

6.5. «Davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkkar hisobini yuritish» dasturiy mahsulining mohiyati va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2012-yil 11-fevraldagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish va ulardan foydalanishni tartibga solish hamda interaktiv Davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha reglamentlarni tasdiqlash to'g'risida»-gi 64-sonli buyrug'iga asosan ishlab chiqilgan.

Davlat soliq qo'mitasining 2005 yil 16 sentyabrdagi 185-sonli buyrug'i bilan amaliyotga joriy qilingan «Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish» dasturiy mahsul ma'lumotlar bazasini shakllantirib borish tartibini belgilaydi.

Dasturiy mahsulning elektron ma'lumotlar bazasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 15 iyuldagi 200-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkn'ni olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risida»gi Nizom talablari ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar asosida shakllantirilib boriladi.

Ushbu Nizomga ko'ra quyidagilar davlat daromadiga o'tkaziladi:

➤ jinoiy ishlar bo'yicha sud qarorlari asosida mol-mulkn'ning jinoyat buyumlari va qurollari, shuningdek ashyoviy dalillarga oid qismiga;

➤ ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud qarorlari asosida mol-mulkn'ning huquqbuzarlik buyumlari va qurollari, shuningdek ashyoviy dalillarga oid qismiga;

➤ jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlari asosida surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud davomida mulkiy undiruvlarni tahminlash maqsadida band qilib qo'yilgan mol-mulkn'ning davlatga etkazilgan zararni qoplashga yo'naltiriladigan qismiga;

➤ ishni to'xtatishda tergov organlarining qarorlari asosida mol-mulkning jinoyat buyumlari va qurollari, shuningdek ashyoviy dalillarga oid qismiga;

➤ bojxona organlari qarorlari asosida eksport qilish taqiqlangan buyumlar va mahsulotlarning O'zbekiston Respublikasidan olib chiqib ketilayotgan qismiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinayotgan, uning hududi orqali tashilayotgan (xalqaro tranzitdan tashqari), aktsiz markasi bilan markalanmagan saqlanayotgan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga;

➤ soliq organlari qarorlari asosida aktsiz markasi bilan markalanmagan saqlanayotgan, sotilayotgan, noqonuniy ishlab chiqarilayotgan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga;

➤ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Bojxona va sjliq sohalarida qonunchilik ijrosini nazorat qilish bo'yicha Boshqarma hamda uning joylardagi bo'linmalari qarorlari asosida aktsiz markasi bilan markalanmagan saqlanayotgan, sotilayotgan, noqonuniy ishlab chiqarilayotgan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga tatbiq etiladi.

Davlat daromadiga tovarlarni musodara qilish va olib qo'yish quyidagi organlarga vakolat berilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati;
- Davlat bojxona organlari;
- Davlat soliq xizmati organlari;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Bojxona va sjliq sohalarida qonunchilik ijrosini nazorat qilish bo'yicha Boshqarmasi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining Davlat biologiya nazorati organlari.

Ushbu dasturiy majmua uch pog'onada:

- Davlat soliq inspeksiyalari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar;
- Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmalasi;

Ushbu ma'lumotlar asosan ikki bosqichda ma'lumotlar shakllanadi:

Birinchi bosqichda hududiy soliq organlarida ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida DSI, DSB va DSQ darajasida hisobotlar tayyorlanadi.

Ikkinchi bosqichda DSBlar tomonidan tumanlar bo'yicha taqdim etilgan hisobotlarni o'tgan davr bilan taqqoslab, taqqoslash natijasida, olingan mol-mulklar qiymati, baholangan va ekspertizadan o'tkazilgan

mol-mulklar qiymati, DSI tomonidan olingan tovarlarni egasiga qaytarilishi, sudga berilishi, DSI qo‘lida qolgan tovarlar miqdori, sud tomonidan egasiga qaytarilishi, yo‘q qilinishi, davlat daromadiga o‘tkazilishi, bir oy davomida sotilmagan tovarlarning narxini tushirishi, sotilgan tovarlar va sotilgan tovarlardan tushgan mablag‘larning tegishli tartibda taqsimlanishi va sotilmasdan turgan tovarlar to‘g‘risida tahliliy ma‘lumotlar tayyorlash.

DSBlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar bilan birga ushbu hisobot o‘tgan yil (oylik, choraklik, 6 oylik, 9 oylik va yillik)ning shu davriga nisbatan solishtirilib, solishtirish natijasida joylardagi sud ijrochilariga hisobot davrida ijroga kelgan mol-mulklar qiymati, sud qarori asosida mol-mulklarning egalariga qaytarilishi, yo‘q qilinishi, tegishli idoralarga tekinga bergan mol-mulklar qiymati, sotilgan va sotuvdan tushgan mablag‘larning tegishli tartibda taqsimlanishi hamda oy oxiriga har bir organ bo‘yicha sotilmasdan turgan mol-mulklar qiymatini kamayishi yoki ortib borishini ko‘rish imkoniyati yaratiladi.

Eng kam oylik ish haqining ikki yuz baravariga teng va undan ortiq qiymatdagi mol-mulknini olib qo‘yish va uni davlat daromadiga o‘tkazishning yagona hisobini prokuratura organlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan belgilangan tartibda yuritadilar.

O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan olib qo‘yilgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat daromadiga o‘tkazilgan tovarlar va boshqa boyliklar quyidagicha taqsimlanadi:

82 foizi - tegishli mahalliy byudjetga;

10 foizi - O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarining maxsus hisob raqamiga;

8 foizi - Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg‘armasining hisob raqamiga;

Musodara qilingan tovarlar arzonlashtirilgan maxsus savdo do‘konlarida sotiladi. Savdo tashkilotlari o‘zining mol-mulknini qabul qilib olish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash uchun shartnomada belgilangan, biroq sotilgan mol-mulk qiymatining **10 foizidan** ortiq bo‘lmagan sotilgan mol-mulk savdo chegirmasini o‘z foydasiga ushlab qoladilar.

Dasturiy mahsulning ma‘lumotlar bazasiga dastlabki kiritiladigan ma‘lumotlar tarkibi va mazmuni.

«Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish» dasturiy mahsulining elektron ma‘lumotlar bazasiga mas‘ul xodim tomonidan dastlab quyidagi:

-navbatchi qism 2-shakl kitobidan tekshirish dalolatnomasi qayd qilingan sana va raqami;

-huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning familiyasi, ismi, sharifi, yashash manzili, pasportiga oid ma'lumotlar va STIR;

-mas'ul xodimlar tomonidan huquqbuzardan mol-mulkni olib qo'ygan joy hamda vaqtinchalik saqlash to'g'risidagi yuk xati raqami (bozorda, do'konda, ruxsat etilmagan joyda);

-tekshirish natijasiga asosan daliliy ashyo sifatida olingan mol-mulkka oid ma'lumotlar kiritiladi.

Qayd etilgan ma'lumotlar tekshiruvni o'tkazgan DSI (BSMFFNQ hududiy bo'limlari) mas'ul xodimlari Navbatchi qism 2-shakl kitobidan tekshirish dalolatnomasini va unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga «Davlat daromadiga o'tkaziladigan tovar-moddiy boyliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olish» varaqasini 2-ilovaga (20-M-shakl) muvofiq tegishli satrlarini to'liq to'ldirgan holda ro'yxatdan o'tkazadi va hujjatlar nusxalarini belgilangan tartibda dasturiy mahsulni yurituvchi DSI mas'ul xodimiga uning shaxsiy imzosi orqali tasdiqlab taqdim etadi.

Mavzuga doir masalalar

1-masala. Fuqaro Sh.Karimovga tegishli bo'lgan Toshkent shahar Yunusobod tumanida joylashgan 4 xonali kvartiraning kadastr qiymati 125 mln so'mni tashkil etadi. Kvartiraning umumiy maydoni 92 kvadrat metr. Fuqaro Sh.Karimov hech qanday imtiyozga ega emas.

2019 yil uchun fuqaro Sh.Karimov tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan mol-mulk solig'ini aniqlang?

2-masala. Fuqaro Sh.Pardayev Toshkent shahar Chilonzor tumanida kvartira sotib oldi. Kvartiraga bo'lgan mulk huquqi 2019 yil 15 aprelda rasmiylashtirildi. Kvartiraning kadastr qiymati 85 mln so'mni tashkil etadi. Kvartiraning umumiy maydoni 75 kvadrat metr. Fuqaro Sh.Pardayev hech qanday imtiyozga ega emas.

2019 yil uchun fuqaro Sh.Pardayev tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan mol-mulk solig'ini aniqlang?

3-masala. Fuqaro T.Komilovga tegishli bo'lgan Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 4 xonali kvartiraning kadastr qiymati 38 mln so'm. Kvartiraning umumiy maydoni 84.5 kvadrat metrni tashkil etadi. Fuqaro T.Komilov pensioner hisoblanadi.

2019 yil uchun fuqaro T.Komilov tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan mol-mulk solig'ini aniqlang?

4-masala. Fuqaro A.Ahmedovning Toshkent shahrining Chilonzor va Olmazor tumanlarida kvartiralarini bo'lib, Chilonzor tumanidagi

kvartiraning kadastr qiymati 63 mln so‘mni, umumiy maydoni esa 63 kvadrat metrni, Olmazor tumanidagi kvartiraning kadastr qiymati 75 mln so‘mni, umumiy maydoni esa 72 kvadrat metrni tashkil etadi. Fuqaro A.Ahmedov I guruh nogironi bo‘lib, imtiyozni olish huquqini tasdiqlovchi hujjat davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan.

2019 yil uchun fuqaro A.Ahmedov tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘ini aniqlang?


O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning to‘lovchilari kimlar?
2. Jismoniy shaxslarning qanday mol-mulklari soliq solish obyekti hisoblanadi?
3. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkalari kimning qarori bilan belgilanadi?
4. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkasi 2019 yilda necha foiz qilib belgilangan?
5. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo‘yicha kadastr qiymati bo‘lmasa soliq undirish qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?
7. To‘lov xabarnomasi qaysi muddatgacha uchastka soliq inspektorlari tomonidan soliq to‘lovchilarga etkaziladi?
8. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan kimlar imtiyozga ega?
9. Pensionerlar uchun qo‘llaniladigan soliqqa tortilmaydigan maydon necha kvadrat metrni tashkil etadi va uning mazmunini izohlab bering?
10. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qanday muddatdan kechiktirilmay to‘lanishi lozim?
11. Soliq solish obyekti yo‘q qilingan, vayron bo‘lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish qanday muddatdan e‘tiboran to‘xtatiladi?
12. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasini kechiktirib to‘lagan jismoniy shaxslarga nisbatan qanday chora qo‘llaniladi?

VII BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN YER SOLIG'I

7.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining to'lovchilari, soliq obykti va bazasi

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i 1993 yil 6 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yer solig'i to'g'risida"gi Qonuni bilan 1994 yildan boshlab joriy etilgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i mahalliy soliqlar tarkibiga kirib, mahalliy byudjetga yo'naltiriladi. U iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ri soliq hisoblanib, bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarga xos soliq turi hisoblanadi. Hozirgi kunda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i past bo'lishiga qaramasdan ushbu soliq soliq tizimida o'z o'rniga egadir. Yer solig'i davlatga daromad taminlash funksiyasi bilan birga daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni yo'qotishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'ini quyida keltirilayotgan diagramma ma'lumotlarida ham ko'rish mumkin:



7.1-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi²⁵

²⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 2003-2017 yillardagi "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byyyudjeti parametrlari to'g'risida»gi qarorlari asosida tayyorlangan.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i o'sish tendensiyasiga egadir. Uning ulushi 2004-2006 yillarda 0.6 foizni, 2008 yilda 0.7 foizni, 2010 yilda 0.6 foizni, 2012 yilda esa 0.8 foizni tashkil etgan. 2018 yilda soliqning tushum ko'rsatkichi 1.2 foiz bo'lmoqda. Bundan ko'rinadiki, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining salmog'i 2018 yilda 2004 yilga nisbatan 0.6 foizli punktga oshgan. Bu holatni soliq stavkalarining oshirilishi hamda soliq to'lovchilar sonining ortishi bilan izohlash mumkin.

Soliq kodeksining 287-moddasiga muvofiq mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ini to'lovchilar bo'lib hisoblanishadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish huquqi va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi:

- dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;
- xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar;

- meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo'lmaydi (tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari bundan mustasno).

Soliq kodeksining 289-moddasiga muvofiq ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlarning maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza o'z xodimlariga yer uchastkalari bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

7.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari va soliqdanda imtiyozlar

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi hamda uning quyi organlari tomonidan belgilan Yer solig'i stavkalari 2019 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli Qarorining 16-illovasiga muvofiq tasdiqlanib, 2018 yilda amal qilgan yer solig'i stavkalari o'rtacha 1,20 baravarga indeksatsiya qilindi.

Qarorning 16-illovasi 7 va 8-jadvallarida keltirilgan stavkalariga yer uchastkalari joylashgan joyidan kelib chiqib, quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi: Toshkent shahri atrofida 20 km radiusda – 1,30;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlari atrofida 15 km radiusda – 1,20; tuman markazlari atrofida 10 km radiusda – 1,15 va boshqa shaharlar atrofida 5 km radiusda – 1,10. Yer solig‘ini hisoblashda soliq stavkalari Toshkent shahrida 5 ta zona bo‘yicha qo‘llaniadi.

7.1-jadval

Toshkent shahrida 2019 yil uchun jismoniy shaxslarga yer solig‘i stavkalari²⁶

Zona	Jismoniy shaxslarga yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun taqdim etilgan yer uchastkalari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkalari, 1 kv.m.ga so‘mda
1.	902,5
2.	766,1
3.	629,6
4.	493,2
5.	356,8

Soliq stavkalarini indeksatsiya qilinishi natijasida byudjet tushumlari salmog‘ida resurs soliqlari ulushining o‘sishi ta‘minlanib, byudjetga qo‘shimcha mablag‘ tushishiga erishish mumkin.

Yer uchastkalarigacha bo‘lgan masofa avtomobil yo‘llari bo‘yicha shaharlar va tuman markazlarining ma‘muriy chegaralaridan boshlab belgilanadi. Agar yer uchastkasi ikki shahar yaqinida joylashgan bo‘lsa, shaharning yuqoriroq funksional vazifasiga muvofiq keladigan koeffitsiyent qo‘llaniladi. Dehqon xo‘jaliklaridan undiriladigan yer solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida PQ-4086-sonli Qarorining 16-ilovasi 8-jadvalida keltirilgan stavkalarga, yer sifatiga bog‘liq holda, quyidagi koeffitsiyentlar qo‘llaniladi: tuproq boniteti 40 ballgacha bo‘lsa - 0,75, 41 dan 70 ballgacha bo‘lsa - 1,0 va 70 balldan ortiq bo‘lsa - 1,25.

O‘rmon xo‘jaliklarida mollarni o‘tlatish uchun foydalanilmaydigan yaylov yerlar uchun yer solig‘i boshqa yerlar uchun stavkalar bo‘yicha to‘lanadi. Shahar va qo‘rg‘onlarning ma‘muriy chegaralarida joylashgan kon va karerlar band etgan yerlar uchun soliq PQ-4086-sonli Qarorining 16-ilovasining 5 va 6-jadvallarida tegishli zonalar uchun keltirilgan stavkalarga 0,1 koeffitsiyentini qo‘llagan holda to‘lanadi.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli Qarorining 16-ilovasi.

Jamoaviy va shaxsiy garajlar band etgan yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan soliq yakka tartibdagi uy-joy quriladigan yerlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan yer uchastkalari maydoni yer berish to'g'risida davlat hokimiyati organlarining qarori, yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqi uchun davlat dalolatnomasi, yerni ijaraga olish shartnomasi, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma va yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarga ko'ra belgilanadi.

Yer uchastkasiga nisbatan mulk, egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo'lmasa, soliq butun maydon uchun yuqorida ko'rsatilgan oshirish koeffitsiyentlarini qo'llagan holda to'lanadi.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar, joylar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda jismoniy shaxslardan yer solig'i yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi hamda ularga Soliq kodeksining 290-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etilmaydi, quyidagilar bundan mustasno:

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxonada yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, yer solig'i jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi. Yakka tartibda uy-joy qurish va uylarni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda yer solig'i qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uch baravar miqdorda to'lanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblashda belgilangan normativ doirasidagi yer uchastkalari uchun 5 va 6-jadvallarda keltirilgan bazaviy stavkalari bo'yicha, belgilangan normativlardan yuqori yer uchastkalariga esa bazaviy stavkalariga 1,5 ko'paytiruvchi koeffitsiyent qo'llaniladi.

Bunda, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash maqsadida yer uchastkalarining qo'yidagi normativlari qo'llaniladi:

-Toshkent shahri, Nukus shahri va viloyatlar bo'ysunuvidagi shaharlar bo'yicha – 0,06 gektar;

-boshqa aholi punktlari bo'yicha (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) – 0,1 gektar²⁷.

Yer solig'i bo'yicha imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan jimoniy shaxslar yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ushbu imtiyozlarga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 oktyabrdagi PQ-3318-son Qarori bilan tasdiqlangan Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning ekin maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturining 3-bandiga muvofiq, yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo'jaligi ekinlari ekilmagan yoki uni obodonlashtirilmagan hollarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uch barobar miqdorda yer solig'i to'lanishi munosabati bilan Soliq kodeksining 291-moddasiga qo'shimcha kiritildi.²⁸

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagi jismoniy shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar:

- “O'zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz “O'zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

- urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi PQ-4086-sonli Qarori.

²⁸ O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrdagi “Soliq va Byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-454-sonli Qonuni.

nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

- I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma‘lumotnomasi asosida beriladi;

- yolg‘iz pensionerlar. Yolg‘iz yoki voyaga etmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda birga yashovchi pensionerlar yolg‘iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining ma‘lumotnomasi, shuningdek fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining ma‘lumotnomasi asosida beriladi;

- boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o‘n olti yoshga to‘lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo‘lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining ma‘lumotnomasi asosida beriladi;

- Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma‘lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo‘ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi.

Jismoniy shaxslarga yer solig‘i bo‘yicha majburiyatlar yer uchastkalari ajratilgan vaqtdan boshlab (yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan boshlab) yuzaga kelishini nazarda tutuvchi tartibni belgilash maqsadida Soliq kodeksining 290-moddasiga jismoniy shaxslarga yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun taqdim etilgan yer uchastkalari bo‘yicha yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan e‘tiboran 2 yil muddatga beriladigan imtiyozni bekor qilish bilan bog‘liq tegishli o‘zgartirishlar kiritildi.²⁹

²⁹ O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrda “Soliq va Byudjet siyosatining 2018 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan

Yuqorida keltirib o'tilgan imtiyozlar, bundan boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar mustasno, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xo'jaligi yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organda ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslarga beriladi. Bunda mazkur imtiyozlar soliq to'lovchining tanlashi bo'yicha faqat bitta yer uchastkasiga berilishi mumkin.

Soliq kodeksining 282-moddasi ikkinchi qismining soliq solinmaydigan yer uchastkalariga taalluqli qismida nazarda tutilgan imtiyozlar yer solig'i to'lovchilar bo'lgan jismoniy shaxslarga ham tatbiq etiladi.

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

1) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;

2) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari, bundan xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar mustasno. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari jumlasiga davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalari bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning yer uchastkalari kiradi;

3) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) — tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

4) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) — aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) — tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'QRQ-454-sonli Qonuni.

qo'riqxonalar, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar;

6) suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda berilgan suv havzalari hamda boshqa suv obyektlari sohillari bo'ylab ajratilgan mintaqa yerlari kiradi;

7) elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

8) umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

9) madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash obyektlari egallagan yerlar;

10) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;

11) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'llar stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalarini, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

12) shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

13) sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

14) aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

15) magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong‘inga qarshi va avariya qarshi stansiyalar, truboprovodlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, truboprovodlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o‘xshash inshootlar egallagan yerlar;

16) magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko‘paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta‘minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o‘xshash inshootlar egallagan yerlar;

17) samolyotlarning uchish-qa‘nish maydonlari, yerda boshqarish yo‘lkalari va to‘xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari egallagan yerlar;

18) O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida;

19) konservatsiyaga qo‘yilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar, ularning konservatsiyasi davrida;

20) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

21) yuridik shaxs balansida bo‘lgan va xo‘jalik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

22) ixota o‘rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o‘rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o‘rmonlarning daryolar, ko‘llar, suv omborlari va boshqa suv obyektlari sohillari bo‘ylab o‘tgan taqiqlangan mintaqalari; o‘rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sohadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o‘rmonlar; o‘rmonlarning temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari yoqalab o‘tgan ihota mintaqalari; cho‘l va chala cho‘l zonalaridagi o‘rmonlar; shahar o‘rmonlari va o‘rmon-bog‘lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko‘kalamzorlashtirilgan zonalaridagi o‘rmonlar; suv ta‘minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o‘rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o‘rmonlar; alohida qimmatga ega bo‘lgan o‘rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘rmonlar;

23) qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar, ularni o‘zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o‘zlashtirilgan vaqtdan e‘tiboran besh yil mobaynida;

24) melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug‘oriladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e‘tiboran besh yil muddatga;

25) yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat‘i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o‘tkazilgan yangi ko‘chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e‘tiboran boshlanadi, bahorda o‘tkazilgan ko‘chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e‘tiboran boshlanadi;

26) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga molik va o‘rmon fondidagi yerlari, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o‘quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o‘quv-tajriba xo‘jaliklarining bevosita ilmiy hamda o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o‘tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to‘lashdan ozod qilinadi.

7.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi

Yer solig‘ini hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organlari yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lgan jismoniy shaxslarning hisobini muntazam yuritadi. Yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni olish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ushbu imtiyozlarga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadi. Yer solig‘i summasi jismoniy shaxslardan olinadigan va uni to‘lash muddatlari ko‘rsatilgan to‘lov xabarnomasi jismoniy shaxslarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelganida (bekor qilinganda) davlat soliq xizmati organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig'ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to'lovchiga yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.

Jismoniy shaxslarga shahar va qo'rg'onlarda yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan yer uchastkalarining maydonlari yakka tartibdagi uy-joylarni hisobga olish va nazorat qilish shahar yoki tuman boshqarmasi yoxud ishlab chiqarish uy-joy inspeksiyasining mavjud materiallari bo'yicha hisobga olinib, har yili naturada aniqlashtiriladi.

Jismoniy shaxslarga qishloq joylarda shaxsiy yordamchi xo'jalik (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun berilgan yer uchastkalari tomorqa yerlardan va jamoat yerlarida qo'shimcha ajratilgan yer uchastkalaridan iborat bo'lishi mumkin. Bunday holda tomorqa yerlar maydoni yer kadastr ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinib, yuz bergan o'zgarishlar har yili naturada aniqlashtiriladi. Jamoat yerlarida qo'shimcha ajratilgan yer uchastkalari maydoni xo'jaliklarning ma'lumotlari bo'yicha hisobga olinib, har yili aniqlashtiriladi.

Agar jismoniy shaxs yakka tartibda uy-joy qurilishi yoki shaxsiy yordamchi xo'jalik (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun berilgan yer uchastkasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansa yoki yerdan maqsadli foydalanishni o'zgartirmasdan o'z uyini ofis sifatida rasmiylashtirsa, bunda undan yer solig'i yakka tartibda uy-joy qurilishi yoki dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan yerlar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Ko'p xonadonli turar joylarda yashaydigan jismoniy shaxslardan yer solig'i undirilmaydi. Xonadondan yoki ko'p xonadonli turar joylarning bir qismidan odamlarning yashashi bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanilganda, belgilangan tartibda xonadonning umumiy maydonidan kelib chiqib, yer solig'ining tegishli hissasi undiriladi.

Egalik qilish huquqi meros bo'yicha turar joy, noturar imorat va inshootlar, bog' uychasi o'tishi bilan birga o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i merosxo'rlardan, meros qoldiruvchining soliq majburiyatlarini hisobga olgan holda undiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini byudjetga to'lash muddatlari

Yer solig'i yer uchastkasining mulkdori, yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy byudjetiga to'lanadi.

Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, yer solig'ini to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyoz huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqlar bekor qilingan taqdirda, bu soliq mazkur huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanish boshlaydi.

Belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i yer uchastkasidan foydalanish faktidan qat'i nazar, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Soliq davri uchun yer solig'i to'lash jismoniy shaxslar tomonidan hisobot yilining 15 oktyabriga qadar amalga oshiriladi.

Yer solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egadirlar. Davlat soliq xizmati organlari soliqning to'g'ri hisoblab chiqarilishi va o'z vaqtida to'lanishi ustidan belgilangan qonun hujjatlariga muvofiq nazoratni amalga oshiradilar.

7.4. «Yer fondi va yer solig'i to'lovchilari hisobini yuritish» dasturiy mahsulining mohiyati va ahamiyati

«Yer fondi va yer solig'i to'lovchilari hisobini yuritish» dasturiy mahsulini Yer resurslari va davlat kadastrı moduliga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

- har bir xo'jalik, korxonalar, tashkilotlar bo'yicha yer maydonlari yer turlariga qarab alohida-alohida kiritilib, umumiy maydon aks ettiriladi;

- har bir xo‘jalik bo‘yicha alohida, yer turlari bo‘yicha 1,0 ga yer maydoni uchun me‘yoriy qiymati bahosini verguldan keyin bir xonali raqam bilan kiritiladi.

«Yer fondi va yer solig‘i to‘lovchilari hisobini yuritish» dasturiy mahsulini DSI moduliga quyidagi ma‘lumotlar kiritiladi:

- yagona yer solig‘i bo‘yicha soliq hisoboti shakllarining 1-shakli **“O‘zi ishlab chiqargan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash to‘g‘risidagi ma‘lumot”**;

- yagona yer solig‘idan imtiyozga ega bo‘lgan qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining imtiyoz muddatlari.

Ma‘lumotlarni kiritish tartibi va muddati

«Yer fondi va yer solig‘i to‘lovchilari hisobini yuritish» dasturiy mahsulini Yer resurslari va davlat kadastri moduliga quyidagi ma‘lumotlar kiritiladi:

Dasturiy mahsul tegishli parol bilan ishga tushirilgandan keyin oynada asosiy ma‘lumotlar bazasi namoyon bo‘ladi, bunda har bir xo‘jalik, korxonalar, tashkilotlar bo‘yicha yer maydonlari yer turlariga qarab alohida keltirilib, umumiy maydon aks ettiriladi, bu ma‘lumotlar operator tomonidan kiritiladi.

Korxonalar INN, OKONX va SOOGU, manzili, telefon raqami tuman Davlat soliq inspeksiyalari ma‘lumotlar bazasidan elektron pochta orqali olinadi.

Istalangan korxonani INN bo‘yicha izlanadi, «Rejim» tugmasi orqali korxonalarning bosh xarflari bo‘yicha saralab ajratib qo‘yiladi.

Dasturiy mahsuldan ko‘zlangan asosiy maqsad, «Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni axborot-hisobga olish» (ORACLE) dasturiy majmuasidan shaxsiy hisob varaqalar bilan ishlash bo‘linmasi ajratilib alohida **fiz_ks.exe** moduliga aylantiriladi va ushbu dastur modulini faqatgina shaxsiy hisob varaqalar bilan ishlovchi, ya‘ni 09-16-shakllar hujjatlarini kirituvchi xodimga maxsus kodli parol orqali ma‘lumotlarni kiritishga ruxsat beriladi.

Jismoniy shaxslarning shaxsiy varaqalarini yuritish dasturiy mahsulotiga kirilganda yuqorida

- ShHV
- Hisob-kitoblar
- Hisobotlar
- Servis
- Oyna menyulari mavjud.

Servis tugmachasi orqali yilni belgilash mumkin (bunda shu tanlangan yil bilan faqat dasturni ishlatayotgan insektorgina ishlaydi qolganlari joriy yil bilan).

Oyna tugmachasi orqali siz barcha ochilgan oynalardan biriga tezlik bilan o'tish imkoniyatiga ega bo'lasiz, bu esa sizning vaqtingizni ancha tejaydi.

Dasturning eng katta imkoniyatlaridan biri bu barcha soliq to'lovchilarni maxallarga bo'linganligidir. Bu esa ma'lumotlar bilan ishlashda katta tezlikni beradi va albatta soliq to'lovchilarni izlashda katta imkoniyat yaratadi.

Shaxsiy varaqa tugmachasi orqali yana ikkita kichik menyularga duch kelish (ShXV va tez toish tugmachalari) mumkin.

Shu bilan birga ShXV menyusi soliq turlariga bo'linib ketadi, ular esa o'z yunalishi bo'yicha Mahallalarga bo'linadi.

Har bir maxala o'zida shu maxallaga kirgan fuqarolarni jamlaydi.

Tez toish tugmasi orqali fuqarolarni izlash oynasiga kiriladi.

Izlayotgan fuqaroning STIRi aniq bo'lsa, STIR qatoriga raqam yoziladi va izlash tugmasi bosiladi. Agar kiritilgan STIR ga shaxsiy varaqa ochilmagan bo'lsa, 6-rasmda kursatilgandek ogohlantirish chiqadi.

Izlanayotgan fuqaroning STIRi aniq bo'lmasa, FILTR tugmasi orqali kengaytirilgan izlash oynasiga kiriladi va bu erda har taraflama izlash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

СТИР	Фамилияси	Исми	Отасининг исми	Тугилган куни	Почта индекси	Махалла коди
------	-----------	------	----------------	---------------	---------------	--------------

F3 tugmasi orqali to'liq yagona reyestrni ochish imkoniyati mavjud.

FilterForm

Фильтрлаш усулини танланг:

СТИР:
 Паспорт серияси:

Исм:
 Паспорт номери:

Фамилияси:
 Маҳалла коди:

Отасининг исми:
 Уй, корпус:

Жинси:
 Тугилган санаси:

Манзили:

СТИР	Фамилияси	Исми	Отасининг исми	Тугилган кун	Почта индекси	Маҳалла коди
400136325	ОРИПОВ	АЗИМЖОН	СОИБОВИЧ	01.05.1978	710032	0053
400136357	ЮСУПОВ	ПОЗИЛЖОН	МАДАМИНОВИЧ	28.09.1964	710000	0053
400136372	ИМИНОВ	АБДУСАЛИМ	XXX	04.02.1957	710000	0017
400136436	УМАРОВ	ОЙБЕК	ЭРГАШЕВИЧ	26.04.1972	710000	0012
400136444	ТОЖИБОЕВ	КОМИЛЖОН	СОЛИЕВИЧ	20.07.1942	710000	0035
400136451	ИСОМИДИНОВ	КОЗИМЖОН	ЖАЛОЛДИН УГЛИ	08.11.1978	710002	0015
400136475	Артикова	МАХМУДА	МАМАДАЛИЕВНА	31.08.1966	710000	0031
400136515	АТАХОНОВА	ҲАЛИЛАХОН	МАХСУДАЛИЕВНА	10.11.1954	710002	0043
400136554	САРМАНОВ	СОЙИБЖОН	ЖАЛДАРБАЕВИЧ	13.05.1976	710000	0022
400136594	МАДУМАРОВ	ДИЛМУРОД	САБИРЖАНОВИЧ	24.08.1974	710000	0016
400136619	БУТАБОВЕВ	МАХМУД	ПУЛАТОВИЧ	23.08.1967	710002	0028
400136634	ЮСУПОВА	ГУЛБАХОР	ЮЛДАШЕВНА	24.11.1971	710002	0021

Siskon tugmachasi yoki F2 (Qabul qilish) tugmasi orqali tanlangan fuqaroni faollashtirish va uni rasmda ko'rsatilgan oynaga aks ettirish mumkin. Oynada fuqaro nechta soliq majburiyatiga ega bo'lsa (shaxsiy varaqa ochilgan bo'lsa), barchasi ko'rinadi. Kerakli soliq turi tanlanib, shu fuqaroning shaxsiy varaqasiga kirish mumkin.

Шахсий ҳисоб равақа

ШХВ Расчетлар Отчеты Сервис Windows

Вс 25.06.2006 ШХВ Ойлик ҳисобот Бир марталик операция Пеня Печать Сальдо Кейинги йилга сальдо Учирш Начис. УдлНач Саклаш Чқиш Выход

Тез топши

Салик туловчилар руйхати:

Карточка лицевого счета

Шахсий ҳисоб равақаси: 400136325

Маҳалла: 0053:1-КИЧИК ДАҲА

Салик тури: 47:Налог на доходы с физических лиц (ИТД)

ШХВ ағаси: ОРИПОВ АЗИМЖОН СОИБОВИЧ

Манзил: Г. АНДИЖАН 1-КИЧИК ДАҲА 1-КИЧИК ДАҲА ДВ


Ҳисоб рақами: Банковский Счет для ИТД

Булим: Параграф


Опер. ёзув санаси	Операция мазмуни	Тулов муддати	Ҳисобланган	Қайтарилган	Тулланган	Қайтар...	Боқиманда	Ортиқча тулов	Устама
	Сальдо на	01.01.2006					310,800.00		41,414.24
21.06.2006	Начисление Не определен	01.01.2006	33,840.00				344,640.00	0.00	0.00
21.06.2006	Начисление Не определен	01.02.2006	33,840.00				378,480.00	0.00	747.87
21.06.2006	Начисление Не определен	01.03.2006	33,840.00				412,320.00	0.00	741.82
21.06.2006	Начисление Не определен	01.04.2006	33,840.00				446,160.00	0.00	894.73
21.06.2006	Начисление Не определен	01.05.2006	33,840.00				480,000.00	0.00	936.94
21.06.2006	Начисление Не определен	01.06.2006	33,840.00				513,840.00	0.00	1,041.60
25.06.2006	Сальдо на 25.06.2006	25.06.2006	203,040.00	0.00	0.00	0.00	513,840.00	0.00	46,640.45
21.06.2006	Начисление Не определен	01.07.2006	33,840.00				547,680.00	0.00	215.81
21.06.2006	Начисление Не определен	01.08.2006	33,840.00				581,520.00	0.00	1,188.47
21.06.2006	Начисление Не определен	01.09.2006	33,840.00				615,360.00	0.00	1,261.90
21.06.2006	Начисление Не определен	01.10.2006	33,840.00				649,200.00	0.00	1,292.26
21.06.2006	Начисление Не определен	01.11.2006	33,840.00				683,040.00	0.00	1,408.76
21.06.2006	Начисление Не определен	01.12.2006	33,840.00				716,880.00	0.00	1,434.38

САНА: 25.06.2006 ДСБ: ДСИ: г.АНДИЖАН Йил: 2006 Фойдаланувчи:


Oynaning yuqori qismida Penya tugmasi tanlangan sanaga penya hisoblab, shu kunga saldo qatorini hosil qilish uchun ishlaydi.



Pechat tugmachasi oynadagi shaxsiy varaqani nusxasini fayl yoki printerga chiqarishga imkoniyat yaratadi.



Saldo tugmasi yil boshiga boqimanda va penya yoki ortiqcha to'lov summasini kiritish yoki bor ma'lumotni tug'rilash uchun imkoniyat yaratadi.



Keyingi yilga saldo tugmasi yil oxiriga yaratilgan saldo summasini keyingi yilga o'tkazishga yoki yangilashga imkoniyat yaratadi.

Chiqish tugmasi shaxsiy varaqa oynasini berkitishga olib keladi.

Yuqori menyuning Raschyotlar tugmasi orqali tanlangan soliq turi tanlangan mahalla va tanlangan fuqaroga hisoblangan soliq summasini oyma-oy kurish mumkin.

ШХВ Расчетлар Отчеты Сервис Windows

Вс 30.07.2006 ШХВ Ойлик хисобот - Бир марталик операция Пеня Печать Сальдо Кейинги йилга сальдо Учирлиш Начис. УдлНач Саклаш Чиқиш Выход

Йил	Ой	Операция мазмуни	Тулов муддати	Солиқ тури	ШХВ	*	Сумма
2006	1	Начисление аризав	01.01.2006	38	Y	N	9,400.00
2006	2	Начисление аризав	01.02.2006	38	Y	N	9,400.00
2006	3	Начисление аризав	01.03.2006	38	Y	N	9,400.00
2006	4	Начисление аризав	01.04.2006	38	Y	N	9,400.00
2006	5	Начисление аризав	01.05.2006	38	Y	N	9,400.00
2006	6	Начисление аризав	01.06.2006	38	Y	N	9,400.00
2006	7	Начисление аризав	01.07.2006	38	Y	N	9,400.00
2006	8	Начисление аризав	01.08.2006	38	Y	N	9,400.00
2006	9	Начисление аризав	01.09.2006	38	Y	N	9,400.00
2006	10	Начисление аризав	01.10.2006	38	Y	N	9,400.00
2006	11	Начисление аризав	01.11.2006	38	Y	N	9,400.00
2006	12	Начисление аризав	01.12.2006	38	Y	N	9,400.00


САНА: 25.06.2006 ДСВ: ДСИ: г.АНДИЖАН Йил: 2006 Фойдаланувчи: ХЖОН АЮБОВИЧ

Bir martaalik operatsiyalar orqali tanlangan soliq turi, tanlangan mahalla va tanlangan ko'chadan tanlangan fuqaroga bir martali operatsiya bajarish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Сана	Йил	СТИР	Код нал.	Харакат маъмури	Тулов маъдети	Режим	Сумма(сум)	Ассос	ORD	DEL
23.06.2006	2006	447480554	38	ваъна	19.06.2006	Начисление налога	1000	2334	Y	

Bu oynada shaxsiy varaqaga qo‘shimcha soliq yoki penya hisoblash, soliq yoki penyani kechish amallarini bajarish mumkin. Hisoblangan yoki kechilgan summani nachislenie yoki udal.nachislenie tugmasi bosish bilan shaxsiy varaqaga kirish mumkin. F2 tugmasi orqali yangi satr ochiladi.

Shaxsiy varaqalar dasturiy mahsulda kengaytirilgan hisobotlar chiqarish imkoniyati yaratilgan.



- Mahallalar bo‘yicha hisobotida qo‘shimcha soliq turlari hamda kuchalar va fuqarolar qirqimida hisobot chiqarish imkoniyati mavjud.
- inspektorlar qirqimida kengaytirilgan hisobot
- yer va mulk imtiyozlari hisobotlari
- YaTMF bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar haqida ma’lumotlar.

Mavzuga doir masalalar

1-masala. Fuqaro Sh.Hamidova 2019 yil 20 yanvarda Toshkent viloyati Qibray tumanida 60 kvadrat metrni tashkil etgan yer uchastkasi mavjud uy-joy sotib oldi. Fuqaro Sh.Hamidova yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega emas.

Fuqaro Sh.Hamidova sotib olgan uy-joy uchun yer solig'i summasini hisoblang?

2-masala. Fuqaro A.Farmonov Toshkent viloyatining Zangiota tumanida yashaydi. Uning yer uchastkasi 60 kvadrat metrni tashkil etadi. Fuqaro A.Farmonov pensioner hisoblanadi.

Fuqaro A.Farmonov yer uchastkasi uchun qancha miqdorda yer solig'ini to'lashi lozim?

3-masala. Fuqaro A.Karimov uy-joy sotib oldi. Oldi-sotdi shartnomasi notarius tomonidan 2019 yil 5 aprelda rasmiylashtirildi. Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi esa 2019 yil 20 aprelda ro'yxatdan o'tkazildi. Yer uchastkasi Toshkent shahrining 3-zonasida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 60 kvadrat metrni tashkil etadi.

Fuqaro A.Karimovning 2019 yil uchun yer solig'i summasini aniqlang.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining to'lovchilari kimlar?

2. Jismoniy shaxslarning qanday yerlari uchuastkalari soliq solish obyekti hisoblanadi?

3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari qanday belgilanadi?

4. Jismoniy shaxslar berilgan yer uchastkalaridan foydalanmagan holatda qanday tartibda ulardan soliq undiriladi?

5. Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan qanday tartibda soliq undiriladi?

6. Qanday jismoniy shaxslar yer solig'ini to'lashdan ozod etiladi?

7. Jismoniy shaxslarning yer solig'i qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?

8. Yer solig'i bo'yicha to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga qaysi muddatgacha etkaziladi?

VIII BOB. AYRIM TOIFADAGI JISMONIY SHAXSLARGA SOLIQ SOLISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

8.1. Jismoniy shaxslar tomonidan davlat bojini to‘lash tartibi

Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to‘lovdir.

O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun davlat boji konsullik yig‘imi tariqasida undiriladi.

Davlat bojining stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilishi va (yoki) hujjatlar berilishi xususida vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojini to‘lovchilardir.

Undirish obyektlari

Davlat boji quyidagilardan undiriladi:

1) sudlarga beriladigan da’vo arizalaridan, organlarning va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlardan, alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, sudlarning qarorlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va arizalaridan, nazorat tartibida protest keltirish to‘g‘risidagi shikoyatlar va arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to‘g‘risidagi arizalardan, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi arizalardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun;

2) da’vo arizalaridan, tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizalardan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablarni bildirgan uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish to‘g‘risidagi

arizalardan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining qarorlari, ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimi ustidan berilgan, da'voni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud jarimalarini solish to'g'risidagi apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlaridan, hakamlik sudining qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining hakamlik sudi qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, shuningdek hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi va ijro varaqasini berishni rad etish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ajrimlari ustidan berilgan apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlaridan;

3) notariuslar va O'zbekiston Respublikasining konsullari tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun;

4) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to'g'risida takroriy guvohnoma berganlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalari yozuviga o'zgartishlar, qo'shimchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma berganlik uchun;

5) chet eldan O'zbekiston Respublikasiga kelish huquqini beruvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish to'g'risida hujjatlarni berganlik uchun; yashash guvohnomasini berganlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun; respublika hududiga kelish va respublika hududidan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatga viza berganlik uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida beriladigan arizalardan;

6) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjatlar berganlik uchun;

7) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik, turgan joyi bo'yicha hisobga olganlik uchun, shuningdek chet davlatlar fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik uchun.

8) yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun;

9) faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun;

10) ov qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida ruxsatnoma berganlik uchun.

Umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan ozod qilish

Umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) da'vogarlar — ish haqini undirib olish to'g'risidagi da'volar va mehnat huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan;

2) da'vogarlar — mualliflik huquqlari va turdosh huquqlardan, shuningdek ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomiga, seleksiya yutug'iga bo'lgan huquqdan kelib chiqadigan da'volar yuzasidan;

3) da'vogarlar — alimentlar undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

4) da'vogarlar — mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek boquvchisi vafot etganligi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

5) da'vogarlar — noqonuniy hukm etish, jinoiy javobgarlikka tortish, ma'muriy jazo berish tufayli jismoniy shaxsga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bilan bog'liq nizolar yuzasidan;

6) da'vogarlar — jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

7) jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararining undirib olinishi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi nizolashilayotgan jinoyat ishlari bo'yicha apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

8) nikohni bekor qilish to'g'risidagi mol-mulkni bo'lish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar bo'yicha apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

9) yuridik va jismoniy shaxslar — jinoyat ishlari va alimentlarni undirishga doir fuqarolik ishlari bilan bog'liq hujjatlarni ularga berganlik uchun;

10) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilinishini so‘rab sudga ariza bilan murojaat etgan yuridik va jismoniy shaxslar;

11) yuridik va jismoniy shaxslar:

- sudning ishni tugatish yoki uni ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi ajrimini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha;

- sudning hal qiluv qarori ijrosini kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha;

- da‘voni ta‘minlash yoki da‘voni ta‘minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha;

- sudning yangi ochilgan holatlar bo‘yicha hal qiluv qarorini, ajrimini yoki qarorini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha;

- sud tomonidan belgilangan jarimani bekor qilish yoki kamaytirish to‘g‘risidagi, sudning hal qiluv qarori ijrosini o‘zgartirish to‘g‘risidagi, o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha;

12) yuridik va jismoniy shaxslar — sud ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlar yuzasidan, sudning jarimani bekor qilish yoki kamaytirishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyatlar hamda sud ajrimi ustidan boshqa xususiy shikoyatlar yuzasidan;

13) tadbirkorlik subyektlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlari hamda boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda;

14) iste‘molchilar — o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog‘liq da‘volar yuzasidan; tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavfsiz bo‘lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari; iste‘molchilarning jamoat birlashmalari — iste‘molchilarning (iste‘molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini ko‘zlab qo‘zg‘atilgan da‘volar yuzasidan;

15) da‘vog‘arlar — o‘rmon daraxtlarini o‘zboshimchalik bilan kesish hamda o‘rmondan foydalanish, o‘rmonni qo‘riqlash va muhofaza qilishning tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzish tufayli o‘rmon fondiga yetkazilgan zararni undirish to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan;

16) davlat organlari — o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan, shuningdek jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan, tarixiy, badiiy qimmatga yoki jamiyat uchun boshqa qimmatga ega bo‘lgan mol-mulkni jismoniy shaxslar bu mol-mulkka xo‘jasizlarcha munosabatda bo‘lgan hollarda jismoniy shaxslardan davlat mulkiga olib qo‘yish to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan;

17) O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari — palata a‘zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da‘volar bo‘yicha, shuningdek davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata a‘zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan shikoyatlar yuzasidan;

18) nodavlat notijorat tashkilotlari — o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda;

19) nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek, ularning muassasalari, o‘quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari — barcha da‘volar yuzasidan;

20) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari — majburiy badallarni kiritish va kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha qarzni undirish to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan;

21) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari, shuningdek fuqarolar — tuzilgan shartnomalar shartlari aholiga uy-joy-kommunal xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan;

22) tumanlar, shaharlar (shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar) hokimliklari — kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchilar yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kommunal xizmatlar haqini to‘lash va majburiy badallarni kiritish bo‘yicha qarzni undirish to‘g‘risidagi taqdimnomasiga muvofiq kiritiladigan da‘volar yuzasidan;

23) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hududiy tuzilmalari — pensionerlardan (nafaqa oluvchilardan) ortiqcha (noqonuniy) to‘langan

pensiyalarning va nafaqalarning summalarini undirish bilan bog‘liq da‘volar yuzasidan;

24) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi hamda uning joylardagi organlari — ko‘chish joyiga bormagan yoki ko‘chib borgan joylarini o‘zboshimchalik bilan tark etgan ko‘chirib keltiriluvchilarga nisbatan ko‘chish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning o‘rnini qoplash to‘g‘risida taqdim etilgan da‘volar yuzasidan;

25) O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va uning joylardagi organlari — atrof-muhitni ifloslantirganlik, tabiatdan o‘zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularning muhofaza qilishning tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy obyektlarga va komplekslarga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan;

26) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi hamda uning joylardagi organlari — suv to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash uchun mablag‘larni davlat daromadiga undirish to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan;

27) sug‘urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlari — majburiy sug‘urta operatsiyalari bilan bog‘liq ishlar yuzasidan;

28) qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi — investorlarning, qimmatli qog‘ozlar egalarining hamda davlatning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadidagi da‘volar yuzasidan;

29) davlat soliq xizmati organlari, moliya hamda bojxona organlari — barcha ishlar va hujjatlar yuzasidan, shuningdek alohida yuritiladigan ishlar bo‘yicha sudga arizalar berganlik uchun;

30) ichki ishlar organlari — alimentlar va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni qidirish uchun qilingan xarajatlarni undirish to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan;

31) prokuratura organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab qilingan da‘volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

32) adliya organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab qilingan da‘volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

33) undiruvchi yoki sud ijrochisi — qarzdorni yoki uning mulkini qidirish bo'yicha xarajatlarning o'rnini qarzdor tomonidan qoplash to'g'risidagi ishlar yuzasidan;

34) O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi — intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquq egalarining huquqlarini himoya qilishni ko'zlab qilinadigan da'volar yuzasidan;

35) O'zbekiston Fermerlar kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar fermerlar kengashlari — fermer xo'jaliklarining manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar yuzasidan, shuningdek davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan fermer xo'jaliklarining manfaatlarini ko'zlab qilingan shikoyatlar yuzasidan;

36) O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari — qo'mita vakolatlariga muvofiq sudlarga beriladigan da'volar va arizalar yuzasidan;

37) mulkdorlar — xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida davlat organlari va boshqa organlarning, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish haqidagi ishlar yuzasidan;

38) yakka tartibdagi quruvchi bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish chog'ida buyurtmachining vazifasi qonun hujjatlariga muvofiq qaysi yuridik shaxsning zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs — qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish masalalari yuzasidan yakka tartibdagi quruvchilar bilan nizolarni hal etish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

39) qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish uchun imtiyozli kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq qaysi tijorat banklarining zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, o'sha tijorat banklari — qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan imtiyozli ipoteka kreditlari yuzasidan qarz oluvchilarning kreditorlik qarzlarini undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

40) xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari — ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to‘g‘risidagi da’volar yuzasidan.

Xo‘jalik sudlarida davlat bojini to‘lashdan ozod qilish

Xo‘jalik sudlarida davlat bojini to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

2) qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar — tayyorlov va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi bilan bog‘liq da’volar bo‘yicha;

3) tadbirkorlik subyektlari — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlari hamda boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda;

4) arizachi va javobgar — qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va (yoki) o‘z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmagan korxonalarni tugatishga doir ishlar bo‘yicha;

5) da’vog‘arlar — o‘rmon daraxtlarini o‘zboshimchalik bilan kesish hamda o‘rmondan foydalanish, o‘rmonni qo‘riqlash va muhofaza qilish tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzish tufayli o‘rmon fondiga yetkazilgan zararni undirish to‘g‘risidagi, o‘rmon xo‘jaligi daromadi summalarini (shu jumladan, o‘rmon daraxtlarini o‘sib turgan joyida sotish qoidalarini buzganlik uchun zarar va neustoykani, shuningdek o‘zboshimchalik bilan o‘rmon daraxtlarini kesganlik, pichan o‘rganlik va mollarni o‘tlatganlik uchun jarimalarni) undirish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha;

6) O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari — palata a‘zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar yuzasidan, shuningdek davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata a‘zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan shikoyatlar bo‘yicha;

7) nodavlat notijorat tashkilotlari — o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda;

8) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari — majburiy badallarni to‘lash va kommunal xizmatlar to‘lovi bo‘yicha qarzlarni undirish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha;

9) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari — tuzilgan shartnomalar shartlari aholiga uy-joy-kommunal xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli etkazilgan zararining o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha;

10) tumanlar, shaharlar (shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar) hokimliklari — kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchilar yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kommunal xizmatlar haqini to‘lash va majburiy badallarni to‘lash bo‘yicha qarzni undirish to‘g‘risidagi taqdimnomasiga muvofiq kiritiladigan da‘volar yuzasidan;

11) nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek ularning muassasalari, o‘quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari — barcha da‘volar bo‘yicha;

12) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hududiy tuzilmalari — «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq pensiyalarni to‘lashga ketgan mablag‘larni tashkilotlardan undirib olish bo‘yicha da‘volar, shu jumladan regress da‘volar yuzasidan;

13) da‘vogarlar va javobgarlar — sug‘urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlari — majburiy sug‘urta operatsiyalari bilan bog‘liq barcha ishlar bo‘yicha;

14) «O‘zagrosug‘urta» aksiyadorlik jamiyati, uning direktsiyasi va joylardagi bo‘linmalari — qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan bank kreditlarini to‘lamaslik xavfini hamda qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish, shuningdek fyuchers kontraktlar bo‘yicha ishlarni amalga oshirish uchun oldindan beriladigan mablag‘larning qaytarilishini sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha to‘langan sug‘urta to‘voni uchun qishloq xo‘jaligi korxonalaridan qarzni undirish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha;

15) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, uning joylardagi organlari — suv to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash uchun

mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

16) tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari — qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini ko'zlab berilgan da'volar bo'yicha;

17) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari — atrof muhitni ifloslantirganlik, tabiatdan o'zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning tartib va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy obyektlarga va komplekslarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

18) O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi hamda uning joylardagi organlari — standartlarni, texnik shartlarni joriy etish va ularga rioya etilishi hamda mahsulotlar sifati ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar yoki shunday vakolatga ega bo'lgan boshqa organlar jo'natishni man etgan mahsulotlarni yetkazib bergan yuridik shaxslardan byudjet daromadiga jarimalar undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

19) O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari — qo'mita vakolatlariga muvofiq sudlarga beriladigan da'volar va arizalar yuzasidan;

20) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi — investorlarning, qimmatli qog'ozlar egalarining hamda davlatning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadidagi da'volar bo'yicha;

21) davlat soliq xizmati organlari, moliya hamda bojxona organlari — barcha ishlar va hujjatlar bo'yicha, shuningdek alohida yuritiladigan ishlar bo'yicha sudga arizalar berganlik uchun;

22) prokuratura organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

23) adliya organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

24) undiruvchi yoki sud ijrochisi — qonunda nazarda tutilgan taqdirda, qarzdorni yoki uning mol-mulkini qidirish bo'yicha

xarajatlarning o‘rnini qarzdor tomonidan qoplash to‘g‘risidagi da’volar yuzasidan;

25) yuridik va jismoniy shaxslar — sud ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlari bo‘yicha;

26) xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan hukumatlararo kelishuvlar asosida berilgan kreditlar bo‘yicha asosiy qarzdor sifatida qatnashuvchi davlat organlari va tashkilotlari — subzayom oluvchilardan paydo bo‘lgan qarzdorliklarni undirish to‘g‘risidagi da’volar yuzasidan;

27) davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish shartnomalari bo‘yicha sotib oluvchi hisoblangan davlat organlari va tashkilotlari — yetkazib beruvchilar (pudratchilar) tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmaganligi bilan bog‘liq da’volar yuzasidan;

28) O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi — intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquq egalarining huquqlarini himoya qilishni ko‘zlab qilinadigan da’volar yuzasidan;

29) O‘zbekiston Fermerlar kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar fermerlar kengashlari — fermer xo‘jaliklarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar yuzasidan, shuningdek davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan fermer xo‘jaliklarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan shikoyatlar yuzasidan;

30) mulkdorlar — xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risida davlat organlari va boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish haqidagi ishlar yuzasidan;

31) arizachi va javobgar — huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha;

32) xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari — ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risidagi da’volar yuzasidan.

Notarial harakatlar amalga oshirilganda davlat bojini to‘lashdan ozod qilish

Notarial harakatlar amalga oshirilganda davlat bojini to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) shaxslar — davlat pensiyalari va nafaqalarini olish uchun zarur boʻlgan, shuningdek vasiylik qilish va farzandlikka olish toʻgʻrisidagi ishlar yuzasidan hujjatlarning koʻchirma nusxalari toʻgʻriligini ularga tasdiqlab berganlik uchun;

2) shaxslar — mol-mulkini davlat foydasiga, shuningdek yuridik shaxslar foydasiga hadya qilish toʻgʻrisidagi vasiyatnomalari va shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun;

3) davlat soliq xizmati organlari va moliya organlari — ularga davlatning merosga boʻlgan huquqi toʻgʻrisidagi guvohnomalarni (guvohnomalarning dublikatini) berganlik, shuningdek ushbu guvohnomalarni (guvohnomalarning dublikatini) olish uchun zarur boʻlgan barcha hujjatlar uchun;

4) nogironlarning jamoat birlashmalari, ularning muassasalari, oʻquv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari — barcha notarial harakatlar boʻyicha;

5) shaxslar — ularga quyidagilar uchun merosga boʻlgan huquqi toʻgʻrisida guvohnoma berganlik uchun:

- Vatanni himoya qilish chogʻida, boshqa davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotganligi munosabati bilan yoxud inson hayotini qutqarish, davlat mulkini va huquq-tartibotni muhofaza qilish boʻyicha fuqarolik burchini ado etish munosabati bilan halok boʻlgan shaxslarning mol-mulki uchun;

- uy-joy (kvartira) uchun yoki uy-joy-qurilish kooperatividagi pay uchun, agar ular meros qoldiruvchining vafot etish kunigacha birga yashagan, turar joyda qayd etilgan boʻlsa va meros qoldiruvchining vafotidan keyin ham shu uy-joyda (kvartirada) yashayotgan boʻlsa;

- banklardagi omonatlar, shaxsiy va mulkiy sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta summalari, davlat zayom obligatsiyalari uchun, ish haqi summalari uchun;

- fan, adabiyot va sanʼat asarlari, ixtiro, selektsiya yutugʻi, foydali model, sanoat namunasi, integral mikrosxemalar topologiyasi muallifining mulkiy huquqlari, shuningdek ijrochining ijroga doir mulkiy huquqlari uchun;

- fan, adabiyot va sanʼat asarlari, ixtiro, selektsiya yutugʻi, foydali model, sanoat namunasi, integral mikrosxemalar topologiyasini yaratish va ulardan foydalanish, shuningdek ijrolarni yaratish hamda ulardan foydalanish haqi summalari uchun.

6) shaxslar — pensiyalar va nafaqalar olish uchun ishonchnomani tasdiqlatganlik uchun;

7) onalar — ko‘p bolalik uchun ularga ordenlar va medallar berilganligi haqidagi ishlar bo‘yicha hujjatlar ko‘chirma nusxalarining to‘g‘riligini tasdiqlab berganlik uchun;

8) maktab-internatlar — farzandlarining maktab-internatdagi ta‘minoti uchun ota-onalardan qarzlarni undirish to‘g‘risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

9) moliya organlari — farzandlarining O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining ixtisoslashtirilgan maktablaridagi ta‘minoti uchun ota-onalardan qarzlarni undirish to‘g‘risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

10) ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli vafot etish va halok bo‘lish hodisasiga korxonalar va tashkilotlar hisobidan sug‘urta qilingan jismoniy shaxslarning merosxo‘rlari — sug‘urta puliga vorislik huquqini tasdiqlovchi guvohnoma berganlik uchun;

11) surunkali ruhiy kasallikka chalingan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vasiylik belgilangan shaxslar — mol-mulkka vorislik qilishlari to‘g‘risida guvohnoma olganliklari uchun;

12) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi hamda uning joylardagi organlari — xodimlarni tashkiliy yo‘sinda ishga qabul qilish tartibida tuziladigan mehnat shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun;

13) 1941—1945 yillardagi urush nogironlari, 1941—1945 yillardagi urush frontlarida yaralangan shaxslar va 1941—1945 yillardagi urush frontlarida halok bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan shaxslarning oila a‘zolari, 1941—1945 yillardagi urush qatnashchilari hamda Vatanni himoya qilishda va Sovet Armiyasida o‘z xizmat burchini o‘tayotganda yaralangan shaxslar, Afg‘oniston Respublikasida baynalmilal burchini o‘tagan shaxslar, shuningdek 1986—1987 yillarda Chernobil AESining zaharlangan mintaqasi doirasida avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar, 1986 yilda Chernobil AESidagi avariya munosabati bilan zaharlangan mintaqadan ko‘chirilgan (shu jumladan, o‘z ixtiyori bilan chiqib ketgan) shaxslar, agar ular vafot etgan bo‘lsa, ularning oila a‘zolari — imtiyozlar berilishi uchun zarur bo‘lgan hujjatlar ko‘chirma nusxalarining to‘g‘riligini tasdiqlatganligi uchun;

14) O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi — mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo‘yicha to‘lanishi kerak

bo'lgan mukofotning undirilishi to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

15) shaxslar — ularga yo'lovchilarning majburiy sug'urtasi yuzasidan sug'urta summalariga hamda fuqarolarga qarashli mol-mulkning majburiy sug'urtasi yuzasidan sug'urta to'voni summalari bo'yicha merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma berganlik uchun;

16) fermer xo'jaligida faoliyatni davom ettirayotgan merosxo'rlar — ularga fermer xo'jaligining mol-mulki bo'yicha merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma berganlik uchun;

17) yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligida faoliyatni davom ettirayotgan merosxo'rlar — ularga dehqon xo'jaligi mol-mulki bo'yicha merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma berganlik uchun;

18) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari — majburiy badallarni to'lash va kommunal xizmatlar to'lovi bo'yicha qarzlarni undirish to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishda davlat bojini to'lashdan ozod qilish

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishda davlat boji to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) xalq ta'limi organlari, balog'atga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar — yetim bolalarni va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni bolalar muassasalariga va o'quv yurtlariga yuborish uchun tug'ilganlik to'g'risida takroriy guvohnomalar berganlik uchun;

2) jismoniy shaxslar — tug'ilish, o'lim qayd etilganligi uchun, ularga farzandlikka olingan, otalik belgilangan, jinsi o'zgartirilgan hollarida, shuningdek fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish chog'ida yo'l qo'yilgan xatolar munosabati bilan tug'ilganlik to'g'risidagi hujjatlar yozuvlari o'zgartirilgan, to'ldirilgan va tuzatilgan taqdirda guvohnomalar berganlik uchun;

3) jismoniy shaxslar — ularga belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan deb yoki ruhiy holatining buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar yoxud qilgan jinoyatlari uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohni

bekor qilish to'g'risida sudning hal qiluv qarori asosida guvohnomalar berganlik uchun;

4) jismoniy shaxslar — ularga reabilitatsiya qilingan qarindoshlarining vafot etganligi to'g'risidagi takroriy guvohnomalar berganlik yoki ilgari berilgan guvohnomalarni almashtirganlik uchun;

5) tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan jismoniy shaxslar — ularga takroriy guvohnomalar berganlik uchun.

Chet elga chiqish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishda va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini berishda davlat bojini to'lashdan ozod qilish

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat bojini to'lashdan quyidagi hollarda ozod qilinadi:

1) diplomatik pasport berganlik uchun;

2) quyidagi hollarda xorijga chiqish uchun ruxsatnoma berganlik uchun:

- yaqin qarindoshlari vafot etgan yoki ular dafn etilgan joylarni ziyorat qilgan taqdirda;

- fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalarga (bitimlarga) binoan ular chet el sudlariga fuqarolik va jinoyat ishlari yuzasidan taraflar, guvohlar va ekspertlar sifatida chaqirilganda;

3) o'n olti yoshga to'lmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi guvohnomasini berganlik uchun;

4) to'liq davlat ta'minotida bo'lganlar — O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini berganlik uchun.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Soliq kodeksining tegishli moddasi birinchi qismining 1-3-bandlarida ko'rsatilgan hujjatlarga biron bir o'zgartirish kiritilgan taqdirda ham davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.

Boshqa harakatlarni amalga oshirganda davlat bojini to'lashdan ozod qilish

Fuqarolarni turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik yoxud turgan joyi bo'yicha hisobga olganlik uchun davlat boji to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- qariyalar va nogironlarning internat-uylarida yashovchi qariyalar va nogironlar;

- maktab-internatlar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning to'liq davlat ta'minotida bo'lgan va yotoqxonalarda yashovchi o'quvchilari.

Dehqon xo'jaliklarini, davlat korxonalari negizida tuzilayotgan aksiyadorlik jamiyatlarini, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida bo'linmalarini (vakolatxonalar va filiallarini), shuningdek xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun davlat boji undirilmaydi.

Davlat bojini to'lash va hisobga o'tkazish tartibi

Davlat boji, agar boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat boji undiriladigan harakatlar amalga oshirilguniga qadar naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda to'lanadi.

To'lovchining davlat bojini naqd pulsiz shaklda to'laganligi fakti bankning to'lov ijro etilganligi to'g'risidagi belgisi bo'lgan to'lov topshiriqnomasi bilan tasdiqlanadi.

To'lovchining davlat bojini naqd pul shaklida to'laganligi fakti bank tomonidan to'lovchiga beriladigan belgilangan shakldagi kvitansiya yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi belgilagan shaklda to'lovni amalga oshirgan mansabdor shaxs yoxud davlat organi va tashkilotning kassasi tomonidan to'lovchiga beriladigan kvitansiya bilan tasdiqlanadi.

Davlat bojini to'lashning o'ziga xos xususiyatlari amalga oshirilayotgan yuridik ahamiyatga molik harakatlarning turiga, to'lovchilarning toifalariga yoki boshqa holatlarga ko'ra Soliq kodeksning 337, 338, 339 va 340-moddalarida belgilanadi.

Davlat boji to'lov hujjatlari asosida byudjet tasarrufiga o'tkaziladi, davlat bojining xizmatlari uchun davlat boji undirilayotgan davlat organi tasarrufida qoldirilayotgan qismi bundan mustasno.

Davlat bojining bir qismi davlat organi tasarrufida qoldirilgan taqdirda, davlat boji keyinchalik mablag'lar byudjet va davlat organi o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha taqsimlangan holda yagona hisob varag'iga to'lanadi.

Davlat bojining davlat organi tasarrufida qoldiriladigan miqdori qonun hujjatlarida belgilanadi.

Mulkiy nizo bo'yicha sudga da'vo arizasi berilganda, shuningdek mol-mulkning oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash shartnomasini notarial

tartibda tasdiqlashda, merosga bo'lgan huquqni rasmiylashtirishda, agar da'vo qiymati, shartnoma summasi yoki meros miqdori chet el valyutasida belgilansa, davlat boji qonun hujjatlarida belgilangan hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda chet el valyutasida undirilishi mumkin.

Sudlarda davlat bojini undirishning o'ziga xos xususiyatlari

Sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha arizalardan, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sudlarga beriladigan shikoyatlardan, sudlarning hal qiluv qarorlari ustidan apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun davlat boji quyidagi tartibda undiriladi:

- shartnomalarni haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risidagi, shartnomalarni bekor qilish to'g'risidagi yoki ularning shartlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi da'vo arizalariga shartnoma to'laligicha yoki uning biron bir qismi nizolashilayotganligidan qat'i nazar, shartnoma oldi nizolari bo'yicha arizalar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi;

- qarshi da'vo arizalaridan, shuningdek, uchinchi shaxslarning ishga mustaqil da'vo talablari bilan kirishganligi to'g'risidagi arizalardan davlat boji umumiy asoslarda undiriladi;

- Sud dastlabki da'vogarni uning roziligi bilan boshqa shaxs bilan almashtirganda, bu shaxs davlat bojini umumiy asoslarda to'lashi kerak.

Ishdan dastlabki da'vogar chiqib ketgan va u huquqiy voris bilan almashtirilgan hollarda, davlat boji, agar u dastlabki da'vogar tomonidan to'lanmagan bo'lsa, huquqiy vorisdan undiriladi.

Sudya bir yoki bir nechta birlashgan da'vo talablarini alohida ish yuritish uchun ajratgan taqdirda, da'vo taqdim etilganda to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi va qaytarilmaydi. Alohida ish yurituvga ajratganlik yuzasidan davlat boji ikkinchi bor to'lanmaydi.

Ilgari ko'rmasdan qoldirilgan takroran berilgan arizalar bo'yicha davlat boji qaytadan umumiy asoslarda to'lanadi. Agar ariza ko'rmasdan qoldirilganligi munosabati bilan davlat boji qaytarilishi kerak bo'lgan, lekin qaytarilmagan bo'lsa, agar davlat boji byudjetga o'tkazilgan kundan e'tiboran fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq

da'vo muddati tugamagan bo'lsa, davlat boji to'langanligi to'g'risidagi dastlabki hujjat takroran berilgan arizaga ilova qilinishi mumkin.

Davlat boji hisoblab chiqariladigan da'vo bahosi da'vogar tomonidan, belgilangan hollarda esa, fuqarolik protsessual va xo'jalik-protsessual qonun hujjatlariga muvofiq sud tomonidan aniqlanadi.

Agar ishni muhokamaga tayyorlash paytida da'vogar alimentlarni undirish to'g'risidagi ishni tugatish haqida ariza bergan bo'lsa, bunday hollarda javobgardan davlat boji undirilmaydi.

Da'vogar tomonidan da'vo talablari kamaytirilgan taqdirda, to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi.

Da'vo summasi ko'paytirilgan taqdirda, davlat bojining yetishmayotgan summasi da'voning ko'paytirilgan summasiga muvofiq undiriladi.

Da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan taqdirda da'vo qanoatlantirilsa, davlat boji javobgardan (agar u davlat bojini to'lashdan ozod etilmagan bo'lsa) davlat daromadiga belgilangan da'vo summasiga muvofiq undiriladi.

Da'vo birgalikda bir nechta da'vogar tomonidan bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda, davlat boji da'voning umumiy summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va da'vogarlar tomonidan ular qo'ygan talablar ulushiga mutanosib tarzda to'lanadi.

Da'voning umumiy summasidan kelib chiqqan holda davlat boji quyidagi hollarda ham undiriladi:

- da'vo da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda;

- da'vo arizalarini qabul qiladigan sudya bir tUSDagi bir necha talabni bir ish yurituviga birlashtirganda.

Davlat bojini to'lashdan ozod etilgan bir yoki bir nechta da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilgan da'vo to'liq yoki qisman qanoatlantirilganda davlat bojini undirish sudning hal qiluv qaroriga binoan har bir javobgardan belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda alohida-alohida amalga oshiriladi. Agar bunday da'vo bir nechta da'vogarlar tomonidan bir javobgarga nisbatan taqdim etilgan bo'lsa, davlat boji javobgardan umumiy belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda byudjetga undiriladi.

Sud boshqa shaxsni ikkinchi javobgar sifatida jalb qilgan va da'vo summasining bir qismini bir javobgardan, qolgan qismini esa ikkinchisidan undirishga hukm qilgan taqdirda va, agar bunda da'vogar

davlat bojini to‘lashdan ozod qilingan bo‘lsa, davlat boji da‘voning qanoatlantirilgan umumiy summasidan hisoblab chiqariladi hamda har bir javobgardan unga belgilangan da‘vo summasi miqdoriga mutanosib ravishda byudjetga undiriladi.

Davlat bojini to‘lashdan ozod qilingan da‘vogar o‘z talablarini da‘vo berilganidan keyin ular javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda to‘liq yoki qisman qanoatlantirilganligi tufayli qo‘llab-quvvatlamagan hollarda davlat bojining summasi javobgardan sud ajrimi bo‘yicha byudjetga undirilishi lozim.

Da‘vogar arizada da‘vo summasini ko‘rsatmagan hollarda sudya da‘vo arizasini qabul qilish asnosida, da‘voning taxminiy bahosidan kelib chiqqan holda to‘lanishi lozim bo‘lgan davlat bojining miqdorini dastlabki tarzda belgilaydi. Agar sud hal qiluv qarorini chiqarganda da‘voning umumiy summasi oshsa, davlat boji da‘voning oshgan summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda vujudga kelgan farq da‘vogardan yoki da‘vo to‘liq qanoatlantirilgan taqdirda — javobgardan byudjet daromadiga undirilishi lozim. Sud qonun hujjatlarida belgilangan hollarda ish holatlariga bog‘liq ravishda da‘vogar arizada ko‘rsatgan talablar doirasidan chiqib ketganda, davlat boji shunday tartibda hisoblab chiqariladi. Bunday hollarda da‘vo qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji javobgardan da‘voning qanoatlantirilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi, davlat bojining qolgan qismi esa da‘vogardan undirilishi lozim.

Sud mol-mulkni meros qilib olish huquqi to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qilgan taqdirda, davlat boji mol-mulkning umumiy qiymatidan kelib chiqqan holda sud tomonidan hisoblab chiqariladi va har bir merosxo‘rdan uning ulushiga mutanosib ravishda undiriladi.

Mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi, mol-mulkni talab qilib olish to‘g‘risidagi, mol-mulkdagi ulushga bo‘lgan huquqni e‘tirof etish to‘g‘risidagi, umumiy mol-mulkdan ulush ajratish to‘g‘risidagi va merosxo‘rlarning o‘zlariga tegishli mol-mulk ulushini talab qilib olish to‘g‘risidagi da‘vo arizalari uchun davlat boji ushbu mol-mulk yoki uning ulushi qiymatidan kelib chiqqan holda to‘lanishi lozim.

Bir vaqtning o‘zida mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega bo‘lgan da‘vo arizalari uchun mulkiy xususiyatdagi da‘vo arizalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha va nomulkiy xususiyatdagi da‘vo arizalari uchun belgilangan stavkalarga ko‘ra har bir talab bo‘yicha alohida-alohida davlat boji to‘lanadi.

Qiymat jihatidan baholanmaydigan talablar (o'zboshimchalik bilan egallangan joylarni bo'shatish to'g'risidagi, natura shaklida maydon berish to'g'risidagi, topshirish balansini qabul qilishga majburlash bilan bog'liq nizolar va boshqalar) nomulkiy xususiyatdagi da'vo arizalari jumlasiga kiradi.

Nikohni bekor qilish bilan bir vaqtda mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi da'vo arizalaridan nikohni bekor qilganlik uchun va mol-mulkni bo'lganlik uchun davlat boji undiriladi.

Arizani (iltimosnomani) qabul qilishni rad etishga yoki ish yuritishni tugatishga asos bo'lgan sharoitlar bartaraf etilganidan so'ng takroran beriladigan arizalarga, davlat boji takroran to'lanishining oldini olish uchun, davlat boji to'langanligi to'g'risidagi dastlabki hujjat ilova qilinishi mumkin.

Arizachi davlat bojini to'lashdan ozod qilingan hollarda da'vo qanoatlantirilgan taqdirda davlat boji, agar javobgar davlat bojini to'lashdan ozod qilinmagan bo'lsa, qanoatlantirilgan da'vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda javobgardan undiriladi.

Muayyan sudda ko'rilishi kerak bo'lgan bir necha ishlar uchun bir to'lov topshiriqnomasi bo'yicha davlat boji o'tkazilgan hollarda topshiriqnoma ishlarning biriga ilova qilinadi. Mazkur ish bo'yicha to'langan davlat bojining summasi to'g'risida qolgan ishlarga belgi qo'yiladi va to'lov topshiriqnomasi qo'shib qo'yilgan ish ko'rsatiladi.

Sud buyrug'i bekor qilingan taqdirda, undiruvchi tomonidan to'langan davlat boji qaytarilmaydi. Da'vo undiruvchi tomonidan qarzdorga nisbatan da'vo ishini yuritish tartibida qo'zg'atilgan taqdirda u to'lanishi lozim bo'lgan davlat boji hisobiga olinadi.

Pul mablag'lari mavjud bo'lmagan, bu xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan tasdiqlangan taqdirda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga umumiy yurisdiksiya sudining, xo'jalik sudining ajrimiga ko'ra davlat bojini kechiktirib to'lashga ruxsat berilishi mumkin. Bank tasdig'ida umumiy yurisdiksiya sudiga, xo'jalik sudiga murojaat qilingan sanadan ko'pi bilan uch kun oldingi sana qayd etilgan bo'lishi lozim.

Aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining faoliyatidan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risidagi da'vo bilan xo'jalik sudiga murojaat qilgan taqdirda aksiyadorlarga davlat bojini to'lash muddati kechiktirilib, bu boj keyinchalik aybdor tarafdan undirib olinadi.

Notarial harakatlar bajarilganligi uchun davlat boji undirishning o'ziga xos xususiyatlari

Notarial harakatlar davlat notarial idoralari tomonidan bajarilganligi uchun davlat boji notarial harakatlar amalga oshirilganda undiriladi, notarial idoralardagi ishlarda mavjud bo'lgan hujjatlarning dublikatini, hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun esa ular berilayotganda undiriladi.

Davlat boji to'lashdan bir taraf ozod etiladigan bitimlar bo'yicha davlat bojini boshqa taraf to'liq to'laydi.

Davlat notarial idorasi depozitiga qabul qilish uchun pul summolari pochta orqali yoki bankdan kelib tushgan hollarda davlat bojining tegishli summolari kelib tushgan puldan ushlab qolinadi, ularning qoldig'i esa depozitga qabul qilinadi. Ushlab qolingani davlat boji summolari davlat notarial idorasi depozit summalarini bankka navbatdagi topshirish chog'ida byudjetga o'tkazilib, bank kvitansiyasi notarial idora ishlarida saqlanadi.

Davlat notarial idorasi binosidan tashqarida amalga oshiriladigan notarial harakatlar uchun davlat boji ikki baravar miqdorda undiriladi, ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning ishonchnomalarini notarial tartibda tasdiqlash bundan mustasno.

Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berganlik uchun davlat boji meros ochilgan kunda (meros qoldiruvchi vafot etgan kunda) vorislik tartibida o'tayotgan butun mol-mulkning qiymatidan undiriladi.

Bir nechta merosxo'r (shu jumladan qonun bo'yicha, vasiyatnoma bo'yicha va merosdan majburiy ulush olish huquqiga ega merosxo'rlar) bo'lgan hollarda davlat boji har bir merosxo'rga tegishli meros ulushidan hisoblab chiqariladi.

Voyaga etmagan merosxo'rlar bo'lgan (shu jumladan meros qoldiruvchilarning bolalari bo'lmagan) taqdirda ham davlat boji butun meros mol-mulk qiymatidan hisoblab chiqariladi, lekin faqat voyaga yetgan merosxo'rlardan ularning merosdagi ulushiga tegishli summadan undiriladi.

Agar merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma merosxo'rlarning arizasi bo'yicha meros mol-mulkning bir qismiga berilayotgan bo'lsa, davlat boji berilayotgan guvohnomada ko'rsatilgan mol-mulk qismining qiymati uchun belgilangan stavka bo'yicha

hisoblab chiqariladi. Keyinchalik mol-mulkning qolgan qismiga guvohnoma berilganida davlat boji mol-mulkning umumiy qiymatidan hisoblab chiqariladi, to'lashga esa hisoblab chiqarilgan summa bilan birinchi guvohnoma berilganligi uchun to'langan summa o'rtasidagi farq taqdim etiladi.

Qonun bo'yicha bir vaqtning o'zida boshqa merosxo'rlar mavjud bo'lgan taqdirda, meros mol-mulkning bir qismi merosxo'rlarga vasiyatnoma bo'yicha o'tgan hollarda davlat boji vasiyatnoma bo'yicha mol-mulk qiymatidan alohida hisoblab chiqariladi, qolgan mol-mulk qiymatidan esa umumiy tartibda hisoblab chiqariladi.

Qonun bo'yicha va vasiyatnoma bo'yicha meros qilib olinayotgan mol-mulkdan merosning majburiy ulushi ajratilgan hollarda davlat boji qonunga binoan vorislik huquqi bo'yicha o'tayotgan butun mol-mulk qiymatidan, shu jumladan majburiy ulush bilan birga hisoblab chiqariladi.

Sudlarning ilgari berilgan guvohnomalar haqiqiy emasligi to'g'risidagi hal qiluv qarorlari asosida beriladigan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi takroriy guvohnomalar uchun davlat boji umumiy asoslarda undiriladi. Bunda birlamchi guvohnoma uchun to'langan davlat boji summasi qaytarilishi yoki soliq to'lovchining arizasiga ko'ra yangi guvohnoma berganlik uchun beriladigan summa hisobiga, agar summalar byudjetga o'tkazilgan kundan e'tiboran fuqarolik qonun hujjatlarida nazarda tutilgan da'vo muddati tugamagan bo'lsa, o'tkazilishi lozim. Sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan har qanday shartnoma takroran tasdiqlangan taqdirda, masala xuddi shunday tartibda hal qilinadi.

Davlat notarial idorasi reyestrda takroriy guvohnomalar va shartnomalarni qayd qilishda tegishli katakchada davlat boji qachon va qancha summada undirilganligi hamda undirish to'g'risidagi yozuv qayerda borligi ko'rsatiladi. Bunda notarial idora ishlarida qoladigan asosiy hujjatlarga sudning tegishli guvohnomalar va shartnomalarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi hal qiluv qarorlari ilova qilinishi kerak.

Kredit tashkilotlari tomonidan beriladigan sertifikatlar va akkreditivlarga doir merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berganlik uchun davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.

Er-xotinning birgalikda yashaganda olingan va er-xotindan birining vafotidan keyin qolgan mol-mulkka doir merosga bo'lgan

huquq to'g'risida guvohnoma berganlik uchun davlat boji meros bo'yicha haqiqatda o'tayotgan mol-mulk qismining qiymatidan undiriladi.

Davlat boji mutanosib ravishda undiriladigan notarial harakatlar bajarilganda uni hisoblab chiqarish taraflar ko'rsatgan summadan ushbu moddada belgilangan qoidalarga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli uylar, kvartiralar, dala hovlilari, garajlar, boshqa imoratlar, binolar va inshootlarni boshqa shaxsga o'tkazish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun davlat boji summasi ularning turar joyi yoki umumiy maydonidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

To'lovlar vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan shartnomalarni tasdiqlashda davlat boji shartnoma bo'yicha u amal qilgan butun vaqt uchun to'lovlarning umumiy miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi. Agar shartnoma uning amal qilish muddati ko'rsatilmagan holda tuzilgan bo'lsa, davlat boji shartnoma bo'yicha uch yil uchun to'lovlar summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi.

Eng kam va eng ko'p summa ko'rsatilgan shartnomalarni tasdiqlashda davlat boji eng ko'p summadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi.

Talablardan o'zganing foydasiga voz kechish va qarzni o'tkazish to'g'risidagi, ilgari tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi yoki shartnomaning dastlabki summasini ko'paytirish to'g'risidagi shartnomalarni tasdiqlashda davlat boji amalga oshirilmagan huquqlarni hamda ijro etilmagan majburiyatlarni baholashdan yoxud ilgari tuzilgan shartnoma summasi ko'payayotgan summadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi.

Ayirboshlash shartnomalari bo'yicha davlat boji qiymati yuqori bo'lgan mol-mulkdan hisoblab chiqariladi.

Shartlariga ko'ra to'lovlar summasida ijaraga oluvchi tomonidan quriladigan imoratlar va boshqa inshootlar, xonalarni jihozlash qiymati, shuningdek ijaraga oluvchi tomonidan amalga oshiriladigan kapital ta'mirlash va boshqa shu kabilarning qiymati hisobga olinadigan mulk ijarasi shartnomasini tasdiqlashda hisoblab chiqariladigan va undiriladigan davlat bojining summasi amalga oshiriladigan xarajatlarning qiymati hisobga olingan holda belgilanadi.

Ijro yozuvlari bo'yicha yozuvni amalga oshirganlik uchun tegishli davlat boji summasi undiruvchi uni to'lashdan ozod qilingan taqdirda yozuv bo'yicha qarz undirilayotganda qarzdordan undiriladi.

8.2. Yuridik shaxslarni tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarini soliqqa tortish xususiyatlari

Dehqon xo'jaligi - oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.³⁰

Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Dehqon xo'jaligi a'zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon xo'jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari kiradi.

Dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalari imoratlar va inshootlar qurish huquqisiz beriladi. Mazkur qoida yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga ilgari berilgan yoki beriladigan yer uchastkalariga tatbiq etilmaydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari Soliq Kodeksda jismoniy shaxslar — soliq to'lovchilar uchun nazarda tutilgan tartibda soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda dehqon xo'jaliklari quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi:

- 1) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- 2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 3) jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

³⁰ O'zbekiston Respublikasi 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni 1-modda.

4) bo'xona to'lovlari;

5) Soliq kodeksning XVII bo'limida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, davlat boji;

6) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari yuqorida nazarda tutilgan soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir qatorda Soliq kodeksning 311-moddasida nazarda tutilgan tartibda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish, o'zlari yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullangan taqdirda, ular yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tishlari hamda Soliq kodeksning 58-bobida nazarda tutilgan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashlari shart.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriylik asosida yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari uchun sug'urta badalining miqdori uning belgilangan miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Kalendar yil davomida imtiyozga bo'lgan huquq vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan taqdirda, sug'urta badallarini qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklarining a‘zolari — hisobot yilining 1 oktyabrigacha sug‘urta badallarini to‘laydilar. Bunda sug‘urta badallarining miqdori to‘lov kuniga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

8.3. Konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi

Jismoniy shaxslar konsert-tomosha faoliyatini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi uchun litsenziya oladigan yuridik va jismoniy shaxslar belgilangan stavka bo‘yicha davlat boji to‘laydi.

Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi

Konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi uchun davlat boji to‘lovchi jismoniy shaxslar mazkur faoliyat turi bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq to‘lashdan ozod etiladi.

Konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar zimmasida quyidagilarni to‘lash majburiyati saqlanib qoladi:

- bojxona to‘lovlari;
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im.

Agar konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi uchun davlat boji to‘lovchi jismoniy shaxslar soliq solinadigan mol-mulk va (yoki) yer uchastkasiga ega bo‘lsalar, Soliq kodeksning 48 va 50-boblarida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar majburiy to‘lovlarni to‘lash bilan bir qatorda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun nazarda tutilgan tartibda byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘laydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 29 iyundagi “Konsert-tomosha faoliyati sohasida soliq solishni va audio,

videokassetalarni tarqatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 285-sonli Qaroriga asosan 2001 yil 1 iyuldan boshlab:

- konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi uchun litsenziya oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar “O‘zbeknavo” estrada birlashmasi tomonidan belgilanadigan reyting guruhiga ko‘ra tabaqalashtirilgan miqdorlarda davlat boji to‘laydilar hamda byudjetga davlat soliqlari va mahalliy soliqlar to‘lashdan ozod etiladilar;

- faoliyatini boshlayotgan ijodiy jamoalar va ijrochilar tomonidan konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi uchun litsenziya olishda ular tomonidan boj davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab birinchi yilda boshlang‘ich stavka bo‘yicha to‘lanadi;

- konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi uchun litsenziya berish to‘g‘risidagi arizalar ko‘rib chiqilganligi uchun yig‘imlar summasi, to‘liq miqdorda “O‘zbeknavo” estrada birlashmasi mintaqaviy bo‘limlarining talab qilib olinadigan depozit hisob raqamlariga o‘tkaziladi, litsenziya berilganligi uchun davlat boji to‘liq miqdorda “O‘zbeknavo” estrada birlashmasi ustavida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun Milliy estrada san‘atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi huzuridagi Estrada san‘atini rivojlantirish jamg‘armasiga o‘tkaziladi;

- jismoniy shaxslar belgilangan tartibda berilgan litsenziyasiz konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Faoliyatni litsenziyasiz va konsert-tomosha guvohnomasisiz amalga oshirgan shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan jazo choralari qo‘llanadi.

Konsert-tomosha tadbirlari bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyat turlariga litsenziya olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- litsenziya berish to‘g‘risida ariza;
- litsenziya berish to‘g‘risidagi ariza ko‘rib chiqilganligi uchun yig‘im to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat (kvitansiya nusxasi);
- 4x6 sm. o‘lchamli 2 ta fotosurat;
- ijrochilarning musiqa ma‘lumotiga ega ekanligini, davlat mukofotlari, mukofotlar, sovrinlar va hokazolar olganligini tasdiqlovchi hujjatlar (guvohnomalar, attestatlar, diplomlar)ning notarial tasdiqlangan nusxalari. Istisno hollarda (alohida qobiliyat va iste‘dod yaqqol mavjud bo‘lganda) Milliy estrada san‘atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi huzuridagi Ijodiy

ko'maklashuvchi vakillar guruhining qarori bo'yicha musiqa ma'lumoti mavjudligi to'g'risidagi hujjatlarning nusxalari taqdim etilmasdan litsenziya berishga hujjatlar qabul qilinishi mumkin;

➤ litsenziya talabgori tomonidan tuzilgan ijrochilar repertuari to'g'risida ma'lumotnoma;

➤ litsenziyalovchi organ, Milliy estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi huzuridagi Ijodiy ko'maklashuvchi vakillar guruhi asosli ravishda talab qilishi mumkin bo'lgan yoki litsenziya talabgori litsenziya talabgorining malakasi to'g'risida yorqinroq tasavvur tug'dirish maqsadida mustaqil ravishda o'zi qo'shimcha ravishda taqdim etish istagini bildirgan boshqa hujjatlar.

Davlat boji miqdorlari (choraklar bo'yicha bo'lib-bo'lib to'langanda - davlat bojining tegishli qismi) to'lov kunidagi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Davlat boji deb nimaga aytiladi?
2. Davlat boji stavkalari kim tomonidan belgilanadi?
3. Davlat bojining to'lovchilari kimlar?
4. Davlat bojining udirilish obyekti aytib bering.
5. Umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan ozod qilingan shaxslarni aytib bering.
6. Xo'jalik sudlarida davlat bojini to'lashdan ozod qilingan shaxslarni aytib bering.
7. Notarial harakatlar amalga oshirilganda davlat bojini to'lashdan ozod qilingan shaxslarni aytib bering.
8. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishda davlat bojini to'lashdan ozod qilingan shaxslarni aytib bering.
9. Davlat bojini to'lash va hisobga o'tkazish tartibi qanday?
10. Yuridik shaxslarni tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari qanday soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydilar?
11. Konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qanday tartibda soliqqa tortiladi?

IX BOB. JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN SOLIQ MAJBURIYATLARINI BAJARILISHINI NAZORAT QILISH

9.1. Jismoniy shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish maqsadida uchastka soliq inspektori faoliyatini tashkil qilish

Soliq to'lovchilar, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash maqsadida davlat soliq xizmati organlarida uchastka soliq inspektorlari lavozimi tashkil etiladi. Uchastkalarining chegaralari, shuningdek uchastka soliq inspektorlarining soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan normativlar bo'yicha belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2014 yil 7 fevraldagi "Davlat soliq xizmati organlarining uchastka soliq inspektorlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 47-sonli buyrug'iga asosan, «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarining uchastka soliq inspektori to'g'risida»gi nizom tasdiqlandi.

«O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari uchastka soliq inspektori to'g'risida»gi Nizom (keyingi o'rinlarda - Nizom) O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1257-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 12 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 14-son, 2000 yil 5 maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida»gi 180-son va 2010 yil 21 maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 98-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Uchastka soliq inspektorlari o'zlariga birlashtirilgan uchastkada mol-mulk solig'i va yer solig'i to'lovchi

jismoniy shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarni hisobga olish yuzasidan tegishli ishlarni bajaradilar hamda ular tegishli soliqlarni o'z vaqtida to'lashlarini nazorat qiladilar. Uchastka soliq inspektori ishini tashkil qilishning huquqiy va me'yoriy asoslari bo'lib «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, «Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida»gi Nizom hisoblanadi.

Uchastka deganda O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 10 iyuldagi 196-son qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga olish to'g'risida»gi Nizomga asosan tashkil etilgan mahalla (qishloq) fuqarolar yig'ini hududida joylashgan jismoniy shaxslar egaligidagi mol-mulk obyektlari, yer uchastkalari, faoliyatida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchi jismoniy shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga olish, ularga soliq hisoblash hamda soliqlarning to'lanishini doimiy nazorat qilib borishda bir uchastka soliq inspektoriga birlashtiriladigan ish hajmi va soliq to'lovchilar sonidan iborat bo'lgan hudud tushuniladi.

Uchastka soliq inspektori o'z faoliyatida bevosita davlat soliq inspeksiyasining tegishli bo'limi rahbariga bo'ysunadi.

Har bir uchastka soliq inspektori o'ziga birlashtirilgan hududni belgilovchi, davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan hujjatga va «Uchastka pasporti»ga ega bo'lishi shart.

Uchastka soliq inspektori mazkur Nizom va lavozim yo'riqnomasida zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga, uchastkasi bo'yicha soliq obyektlari va subyektlari, hisoblangan va to'langan soliqlar nazoratini har oy yakuni bilan dasturiy mahsuldan chiqariladigan hisobot ma'lumotlari asosida olib borishga, dasturiy mahsulda ko'zda tutilmagan hisobotlarni yuqori soliq organi tomonidan belgilanadigan shaklda yuritishga shaxsan javobgar. Uchastka soliq inspektorining ish tartibi davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi. Ish tartibi mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda va soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga muvofiq tarzda tashkil etiladi.

Uchastka soliq inspektori o'z vazifalarini qishloq fuqarolar yig'ini, mahalla qo'mitalari va ichki ishlar uchastka nozirlari bilan hamkorlikda bajaradi, aholi o'rtasida birgalikda tushuntirish ishlari olib boradi, fuqarolar yig'inlari, mahalla qo'mitalarida bo'ladigan yig'inlarda ishtirok etadi, amaldagi qonunchilikda belgilangan soliq va to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlayotgan shaxslar bilan tushuntirish ishlarini olib boradi.

Vakolatli idoralardan soliq obyektlari va subyektlari to'g'risida olingan ma'lumotlar, imtiyoz huquqi bo'yicha fuqarolar tomonidan DSIGA taqdim etilgan tegishli hujjatlar hamda biriktirilgan hududda aniqlangan qonunbuzarlik holatlari bo'yicha uchastka soliq inspektori tomonidan yozilgan bildirgilar kanselyariyada ro'yxatga olinishi va tegishli bo'limda alohida jildlarga tikib borilishi shart.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning byudjetga o'z vaqtida tushishini ta'minlash maqsadida uchastka soliq inspektori hisoblangan soliqlarni belgilangan tartibda aholidan bevosita naqd pul shaklida qabul qilishi va bank muassasasiga topshirishi mumkin. Bunda uchastka soliq inspektori ishlatilgan 5-shakl patta nusxalarini 2-ilovadagi shakldagi reyestr asosida DSIning hisob, tahlil va soliq statistikasi bo'limiga topshiradi.

Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan soliq va to'lovlar faqat bank muassasasi orqali undiriladi.

Soliq to'lovchilarning amaldagi soliq qonunchiligi bo'yicha murojaatlariga joyida tegishli tushuntirishlar berilishini ta'minlash, turli masalalar bilan soliq organiga kelib-ketishlaridagi noqulayliklarni kamaytirish maqsadida uchastka soliq inspektorlariga biriktirilgan aholi punktlarining uzoqligi va joylashishidan kelib chiqqan holda bir nechta uchastka soliq inspektoriga biriktirilgan uchastkalar birlashtirilgan holda Soliq tayanch punktlari tashkil etiladi.

Soliq tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish tartibi, har bir uchastka soliq inspektoriga biriktiriladigan hudud va soliq obyektlari soni Davlat soliq qo'mitasining 2004 yil 3 maydagi «Uchastka soliq inspektorlari faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 132-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan me'yor asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 12 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 14-sonli qaroriga

muvofig uchasaka soliq inspektorlari biriktirilgan uchaskasi hududida xizmat xonasi bilan mahalliy hokimliklar tomonidan ta'minlanadi.

Davlat soliq qo'mitasining 2004 yil 3 maydagi «Uchasaka soliq inspektorlari faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 132-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Soliq tayanch punktlarini jihozlash va inventarlar bilan ta'minlash tartibi»ga asosan xizmat xonasi barcha zarur jihozlar, ko'rgazmali stend, metodik qo'llanmalar, kitoblar, daftarlar va boshqa blankalar bilan DSI tomonidan ta'minlanadi.

Uchasaka soliq inspektori xizmat vazifasini bajarishda doimiy tarzda qishloq, mahalla va ko'chalarda, noqulay iqlim sharoitida yurishi, olis masofalarga qatnashini hisobga olgan holda oylik transport xarajatlari DSI tomonidan har oylik ish haqiga qo'shilgan holda to'lanadi va kiyim-boshlari (qishki kostyum-shim, yozgi forma va oyoq kiyimi) har yili Davlat soliq qo'mitasi tomonidan markazlashgan tartibda ajratiladi.

9.2. Uchasaka soliq inspektorining asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari

Soliq tayanch punkti Davlat soliq inspeksiyasining hududiy quyi bo'g'ini bo'lib, soliqqa tortish subyektlari va obyektlarining to'liq xamda o'z vaqtida xisobga olinishini ta'minlash, biriktirilgan uchaskada mol-mulk solig'i, yer solig'i tulovchi jismoniniy shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarni hisobga olish yuzasidan tegishli ishlarni bajarish, tegishli soliqlarni o'z vaqtida to'lashlarini nazorat qilish va bu boradagi qonunbuzulishlarning oldini olish maqsadida tuziladi. Soliq tayanch punkti aholi yashash joylarida, hokimiyat qaroriga asosan ajratilgan binoda Davlat soliq boshqarmasining buyrug'i bilan tashkil etiladi. Soliq tayanch tunktiga biriktiriladigan xodimlar soni Davlat soliq boshqarmasi tomonidan belgilanadi. Soliq tayanch punktiga hududlar Davlat soliq inspeksiyasi buyrug'i bilan biriktiriladi. Bunda qishloq (mahalla, qo'rg'on) fuqarolar yig'inlari hududning ikkita soliq tayanch punktiga bo'lib biriktirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Soliq tayanch punkti faoliyati «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari,

«Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida»gi Nizom, mazkur Nizom va soliq xizmati organlari faoliyatini tartibga soluvchi boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarga muvofiq olib boriladi. Soliq tayanch punktiga birlashtirilgan hodimlar o‘z faoliyatini «Uchastka soliq inspektorlari to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq amalga oshiradilar. Ularning xizmat vazifalari taqsimoti Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

Uchastka soliq inspektorining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- birlashtirilgan hududdagi soliqqa tortish subyektlari va obyektlarining xususan mol-mulk va yer solig‘i obyektlari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig‘ini to‘lovchilar va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarning to‘liq hamda o‘z vaqtida hisobga olinishini ta‘minlash, soliq to‘lovchilarning tegishli soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashni nazorat qilish;

- aholi o‘rtasida soliq qonunchiligini tushuntirish ishlarini olib borish, targ‘ibot va tashviqot qilish;

Bu vazifalarni amalga oshirishda uchastka soliq inspektori amaldagi qonunchilik doirasida qishloq fuqarolar yig‘inlari va mahalla faollarini jalb qilgan holda televidenie, radio va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanadi.

Uchastka soliq inspektori tegishli davlat soliq organi buyrug‘iga asosan o‘ziga birlashtirilgan uchastka bo‘yicha:

- O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartib va muddatlarda vakolatli organlar taqdim etgan ma‘lumotlarni davlat soliq inspeksiyasida mavjud ma‘lumotlar bilan solishtirish asosida haqqoniyligini ta‘minlaydi, aniqlangan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish choralarini ko‘radi, aniqlashtirilgan ma‘lumotlar va o‘zgarishlarni Davlat soliq qo‘mitasining 2012 yil 15 sentyabrdagi 350-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish» Tartibining 17 va 18-ilovalarida belgilangan 09 va 09a-shakllarda (keyingi o‘rinlarda-09-shakl) shaxsiy kartochkalarni yuritishga mas‘ul bo‘linmaga jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulk va yer solig‘i obyektlarini, suv solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslar (yuridik shaxs tashkil emagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari)ni dasturiy mahsulda hisobga olish, soliq qonunchiligida belgilangan tartib va stavkalarda soliq hisoblash uchun taqdim etadi;

- yangidan qurilgan uy-joylarga bo‘lgan huquq tuman (shahar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastr davlat korxonasi (keyingi o‘rinlarda «Ermulkkadastr» xizmatlari)da belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan taqdirda, ularga mol-mulkning shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqqan holda soliq hisoblab, 09-shakl ma’lumotini tegishli bo‘limga taqdim etadi;

- «Yermulkkadastr» xizmatlari tomonidan belgilab beriladigan inventarizatsiya qiymati mavjud bo‘lmagan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni shartli qiymatning bir baravari miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabrda 478-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Jismoniy shaxslarning mulki bo‘lgan binolar va inshootlarni baholash, qayta baholash to‘g‘risida»gi Nizomning 3-bandiga muvofiq zarur hollarda «Ermulkkadastr» xizmatlariga jismoniy shaxslarning baholangan mulki qiymatini qayta baholash yuzasidan so‘rovnoma kiritadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 160-moddasi 2-qismiga muvofiq fuqarolarga uy-joylarga doir mulk huquqlarini ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlarda o‘z vaqtida rasmiylashtirmaganligi uchun ma‘muriy jarima solish uchun Davlat soliq qo‘mitasining 2012 yil 16 yanvardagi 08-640-sonli xati orqali hududlarga amalda foydalanish uchun yuborilgan «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 159¹-moddasi va 160-moddasining ikkinchi qismini amalda qo‘llash bo‘yicha Uslubiy ko‘rsatmalar» asosida bayonnoma tuzib, tegishli choralarda ko‘rish uchun davlat soliq inspeksiyasi rahbariyatiga belgilangan tartibda kiritadi;

- Soliq kodeksining 263, 277 va 293-moddalariga asosan soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarida hisoblangan soliq summalari asosida soliq to‘lovchilarga Davlat soliq qo‘mitasining 2011 yil 7 dekabrda 375-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan shaklda to‘lov xabarnomasi yetkazilishini ta‘minlaydi hamda soliq to‘lovchilarga to‘lov xabarnomalarini topshirganligi to‘g‘risida tasdiqlovchi imzosi bilan uning koreshogini o‘zida saqlaydi;

- o‘ziga biriktirilgan uchastkada davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni

aniqlaydi hamda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi talablaridan kelib chiqqan holda, Davlat soliq qo‘mitasining 2010 yil 11 martdagi 59-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga doir ma‘muriy ishlarni ko‘rib chiqishni tashkil etish to‘g‘risida»gi Yo‘riqnoma asosida ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomani tuzib, tegishli choralar ko‘rish uchun davlat soliq inspeksiyasi rahbariyatiga belgilangan tartibda kiritadi (o‘z uchashtasida aniqlangan qonunbuzilishlarga ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomani tuzish uchun alohida buyruq talab qilinmaydi);

- yakka tartibdagi tadbirkorlarga qat‘iy belgilangan soliq va sug‘urta badali hisoblaydi va belgilangan shaklda shaxsiy kartochkalarni yuritishga mas‘ul bo‘linmaga topshiradi, shaxsiy kartochkalarda hisoblangan soliq summalari asosida soliq to‘lovchilarga to‘lov xabarnomasini yetkazadi;

- yakka tartibdagi tadbirkorlardan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o‘tgan soliq davri uchun hisob-kitobini va joriy to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun suvdan foydalanish yoki suv iste‘moli mo‘ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (foydalaniladigan suv hajmidan) kelib chiqqan holda joriy soliq davrida hisoblangan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani Soliq kodeksida belgilangan muddatlarda taqdim etilishini nazorat qiladi hamda joriy to‘lovlarni shaxsiy kartochkalarni yuritishga mas‘ul bo‘linmaga dasturiy mahsulda hisobga olish, soliq qonunchiligida belgilangan tartib va stavkalarda soliq hisoblash uchun taqdim etadi;

- yuridik shaxs tashkil etmagan oilaviy tadbirkorlik subyekti tomonidan tadbirkorlik faoliyati bir nechta obyektlarda alohida amalga oshirilgan taqdirda, har bir obyekt uchun qat‘iy belgilangan soliq hisoblanishini ta‘minlaydi;

- oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish ko‘radigan yakka tartibdagi tadbirkorning turmush o‘rtog‘i, ota-onasi va farzandlari oila a‘zosi sifatida birgalikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishini nazoratga oladi;

- davlat soliq inspeksiyasi tegishli bo‘linmasidan faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to‘xtatgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning ro‘yxatini olib, Davlat soliq qo‘mitasining 2012 yil 29 iyundagi «Faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning

keyingi holati yuzasidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi Uslubiy qo‘llanmaga asosan ular haqiqatda faoliyatini to‘xtatganligi yoki noqonuniy ravishda davom ettirayotganligi yuzasidan kuzatuv dalolatnomasini tuzadi va faoliyatini rasman to‘xtatgan holda haqiqatda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyatiga chek qo‘yish bo‘yicha rahbariyatga bildirgi kiritadi;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati qonuniyligini hamda soliq va majburiy to‘lovlarni to‘liq to‘layotganligini nazorat qiladi;

- asosiy bo‘lmagan ish joyidan, jumladan o‘z mol-mulkini ijaraga berib daromad topayotgan fuqarolarni, shuningdek fuqarolar o‘rtasida binoni, inshootni yoki ularning bir qismini, turar-joyini ijaraga berish shartnomasi tuzmasdan yoki notarial tasdiqlamasdan ijaraga berish holatlarini aniqlash va tegishli chora ko‘rish maqsadida, huquqni muhofaza qiluvchi va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikdagi tadbirlarni amalga oshiradi;

- O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 159¹-moddasiga muvofiq fuqarolar o‘rtasida binoni, inshootni yoki ularning bir qismini, turar joyini ijaraga berish shartnomasining mavjud emasligi yoxud ijaraga berish shartnomasining majburiy notarial tasdiqlanishiga rioya qilmagan jismoniy shaxslarga Davlat soliq qo‘mitasining 2012 yil 16 yanvardagi 08-640-sonli xati orqali hududlarga amalda foydalanish uchun yuborilgan «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 159¹-moddasi va 160-moddasining ikkinchi qismini amalda qo‘llash bo‘yicha Uslubiy ko‘rsatmalar» asosida ma‘muriy bayonnoma tuzib, tegishli choralar ko‘rish uchun davlat soliq inspeksiyasi rahbariyatiga belgilangan tartibda kiritadi;

- soliq imtiyozi huquqiga ega fuqarolar davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etgan imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjatlar asosida Soliq kodeksida belgilangan tartibda imtiyozni hisobga oladi, tegishli ma‘lumotlarni dasturiy mahsul bazasiga kiritish uchun shaxsiy kartochkalarni yuritishga mas‘ul bo‘limga topshirib, dasturiy mahsul bazasidan olingan ma‘lumot asosida imtiyozning boshlanish va tugash muddatlari nazoratini olib boradi;

- davlat soliq xizmati organining Soliq bo‘yicha qarzlarni majburiy undirish bo‘limi tomonidan tayyorlangan soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomalarni soliq qarzi mavjud jismoniy shaxslarga belgilangan tartibda yetkazadi, soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi

talabnoma muddatida bajarilmagan hollarda, undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish to'g'risidagi da'vo arizasiga ilova qilinadigan tegishli hujjatlarni (to'lov xabarnomasi, qarzdor fuqaroning yashash joyidan ma'lumotnoma, soliq qarzi to'g'risida solishtirish dalolatnomasi va h.k.) yig'ib, Davlat soliq qo'mitasining 2010 yil 17 maydagi «Jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish to'g'risida»gi 34-F-sonli Farmoyishi talablari asosida Soliq bo'yicha qarzlarni majburiy undirish bo'limiga taqdim etadi;

- amaldagi qonunchilikda belgilangan hollarda vakolatli idoralar tomonidan jismoniy shaxslarning haqiqatda foydalanayotgan yer maydonlarini o'lchab chiqish ishlarida ishtirok etadi va natijasi yuzasidan yil boshida hisoblangan yer solig'ini qayta hisob-kitob qiladi;

- tuman (shahar) «Ermulkkadastr» xizmatlari tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlar asosida jismoniy shaxslar yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilayotgan holatlar yuzasidan Soliq kodeksining 121-moddasi talablaridan kelib chiqqan holda jarima solish uchun hujjatlarni rasmiylashtiradi;

- yangidan davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxsning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 maydagi PQ-357-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibi to'g'risida»gi Nizomning 6-ilovasidagi «Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida»gi guvohnomasida ko'rsatilgan pochta manzilida haqiqatda joylashganligini kuzatadi va bu haqda davlat soliq inspeksiyasi rahbariga yozma ravishda axborot kiritadi;

- biriktirilgan hududda davlat soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan nazorat tadbirlari va tekshirishlarda belgilangan tartibda qatnashadi;

- soliq qonunchiligi bo'yicha murojaat bilan kelgan fuqarolarni qabul qiladi, tushuntirishlar beradi va fuqarolarni qabul qilish kitobini 1-ilovaga muvofiq shaklda yuritadi;

- davlat soliq inspeksiyasi rahbariyatining yozma topshirig'iga asosan fuqarolarning murojaatlarini o'z vakolati doirasida o'rganadi;

- davlat soliq inspeksiyasi bilan qonunda belgilangan tartibda tuzilgan shartnomaga binoan javobgarligidagi tovar-moddiy boyliklar, qat'iy hisobdagi blankalar, jihozlarning saqlanishini ta'minlash, hisobini yuritishda moddiy javobgar shaxs hisoblanadi.

Uchastka soliq inspektorining huquq va majburiyatlari.

Uchastka soliq inspektori o'z faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, Soliq kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda mazkur Nizomda belgilangan huquqlardan foydalanadi.

Uchastka soliq inspektori quyidagi huquqlarga ega:

- o'z vakolati doirasiga kirgan masalalarda inspeksiyaning Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi faoliyatini tartibga solish yuzasidan ichki idoraviy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

- qonunchilikda belgilangan tartibda vazifa (topshiriq)larni o'z vaqtida va sifatli bajarilgani uchun, lavozim maoshiga ustama, mukofotlar va boshqa turdagi moddiy rag'batlantirish, mehnat ta'tili hamda moddiy yordam olish.

Uchastka soliq inspektorlari o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda «Uchastka soliq inspektori to'g'risida»gi Nizomda belgilab qo'yilgan huquq va vakolatlardan foydalanadilar. Uchastka soliq inspektoriga qo'yiladigan talablar. Uchastka soliq inspektori davlat soliq xizmati tizimida kamida 3 yillik ish stajiga, etarli bilim va ish tajribasiga;

- yuqori muomala madaniyatiga, fuqarolar bilan ishlash qobiliyatiga;

- o'rta maxsus darajadan kam bo'lmagan iqtisodiyot, moliya yoki yuridik ixtisos bo'yicha ma'lumotga;

- soliq qonunchiligini chuqur o'zlashtirgan, aholiga soliqlar mohiyatini tushintirish borasida targ'ibot va tashviqot ishlarini namunali tashkil qilish qobiliyatiga ega mutaxassis bo'lishi lozim. Uchastka soliq inspektorining javobgarligi. Uchastka soliq inspektori

- o'z xizmat vazifasini bajarmagan;
- amaldagi qonunchilikka zid harakat qilgan;
- mehnat intizomini buzgan;
- Nizom talablarini bajarmagan, etarli darajada bajarmagan va buzganda qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

9.3. Uchastka soliq inspektorining ish faoliyatini tashkil qilish, nazorat qilish va lavozimiga tayinlanadigan xodimga qo'yiladigan talablar

Uchastka soliq inspektori o'z faoliyatida bevosita davlat soliq inspeksiyasining jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi hamda uchastka soliq inspektorlari faoliyatini nazorat qilish va yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish sho'basini boshliqlariga bo'ysunadi.

Har bir uchastka soliq inspektori o'ziga birlashtirilgan hududni belgilovchi, davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i buyrug'i bilan tasdiqlangan hujjatga va «Uchastka pasporti»ga ega bo'lishi shart.

«Uchastka pasporti» har yili yangilab boriladi va unda:

- birlashtirilgan uchastkaning joylashgan joyi xaritasi;
- soliq tayanch punkti joylashgan manzili va unda o'rnatilgan telefon raqami;
- mahalla (qishloq) fuqarolar yig'ini va undagi ko'cha (qishloq)lar nomi;
- har bir mahalla (qishloq) fuqarolar yig'ini va ko'cha (qishloq)lar kesimida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlari va yer uchastkalari maydoni, ularning umumiy inventarizatsiya qiymati;
- har bir imtiyoz turi bo'yicha soliq imtiyozidan foydalanayotgan jismoniy shaxslar soni, ularning umumiy inventarizatsiya qiymati va yer uchastkasi maydoni;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari soni, ularning yer uchastkasi maydoni va soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflandigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmi;
- yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslar soni (faoliyat turi bo'yicha);
- asosiy bo'lmagan ish joyidan, jumladan o'z mol-mulkini ijaraga berib daromad topayotgan fuqarolar soni;
- hisoblangan soliqlar, imtiyoz summasi va undirilishi lozim bo'lgan soliq summasi hamda uchastkaga bog'liq bo'lgan boshqa ma'lumotlar bo'lishi shart.

Soliq to'lovchilarning turli masalalar bilan davlat soliq xizmati organiga kelib-ketishlaridagi noqulayliklarga barham berish maqsadida, ularning amaldagi soliq qonunchiligi bo'yicha murojaatlariga

tegishli tushuntirishlar berilishi uchastka soliq inspektorlariga biriktirilgan aholi punktlarining uzoqligi va joylashishidan kelib chiqqan holda, Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlari hamda viloyatga bo'ysunuvchi yirik shaharlarda tashkil etilgan soliq tayanch punktlarida amalga oshiriladi.

Uchastka soliq inspektori mazkur Nizom va lavozim yo'riqnomasida zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga, uchastkasi bo'yicha soliq obyektlari va subyektlari, hisoblangan va to'langan soliqlar nazoratini har hafta yakuni bilan dasturiy mahsuldan chiqariladigan hisobot ma'lumotlari asosida olib borishga, dasturiy mahsulda ko'zda tutilmagan hisobotlarni yuqori turuvchi davlat soliq xizmati organi tomonidan belgilanadigan shaklda yuritishga shaxsan javobgardir.

Uchastka soliq inspektorining ish tartibi davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi. Ish tartibi mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda va soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga muvofiq tarzda tashkil etiladi.

Uchastka soliq inspektori o'z vazifalarini bajarishda qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari va ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik qiladi, aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borishda qatnashadi, fuqarolar yig'inlarida bo'ladigan yig'ilishlarda ishtirok etadi, amaldagi qonunchilikda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlayotgan shaxslar bilan tushuntirish ishlarini olib boradi.

Vakolatli idoralardan soliq osolish obyektlari va subyektlari to'g'risida olingan ma'lumotlar, imtiyoz huquqi bo'yicha fuqarolar tomonidan davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etilgan tegishli hujjatlar hamda biriktirilgan hududda aniqlangan qonunbuzarlik holatlari bo'yicha uchastka soliq inspektori tomonidan yozilgan bildirgilar kanselyariyada ro'yxatga olinishi va tegishli bo'limda alohida jildlarga tikib borilishi shart. Uchastka soliq inspektori zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar doirasida amalga oshirgan kundalik ishlari va boshqa qo'shimcha ravishda bajarilgan rahbariyat topshiriqlarining qisqacha umumiy hisobotini 3-ilovadagi shaklda qayd etib boradi.

Uchastka soliq inspektorining faoliyati davlat soliq inspeksiyasi rahbariyati tomonidan nazorat qilib boriladi va natijalari har chorak yakuni bilan 4-ilovadagi baholash mezonlariga muvofiq baholanadi.

Davlat soliq inspeksiyasi rahbarlari uchastka soliq inspektorining hisobot davrida amalga oshirgan ishlari, qat'iy hisobdagi blankalarning ishlatishi, aholidan soliq to'lovlarini qabul qilishi hamda pul mablag'ini o'z vaqtida to'liq bank muassasasiga topshirishi borasidagi faoliyati belgilangan tartib va muddatlarda taftishdan o'tkazilishini nazorat qiladilar. Uchastka soliq inspektori bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda yoki boshqa lavozimga o'tkazilganda 5-, 5a- va 5b-ilovalardagi shaklda topshirish-qabul qilish dalolatnomasi tuziladi. Uchastka soliq inspektori lavozimiga davlat soliq tizimida ishlab turgan, soliq sohasida kamida 1 yillik mehnat stajiga ega oliy ma'lumotli, yuqori malakali, sog'lom, yuqori muomala madaniyatiga, fuqarolar bilan ishlash va soliqlar mohiyatini tushuntirish qobiliyatiga ega mutaxassislar qabul qilinadi.

Uchastka soliq inspektori lavozimiga zimmasiga yuklatilgan funktsional vazifalarni bajara olmaganligi, sha'niga dog' tushirganligi uchun boshqa bo'linma va lavozimdan chetlatilgan xodimlarni tayinlash ta'qiqlanadi. Uchastka soliq inspektorlarini rag'batlantirish Davlat soliq qo'mitasining 2004 yil 12 maydagi «O'zbekiston Respublikasi Soliq xizmati tizimi xodimlarining kasbiy mehnatini mukofotlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

Biriktirilgan uchastkasida hisoblangan soliqlarni muddatidan oldin byudjetga to'lanishini ta'minlagan, qo'shimcha manbalarni aniqlashda boshqa uchastka soliq inspektorlariga o'rnak ko'rsatgan, aholi o'rtasida soliq to'g'risidagi qonunlarni targ'ibot va tashviqot qilish ishlarini namunali tashkil etib, soliq to'lovchilarning hurmat va ishonchiga sazovor bo'lgan, o'z sha'niga dog' tushirmasdan mehnat qilayotgan, baholash mezonlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan uchastka soliq inspektorlari har chorak yakuni bilan DSI va DSB tomonidan rag'batlantirilib boriladi, eng yuqori ko'rsatkichga erishgan namunali uchastka soliq inspektorlari esa Davlat soliq qo'mitasi tomonidan har yili Mustaqillik bayrami arafasida alohida rag'batlantiriladi.

Talablarini bajarmagan yoxud etarli darajada bajarmagan va buzgan uchastka soliq inspektorlari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Uchastka soliq inspektorini rag'batlantirish

Uchastka soliq inspektorlarini rag'batlantirish Davlat soliq qo'mitasining 2004 yil 12 maydagi «O'zbekiston Respublikasi Soliq

xizmati tizimi xodimlarining kasbiy mehnatini mukofotlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

O'ziga birlashtirilgan uchastkasida hisoblangan soliqlarni muddatidan oldin byudjetga to'lanishini ta'minlagan, qo'shimcha manbalarni aniqlashda boshqa uchastka soliq inspektorlariga o'rnak ko'rsatgan, aholi o'rtasida soliq to'g'risidagi qonunlarni targ'ibot va tashviqot qilish ishlarini namunali tashkil etib, soliq to'lovchilarning hurmat va ishonchiga sazovor bo'lgan, baholash mezonlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan uchastka soliq inspektorlarining oylik ish haqiga «Byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi to'g'risida»gi Nizomning (ro'yxat raqami 177, 1995 yil 20 sentyabr) 3.2-bandiga muvofiq byudjet mablag'larining moddiy rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan lavozim maoshining 50 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda, lozim bo'lgan hollarda soliq organlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan ustama to'lanadi. Davlat soliq qo'mitasining 2011 yil 23 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari uchastka soliq inspektorlarining faoliyatini baholash tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi 14-sonli buyrug'iga asosan, uchastka soliq inspektorlari har oy yakuni bilan davlat soliq inspeksiyasi va har chorak yakuni bilan hududiy davlat soliq boshqarmasi tomonidan rag'batlantirib boriladi, shuningdek eng yuqori ko'rsatkichga erishgan namunali uchastka soliq inspektorlari Davlat soliq qo'mitasi tomonidan yiliga bir marotaba alohida rag'batlantiriladi.

Uchastka soliq inspektori faoliyatini baholashning asosiy yo'nalishlari va ularni amalga oshirish tartibi. Uchastka soliq inspektorlarining faoliyati ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalar belgilangan tartibda va muddatlarda bajarilishi yuzasidan Davlat soliq qo'mitasining 2011 yil 23 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari uchastka soliq inspektorlarining faoliyatini baholash tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi 14-sonli buyrug'i asosida baholab boriladi, lozim bo'lgan hollarda davlat soliq inspeksiyasi boshlig'ining buyrug'i asosida taftishdan o'tkaziladi.

Davlat soliq organlarining uchastka inspektorlari tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar natijalarini baholash ikki yo'nalish bo'yicha va 13 mezonlar asosida amalga oshirilib, har bir

mezonlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichga erishilgan jami 100 ball to'planadi.

Shuga muvofiq:

-hisobot choragida 81 va undan yuqori ball to'plagan uchastka soliq inspektorining faoliyati "namunali" deb baholanadi;

-hisobot choragi 50 balldan 80 ballgacha to'plagan uchastka soliq inspektorining faoliyati "qoniqarli" deb baholanadi;

-hisobot choragi 50 balldan kam ball to'plagan uchastka soliq inspektorining faoliyati "qoniqarsiz" deb baholanadi.

Respublikada eng past ko'rsatkichga yo'l qo'ygan uchastka soliq inspektorining javobgarligi har oy yakuni bilan davlat soliq boshqarmalari Kengashi va davlat soliq inspeksiyalarining umumiy yig'ilishida, har chorak yakuni bilan Davlat soliq Qo'mitasi Hay'atining yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

Uchastka soliq inspektorlari faoliyatini baholash qo'yidagi ikki yo'nalishda:

-"Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish" hamda "Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig'i ob'ektlarini hisobga olish" dasturiy mahsullarining elektron axborotlar bazasi va joylardan olinadigan BL-pochta ma'lumotlari tahlili asosida;

-Davlat soliq qo'mitasining 2011 yil 10 yanvardagi 01-F-sonli farmoyishiga asosan DSQ va DSB larda tuzilgan Ishchi guruhlari tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar natijalari asosida amalga oshiriladi.

Har bir yo'nalishda belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha uchastka soliq inspektorlarining faoliyati baholanadi va qo'yidagi mezonlar asosida tahlil qilinadi.

9.4. Soliq tayanch punktining tashkiliy va huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2014 yil 7 fevraldagi "Soliq tayanch punktlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 46-sonli buyrug'iga asosan Soliq tayanch punktining namunaviy Nizomi tasdiqlandi.

Nizom O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi

PQ-1257-sonli, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 12 yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi 14-sonli, 2000 yil 13 martdagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi 87-sonli, 2000 yil 5 maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi 180-sonli qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan va soliq tayanch punkti maqomi, ish tartibi hamda vazifalarini belgilaydi.

Soliq tayanch punkti davlat soliq inspeksiyasining hududiy quyi bo‘g‘ini bo‘lib, soliq to‘lovchilar hamda soliq solish obyektlarining to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta‘minlash, birlashtirilgan uchastkada mol-mulk, yer va suv solig‘i to‘lovchi, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni hisobga olish, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish va bu boradagi qonunbuzilish holatlarining oldini olish maqsadida tuziladi.

Soliq tayanch punkti aholi yashash joylarida, mahalliy davlat hokimiyati organlari qaroriga asosan ajratilgan binoda davlat soliq boshqarmasining buyrug‘i bilan tashkil etiladi. Davlat soliq inspeksiyasiga yaqin bo‘lgan hududlarda soliq tayanch punkti tashkil etilishi shart emas.

Soliq tayanch punktiga birlashtirilgan hududlar va uchastka soliq inspektorlari soni davlat soliq inspeksiyasi buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Bunda qishloq (mahalla, ovul) fuqarolar yig‘inlari yaxlit hududlarini ikkita soliq tayanch punktiga bo‘lib birlashtirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Soliq tayanch punktiga birlashtirilgan xodimlar o‘z faoliyatini «O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari uchastka soliq inspektori to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq amalga oshiradilar. Ularning xizmat vazifalari taqsimoti davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq tayanch punktining asosiy vazifalari va funksiyalari

Soliq tayanch punktining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- soliq tayanch punktiga birlashtirilgan hududdagi soliq to‘lovchilar, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta‘minlash hamda soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlar va majburiy to‘lovlar belgilangan muddatlarda to‘lanishi ustidan nazorat qilish;

- aholi o'rtasida soliq qonunchiligini targ'ibot-tashviqot qilish, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari borasida tushuntirish ishlarini olib borish;

- soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish borasida ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari, fuqarolar yig'inlari va mahalla vakillari bilan doimiy hamkorlikda ish olib borish;

- davlat ro'yxatidan o'tmasdan xufiyona tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan, uy-joyga doir mulk huquqini ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlarda o'z vaqtida rasmiylashtirmagan fuqarolarni aniqlash va tegishli choralarni ko'rish;

- hududda nazorat ishlarini amalga oshirayotgan soliq inspektorlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

- soliq tayanch punktida soliq to'lovchilar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ko'rgazmali stendlar, normativ-huquqiy hujjatlar, e'lonlar taxtasi bilan jihozlash.

Soliq tayanch punkti zimmasidagi vazifalarni hal qilish uchun uchastka soliq inspektori quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- o'ziga biriktirilgan hududdagi soliq to'lovchilarning haqiqiy manzili, rahbar va hisobchilari to'g'risidagi hamda boshqa tegishli ma'lumotlarni to'plab boradi, shuningdek boshqa tumanda ro'yxatdan o'tib ushbu hududda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarni aniqlab, ular ro'yxatdan o'tgan davlat soliq inspeksiyasiga ma'lumot yuboradi;

- davlat ro'yxatidan o'tgandan keyin soliq to'lashdan bo'yin tovlagan holda faoliyat yuritayotgan shaxslarni aniqlaydi;

- davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat yuritayotgan shaxslarni aniqlaydi;

- soliq hisobotlari va deklaratsiyalarini topshirmayotgan shaxslarga ogohlantirish va chaqiruv qog'ozi taqdim qiladi;

- jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda to'lash muddati o'tgan soliqlar, ma'muriy va moliyaviy jarimalarni majburiy undirish maqsadida sudlarga murojaat qilish yuzasidan davlat soliq inspeksiyasi rahbariyatiga yozma taklif kiritadi;

- biriktirilgan hududda joylashgan barcha savdo nuqtalarining dislokatsiya sxemasini ishlab chiqadi;

- soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish borasida muntazam ravishda profilaktika inspektorlari, fuqarolar yig'inlari va mahalla vakillari bilan hamkorlikda tadbirlar, suhbatlar o'tkazadi;

- amaldagi qonunchilikka muvofiq zimmasiga yuklatiladigan boshqa funktsiyalarni bajaradi.

Soliq tayanch punkti faoliyatini boshqarish va ta'minoti

Soliq tayanch punkti faoliyatini davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i buyrug'i asosida ushbu soliq tayanch punktiga biriktirilgan uchastka soliq inspektorlaridan biri rahbar qilib tayinlanadi va u rahbarlik qiladi.

Soliq tayanch punktida bir nafar uchastka soliq inspektori faoliyat ko'rsatgan hollarda, shu uchastka soliq inspektorining o'zi javobgar shaxs hisoblanadi.

Soliq tayanch punkti rahbari:

- soliq tayanch punkti zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishini tashkillashtiradi, biriktirilgan xodimlarga bevosita rahbarlik qiladi;

- biriktirilgan xodimlar tomonidan mehnat intizomiga rioya etilishini nazorat qiladi. Ularning xatti-harakatlarida qonunbuzilishlarga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, davlat soliq inspeksiyasi rahbariyatiga yozma ravishda axborot beradi;

- soliq to'lovchilarni hisobga olish borasidagi ishlar, aniqlangan xufyona iqtisodiyot yuritish holatlari to'g'risida davlat soliq inspeksiyasi rahbariyatiga axborot kiritadi;

- biriktirilgan hududda joylashgan soliq to'lovchilar faoliyati nazoratini samarali tashkil etish maqsadida davlat soliq inspeksiyasi bo'linmalari bilan muntazam ravishda ma'lumot almashuvini tashkil qiladi;

- biriktirilgan hududda joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarning ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'iy nazar, aniq manzili, rahbarlari va buxgalterlari to'g'risidagi hamda boshqa tegishli ma'lumotlar to'planishini ta'minlaydi va nazorat qiladi;

- soliq to'lovchilarga soliq qonunchiligini targ'ib qilish va tushuntirishlar berish borasidagi tadbirlarni tashkillashtiradi;

- boshqa nazorat organlari va tashkilotlar bilan vakolati doirasida hamkorlikda ish olib borishni tashkil qiladi;

- soliq tayanch punktiga biriktirilgan har bir xodimdan qilingan ishlar to'g'risida kunlik hisobot oladi va davlat soliq inspeksiyasiga axborot berib boradi;

- biriktirilgan hududda soliq nazorati ishlarini olib borayotgan boshqa funktsional bo'limlarning xodimlariga ko'maklashadi.

Soliq tayanch punktiga biriktirilgan uchastka soliq inspektorlari o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari uchastka soliq inspektori to'g'risida»gi Nizomda belgilab qo'yilgan huquq va vakolatlardan foydalanadilar.

Soliq tayanch punktiga biriktiriladigan xodimga qo'yiladigan talablar

Soliq tayanch punktiga biriktirilgan xodim:

- soliq qonunchiligini chuqur o'zlashtirgan, aholiga soliqlar mohiyatini tushuntirish borasida targ'ibot va tashviqot ishlarini namunali tashkil qilish qobiliyatiga ega mutaxassis bo'lishi lozim.

Soliq tayanch punktiga biriktirilgan xodimning javobgarligi:

Soliq tayanch punktiga biriktirilgan xodim:

- a) o'z xizmat vazifasini bajarmagan;
- b) amaldagi qonunchilikka zid harakat qilgan;
- v) mehnat intizomini buzgan;
- g) mazkur Nizom talablarini bajarmagan, yetarli darajada bajarmagan va buzganda qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Soliq tayanch punktining ta'minoti

Soliq tayanch punkti uchun ajratilgan xonalar:

- soliq tayanch punktiga biriktirilgan soliq xizmati xodimlari uchun normal ish sharoiti yaratish uchun zarur sharoitlarga ega bo'lishi;

- soliq to'lovchilarni, jumladan, ularning bir necha nafarini birga qabul qilish, suhbatlar o'tkazish uchun zarur inventarlar bilan jihozlanishi;

- soliq to'lovchilar uchun soliq qonunchiligiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, yo'riqnomalar bilan ta'minlanishi;

- kompyuter va aloqa vositalari (USB-modem) bilan ta'minlanishi;

- mahalliy va markaziy matbuot nashrlariga obuna qilinishi;

- kompyuter va boshqa qiymatliklarning saqlanishini ta'minlash maqsadida deraza va eshiklariga temir panjara o'rnatilgan bo'lishi;

- qo'riqlash uskunaci o'rnatilgan bo'lishi;

- yong'in xavfsizligi moslamalari bilan jihozlanishi;

- tibbiy aptechka bilan ta'minlanishi;
- soliq tayanch punktiga biriktirilgan hudud (uchastka) xaritasi bilan jihozlanishi;
- xona peshtoqiga soliq tayanch punkti rekvizitlari ko'rsatilgan yozuv taxtasi ilingan bo'lishi lozim.

Soliq tayanch punkti quyidagi tartibda:

- belgilangan me'yorlarda aloqa vositalari, transport, kompyuter texnikasi, printer, qat'iy hisobda turuvchi blankalar va boshqa zaruriy ish jihozlari bilan markazlashgan tartibda Davlat soliq qo'mitasi tomonidan;
- temir shkaf (seyf), ish stoli, stullar, hujjatlar uchun shkaf, soliq to'lovlarini undirish ishlarini olib borishda foydalanish uchun maxsus sumka va ish qog'ozlari bilan davlat soliq boshqarmasi tomonidan;
- telefon apparati, o't o'chiruvchi moslama, kanselyariya mollari va boshqa jihozlar bilan davlat soliq inspeksiyasi tomonidan ta'minlanadi.

Soliq tayanch punktlari ish jarayonida talab etiladigan boshqa inventar va qo'shimcha jihozlar, ratsiya, transport vositalari bilan ham zaruriyatdan kelib chiqib, belgilangan tartibda ta'minlanishi mumkin.

Hududiy davlat soliq inspeksiyalaridagi Axborot tizimlari sho'bbasi (administrator) tomonidan har bir soliq tayanch punktidagi kompyuter «USB-modem» orqali Internetga va qo'mita ma'lumotlar bazasiga bog'lab beriladi hamda ushbu jihozlar doimiy texnik ko'rikdan o'tkazib boriladi.

Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida, barcha uchastka soliq inspektorlari elektron raqamli kalitlar bilan bepul ta'minlanadi.

Soliq tayanch punkti xonalari va jihozlar saqlanishi uchun javobgarlik. Soliq tayanch punkti xonalari va ulardagi jihozlarning saqlanishi uchun javobgarlik biriktirilgan xodimlarga moddiy javobgarlik shartnomasi asosida yuklatiladi. Xona va jihozlarga yetkazilgan zarar belgilangan tartibda moddiy javobgar xodim tomonidan qoplanadi.

Biriktirilgan xodim ishdan bo'shagan yoki boshqa ishga o'tkazilganda unga tegishli bo'lgan jihozlar qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida qabul qilib olinadi.

Soliq tayanch punkti hududiy davlat soliq boshqarmasining buyrug'i bilan tugatiladi.

9.5. Soliq qonunchiligini buzgan jismoniy shaxslarga qo'llaniladigan choralar

Soliq to'lovchining Soliq kodeksda javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e'tirof etiladi.

Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o'n olti yoshdan boshlab vujudga keladi.

Hech kim soliqqa oid huquqbuzarlik uchun Soliq kodeksda nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo'yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Hech kim soliqqa oid sodir etilgan aynan bitta huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Agar jismoniy shaxs sodir etgan soliqqa oid huquqbuzarlikda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari bo'lmasa, bu huquqbuzarlik uchun Soliq kodeksda nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda qo'llaniladi.

Soliq to'lovchi soliqqa oid bir necha huquqbuzarliklar sodir etgan taqdirda, moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlikka nisbatan alohida-alohida qo'llaniladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan shaxs moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xuddi shunday huquqbuzarlikni takroran sodir etmagan bo'lsa, u moliyaviy sanksiyalarga tortilmagan hisoblanadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- og'ir shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar kechishi oqibatida huquqbuzarlik sodir etish;

- tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli huquqbuzarlik sodir etish;

- sud tomonidan javobgarlikni engillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi.

Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo‘lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo‘llaniladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga — soliq to‘lovchilarga moliyaviy sanksiyalar sud tartibida qo‘llaniladi, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddati o‘tkazib yuborilganligi uchun penya hisoblash, shuningdek soliq to‘lovchi sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybini tan olgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to‘lagan hollar bundan mustasno.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar faqat sud tartibida qo‘llaniladi, penya hisoblash hollari bundan mustasno.

Soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar va penya materiallar sudga berilgan kundan e‘tiboran o‘ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to‘langan taqdirda tadbirkorlik subyekti — soliq to‘lovchi o‘ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lamaganligi uchun jarimalar qo‘llanilishidan ozod qilinadi.

Soliq to‘lovchining, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidentining, bundan bir vaqtning o‘zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo‘yilgan holda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan soliq to‘lovchilar mustasno, davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishdan bo‘yin tovlashi quyidagi miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi:

- agar faoliyat ko‘pi bilan o‘ttiz kun amalga oshirilgan bo‘lsa, — eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning o‘n foizidan kam bo‘lmagan miqdorda;

- agar faoliyat o‘ttiz kundan ortiq amalga oshirilgan bo‘lsa, — eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning ellik foizidan kam bo‘lmagan miqdorda.

Soliq to‘lovchining, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidentining davlat soliq xizmati organida obyektlar bo‘yicha hisobga turishdan bo‘yin tovlashi quyidagi miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi:

- agar hisobga turish bo‘yicha belgilangan muddatdan ko‘pi bilan o‘ttiz kun o‘tgan bo‘lsa, — eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida;

- agar hisobga turish bo'yicha belgilangan muddatdan o'ttiz kundan ortiq o'tgan bo'lsa, — eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida.

Soliq to'lovchi — jismoniy shaxsga yoki soliq to'lovchining mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida takroran sodir etilgan soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaganlik — muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun bir foiz miqdorida, biroq belgilangan to'lov muddatida to'lanishi lozim bo'lgan to'lov miqdoridan tegishli hisobot davri uchun ilgari hisoblangan to'lovlar chegirib tashlangan summaning o'n foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish — faoliyatning ushbu turlarini litsenziyasiz yoki boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz amalga oshirish davrida olingan sof foyda miqdorida, biroq eng kam ish haqining ellik baravaridan kam bo'lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzish — to'lovning belgilangan muddatidan keyingi kundan e'tiboran muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun, to'lov kuni ham shunga kiradi, 0,033 foiz miqdorida penya hisoblashga sabab bo'ladi. Bunda boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summaga teng bo'lgan qarz summasiga penya hisoblanmaydi. Penya miqdori tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasidan oshib ketishi mumkin emas. Penya undirilishi soliq to'lovchini soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Yuridik shaxs — tadbirkorlik subyekti ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran barcha turdagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha penyalar hisoblash to'xtatiladi. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, penya belgilangan tartibda qo'shib hisoblanadi hamda hisoblashlar to'xtatib turilgan butun davr uchun undiriladi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish yer solig‘ining summasiga ekvivalent miqdorda:

- jismoniy shaxslarga — uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

9.6. Jismoniy shaxslarga soliq solishda amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullar va interfaol soliq xizmatlari

Dasturiy mahsulning elektron axborotlar bazasi va joylardan olinadigan BL-pochta ma‘lumotlar tahlili asosida:

a) *«Davyergeodezkadastr» Davlat qo‘mitasining hududiy bo‘limlari taqdim etgan ma‘lumotlar asosida aniqlangan soliq obyektlari bo‘yicha:*

- yer maydoni dasturiy mahsul bazasiga kiritilishi va hisoblangan yer solig‘i shaxsiy kartochkaga o‘tkazilishi holati;

- mulkning inventarizatsiya qiymati dasturiy mahsul bazasiga kiritilishi va hisoblangan mol-mulk solig‘i shaxsiy kartochkaga o‘tkazilishi holati.

Ushbu ko‘rsatkichning to‘liq bajarilishini ta‘minlash uchun uchastka soliq inspektorlari “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan o‘zlariga biriktirilgan uchastkada vakolati doirasida Soliq kodeksida nazarda tutilgan mol-mulk solig‘i va yer solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarni hamda soliq solish obyektlarini, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni to‘liq hisobga olish lozim.

Ularni hisobga olish uchun belgilangan talablardan kelib chiqqan holda, kadastr idoralaridan har yili 1 fevralgacha obyektining 1 yanvar holatiga ko‘ra yer uchastkasi maydoni, mol-mulkning inventarizatsiya qiymati va uning mulkdori to‘g‘risidagi ma‘lumotni olishlari shart.

Shuningdek, uchastka soliq inspektorlari kadastr idoralaridan olingan ma‘lumotlar asosida 09-shakl ma‘lumotlarini to‘ldirib, belgilangan tartibda “Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisoga olish” dasturiy mahsuliga kiritilishini ta‘minlaydi.

Bunda, jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo‘yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo‘lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan

belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan baza sifatida dasturiy mahsulga kiritiladi.

Shu bilan birga, jismoniy shaxslarga tegishli soliq solinadigan obyektlar dasturiy mahsul elektron bazasiga to'liq kiritilgandan so'ng, belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda to'liq hisoblanganligi va shaxsiy kartochkalarga kiritilganligini nazorat qiladilar.

Bunda, uchastka soliq inspektorlari Soliq kodeksining 176-moddasida mol-mulk solig'i bo'yicha nazarda tutilgan soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, soliq solish obyektlari jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilgan yoxud ular yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan taqdirda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan yashash uchun mo'ljallanmagan joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha hisoblanishini inobatga olish lozim.

Shu kabi, Soliq kodeksining 291-moddasida yer solig'i bo'yicha nazarda tutilgan soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa inshootlar, joylar yuridik shaxsga yoki tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undirilishi hamda ularga Soliq kodeksining 290-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etilmasligiga inobatga olinishi shart.

Qayd qilish lozimki, mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha hisoblangan soliq summalari shaxsiy kartochkalarda to'lash muddatida (15 oktyabr) ko'rsatilishini inobatga olib, uchastka soliq inspektorlarining faoliyatini baholashda yer maydoni va mulkning inventarizatsiya qiymati dasturiy mahsul bazasiga kiritilganligiga asosiy e'tibor qaratilgan.

Ushbu ko'rsatilgan tartibda kadastr idoralari taqdim etgan ma'lumotlar asosida soliq obyektlari bo'yicha yer maydoni va mulk qiymati dasturga to'liq kiritilishi hamda hisoblangan yer solig'i va mol-mulk solig'i summalari shaxsiy kartochkalarga o'tkazilishi ta'minlangan taqdirda, uchastka soliq inspektorining faoliyati har bir soliq turi uchun 5 balldan, jami 10 ball, aksincha 0 ball bilan baholanadi.

b) jismoniy shaxslarga soliq davri uchun hisoblangan soliq summaları belgilangan muddatida (hisobot yilining 15 oktyabriga qadar) undirilish holati.

Qayd qilish lozimki, uchastka soliq inspektorlari jismoniy shaxslarga soliq davri uchun hisoblangan mol-mulk va yer soliqlari summaları to'lov muddatlariga qadar to'liq undirilishini ta'minlash bilan bir qatorda, ularning har oyda maromda byudjedga kelib tushishini nazorat qilib borishlari shart.

Uchastka soliq inspektorlari o'ziga birlashtirilgan uchastkada vakolati doirasida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda aholi o'rtasida soliqlarni o'z vaqtida mahalliy byudjetga to'lash lozimligi va ulardan kelib tushgan mablag'lar o'zi istiqomat qilayotgan hududning rivojlantirilishiga sarflanishi to'g'risida qonun hujjatlarining mazmuni va mohiyatini targ'ibot va tashviqot qilish ishlarini tashkil etishlari kerak.

Shuningdek, mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali soliqlarni muntazam o'z vaqtida to'lab kelayotgan namunaviy soliq to'lovchilar va aksincha to'lash imkoniyati (aksincha, rahbar va mansabdor shaxslar) bo'la turib, yirik soliq qarzi mavjud bo'lgan jismoniy shaxslar to'g'risida ma'lumotlar e'lon qilinishiga e'tibor berilishi lozim.

Shu maqsadda, har bir uchastka soliq inspektori mol-mulk va yer soliqlari tushumi bo'yicha oylik rejalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Ushbu ko'rsatilgan tartibda jismoniy shaxslarga soliq davri uchun hisoblangan soliqlarning belgilangan muddatlarda to'liq undirilishi ta'minlanganda, uchastka soliq inspektorining faoliyati 10 ball, aksincha 0 ball bilan baholanadi.

v) soliq to'lovchi jismoniy shaxslardan undirilgan soliq summalarining tegishli:

- Yer solig'i shaxsiy kartochkalariga;
- Mol-mulk solig'i shaxsiy kartochkalariga kiritilishi holati.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslardan undirilgan mol-mulk va yer soliqlari to'lovlarini ularning shaxsiy kartochkalariga o'z vaqtida va to'g'ri kiritilishini ta'minlash uchun, Soliq kodeksining 78-moddasi talablaridan kelib chiqqan holda, aholidan soliq to'lovlari uchun naqd pulda yoki plastik kartochka asosida to'lov terminallari orqali

mablag'lar qabul qiladigan tijorat banklaridan soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning STIRlarini qo'yib berilishni talab qilishi kerak.

Aks holda, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 175-moddasiga asosan soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llanish tartibini buzganligi uchun aybdor shaxslariga nisbatan ma'muriy jazo qo'llashga sabab bo'ladi.

Ushbu ko'rsatilgan tartibda soliq to'lovchi jismoniy shaxslardan undirilgan soliq summalari tegishli shaxsiy kartochkalariga to'liq kiritilishi ta'minlanganda, uchastka soliq inspektorining faoliyati har bir soliq bo'yicha 4 ball dan, jami 8 ball, aksincha 0 ball bilan baholanadi.

g) "Report" moduli orqali dasturiy mahsulda aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf qilish holati.

Davlat soliq Qo'mitasi tomonidan o'tkazilayotgan tekshirishlarda uchastka soliq inspektorlarining faoliyatida aniqlanayotgan bir qator doimiy xarakterga ega bo'lgan kamchiliklarni uchastka soliq inspektorlarining o'zlari aniqlashi hamda ularni o'z vaqtida bartaraf etib borishi maqsadida, dasturiy mahsulda mavjud xato va kamchiliklarni shakllantirish imkoniyatini berish maqsadida, dasturiy mahsulda xato va kamchiliklarni aniqlash uchun "Report" moduli ishlab chiqilgan.

Uchastka soliq inspektorining faoliyati u "Report" moduli orqali dasturiy mahsulda aniqlangan xato va kamchiliklarni to'liq bartaraf qilgan bo'lsa - 5 ball, qisman bartaraf qilgan (50 foizdan yuqori) bo'lsa - 3 ball va bartaraf qilmagan (50 foizdan past) bo'lsa - 0 ball bilan baholanadi.

d) biriktirilgan hududdagi yakka tartibdagi tadbirkorlarning dasturiy mahsulda hisobga olinishi hamda ularga belgilangan tartibda qat'iy belgilangan soliq, sug'urta badali hisoblanishi va shaxsiy kartochkalarga o'tkazilishi holati.

Mazkur tadbirlarni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiyasi bilan belgilangan tartibda har oyda tuziladigan solishtirma dalolatnoma asosida har bir uchastka soliq inspektori o'ziga biriktirilgan hududda istiqomat qiluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun davlat ro'yxatidan o'tgan jismoniy shaxslarni dasturiy mahsulga kiritilishini

ta'minlashi (ushbu ishlar boshqa xodimga yuklatilgan bo'lsa nazorat qilishi) lozim.

Yakka tartibdagi tadbirkorga uning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasida ko'rsatilgan faoliyatini amalga oshirish manzili va turi hamda soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda, belgilangan tartibda qat'iy belgilangan soliq va sug'urta badali hisoblanib, shaxsiy kartochkalarga o'zkazilishini ta'minlashi kerak.

Ushbu ko'rsatilgan tartibda biriktirilgan hududdagi yakka tartibdagi tadbirkorlar dasturiy mahsulda to'liq hisobga olingan hamda ularga belgilangan soliq va sug'urta badali to'liq hisoblanib, shaxsiy kartochkalarga o'tkazilishi ta'minlanganda, uchastka soliq inspektorining faoliyati har bir soliq turi bo'yicha 3 balldan, jami 6 ball, aksincha 0 ball bilan baholanadi.

ye) yakka tartibdagi tadbirkorlardan undirilgan soliq summalarining shaxsiy kartochkalarga kiritilishi holati.

Ushbu ko'rsatilgan tartibda yakka tartibdagi tadbirkorlardan undirilgan qat'iy belgilangan soliq va sug'urta badallari tegishli shaxsiy kartochkalarga to'liq kiritilishi ta'minlanganda, uchastka soliq inspektorining faoliyati har bir soliq turi bo'yicha 3 balldan, jami 6 ball, aksincha 0 ball bilan baholanadi.

j) belgilangan hududda mulkini ijaraga berib daromad olgan jismoniy shaxslarning daromadini deklaratsiya asosida soliqqa tortish holati.

Jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlariga - mulkiy daromadlari kiradi (agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinadigan bo'lsa).

Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortishda asosiy yo'nalishlardan biri mulkini ijaraga berishdan olgan daromadlari hisoblansada, uchastka soliq inspektorlari tomonidan o'z hududida bu borada targ'ibot va tashviqot ishlari yetarli darajada tashkil etilmasligi hamda o'zini-o'zi boshqarish organi va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik lozim darajada ta'minlanmasligi, jismoniy shaxslarning mulkini ijaraga berish orqali olayotgan daromadlarga soliq solinmasdan qolishiga sabab bo'ladi.

Uchastka soliq inspektorlari o'z hududida Soliq kodeksining 189-moddasida belgilangan deklaratsiya asosida soliq solinadigan mulkini (transport, turar va noto'g'ri joy, marosimlarni o'tkazish uchun beriladigan buyumlar va boshqalar) ijaraga berib daromad olayotgan

fuqarolar to'g'risida ma'lumotlar to'plash ishlarini jadallashtirishi hamda ularning daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortilishini to'liq ta'minlashi lozim.

Ushbu ko'rsatilgan tartibda belgilangan hududda mulkni ijaraga berib, daromad olgan va deklaratsiya asosida soliqqa tortilgan jismoniy shaxslar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan oshgan taqdirda, uchastka soliq inspektorining faoliyati 5 ball, aksincha 0 ball bilan baholanadi.

z) jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzi hisobot choragi boshiga nisbatan qisqartirishi holati.

Soliq kodeksining 22-moddasiga muvofiq belgilangan muddatlarda to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar soliq qarzi deb e'tibor etilgan. Ushbu qoida talabidan kelib chiqib, soliq qarzi faqat uchastka soliq inspektorlari o'zining funksional vazifalarini lozim darajada bajarmaganliklari, aholi o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirmaganliklari natijasida hosil bo'ladi.

Uchastka soliq inspektorining faoliyati jismoniy shaxslarning shaxsiy kartochkalaridagi soliq qarzi hisobot choragi boshiga nisbatan 10 foizgacha qisqartirilganda - 3 ball, 51 foizdan 80 foizgacha qisqartirilganda - 6 ball, 81 foizdan 100 foizgacha to'liq qisqartirilganda - 10 ball bilan baholanadi.

Davlat soliq qo'mitasining 2011 yil 10 yanvardagi 01-F-sonli farmoyishiga asosan DSQ va DSBlarda tuzilgan Ishchi guruhlariga tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar natijalari asosida:

a) vakolatli davlat organlarining hujjatlari asosida soliq imtiyozlariga ega bo'lgan soliq to'lovchi jismoniy shaxslar va soliq solish obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarning dasturiy mahsulga kiritilishi holati.

Soliq kodeksining 275 va 294-moddalariga asosan mol-mulk solig'i va yer solig'idan imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxslar hisobini yuritish uchun vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan jismoniy shaxslar va ularning imtiyozi to'g'risidagi ma'lumotlar dasturiy mahsulga kiritiladi.

Bunda, Soliq kodeksining 275-moddasida belgilangan imtiyozlar mulkdorning tanlashga binoan faqat bir mol-mulk obyektiga taaluqli ekanligiga, shuningdek bu holatda nazarda tutilgan imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan

yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganligiga e'tibor qaratilishi lozim.

Dasturiy mahsuldan kiritilgan imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobotlar shaklida chiqarib olib, har bir turi bo'yicha imtiyozlarning vakolatli organlardan olingan ma'lumotlarga to'g'ri kelishi, ularga berilgan imtiyozlarning muddatlari mavjudligi, ayniqsa pensiya yoshiga yetgan fuqarolarning pensiyaga chiqqanligi va, aksincha, pensiya yoshiga yetmagan fuqarolarning nafaqaxo'r sifatida imtiyozlarning berilishi kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik maqsadida, kamida oyiga bir marotoba dasturiy mahsulni inventarizatsiya qilish lozim.

Vakolatli davlat organlarining hujjatlari asosida imtiyozga ega bo'lgan yer solig'ini to'lovchi jismoniy shaxsga tegishli soliq solish obyekti hamda mol-mulk solig'i to'lovchi jismoniy shaxsga tegishli soliq solish obyekti va uning inventarizatsiya qiymati dasturga to'liq kiritilishi ta'minlanganda, uchastka soliq inspektorining faoliyati har bir soliq turi bo'yicha 5 balldan, jami 10 ball, aksincha 0 ball bilan baholanadi.

b) soliq to'lovchilarga yer va mol-mulk soliqlarini to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomalarini topshirish holati.

Uchastka soliq inspektorlari o'ziga biriktirilgan hududdagi jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer uchastkalariga hisoblangan soliqlarni to'lashi to'g'risidagi muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomalarini soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga har yili 1 maydan kechiktirmay topshirishlari lozim.

Bunda, uchastka soliq inspektorlari yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgargan va imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan (bekor qilingan) jismoniy shaxslarni doimiy nazoratga olish lozim. Chunki, mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig'ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to'lovchiga yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.

Shu kabi, uchastka soliq inspektorlari tomonidan mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, hisob-kitob to'g'ri yuritilishi uchun dasturiy mahsulda o'z vaqtida o'zgartirish kiritish lozim. Shundan so'ng, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdordan mol-mulk solig'i summasini va ushbu soliqdan u mol-

mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar bo'lgan qarzlarni undirib olish hamda yangi mulkdorga esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi to'g'risida to'lov xabarnomasini taqdim etilishi shart.

Ushbu ko'rsatilgan tartibda soliq to'lovchilarga yer va mol-mulk soliqlarini to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomalarini har yili 1 maydan kechiktirmay to'liq topshirganda, uchastka soliq inspektorining faoliyati 10 ball, aksincha 0 ball bilan baholanadi.

v) biriktirilgan uchastkadagi soliq to'lovchilarining dasturiy mahsuldagi ortiqcha to'lovlari holati.

Soliq kodeksining 56-moddasiga asosan soliqlarning byudjetga to'langan hamda to'lash uchun hisoblangan summalar o'rtasidagi ijobiy farq ortiqcha to'langan soliq summasi deb e'tirof etiladi.

Ortiqcha to'langan summa soliq qarzini qo'yidagi ketma-ketlik uzish hisobiga olinishi kerak:

- soliqning mazkur turi bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga;

- boshqa turdagi soliqlar bo'yicha qarzni uzish hisobiga;

- boshqa turdagi soliqlar bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga;

- mazkur soliq bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga;

- boshqa turdagi soliqlar bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga;

Ortiqcha to'langan soliq summasi boshqa soliq to'lovchining soliq qarzini uzish hisobiga olinishi mumkin emas.

Ushbu ko'rsatilgan tartibda biriktirilgan uchastka bo'yicha dasturiy maxsulda ortiqcha to'lov summaları real holatga keltirilganda, uchastka soliq inspektorining faoliyati 6 ball, aksincha 0 ball bilan baholanadi.

g) dasturiy mahsuldan chop etilib, bildirgi asosida uchastka soliq inspektorlariga taqdim etilgan soliq qarzini uzish to'g'risidagi ogohlantirish talabnomalarini qarzidorlarini topshirilishi holati.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari bajarilishini ta'minlash choralari jumlasiga soliq to'lovchiga davlat soliq xizmati organi tomonidan uning majburiyatini bajarish zarurligi hamda soliq qarzini majburiy undirish yuzasidan ko'riladigan choralar to'g'risida yuborilgan talabnomasi kiradi.

Shu sababli, Soliq kodeksining 60-moddasiga muvofiq, uchastka soliq inspektorlari tomonidan soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma shakli dasturiy mahsuldan chop etilib, uni to'lovchiga yoki

uning vakiliga bu talabnomani soliq to'lovchi olganligini va talabnoma olingan sanani tasdiqlovchi usulda topshiriladi.

DSQning 2010 yil 12 maydagi 34-F sonli Farmoyishining 1-ilovasidagi "Jismoniy shaxslar va yakka tartidagi tadbirkorlarning soliq qarzini majburiy undirishga qaratishda joylarda har bir bo'linma tomonidan bajaradigan ishlar harakat rejasi"da belgilangan talablarga qattiq rioya qilishlari shart.

Bunda, DSIning Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi dasturiy mahsul orqali soliq qarzi mavjud har bir yakka tartibdagi tadbirkor va jismoniy shaxsga 3 kun muddatda ogohlantirish talabnomalarini tayyorlab, hududlar kesimida ro'yxatini tuzib tegishli uchatka soliq inspektorlariga taqdim etish maqsadidi bildirgi bilan DSI boshlig'i (o'rinbosari)ga kiritadi.

Ushbu tayyorlangan ogohlantirish talabnomalari DSI boshlig'i (o'rinbosari) munosabat belgisi orqali Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi tomonidan uchatka soliq inspektorlariga ro'yxati va shaxsiy imzosi orqali topshirilgandan keyin, ikki kun muddatda shaxsan yoki pochta xizmati orqali buyurtma xat bilan qarzdorlarga yetkazilishi ta'minlanadi.

Uchastka soliq inspektorlari soliq qarzini uzish to'g'risidagi ogohlantirish talabnomalarini qarzdor yakka tartibdagi va jismoniy shaxsga yetkazgan kundan boshlab bir kun muddatda Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limiga ogohlantirish talabnomasining fuqaro olganligini tasdiqlovchi nusxasini yoki pochta orqali buyurtma xat bilan topshirilganligi to'g'risidagi kvitansiyaning taqdim etadi. Shu bilan birga, sudga da'vo arizasini tayyorlash uchun belgilangan muddatda o'ziga biriktirilgan uchastka bo'yicha ariza (da'vo arisasi) ilova qilinadigan tegishli hujjatlarni (to'lov xabarnomasi koreshogi, qarzdor fuqaroning yashash joyidan ma'lumotnoma, soliq qarzi to'g'risida solishtirish dalolatnomasini) yig'ib, Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limiga berilishini ta'minlaydi.

Ushbu ko'rsatilgan tartibda dasturiy mahsuldan chop etilib, bildirgi asosida uchastka soliq inspektorlariga taqdim etilgan soliq qarzini uzish to'g'risidagi ogohlantirish talabnomalari qarzdorlarga to'liq topshirilgan taqdirda uchastka soliq inspektorining faoliyati 8 ball, aksincha 0 ball bilan baholanadi.

d) davlat ro'yxatidan o'tmasdan noqonuniy faoliyat yuritayotgan jismoniy shaxslarni aniqlash va ularning noqonuniy faoliyatiga barham berish holati.

Uchastka soliq inspektorlari tomonidan o'ziga biriktirilgan hudud-da noqonuniy yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolarni, davlat ro'yxatidan o'tmasdan daromad topayotgan, xuf-yona yo'l bilan alkogolli mahsulotlar, o'simlik yog'i ishlab chiqarish va boshqa yashirish sexlarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan, noqonuniy ravishda yer maydonlarini egallab olgan shaxslarni va boshqa qonunbuzurlik holatlari aniqlanishi va ularning noqonuniy faoliyatiga barham berish choralari ko'rilishi lozim.

Ushbu ko'rsatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tmasdan noqonuniy faoliyat yuritayotganligi aniqlangan jismoniy shaxslar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan oshgan bo'lsa uchastka soliq inspektorining faoliyati 3 ball, aksincha 0 ball bilan baholanadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Uchastka soliq inspektori tushunchasi hamda uning ishini tashkil qilishning huquqiy va me'yoriy asoslarini aytib bering.
2. Soliq tayanch punkti va uchastka soliq inspektorining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Uchastka soliq inspektorining qanday huquq va majburiyatlarini bilasiz?
4. Uchastka soliq inspektori lavozimiga tayinlanadigan xodimga qanday talablar qo'yiladi?
5. Uchastka soliq inspektori faoliyatini baholash tartibi qanday belgilangan?
6. Soliq tayanch punktining asosiy vazifalari va funksiyalari ?
7. Soliq qonunchiligini buzgan jismoniy shaxslarga qanday choralar qo'llaniladi?

X BOB. JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR AMALIYOTI

10.1. Zamonaviy soliq tizimida soliqqa tortish shakllari va usullari

Zamonaviy soliq tizimi soliqqa tortish shakllari va usullarining o‘ta xilma - xilligi bilan tavsiflanadi (ayrim mamlakatlar doirasida ularning 100 ga yaqin ko‘rinishlari mavjud). Rivojlangan mamlakatlarning barchasi va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi uchun ushbu tizimning tamoyillari va xususiyatlari umumiydir, lekin ularning bu tamoyillar va xususiyatlarni soliq siyosatlarida qo‘llanishlarida jiddiy farqlar bor.

Soliqlar o‘ziga xos belgilari yoki elementlariga qarab tavsiflanadi. Har qanday soliq turi quyidagi: manba, obyekt, subyekt, soliq stavkasi kabi muhim elementlarga ega bo‘ladi.

Barcha turdagi soliqlarning manbai o‘tmishdagi, hozirgi va kutilayotgan daromad hisoblanadi. haqiqatan ham, daromad, mulk (o‘tmishdagi to‘plangan daromad) mavjud bo‘lmasa yoki daromad olish huquqi (obligatsiyalar, veksellar shaklidagi qarz majburiyatlari va shu kabilar) bo‘lmasa, hech qanday soliq to‘lana olmaydi. Shunga ko‘ra soliq obyektlari farqlanadi, ya’ni soliq obyektlari deganda soliqqa tortilishi shart bo‘lgan narsalar yoki harakatlar: daromad, mulk yoki bitimlarning xilma -xil turlari tushuniladi.

Qonunga muvofiq soliq to‘lash javobgarligi zimmasiga yuklatiladigan shaxs soliq subyekt, pirovard natijada o‘z hisobidan soliq to‘lashni amalga oshirgan shaxs esa soliq egasi, deb nomlanadi. Masalan, egri soliqlarni byudjetga o‘tkazishga subyekt (yoki soliq to‘lovchi) bo‘ladigan savdogar javobgar bo‘ladi, tovarlarning narxiga kiritiladigan soliqni o‘z hamyonlaridan qoplaydigan iste’molchilar esa ushbu soliqlarning haqiqiy egalari bo‘ladilar.

Milliy daromad taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonida olingan daromadlar har qanday shakldagi soliqlarning iqtisodiy manbai

bo'ladi va binobarin, soliqqa tortish uchun mamlakat milliy daromadining miqdori (ko'proq yoki kamroq davom etadigan vaqt mobaynida) absolyut (mutloq) darajadagi eng yuqori miqdor bo'ladi. Bu esa davlat byudjetiga daromadlarni yo'naltirishning to'g'ri shaklidan, ya'ni hosil qilingan milliy daromadni tashkil etadigan birlamchi daromadlarni - ishchilar va xizmatchilarning ish haqlarini, tadbirkorlarning foydalarini, foiz va yer rentasini soliqqa tortishdan foydalanganida ayon bo'ladi. Ushbu holda davlat jamiyatning yetishtirgan daromadidan bir qismini to'g'ridan - to'g'ri o'z foydasiga o'zlashtiradi.

Bundan tashqari, davlat birlamchi daromad oluvchilar (mehnat-kashlar, tadbirkorlar va yer egalari) iste'mol qiladigan tovarlar va xizmatlarning narhlariga ustamalar joriy etish yo'li bilan daromadlarni olib qo'yishning egri shaklidan ham foydalanishi mumkin. Iste'molchilar tovarlar va xizmatlarni sotib olar ekanlar, ushbu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish sarf - xarajatlarini qoplabgina va tadbikorning oladigan foydasini to'labgina qolmay, o'z daromadlarining bir qismini davlat xazinasiga ham beradilar.

Daromadlarni olib qo'yish usuliga qarab, soliqqa tortishning birinchi shakli to'g'ridan - to'g'ri soliqqa tortish deb, ikkinchi shakli esa egri soliqqa tortish, deb nomlanadi.

Davlat tomonidan milliy daromadning bir qismining o'zlashtirilishi to'g'ri va egri shakllarga farqlanishi shunday fundamental (muhim) tamoyilki, soliqlarning barcha mavjud tasniflari shunga asoslanadi.

To'g'ri soliqlarning keyingi tasniflanishi obyekt elementi bo'yicha amalga oshirilishi mumkin (chunki barcha to'g'ri soliqlarning subyekti bir xildir - daromadning, mulkning egasi yoki tasarruf etuvchisi va shu kabilar ana shunday subyekt bo'ladi), egri soliqlarning keyingi tasniflanishi esa subyekt elementi bo'yicha amalga oshirilishi mumkin (negaki tovarni, xizmatni, mulkni va hokazolarni sotish yoki ularni boshqa shaklda topshirish, begonalashtirish egri soliqlar uchun yagona obyekt bo'ladi). Bundan tashqari, soliqlar soliq stavkasini belgilash, soliq undirish usuli, bo'ysinuv darajasi va maqsadli yo'nalishi bo'yicha farqlanadi.

Soliq stavkasi - soliqqa tortiladigan obyekt birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan to'lov me'yorida. Soliq stavkalari qat'iy qiymatlarda yoki foizlarda belgilanadi. Qat'iy stavkalar ba'zi egri soliqlarga, aksizlarga, bojxona bojlariga, jon boshiga solinadigan

soliqqa va hokazo soliqlarga xos bo‘ladi va soliq solish obyektining har bir birligidan undiriladigan birmuncha pul miqdorida ifodalanadi. Foiz stavkalari daromad soliqlarini, hadyalar va meroslardan olinadigan soliqlarni, egri soliqlar va boshqa soliqlarni hisoblab chiqishda qo‘llaniladi va daromad kattaligiga (miqdoriga), mulk qiymatiga va shu kabilarga nisbatan foizlarda ifodalangan soliq ulushi bo‘ladi.

Proportsional, progressiv va regressiv foiz stavkalari bo‘ladi. Proportsional (mutanosib) stavkalar qo‘llanilganda soliq ulushi daromad, mulk va shu kabilarning kattaligidan (miqdoran) qat’iy nazar, o‘zgarmay qoladi, Progressiv yoki regressiv soliq stavkalari qo‘llanilganda esa soliq ulushi soliq obyektini kattaligi o‘zgargan sayin tegishli ravishda oshadi yoki kamayadi.

Rivojlangan mamlakatlarda soliq undirishning uchta usuli: kadastr, o‘zi hisoblab yozish (deklaratsiya), ma‘muriy (yoki soliqni "manbaning o‘zidan" ushlab qolish) usullari qo‘llaniladi.

Kadastr usuli kadastrlarni - soliqqa tortilishi lozim bo‘lgan barcha obyektlar (yer, imorat, fuqaro va hokazolar) ro‘yxatga olinadigan yoki qayta ro‘yxatga olinadigan kadastrlarni vaqti - vaqti bilan tuziluvchi ro‘yxatlarni qo‘llashga asoslanadi. Kadastr usuli muntazam ravishda kadastrlar tuzish uchun davlatning katta sarf - xarajat qilishini taqozo etadi va shu boisdan g‘oyat cheklangan darajada qo‘llaniladi. O‘zi hisoblab yozish usuli daromad soliqlarini undirish uchun qo‘llaniladigan soliqqa tortishning ayniqsa, keng tarqalgan usulidir. Bu usul qo‘llanilganda soliq to‘lovchilar mustaqil ravishda (soliq organlariga maxsus bayonnoma taqdim etish yo‘li bilan) o‘z daromadlarini hisoblab chiqadilar, barcha belgilangan chegirishlar va imtiyozlarni amalga o‘tirib, to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq miqdorini belgilaydilar. Soliq organlari olingan deklaratsiyalarni tekshirib chiqadilar va xazinaga soliqni to‘lash to‘g‘risida ko‘rsatma beradilar. Shuni ta‘kidlash kerakki, o‘zi hisoblab yozish asosida soliqqa tortiladigan soliq to‘lovchilar o‘zlari deklaratsiyalarida taqdim etadigan ma‘lumotlarining to‘g‘riligi va to‘liqligi uchun (toki jinoiy javobgarlikka tortishgacha) to‘la javobgar bo‘ladilar.

Ba‘zi mamlakatlarda soliq undirishning ma‘muriy usuli qo‘llaniladi, bu usulni qo‘llaganda soliq sohasi ma‘murlarining o‘zlari soliqqa tortiladigan daromad miqdorini ba‘zi bilvosita belgilar (mijozlar soni, bozor kon’yukturasi va hokazolar) asosida belgilaydilar.

Soliqqa tortishning bo‘nak (yoki oldindan undirish) usulida belgilangan soliq miqdori ushbu daromadni oluvchining foydasiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromaddan ushlab qolinadi. Daromadni oluvchi (daromadning egasi) emas, balki daromadni to‘lovchi shaxs, ya’ni tadbirkor, bank, kompaniya va shu kabilar soliq to‘lanishi yuzasidan xazina oldida asosiy javobgar bo‘lishi shu usulning o‘ziga xos xususiyatidir, Soliqqa tortishning bunday usuli mehnatkashlarning ish haqlarini, gonorarlarni (qalam haqlarini) hamda turli xizmatlar va ishlarni bajarganlik uchun beriladigan mukofotlarni to‘lashda, shuningdek, ba’zi dividend-daromadlar, foizlar, litsenziya to‘lovlari va shu kabilarni to‘lashda qo‘llaniladi.

Daromadni to‘lashda bo‘nak tarzida ushlab qolingani soliq keyinchalik tegishli fuqaro va kompaniyalar jami daromad solig‘ini to‘layotganlarida inobatga olinadi. Bu usul soliq undirishga davlatning sarf - xarajatlari nuqtai nazaridan ayniqsa, samaralidir, chunki soliq to‘lovchilarni hisobga olishni taqozo etmaydi va soliqlarning to‘g‘ri va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilishni ancha osonlashtiradi. Shu sababli soliqlarni undirishning bo‘nak usuli keyingi yillarda jahondagi turli mamlakatlarda tobora keng yoyilib bormoqda.

To‘g‘ri soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab, daromad solig‘i va mulk solig‘iga ajratiladi. Daromad soliqlari tizimi, odatda, aholidan undiriladigan umumiy daromad solig‘i, daromadning ayrim turlaridan olinadigan (umumiy daromad solig‘iga kiradigan yoki unga qo‘shimcha tarzida bo‘ladigan) qator maxsus soliqlar va korporatsiyalar oladigan foydaga solinadigan soliqni o‘z ichiga oladi.

Mazkur mamlakat hududida doimiy ravishda yashaydigan barcha jismoniy shaxslarga solinadigan aholidan olinuvchi umumiy daromad solig‘i ushbu tizimning negizini tashkil etadi. Aholidan olinadigan daromad solig‘i "uzil - kesil olinuvchi", soliq. deb qaraladi, shuning uchun uni hisoblab chiqarishda muayyan soliq to‘lovchi shaxs ahvolining ba’zi xususiyatlari: bolalari, boqimandalari borligi; o‘z uyida yoki ijaraga olingan uyda yashashi; soliq to‘lovchining sog‘lig‘i va hokazolar e’tiborga olinadi. Bundan tashqari, bu soliq soliqqa tortilmaydigan minimumga ega va daromad ko‘paygan sayin oshib boradigan progressiv stavkalar bo‘yicha undiriladi.

Daromadlarning ayrim turlariga solinadigan soliqlar proporsional yoki progressiv foiz stavkalari bo‘yicha undiriladi va aholidan olinadigan umumiy soliqqa kirishi yoki kirmasligidan qat’iy nazar

ushbu soliqqa qo'shimcha deb qaraladi. O'z strukturasi ko'ra bunday soliqlar tizimi ish haqi, tadbirkorlar oladigan foyda, ssuda kapitali foizi va yer rentasi kabi jamiyatning milliy daromadini tashkil etadigan daromad turlariga to'g'ri keladi.

Ish haqi, kapital daromadlari (dividendlar, foizlar) va ba'zida muntazam tUSDagi ayrim boshqa daromadlar (mualliflik huquqlari va litsenziyalarga oid to'lovlar, ijaraga oid to'lovlar va shu kabilar) borasida aksariyat mamlakatlarda soliqni bu usulida ushlab qolish qo'llaniladi, bu esa odatda "manbaning o'zida" deb nomlanadigan maxsus soliqlar tarzida rasmiylashtiriladi. Taqsimlanmagan foyda ulkan miqdorlarini to'plab borgan aksionerlik kompaniyalari kabi tadbirkorlik faoliyati yangi shaklining keng yoyilganligi munosabati bilan birinchi jahon urushi arafasida korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliq joriy qilingan bo'lib, u ba'zida ustama foydadan olinadigan soliq bilan to'ldiriladi edi. Bu soliqning ahamiyati ikkinchi jahon urushidan keyin ancha oshdi va hozirgi paytda u rivojlangan mamlakatlar byudjetlarining daromadlarida katta ulushni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, qator mamlakatlarda kapital o'sishi solig'i joriy qilingan bo'lib, bu soliqqa (qo'yilgan kapitaldan foizlar va dividendlar tarzida olinadigan muntazam daromadlardan farqli o'laroq) sotib olingan yer uchastkalarini, kompaniyalarning aksiyalari paketlarini qayta sotish, valyuta bitimlarini amalga oshirish va shu kabilardan olinadigan nomuntazam daromadlar tortiladi.

Individual (yakka) tadbirkorlarning tadbirkorlik foydalari, shuningdek, nizomlari bo'yicha jami olingan foyda darhol paychilar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan sherikliklar, "pul" deb nomlanadigan birlashmalar va shunga o'xshash boshqa uyushmalardagi foyda aholidan olinadigan umumiy daromad solig'iga oddiy tartibda tortiladi.

Rivojlangan mamlakatlar daromad soliqlari tizimlari o'ta darajada murakkab va chalkashdir, buning ustiga, korporatsiyalarni soliqqa tortish qoidalari, ayniqsa, murakkabligi bilan ajralib turadi, ular ko'pdan - ko'p istisnolar, siylovlar, chegirmalar, imtiyozlarni o'z ichiga oladi.

Yollanma xodimlardan ijtimoiy sug'urta bo'yicha olinadigan bir qism majburiy badallarni ham aholidan undiriladigan daromad soliqlari sirasiga kiritish lozim, bunday badallar turli mamlakatlarda ishlab topiladigan pul miqdorining 6,0- 10,0%i darajasida undiriladi.

Mol - mulkdan olinadigan soliqlar davlat soliqlari umumiy hajmida kam o‘rin tutadi va ko‘pchilik mamlakatlarda mahalliy soliqlar toifasiga kiritiladi.

Ushbu soliqlar orasida ko‘chmas mulk solig‘i asosiy soliq hisoblanadi, bu soliqqa yer uchastkalari va imoratlar tortiladi. Bu soliq stavkalari yuqori bo‘lmaydi va odatda shunday mulk qiymatining 1,0-3,0%ini tashkil etadi. Ba‘zi mamlakatlarda shuningdek, mulkning umumiy summasiga solinadigan soliq ham bo‘ladi, unga faqat yirik mulk tortiladi, chunki ushbu soliq borasida soliq solinmaydigan yuqori darajali minimum ko‘zda tutilgan. Soliq solinadigan mulk tarkibiga yer uchastkalari va imoratlardan tashqari, kompaniyalarning aksiyalar paketlari, individual (yakka) tadbirkorlarning aktivlari va tovar zahiralari, uchinchi shaxslar qarzdorligi va shu kabilar ham kiritiladi. Soliq stavkalari 1,0-2,0%ni tashkil etadi.

Meroslar va hadyalardan olinadigan soliq mol-mulkka solinadigan soliqning o‘ziga xos turidir (ba‘zi mamlakatlarda meroslar va hadyalardan olinadigan alohida soliq bor). Bu soliq o‘z shakliga ko‘ra egri soliqlarga yaqin, chunki u to‘g‘ri soliqlar kabi muntazam tusda bo‘lmaydi va mol-mulkning ayni o‘zidan emas, balki mol-mulkni topshirish harakatidan (tekinga begonalashtirish bitimidan) undiriladi, bu esa soliq stavkalarida ham aks etadi, ular mol-mulk summasi oshgan sayinigina emas, balki hadya qiluvchi bilan oluvchi o‘rtasidagi qarindoshlik darajasi pasaygan sayin ham, ya‘ni bitim shart - sharoitlari o‘zgarishiga qapab oshib boradi. Shunday bo‘lsada, meroslar va hadyalardan olinadigan soliq, shubhasiz, mol- mulkdan olinadigan to‘g‘ri soliqdir, chunki u haqiqiy mavjud mol-mulkning bir qismini davlatning foydasiga to‘g‘ridan -to‘g‘ri olib qo‘yishdir.

Bu soliq stavkalari progressiv stavka bo‘lib, ular hadyalar va meroslar yirik summalariga nisbatan 50,0%gacha yetishi mumkin. Lekin ko‘pdan - ko‘p turli xil siylovlar va imtiyozlar tufayli yirik mulkdorlar bu soliqni to‘lashdan bemalol qutulib bo‘yin tovlamoqdalar va Buyuk Britaniya hamda AQShda mazkur soliq tushumlari davlat byudjeti daromadlarining atigi 2,0 - 3,0%ini tashkil etmoqda.

Ayrim mamlakatlarda hamon saqlanib kelayotgan hunarmandchilik va uy egaligi soliqlari ham mol-mulk soliqlari jumlasiga kiradi. Bunday soliqlarni hisoblab chiqishda ishchilar, dastgohlar, deraza, eshiklar soni va shu kabilar negiz qilib olinadi. Egri soliqlar tovar va xizmatlar narxlariga pirovard natijada iste‘molchi tomonidan

to'lanadigan ustamadir. Shunday qilib, egri soliqlarni o'z daromadlarini tovar yoki xizmatlar sotib olish maqsadlariga sarflaydigan shaxslargina to'laydilar. Bir qarashdan, har qanday shaxs tegishli tovar va xizmatlar harididan o'zini tiyib, egri soliqlardan holi bo'lishi mumkindek tuyuladi. Lekin hayotda soliqdan bu tariqa qutulib bo'lmaydi, chunki amalda keng iste'mol tovarlari va xizmatlar jami xajmi egri soliqqa tortiladi. Egri soliqlarning bojxona bojlari; aksizlar hamda tovar va xizmatlar iste'moliga solinadigan boshqa soliqlar; bitimlarga solinadigan soliqlar; korxonalarining ijtimoiy sug'urta jamg'armalariga to'laydigan badallari kabi to'rt turi bo'ladi. Bojxona bojlari tovarlar importi, eksporti va tranzitidan undiriladigan egri soliqlardir. Rivojlangan mamlakatlarda asosan bojxona import bojlari qo'llaniladi.

Hisoblab chiqarish usuli bo'yicha avvalo bojar (tovarning narxiga nisbatan foizlarda olinadi) va spetsifik (o'ziga xos) bojar (tovar birligi - litr, sentner va shu kabilardan qat'iy stavkada olinadi) ajratiladi.

O'tmishda bojxona bojlari asosan fiskal maqsadlarda, ya'ni davlat xazinasi uchun daromadlar manbai sifatida qo'llanilgan edi. Ularning iqtisodiy vazifalari orasida: proteksiya vazifasi - milliy ishlab chiqarishni mamlakatga xorijiy tovarlar oqimi kelishidan himoya qilish; preferensiya vazifasi - muayyan mamlakatlar va rayonlardan tovarlar import qilinishini rag'batlantirish; statistik vazifa - tashqi savdo aylanishini aniqroq hisobga olib borish; barobarlashtirish vazifasi - import tovarlar va mahalliy ishlab chiqarishdagi tovarlar narxlarini barobarlashtirish uchun mo'ljallangan va hokazo vazifalarni ajratish mumkin. Asosiy iste'mol tovarlari (spirtli ichimliklar, pivo, tamaki mahsulotlari, yengil avtomobil va hokazolar)ning narxlariga ustama bo'lgan aksizlar egri soliq solishning asosiy shaklidir. Mazkur mamlakatning hududidagi tovar va xizmatlar sotuviga qo'shimcha ravishda solinadigan universal aksiz solig'idan farqli o'laroq bunday aksizlar individual (yakka) aksizlar deb nomlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i shaklidagi universal aksiz G'arbiy Yevropadagi deyarli barcha mamlakatlarda amal qiladi. AQSh va ba'zi boshqa mamlakatlarda bu aksiz sotuvlar yalpi miqdoridan olinadigan soliq shaklida qo'llaniladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish tartibi shuni ko'zda tutadiki, tovar yoki xizmatni ishlab chiqarish va taqsimlashning toki pirovard iste'molchiga yetib borguncha hap bir bosqichida soliq belgilangan

stavkalar bo'yicha (tovar yoki xizmatning narxiga nisbatan 10,0-15,0% darajasida) hisoblanib chiqiladi. Ayni chog'da tovar yoki xizmat harakatining avvalgi bosqichlarida to'lashga hisoblab chiqarilgan soliq miqdori har bir keyingi bosqichda to'lanadigan soliq miqdoridan chegirilishi lozim. Shunday qilib har bir bosqichda tovar yoki xizmat qiymatining shu bosqichda "qo'shilgan" qismigina (ish haqi + foyda) real soliqqa tortiladi, bu esa soliqning nomidayoq aks ettirilgan. Natijada soliqning butun og'irligi pirovard iste'molchiga yuklatiladi.

G'arbdagi ko'plab mamlakatlarda energetika inqirozi sharoitida elektr energiya tariflariga, benzin, dizel yonilg'isi narxlariga ustamalar shaklida undiriladigan energiya va yoqilg'i aksizlari keng tarqalgan.

Bitimlarga solinadigan soliqlar - belgilangan tartibda ro'yhatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan bitimlardan undiriladigan boj turi bo'lgan egri soliqlarning alohida shaklidir. Davlat solig'i (davlat yig'imi) bitim solig'ining ayniqsa keng tarqalgan turidir, u mol-mulkni topshirish to'g'risidagi dalolatnomalarni, qarz majburiyatlarini, mulkka egalik qilish yoki homiylik qilishga oid ishonchnomalar, tilxatlar, kvitansiyalar va hokazolarni ro'yxatdan o'tkazishga solinadi. Davlat solig'i qat'iy stavkalar bo'yicha, yo bitim summasiga nisbatan foizlarda hisoblab chiqiladi. Qator mamlakatlarda maxsus transfert soliqlari ham bor, ular aksiya va obligatsiyalar sotish yer mulkini sotish kabi alohida turdagi bitimlarga solinadi. Ijtimoiy sug'urta badallari ko'pgina mamlakatlarda majburiy tusga ega va yollanma mehnat qiluvchi shaxslardan ham, tadbirkorlardan ham undiriladi. Ba'zi mamlakatlarda, shuningdek, erkin kasbdagi odamlar (advokat, shifokor, me'mor, artist va boshqalar) to'lashlari uchun ham badallar belgilangan. Bunday badallarning tadbirkorlar to'laydiganini egri soliqlar sirasiga kiritish kerak bo'ladi, chunki mazkur badallar ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlarning narxiga ishlab chiqarish chiqimlari sifatida kiritiladi va pirovard natijada iste'molchiga yuklatiladi. Tadbirkorlar to'laydigan ijtimoiy sug'urta badallari ish haqi fondiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Ba'zi mamlakatlarda stavkalar miqdori 15,0% dan 24,0%gacha yetadi, bu esa, shubhasiz, ushbu mamlakatlarda inflyatsiya sur'ati tezlashishi va narxlar oshib borishiga sabab bo'ladigan omillardan biridir.

Daromad soliqlariga nisbatan milliy soliq yurisdiksiyasini belgilash odatda rezidentlik va hududiylik kabi ikkita eng muhim mezon asosida amalga oshiriladi.

Rezidentlik mezoni shuni ko‘zda tutadiki, mazkur mamlakatning barcha rezidentlari shu mamlakatda uning hududida ham, undan tashqarida ham o‘zlari oladigan daromadlarining mutlaqo barchasi bo‘yicha soliqqa tortilishlari lozim (ushbu soliqqa tortish cheklanmagan soliq javobgarligi deb nomlanadi), norezidentlar esa mazkur mamlakatdagi manbalardan oladigan daromadlari bo‘yichagina soliqqa tortiladilar (cheklangan soliq javobgarligi).

Hududiylik mezoni, aksincha, shuni belgilaydiki, mazkur mamlakatda shu mamlakatning hududida olinadigan daromadlargina soliqqa tortilishi lozim; shunga muvofiq chet elda topiladigan yoki olinadigan har qanday daromadlar mazkur mamlakatda soliqlardan ozod qilinadi.

Shunday qilib, birinchi mezon soliq to‘lovchining milliy hududda bo‘lishi (yashashi) xususiyatigina e‘tiborga oladi, ikkinchi mezon daromad manbaining milliy mansubligigagina asoslanadi.

Shunisi ayonki, ushbu mezonlarning har qaysisi ham barcha mamlakatlarda bir xilda qo‘llanilgan taqdirda umuman xalqaro qo‘sh soliqqa tortishning, ya‘ni bir obyektning o‘zini (daromad, mol - mulk, bitim va shu kabilarni) bir davrning o‘zida ikkita, ehtimolki, ikkitadan ham ko‘p mamlakatda bir xil turdagi soliqqa tortishning har qanday imkonini yo‘qqa chiqargan bo‘lar edi.

Lekin masala shundan iboratki, qo‘sh soliqqa tortishni bartaraf etish birinchi yoki ikkinchi mezon asosida amalga oshirilishi alohida har bir mamlakatning milliy manfaatlari nuqtai nazaridan aslo farqsiz emas. Chunonchi, fuqaro va kompaniyalari chet elda amalga oshiradigan faoliyatlari va chet elda joylashtirilgan kapitallaridan katta miqdorda daromad oladigan mamlakatlarga, shubhasiz, xalqaro miqyosdagi soliqqa oid yurisdiksiyalar rezidentlik mezoni asosida ajratib belgilanishi maqbulroq bo‘ladi.

Iqtisodiyotlarida chet el kapitallari katta o‘rin tutadigan mamlakatlarga hududiylik mezonini yoqlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sasabli sanoati rivojlangan mamlakatlar boshqa mamlakatlar bilan o‘z soliq munosabatlarini rezidentlik mezoni asosida yuritishni afzal ko‘radilar, rivojlanayotgan mamlakatlar esa o‘zlarining xorijiy kompaniyalar va xususiy shaxslarni hududiylik mezoni asosida soliqqa tortish huquqlarini himoya qiladilar.

Aksariyat mamlakatlar ushbu ikki mezonning turli tarzlarda qo‘shilishini amaliyotda qo‘llab kelmoqdalar. AQSh, Buyuk Britaniya,

Germaniya va boshqa mamlakatlar rezidentlik mezonini o'zlariga asos qilib oladilar. Bu mezon zaruriyatga qarab va mazkur mamlakatning muayyan manfaatlaridan kelib chiqqan holda daromadlarni "manbaning o'zida" soliqqa tortish tizimi (ya'ni hududiylik mezon) bilan to'ldiriladi. Ayni chog'da esa ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar (asosan Lotin Amerikasi mamlakatlari) o'z soliq yurisdiksiyalarini ko'proq hududiylik mezonini qo'llash negizida belgilab kelmoqdalar. Hududiylik mezoniga (yuridik shaxslarga nisbatan) Fransiya, Shveytsariya kabi mamlakatlarning ham soliq amaliyotida muhim ahamiyat berib kelinmoqda.

10.2. Jahon soliq modellari va ularning tahlili

Soliq tizimi xududiy tuzilmalarning tegishli byudjetlari va byudjetdan tashqari jamg'armalariga soliq subyektlaridan soliq va yig'imlar undirib olishdek yagona vazifasini bajaradigan, yaxlit bir butun etib birlashtirilgan bir xil elementlar yig'indisi bo'ladi.

Har qanday davlatning soliq tizimini soliq subyektlaridan (soliq to'lovchilardan) tegishli organlar undirib oladigan qonundan qabul qilingan soliqlar va yig'imlarning majmui deb qarash mumkin.

Ko'pchilik xorijiy mamlakatlar iqtisodida davlatning yetakchilik roli katta ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodini erkin tadbirkorlik bilan davlat tomonidan iqtisodni boshqarilishi "birlashib ketgan" tarzda deb tavsiflash mumkin.

Davlatni asosiy boshqarish quroli bo'lib soliq va moliya siyosati orqali tadbirkorlikka ta'sir etish tushuniladi.

Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimini ko'p o'xshashlik jixatlari bor, lekin shunga qaramasdan ular farq qiladi, ularni quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

- Amerikacha model.
- Yaponiya modeli.
- Yevropa modeli.
- Nostandart modellar.

Quyidagilarni barcha modellarning umumiy belgilari sifatida ko'rsatish mumkin:

- rivojlangan qonunchilik bazasi, vujudga keladigan munozara, vazifalar va vaziyatlarni hal etishning huquqiy va iqtisodiy vositalari, mexanizmlari va usullari;

- soliq idoralarining soliq to'lovchilari oldida ishonchga va yuksak obro'ga ega ekanligi, yuqori ish haqi, axborot bazasining yuqoriligi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligi;

- vazirliklar va idoralar vazifalarining aniq chegaralab qo'yilganligi va ular ishida bir-birini takrorlashning yo'qligi;

- hukumatning vakili bo'lgan va uning nomidan ish olib boradigan soliq agentining (inspektorning) katta ahamiyatga va obro'ga egaligi;

- kadrlarni tahlil etish, o'rganish, oldindan belgilash, o'qitish, soliq to'lovchilar bilan aloqalar bo'yicha institutlarning mavjudligi; ayniqsa axborot bilan almashinishi sohasida moliya organlari soliq idoralarning va bank tizimi bilan chambarchas bog'langanligi. Shu bilan birga bu modellarning har birida ularning tafovutlarini belgilab beradigan o'ziga xos belgilari mavjud, bular quyidagilardan iborat:

Amerika modeli:

- soliq tizimining soliq to'lovchilar tushunishi uchun murakkabligi;

- soliq tizimida juda katta boshqaruv va ijro apparatining mavjudligi;

- soliq organlari markazlashuvining yo'qligi, federal, shtat va shahar tizimlarini mustaqilligi;

- naqd pul bilan ishlaydigan kichik biznesning daromadlarini nazorat qilishning yetarli usullari yo'qligi;

- noqonuniy daromad manbalari to'g'risida xabar beruvchi ko'ngilli "Axborotchilar" keng tarmog'ining mavjudligi.

Yaponiya modeli:

- Moliya vazirligi nazorat ostida yagona, ancha qat'iy markazlashgan moliyaviy, soliq, bank, bojxona tizimlari;

- yuksak vatanparvarlik mamlakatga va kompaniyaga;

- pastdan to yuqorigacha bo'lgan boshqaruv apparati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda subordinatsiya prinsipiga qat'iy rioya qilinishi

Yevropa modeli:

- Yevropadagi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy birlashishga doimiy intilish;

- soliq faoliyatidagi bir xillik: yagona andozalar, yondashuvlar, talqin, deklaratsiyalar, ish prinsiplari.

"Noandozaviy" (moslashmagan) modellar, odatda kichik hududli (yoki oralarda joylashgan) davlatlarda, erkin iqtisodiy zonaga ega bo'lgan davlatlarda va qator boshqa davlatlarda (Kipr, Lyuksemburg) amal qiladi. Ular uchun turli soliq deb ataladigan zonalar xarakterlidir.

Zamonaviy soliq tizimi soliqqa tortish shakllari va usullarining benihoya nozikligi va qo‘llaniladigan soliqlarning o‘ta xilma - xilligi bilan tavsiflanadi (ayrim mamlakatlar doirasida ularning 100 ga yaqin ko‘rinishlari mavjud). Rivojlangan mamlakatlarning barchasi va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi uchun ushbu tizimning tamoyillari va xususiyatlari umumiydir, lekin ularning bu tamoyillar va xususiyatlarni soliq siyosatlarida qo‘llanishlarida jiddiy farqlar bor.

Davlat byudjeti mablag‘lari davlatning jamiyat oldidagi muhim vazifalarini amalga oshirishning moliyaviy manbaidir. Demak, har bir davlat iqtisodiyoti taraqqiy etishida bevosita amalga oshirilayotgan byudjet-soliq siyosati hamda soliq tizimining tuzilishi bilan bog‘liqdir. Soliq tizimi ming yillik tarixga egadir. Bu tizimni yer yuzida davlatning ilk ko‘rinishlari paydo bo‘lishi bilan bog‘lanadi. Bu jarayon yillar davomida turli davlatda turli ko‘rinishlar va turlicha siyosat asosida ijro etib kelinmoqda.

10.3. Amerika Qo‘shma Shtatlarida jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibi

Rivojlangan mamlakatlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining byudjet daromadlari tarkibida yetakchi o‘rin egallashi bir qator sabablarga bog‘liqdir. Bularning ayrimlari quyidagilardan iborat:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bevosita daromaddan olinadigan soliq bo‘lib, soliq solinadigan daromadning aniq hisob-kitobi deklaratsiyalash orqali amalga oshiriladi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i soliqqa tortishning klassik tamoyillariga mos keladi;
- jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq investitsiyalarga mo‘ljallanadigan moliyaviy resurslar hajmiga ta‘sir etmaydi;
- ko‘pchilik rivojlangan xorijiy mamlakatlarning byudjet daromadlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ulushining ortishi, aholi daromadlarining, ya‘ni soliqqa tortiladigan daromadning oshishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi va boshqalar.

Amerika Qo‘shma Shtatlari taraqqiy etgan dunyodagi eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. AQSh poytaxti Vashington shahri. Pul birligi AQSh dollari. Mamlakatni prezident boshqaradi.

AQShda o'tgan asrning 80-yillarida o'tkazilgan soliq islohotlari jarayonida fuqarolar daromadini soliqqa tortishda ham tub o'zgarishlar yuz berdi. 1986 yilga qadar AQShda fuqarolardan daromad solig'i 14 ta stavkada 11 dan 50% gacha miqdorda undirilgan edi. Keyinchalik uchta soliq stavkasi kiritildi (15%; 28%; 33%). Bu stavkalar soliqqa tortiladigan daromad darajasiga bog'liq holda qo'llaniladi. Soliq stavkasining eng yuqori darajasi kamaytirilishidan tashqari, soliq imtiyozlarini qisqartirish orqali soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad miqdori ham ko'paytirildi.

AQSh soliq tizimi uch darajali bo'lib, ular: federal, shtat va shahar soliqlariga bo'linadi. AQSh moliya tizimining asosiy bo'g'ini federal, hukumatning byudjet mexanizmi hisoblanadi. Yirik va doimiy tushumga ega bo'lgan soliqlar federal byudjetga yo'naltiriladi. AQShning taxminan 70 foiz daromad va xarajatlari federal byudjet hissasiga to'g'ri keladi. Federal byudjet daromadlarining asosiy qismini to'g'ri soliqlar tashkil etadi. Shtat va mahalliy hukumat byudjetlariga egri soliqlar ko'proq tushadi. Federal jami yig'ma byudjetida jismoniy shaxslar daromad solig'idan keyin ikkinchi o'rinda (byudjetdagi salmog'i bo'yicha) ijtimoiy sug'urta ajratmalari turadi. Bu ajratmalar ish beruvchi va ishchi o'rtasida teng ikkiga bo'linadi. Yig'im stavkasi har yilgi byudjet tizimiga qarab o'zgaradi. Stavka ish haqi fondining bir qismiga nisbatan qo'llaniladi. Bu yig'im aniq yo'nalish va maqsadga ega.

Federal byudjetning asosiy qismini tashkil qiluvchi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Barcha daromadlar quyidagilardan tashkil topgan:

- ish haqi;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- nafaqa va pul yordami;
- qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromadlar va boshqalar.

Mol-mulk va qimmatbaho qog'ozlarni sotishdan kelgan daromadlar maxsus soliq yoki shaxsiy daromad tarkibida soliqqa tortiladi. Bu holda jami yalpi daromaddan xarajatlar chegirib tashlanadi. Bu xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- kapital aktivlarini sotib olish xarajatlari;
- yer maydoni;

- ishlab-chiqarish qurollari va uskunalari;
- joriy ishlab-chiqarish xarajatlari.

AQShda jismoniy shaxslar daromadini deklaratsiyalash jarayonida soliq stavkalari qo‘llashda deklaratsiya topshiruvchilar to‘rtta toifaga ajratiladilar:

- yolg‘iz (uylanmagan yoki oilali bo‘lmaganlar);
- oilali birgalikda (oilaviy daromadidan);
- oilali yakka holda (alohida daromadlari bo‘yicha);
- oila boshlig‘i (boshqa daromad oluvchilar oilada bo‘lmaganda).

10.1-jadval

Amerika Qo‘shma Shtatlarida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i stavkalari³¹

	yolg‘iz (uylanmagan yoki oilali bo‘lmaganlar)		oilali birgalikda (oilaviy daromadidan)		oilali yakka holda (alohida daromadlari bo‘yicha)		oila boshlig‘i (boshqa daromad oluvchilar oilada bo‘lmaganda)		Soliq stav- kasi
2009 yil									
Daromad lar miq- dori (AQSh dollarida)	0	8350	0	16700	0	8350	0	11950	10 %
	8350	33950	16700	67900	8350	33950	11950	45500	15 %
	33950	82250	67900	137050	33950	68525	45500	117450	25 %
	82250	171550	137050	208850	68525	104425	117450	190200	28 %
	171550	372950	208850	372950	104425	186475	190200	372950	33 %
	372950	yuqori	372950	yuqori	186475	yuqori	372950	yuqori	35 %
2010 yil									
Daromad lar miq- dori (AQSh dollarida)	0	8375	0	16750	0	8375	0	11950	10 %
	8375	34000	16750	68000	8375	34000	11950	45550	15 %
	34000	82400	68000	137300	34000	68650	45550	117650	25 %
	82400	171850	137300	209250	68650	104625	117650	190550	28 %
	171850	373650	209250	373650	104625	186825	190550	373650	33 %
	373650	yuqori	373650	yuqori	186825	yuqori	373650	yuqori	35 %

10.1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, AQShda jismoniy shaxslarning daromad solig‘i stavkalari 2009-2010 yillarda o‘zgar-
masdan qolgani holda, pog‘onalarga tegishli bo‘lgan soliq solinadigan
daromad miqdori oshgan. Masalan, yolg‘iz (uylanmagan yoki oilali
bo‘lmaganlar) jismoniy shaxs uchun 2009 yilda 10 foizli stavkada soliq

³¹ http://www.moneychimp.com/features/tax_brackets.htm

solinadigan daromad 8350 dollarga teng bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda bu miqdor 8375 dollarni tashkil etgan, xuddi shuningdek, oilali birgalikda (oilaviy daromadidan) 33 foizli stavkada soliq solinadigan daromad 2009 yilda 208850 dollar miqdorida belgilangan, 2010 yilga kelib bu miqdor 209250 dollarga oshgan. Ushbu holatda soliq stavkalari o'zgarmaganligi bilan, har bir pog'onalarda soliq solinadigan daromad miqdorining oshirilishi jismoniy shaxsning daromad solig'i yuki kamayishiga xizmat qiladi.

10.2-jadval

Amerika Qo'shma Shtatlarida jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalarining o'zgarishi³²

1993-2000 yillar	2001 yil	2002 yil	2003-2010 yillar
15 %	15 %	10 %	10 %
		15 %	15 %
28 %	27,5 %	27 %	25 %
31 %	30,5 %	30 %	28 %
36 %	35,5 %	35 %	33 %
39,6 %	39,1 %	38,6 %	35 %

AQShda so'nggi yillardagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari pasayish tendensiyasiga ega (10.2-jadval).

AQShda 1993 yildan 2010 yilgacha bo'lgan davrda jismoniy shaxslar daromad solig'ining quyi stavkasi 15 foizdan 10 foizga pasaygan bo'lsa, yuqori stavkasi 39,6 foizdan 35 foizga pasaygan. Shu bilan birga 1993 yildan 2002 yilga qadar ushbu soliq besh pog'onada undirilgan bo'lsa, 2002 yildan boshlab hozirgacha olti pog'onada undirilmoqda.

AQShda jismoniy shaxslar daromadini hisoblash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

- jami daromad - ish haqi, qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromad, stipendiya, renta to'lovlari, ko'chmas mulk ajratmalari.
- aniqlangan daromad - jismoniy shaxslarga berilgan imtiyozlar, ishlab-chiqarish yoki savdo imtiyozlari, qimmatli qog'ozlar savdosidan olingan daromad, avans to'lovlari, pensiya ajratmalari, ishsizlik ajratmalaridir.
- soliqqa tortiladigan daromad - daromad solig'ini hisoblashda ijtimoiy ta'minot xarajatlari, tabiiy ofatlardan yo'qotishlar (agar

³² http://www.moneychimp.com/features/tax_brackets.htm

daromadning 10 foizidan oshsagina hisobga olinadi), tibbiyot maqsadida qilingan xarajatlar (aniqlangan daromadning 7,5 foizigacha), tajriba xarajatlari, malaka oshirish xarajatlari, xizmat safarlari xarajatlari. Ushbu xarajatlar daromad solig'ini hisoblashda daromaddan chegirib tashlanadi (ushbu imtiyozlar yalpi daromadning 50 foizigacha bo'lishi mumkin)³³.

Soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor – AQSh qonunchiligida nazarda tutilgan standart chegirma deb ataluvchi imtiyozga yaqindir. Standart chegirma soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor bilan baravar ravishda qo'llanilib kelinadi. U qat'iy belgilab qo'yilgan summada, masalan, 5,5 ming dollar bilan (yolg'iz soliq to'lovchilar uchun), 11 ming dollar bilan (er-xotinlar uchun) va 2 ming dollar bilan (bir uy xo'jaligidagi har bir shaxs uchun) ifodalanadi. Masalan, to'rt kishidan iborat bir oila – 8 ming dollar standart chegirmaga ega. AQShdagi imtiyozning muhim jihati shundan iboratki, soliq to'lovchi standart chegirma o'rniga o'z xarajatlarini moddalar bo'yicha hisoblash usulini qo'llashi mumkin. Bu xarajatlarni jami daromaddan chiqarib tashlashga ruxsat etiladi (tibbiy xizmat va dori-darmon sotib olish xarajatlari; stomatologiya xizmatlariga haq to'lash; ipoteka krediti bo'yicha to'lanadigan foizlar va shu kabilar).

AQSh shtatlar soliqlari. Har bir shtatning (federal tizimdan alohida) o'z soliq tizimi bor. Shtatlar korporatsiyalardan va fuqarolardan daromad solig'i undiradi. Chunonchi, shtat o'z hududida muayyan kompaniyaning binolari joylashgan yoki hizmatchilari ishlayotgan bo'lsa, kompaniya daromadlaridan soliq undirish huquqiga ega bo'ladi. Biroq kompaniya shtat hududida binoga ham, hizmatchilarga ham ega bo'lmasligi mumkin, lekin savdo qilishi va foyda olishi mumkin (ayniqsa, kataloglar bo'yicha savdo qilish keng tarqalgan bir sharoitda). Bunday hollarda shtatlarning kompaniyalarni soliqqa tortishi qonuniyligi masalasi dolzarb bo'lib qoladi.

Mol – mulk (shtat) solig'ini yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar. Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq ko'pchilik shtatlarda undiriladi. Soliq stavkalari shtatlar bo'yicha farqlanadi. Ko'chmas mulkni baholash bilan shug'ullanadigan soliq idorasi hizmatchilari soliq baholovchilari, deb nomlanadilar. Mol-mulk solig'i tushumlari hokimiyat tuzilmalarining barcha darajadagi soliq

³³ Налоговая система зарубежных стран. Уч. для вузов. М.: Финансы и статистика, 2007. – 218 с.

tushumlarining sal kam 9,0%ini tashkil etadi. AQShda mol-mulk soliqlari shtat va munitsipalitet darajasida undiriladi. Bu soliqqa asosan, ko'chmas mulk va xo'jalik uskunalari tortiladi, foyda ko'rmaydigan tashkilotlarga tegishli bo'lgan va ular tomonidan tijorat maqsadlarida foydalanilmaydigan mol-mulk bundan mustasno. Shuningdek federal hukumat, shtatlar hukumatlari va mahalliy hokimiyat organlarining mol - mulki ham soliqqa tortilmaydi. 13 ta shtatda nomoddiy aktivlar: aksiyalar, qarz majburiyatlari va shu kabilar soliqqa tortiladi. Fuqarolarga tegishli bo'lgan shaxsiy ko'chmas mulk va ishlab chiqarish vositalari ham soliqqa tortiladi. Yuridik hamda jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan mol - mulkiga 0,5dan 5,0%gacha miqdorda belgilangan. Bundan tashqari, munitsipalitet darajasida ham soliq undiriladi. Barcha mol-mulk soliqlari har qanday darajada daromad solig'iga tortiladigan daromadni hisoblab chiqarishda chegiriladi. Kapitaldan soliq (shtat). Shtat darajasidagi kapital solig'ini yuridik va jismoniy shaxslar daromadining 0,75%i miqdorida to'laydilar.

10.4. Buyuk Britaniya soliq tizimida jismoniy shaxlarni soliqqa tortish mexanizmi

Buyuk Britaniya taraqqiy etgan yevropadagi eng rivojlangan davlat hisoblanadi. Poytaxti London shahri. Pul birligi funt sterling. Davlat boshlig'i Qirolicha, hukumatni bosh vazir boshqaradi. Buyuk Britaniya iqtisodiy-siyosiy jihatdan 4 mintaqaga bo'linadi; Angliya, Uels, Shotlandiya va Sharqiy Irlandiya. Buyuk Britaniya Yevropadagi eng asosiy moliyaviy va savdo markazlaridan biri hisoblanadi.

Buyuk Britaniya soliq tizimi bilan shug'ullanuvchi asosiy ikkita vazirlik va idoralar mavjud, bular:

- moliya vazirligi (H.M.Treasury). Soliq siyosati va soliqlarni hisoblash uslubiyati bilan shug'ullanadi. Shuningdek, kelib tushgan soliqlarning xarajat qilinishini rejalashtirish va nazorat qilish bilan shug'ullanadi.

- soliq yig'implari va bojxona xizmati (H.M.Revenue and Customs). Bu idora bevosita umumdavlat soliqlarini hamda bojxona bojarini yig'ish bilan shug'ullanadi.

Bundan tashqari, mahalliy organlar mahalliy soliqlarni yig'ish bilan shug'ullanadi.

Buyuk Britaniyada kalendar yili bilan moliya yili farq qiladi. Moliya yili 6 aprelda boshlanib 5 aprelda tugaydi.

10.3-jadval

Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslarni soliqqa tortishdagi toifalanishiga qarab majburiyatlarning tasniflanishi³⁴

Soliq to'lash majburiyatlari	Buyuk Britaniyada soliqqa tortishga asos bo'ladi
Rezident va domitsil	Jami daromadlari (chet elda olgan daromadlari ham kiradi)
Norezidentlar	Buyuk Britaniya manbalaridan olingan daromadlar
Kapital o'sishidan olinadigan soliq bo'yicha	Buyuk Britaniyada soliqqa tortishga asos bo'ladi
Rezident yoki odatiy rezident va domitsil	Jami kapital o'sishidan (chet-eldagi daromadlari ham kiritiladi)
Domitsil maqomi bo'lmagan rezident va odatiy rezidentlar	Buyuk Britaniyadagi kapital o'sishi, chet eldagi kapital o'sishi bo'yicha o'tkazmalar
Norezident	Istisnolardan tashqari holatda kapital o'sishi bo'yicha o'tkazmalardan soliq undirilmaydi
Meros solig'i to'lash bo'yicha. -ushbu soliq turi bo'yicha meros qilib olingan mol-mulk, meros qilib qoldirayotgan kishining o'limidan 7 yil oldin ega bo'lgan mol-mulkiga nisbatan soliqqa tortiladi. Soliq solinmaydigan miqdor sifatida 2008-2009 moliya yilida 312000 funt sterling belgilanadi va yagona 40 foizli stavkada undiriladi	
Domitsillar uchun	Jami mol-mulk, jumladan, chet-eldagi mol-mulklari ham
Domitsil maqomiga ega bo'lmaganlar	Buyuk Britaniyada joylashgan mol-mulklarga

Agar jismoniy shaxslar moliya yilida 183 kun mobaynida Buyuk Britaniyada yashasa, 4 yillik davrning har birida 91 kun yashasa, Buyuk Britaniyaga 2 yildan ortiq muddatga ko'chib kelgan bo'lsa, shuningdek, Buyuk Britaniyada uy joyga ega bo'lsa, rezident maqomini olishi mumkin. Bundan tashqari, Buyuk Britaniya soliq tizimida odatiy rezident tushunchasidan ham foydalaniladi. Odatiy rezident maqomini olish uchun fuqaro Buyuk Britaniyada 3 yildan ortiq istiqomat qilish istagini bildirgan bo'lishi kerak. Domitsil (domicile) tushuncha bor, ushbu maqomga ega bo'lishi uchun fuqaro

³⁴ http://www.formationcompany.ru/article/uk_hom

Buyuk Britaniyada Buyuk Britaniyalik ota-ona oilasida tug‘ilgan bo‘lishi kerak yoki 16 yoshga to‘lganidan keyin Buyuk Britaniyani doimiy yashash joyi qilib qaror qabul qilishi kerak. Domitsil maqomi rezidentdan shunisi bilan farq qiladiki, rezident bir necha mamlakatning rezidenti bo‘lishi mumkin, domitsil esa faqat bitta mamlakat rezidenti bo‘ladi (10.3-jadval).

10.4-jadval

Buyuk Britaniyada soliq solinmaydigan minimumning 2007-2009 yillar davomida tasniflanishi (funt sterlingda)³⁵

Jismoniy shaxs toifasi	Soliq solinmaydigan minimum	
	2007-2008	2008-2009
Soliq solinmaydigan minimumning bir kishi uchun bazaviy miqdori	5225	5435
65-74 yoshgacha bo‘lgan jismoniy shaxslar	7550	9030
75-yoshdan kattalar	7690	9180
Oilalilar (1935 yil 6-aprelga qadar tug‘ilganlar)	6285	6535
Oilalilar (75 va undan katta yoshdagilar)	6365	6625
Ko‘zi ojizlarga qo‘shimcha ravishda	1730	1800

Buyuk Britaniyada yillar davomida soliq solinmaydigan minimum o‘zgarib turadi (Income tax Allowances). Ushbu miqdorning so‘nggi yillardagi o‘zgarishi quyidagi jadvalda keltirilgan (10.4-jadval).

Ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Buyuk Britaniyada soliq solinmaydigan minimum ko‘proq ijtimoiy jihatdan tabaqalashtirilgan.

Jismoniy shaxsning yoshiga qarab yoshi kattalarga ko‘proq imtiyoz ko‘zda tutilgan, oilali bo‘lib yoshi kattaroqlarga nisbatan soliq solinadigan minimum miqdori yuqoriroq va bu miqdorning yildan yilga oshish tendensiyasi davom etmoqda.

Masalan 65-74 yoshdagi shaxslarga 2007-2008 yillarda soliq solinmaydigan minimum 7550 funt sterlingni tashkil etgan bo‘lsa, 2008-2009 yilda bu miqdor 9030 funt sterlingga teng bo‘lgan.

Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslarning daromad solig‘i progressiv stavkalar asosida undiriladi. Ushbu soliq bo‘yicha stavkalar o‘zgarmayotgani bilan huddi AQShdagi singari pog‘onalardagi soliq solinadigan daromad miqdori oshib bormoqda (10.5-jadval).

Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra 2007-2008 yillarga nisbatan 2008-2009 yilda quyi stavkada (10%) soliq solinadigan daromad 2230 funt

³⁵ <http://www.rustradeuk.org/ru/law/art-taxes/files/taxes.doc>

sterlingdan 2320 funt sterlinggacha oshgan, shuningdek, yuqori stavkada (40%) soliq solinadigan daromadning 2007-2008 yilda 34600 funt sterlingdan, 2008-2009 yilda esa 36000 funt sterlingdan oshgan qismidan soliq olinadigan bo‘lgan.

10.5-jadval

Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkasining 2007-2009 yillarda o‘zgarishi³⁶

Soliq stavkalari	Soliq solinadigan daromad (funt sterlingda)	
	2007-2008 yillar	2008-2009 yillar
10%	0-2230	0-2320
22%	2231-34600	2321-36000
40%	34600 dan oshgan qismi	36000 dan oshgan qismi

Merosdan olinadigan soliq. Buyuk Britaniyada aholidan undiriladigan to‘g‘ri soliqlar orasida merosdan olinadigan soliq ham amal qiladi. Bu soliq meros olinganidan e‘tiboran 7 yil o‘tgach, shu yillar davomida hadya etuvchi tirik bo‘lgan taqdirda, amal qila boshlaydi. Soliq stavkasi 200 ming funt sterlingdan oshadigan mol-mulk summasining 40,0%i darajasida belgilanadi. Soliq imtiyozlari va chegirmalari tizimi amal qiladi, ular 20,0 dan 80,0%gacha bo‘lishi mumkin.

Ko‘chmas mulk solig‘i. Buyuk Britaniyada mahalliy byudjetlarga keladigan tushumlar manbai bo‘lgan mahalliy soliqlar ham bor. Bular asosan yuridik va jismoniy shaxslarning ko‘chmas mulkiga solinadigan soliqlardir. Renta to‘lovlari soliq asosi bo‘ladi. U ko‘chmas mulk egalari yoki uni ijaraga oluvchilardan undiriladi. Ko‘chmas mulk deganda yer tushuniladi. Ushbu soliqni to‘lovchilar jumlasiga uy - joyni ijaraga oluvchilar va kvartira haqi to‘lovchilar kiradi. Ko‘chmas mulk qiymati odatda 10 yilda bir marta baholanadi va ushbu mulkni ijaraga berishdan tahmin qilingan yillik daromad summasidan iborat bo‘ladi. Soliqqa tortish stavkasi munitsipalitet tomonidan moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojga qarab belgilanadi. Shu sababli stavka Buyuk Britaniyaning grafliklari va shaharlari bo‘yicha sezilarli darajada farqlanadi. Ko‘chmas mulk solig‘i stavkalari 10.6-jadvalda ko‘rsatilgan.

1990 yil aprelida Angliyada va Uelsda (shundan bir yil avval esa Shotlandiyada) jon boshidan soliq undirishga utildi. Bu soliq 18 yoshga yetgan deyarli barcha fuqarolarni qamrab oladi. U mahalliy hokimiyat

³⁶ <http://www.rustradeuk.org/ru/law/art-taxes/files/taxes.doc>

organlari tomonidan qat'iy summada mustaqil belgilanar va ularni xarajat qilish darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lar edi. Biroq tajriba muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqdi va 1993 yil aprel oyida jon boshidan olinadigan soliq o'rniga yangi munitsipal soliq belgilandi. Bu soliq mol-mulkning bozor qiymatiga hamda har qaysi oiladagi katta yoshli a'zolar soniga bog'liq qilib qo'yilib, qator oilalar toifasiga chegirmalar berildi. Mol-mulk sakkizta baholash toifalaridan biri bo'yicha tasniflanadi va tabaqalashtirilgan stavkalar bo'yicha soliqqa tortiladi.

10.6-jadval

Ko'chmas mulk solig'i stavkalari 2007 yil uchun³⁷

Ko'chmas mulk qiymati funt.sterling.	Stavka, %
1-125000 gacha	0%
125001-250000	1%
250001 - 500001	3%
500001 dan yuqori	4%

Munitsipalitet mahalliy ehtiyojlar uchun boshqa soliqlap ham belgilashi mumkin. Mahalliy soliqlar ro'yxati turli grafliklarda bir-biridan g'oyat farqlanadi. Byudjet daromad qismining asosiy manbai, umumdavlat soliqlardir, Grafliklar va shaharlarning byudjetlarida umumdavlat soliqlardan ajratmalar 70,0dan 90,0%gacha boradi.

10.5. Yaponiya soliq tizimida jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari

Yaponiya – orollardan tashkil topgan o'ta iqtisodiy rivojlangan taraqqiy etgan davlat. Yaponiya 2006 yilda iqtisodiy jihatdan dunyoda YaIM ni jon boshiga ulushi bo'yicha AQSh va Xitoydan keyin 3 o'rinni egallaydi. Davlat boshqaruv shakli konstitutsion – monarhiyali davlat hisoblanadi. Konstitutsiyaga asosan imperatorlik taxti merosdan-merosga o'tishi belgilangan. Hukumat ishlarini bosh vazir amalga oshiradi. Yaponiya parlamenti - ikki palatadan iborat, tashkilotchilar palatasi va maslahatchilar palatasi. Tashkiliy palataga jami 480 ta deputat saylanadi. Saylanish yoshi 25 yosh va saylov muddati 4 yil belgilangan. Maslahatchilar palatasi 252 deputatdan tashkil topadi, shundan 98 tasini bosh vazir tomonidan provinsiyalardagi partiyalardan

³⁷ <http://www.uk.ru>

tayinlanadi. Saylanish yoshi 30 yosh va saylov muddati 6 yil belgilangan. Saylovda beshta partiya ishtirok etadi. Mamlakat iqtisodiyoti yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotdir.

Yaponiya soliq tizimi shakllanishi. To‘g‘ri va egri soliqlar 1940 yillardan so‘ng rivojlanishini boshladi. 67 foizni egallagan to‘g‘ri soliqlarning 64 foizini daromad solig‘i egallardi. Yaponiyadagi Soliq tizimining islohotiga AQSh faylasuf-professori Karls Shoupling tavsiyalari katta ta‘sirini o‘tkazdi. Shundan so‘ng Yaponiya soliq tizimi rivojlanishining etaplari ishlab chiqildi:

1945-49 y.y. Iqtisodiy tartibsizlik davri.

1950-59 y.y. Iqtisodiy tiklanish va barqarorlik davri.

1960-69 y.y. Iqtisodiy rivojlanish davri.

1970-hozirgacha. Xalq farovonligini yaxshilash davri.

Yaponiya soliqlari. Yaponiyada davlat va mahalliy soliqlar mavjud. Mamlakatda 3045 ta shahar, shaharchalar, rayonlarni birlashtiruvchi 47 prefektura bo‘lib, ularning har biri o‘zining mustaqil byudjetiga ega. Soliqlarning taqsimlanishi xuddi ularni to‘plashning ko‘zgudagi aksidek: Moliya resurslarining 64,2 foizi mahalliy mablag‘lar sifatiga sarflanib 35,8 foizi esa umumdavlat funktsiyalari-ning amalga oshirilishini taminlaydi. Yaponiyada soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo‘linadi.

10.7-jadval

Yaponiya soliqlari³⁸

Davlat soliqlari		Mahalliy soliqlar	
To‘g‘ri soliqlar	Egri soliqlar	Prefektura	Munitsipal
Korporatsiyalar foydasiga soliq	Istemol solig‘i	Prefekturada yashash uchun soliq soliq	Yashash uchun soliq soliq
Jismoniy shaxslar daromadlariga soliq	Gerb yig‘imlari	Ommaviy tamosha tadbirlari o‘tkazish uchun soliq	Shaharlarni obodonlashtirish uchun soliq
Meros va xadya solig‘i		Ko‘chmas mulk solig‘i	Mol -mulk solig‘i
Yer solig‘i		Avtotransport vositalari uchun soliq	Yer egaligi uchun soliq
Ko‘chmas mulk solig‘i		Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq	

³⁸ Seminar on Tax Administration 8-22 february 2010. Tokyo. JICA. 23 p.

Mamlakat byudjeti va prefekturalar byudjetlarining daromad qismi faqat soliqlargagina asoslanmaydi. Qator boshqa mamlakatlarga qaraganda Yaponiya nosoliq tushumlarining xissasi ancha yuqoridir. Binobarin, soliqlar davlat byudjetiga 83,8 foizni va nosoliq mablag'lar 16,2 foizni tashkil etadi, mahalliy boshqaruv idoralari nosoliq tushumlarining chorak qismiga ega 25,3% bunga ijara haqi yer uchastkalarini va boshqa munitsipial ko'chmas mulkni sotish, pensiyalar, jarimalar, obligatsiyalarni sotish, lotareyalardan keladigan daromadlar, qarzlarni va boshqalar kiradi. Daromadlarning xuddi shu moddalariga avvalgi yil qoldig'i kiritiladi. AQSh va Yevropaning soliq tizimi kabi Yaponiyani soliqning ko'pligi bilan xarakterlanadi. Ularni hududiy boshqaruvning har bir idorasi undirish huquqiga ega. Biroq mamlakatning barcha soliqlari qonuniy hujjatlarda qayd qilingan. Daromad solig'ining har bir turi qonun bilan to'g'rilanadi. Mahalliy soliqlar haqidagi qonun ularning turlari va meyoriy stavkalarini belgilaydi qolganlarni mahalliy parlament belgilaydi. Mamlakatda jami 25 ta davlat va 30 ta mahalliy soliq bor. Ularni 3 ta asosiy guruh bo'yicha tasniflash mumkin.

Birinchi – bu huquqiy shaxslardan bo'lgani kabi, jismoniy shaxslardan ham undiriladigan to'g'ri daromad soliqlari. Ikkinchi – mulk to'g'ri soliqlari. Uchinchi to'g'ri va bilvosita iste'mol soliqlari.

Byudjet asosini to'g'ri soliqlar tashkil etib, huquqiy va jismoniy shaxslar daromad solig'i davlatga eng yuqori daromad keltiradi. U butun soliq tushumlarining 56,4 foiziga teng. Daromad solig'ining kelib chiqishi Birlashgan Qirollik 1799 yildan kiritildi. O'sha davrdan beri, daromad solig'i ko'p davlatlarning soliq tizimiga kiritilgan edi va uning o'zagidir. Shunday qilib daromad solig'i «eng yaxshi» deb ataladi. Yaponiyada 1887 yildan boshlab amal qila boshladi.

Yaponiyada daromadlarni deklaratsiyalash tartibi. Mentaliteti jihatidan bizga yaqin bo'lgan va Osiyoning eng rivojlangan mamlakati hisoblangan Yaponiyada jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash tartibi o'ziga xos xususiyatga ega. O'ziga xosligi shundaki, Yaponiyada umumdeklaratsiyalash tizimi amal qilmaydi, ya'ni barcha soliq solinadigan daromadga ega jismoniy shaxslar yil yakuni bo'yicha deklaratsiya topshirmaydilar. 2010 yil uchun amaldagi tartibga muvofiq ikki va undan ortiq manbadan daromad oluvchi va yillik daromad miqdori 20,0 mln iyendan yuqori bo'lgan jismoniy

shaxslar daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani topshiradilar³⁹. Yaponiyada daromadlarini deklaratsiyalashning yana bir xususiyati o'z vaqtida vijdonan to'liq hisob-kitoblar bilan deklaratsiyalarini taqdim etgan shaxslarga, o'z vaqtida taqdim etganligi uchun turli xil imtiyozlar beriladi. Bu "ko'k" deklaratsiyalar berish tartibi deyiladi va bu soliq to'lovchilarni "ko'k" deklaratsiyali shaxslar deb ataladi.

"Ko'k" deklaratsiya topshirish istagida bo'lgan shaxslar joriy yilning 15 fevralidan boshlab 15 mart kunigacha soliq organiga ularga "ko'k" deklaratsiya berishga ruxsat etishni so'rab murojaat qilishlari kerak. Bu ruxsatnomani olgandan keyin ular belgilangan tartibda hisobot yuritish majburiyatini oladilar. Bu holda ular oddiy hisobotlarni ham yuritishlari mumkin, jumladan naqd tushum va xarajatlar, kredit sotuvlari, kredit xaridlari, xarajatlar hisobi va doimiy aktivlar uchun xarajatlar.

"Ko'k" deklaratsiyali soliq to'lovchilar uchun ko'plab imtiyozlar mavjud, ulardan asosiylari quyidagilar:

1) Oila a'zolari uchun mukofotlarga (oila biznesida) chegirma.

Ishchilar orasida oila a'zolari bor shaxslar sof foydadan belgilangan miqdorda mukofotlar ajratishlari mumkin. Bunday holda ular bu mukofot summasini soliq idoralariga ma'lum qilishi kerak va mukofotlar shu summa doirasida zaruriy xarajatlar sifatida chegiriladi.

"Oq" deklaratsiyali soliq to'lovchilar uchun esa oila a'zolariga chegirmalarning belgilangan summolari mavjud (turmush o'rtog'i uchun 860.000 iyen, qolgan qarindoshlar uchun 500.000 iyen).

2) "Ko'k" deklaratsiyali soliq to'lovchilar uchun maxsus chegirma.

To'liq qoida bo'yicha hisobot yurituvchi soliq to'lovchilarga 550.000 iyen miqdoridagi summaga chegirma ajratishga ruxsat etiladi, oddiy qoida bo'yicha – 450.000 iyen, qolganlari uchun esa – 100.000 iyen miqdorida chegirma beriladi.

Yillik daromadlarni deklaratsiyalashda umumiy daromad summasidan quyidagi 15 turdagi chegirmalar ajratilib, soliqqa tortiladigan daromadning umumiy summasi hisoblanadi.

1) Ko'rilgan turli xil zararlar uchun chegirma.

Shaxs yoki u bilan birga yashaydigan qarindoshlarining yong'in, o'g'irlik yoki boshqa shaxs tomonidan egallab olish oqibatida ko'rilgan zararlar summasi chegiriladi.

³⁹ Seminar on Tax Administration 8-22 february 2010. Tokyo. JICA. 23 p.

2) Tibbiy xarajatlarga chegirma.

Agar shaxs o'zi uchun yoki u bilan birga yashaydigan qarindoshlari uchun tibbiy xarajatlarni to'lasa, belgilangan summa 2.000.000 iyen miqdorida chegiriladi.

3) Ijtimoiy sug'urta uchun badallarga chegirma.

Agar shaxs o'zi uchun yoki u bilan birga yashovchi qarindoshlari uchun nafaqa jamg'armasiga va milliy tibbiy sug'urtalashga badallar to'laydigan bo'lsa, ushbu badallar summasi chegirib tashlanadi.

4) Kichik korxonalar uchun o'zaro yordam fondiga chegirma.

Kichik korxonalar uchun o'zaro yordam fondlari to'g'risidagi qonunga muvofiq o'zaro yordam to'g'risida shartnomalar mavjud va belgilangan sharoitlarda bu fondlarga ajratilgan summalariga chegirma beriladi.

5) Hayotni sug'urta qilish badallari bo'yicha chegirma.

Belgilangan shartnomaga muvofiq o'z hayotini yoki qarindoshlarining hayotini sug'urta qilish uchun sug'urta badallarini kiritganda, 50.000 iyendan ko'p bo'lmagan miqdorda chegirma beriladi.

6) Mulkni sug'urta qilish badallari bo'yicha chegirma.

O'z mulkini yong'indan sug'urta qilish yoki zararlarni qoplash uchun sug'urta qilish uchun sug'urta badallarini ajratganda, 15.000 iyendan ko'p bo'lmagan miqdorda chegirma beriladi.

7) Hayriya badallari uchun chegirma beriladi.

8) Nogironlar uchun beriladigan chegirma.

Agar soliq to'lovchining o'zi, uning turmush o'rtog'i yoki uning qaramog'ida bo'lgan shaxslar nogiron bo'lsa, har bir nogiron uchun 270.000 iyen (o'ta og'ir nogironlar uchun 400.000 iyen) miqdorida chegirma beriladi.

9) Keksalik chegirmasi.

Agarda soliq to'lovchi 60 yoshdan oshgan bo'lsa va umumiy daromadi 10 million iyendan ortmaydigan bo'lsa, 500.000 iyen chegirma beriladi.

10) Bevalar uchun chegirma.

Agarda soliq to'lovchi ajrashgan bo'lsa yoki turmush o'rtog'i vafot etgan bo'lsa va unga keksalik chegirmasi berilmagan bo'lsa, 270.000 iyen chegiriladi. Agarda beva bolalar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lsa, qo'shimcha yana 80.000 iyen chegirma beriladi.

11) Ishlovchi talabalar uchun chegirma.

Agarda soliq to'lovchi ishlayotgan talaba bo'lsa, belgilangan shartlar bilan (masalan umumiy daromad hajmi 650.000 iyendan oshmasligi kerak) 270.000 iyen chegirma beriladi.

12) Turmush o'rtog'i (soliq to'lovchining qaramog'ida bo'lgan shaxslar) uchun chegirma.

Agar daromad turiga qaramasdan, birga yashayotgan turmush o'rtog'ining umumiy daromadi hajmi 380.000 iyendan ortmaydigan bo'lsa (oila biznesidan tashqari), 380.000 iyen chegirma beriladi.

Agarda turmush o'rtog'i 70 yoshdan oshgan bo'lsa, 480.000 iyen chegirma beriladi. Belgilangan guruhdagi nogironlar uchun – 730.000 iyen, agar u 70 yoshdan oshgan bo'lsa – 830.000 iyen chegirma beriladi.

13) Soliq to'lovchining qaramog'ida bo'lgan turmush o'rtog'i uchun maxsus chegirma.

Agar soliq to'lovchining qaramog'ida turmush o'rtog'i bo'lsa, 380.000 iyen miqdorida summa chegiriladi, lekin quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- soliq to'lovchining umumiy daromadi miqdori 10 million iyendan ortmasligi;
- ular oila biznesi bilan shug'ullanmasligi va boshqa shaxslarning qaramog'i ostida bo'lmasligi kerak.

14) Soliq to'lovchining qaramog'ida bo'lgan shaxslar uchun chegirma.

Agar daromad hajmi 380.000 iyendan ortmaydigan (oila biznesidan tashqari) qarindoshlar soliq to'lovchi bilan birga istiqomat qiladigan bo'lsa, quyidagi summalar ajratiladi:

- har bir farzand yoki qarindosh uchun – 380.000 iyen;
- har bir 16 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan farzand yoki qarindoshlar uchun – 630.000 iyen;
- birgalikda yashayotgan ota-onalar yoki turmush o'rtog'ining ota-onalari uchun – har biri uchun 580.000 iyen;
- boshqalar uchun, ular birgalikda yashashi yoki nogiron ekanliklariga qarab – qo'shimcha belgilangan summani ajratish mumkin.

15) Asosiy chegirma.

Asosiy chegirma sifatida har bir soliq to'lovchi jismoniy shaxsga 380.000 iyen chegirma beriladi. Soliq stavkalari soliqqa tortiladigan

daromad miqdoridan kelib chiqib belgilanadi va 6 ta bosqichda soliq undiriladi. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkalari quyidagicha:

10.8-jadval

Yaponiyada jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkalari⁴⁰

Umumiy daromadning soliqqa tortiladigan summasi	Soliq stavkalari	Soliq bo‘yicha chegirma summasi
1950000 iyengacha	5%	0 iyen
1950000 iyendan 3300000 iyengacha	10%	97500 iyen
3300000 iyendan 6950000 iyengacha	20%	427500 iyen
6950000 iyendan 9000000 iyengacha	23%	636000 iyen
9000000 iyendan 18000000 iyengacha	33%	1536000 iyen
18.000.000 iyendan ortiq	40%	2796000 iyen

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, jismoniy shaxslardan daromad solig‘i 5%, 10 %, 20 %, 23 %, 33 %, 40 % stavkalarda undiriladi.⁴¹ Ushbu soliqni undirishdagi Yaponiyaning ilg‘or jihati shundaki, daromad solig‘ini hisoblash qulay hamda soddalashtirilgan. Jadvalning oxirgi satridagi chegirma summalarini soliq solinadigan daromadga nisbatan to‘g‘ridan to‘g‘ri stavkani qo‘llash imkoniyatini beradi. Pog‘onaga tegishli bo‘lgan stavka qo‘llanilib, chegirma chiqarib tashlansa, murakkab jarayon bo‘yicha (har pog‘ona bo‘yicha stavkalarni qo‘llagan holda) ishlab chiqiladigan daromad solig‘i summasi bilan farq qilmaydi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Zamonaviy soliq tizimida soliqqa tortishning qanday shakllari va usullari mavjud?
2. Jahon soliq modellari necha turga bo‘linadi?
3. Jahon soliq modellarini o‘ziga xos xususiyatlarini ayting?
4. AQSH da jismoniy shaxslardan daromad solig‘i qanday tartibda undiriladi?
5. Amerika Qo‘shma Shtatlarida jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkalarini aytib bering.

⁴⁰ Seminar on Tax Administration 8-22 february 2010. Tokyo. JICA. 25 p.

⁴¹Ta’kidlash joizki, ushbu stavklarda daromad solig‘i faqat umumdavlat byudjetiga undiriladi, bundan tashqari prefektura va munitsipial darajada rezident soliqlari ham undiriladi.

6. Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkasini ayting.
7. Yaponiya soliq tizimini shakllanish bosqichlarini ayting.
8. Yaponiya soliq tizimida qanday soliqlar amal qiladi?
9. Yaponiyada daromadlarni deklaratsiyalash tartibi qanday?
10. Yaponiyada daromadlarni deklaratsiyalash bo'yicha beriladigan imtiyozlarni bilasizmi?

JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH” FANI BO‘YICHA TEST VARIANTLARI

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan umumdavlat solig‘i qaysi javobda ko‘rsatilgan?

- a) mol-mulk solig‘i;
- b) *jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- d) yer solig‘i;
- e) mahalliy yig‘imlar.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash ma’suliyati kimga yuklatilgan?

- a. jismoniy shaxsning o‘ziga
- b. *ish beruvchi yuridik shaxsga
- c. soliq xizmati organlariga
- d. tijorat banklariga

3. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to‘lovchilari kimlar?

a. *moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining rezident va norezedent jismoniy shaxslari

b. fuqaroligi bo‘lmagan jismoniy shaxslar

c. daromadga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining jismoniy shaxslari

d. xorijiy davlatlar fuqarolari

4. Jismoniy shaxsning quyida keltirilgan qaysi daromadlari daromad solig‘idan ozod qilingan?

a. dividend ko‘rinishida olingan daromadlar

b. mehnat haqi tarzidagi daromadlar

c. mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar

d. *davlat pensiyalari

5. 2019 yil uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining quyi stavkasi necha foiz?

- a. 7,5%
- b. 16,5%
- c. *12%
- d. 22,5%

6. Ish vaqtidan tashqari tungi vaqtda, dam olish, bayram kunlarida ishlaganlik uchun to'lovlar qanday to'lovlarga kiradi?

- a. rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlarga
- b. *kompensatsiya to'lovlariga
- c. ishlanmagan vaqt uchun haq to'lashga
- d. mulkiy daromadlarga

7. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga tortiladimi?

- a. soliqqa tortiladi
- b. ozod etilgan
- c. *soliqqa tortilmaydi
- d. qisman tortiladi

8. Jismoniy shaxslarning qanday daromadlari soliq solish obyekti hisoblanadi?

a. *O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari

b. yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar

c. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar

d. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan daromadlari

9. Quyidagi qaysi to'lovlar rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar jumlasiga kiradi?

a. xizmat safarlari vaqtidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq;

b. *ta'tilga qo'shimcha haqlar;

c. belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti;

d. o'qish bilan bog'liq ta'tilga va ijodiy ta'tillarga haq to'lash.

10. Vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar soliqqa tortiladimi?

a. soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda ozod etiladi;

b. soliq davri uchun eng kam ish haqining olti baravarigacha miqdorda ozod etiladi;

c. *agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa soliqqa tortilmaydi;

d. quy stavkada soliqqa tortiladi.

11. Vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari soliqqa tortiladimi?

a. soliqqa tortiladi;

b. ozod etiladi;

c. *soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda ozod etiladi;

d. soliq davri uchun eng kam ish haqining to'rt baravarigacha miqdorda ozod etiladi.

12. Soliq xabarnomalarini tayyorlash va tarqatish ishlari kimning zimmasiga yuklatilgan?

a. *uchastka soliq inspektorlariga;

b. davlat soliq xizmati organlari bo'lim boshliqlariga;

c. deklaratsiyalarni qabul qilish sho'basiga;

d. mahalla vakillariga.

13. Qaysi javobda deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar to'g'ri ko'rsatilgan?

a. mulkiy daromadlar, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar, pensiya, nafaqa, donorlik uchun pul mukofotlari, alimentlar, davlat pensiyalari;

b. *ikki va undan ko'p manbadan olingan soliq solinadigan daromad; O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar; mulkiy daromadlar, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar;

c. ikki va undan ko'p manbaadan olingan soliq solinadigan daromad; O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar, pensiya, nafaqa, donorlik uchun pul mukofotlari, alimentlar, davlat pensiyalari;

d. pensiya, nafaqa, donorlik uchun pul mukofotlari, alimentlar, davlat pensiyalari.

14. Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar Soliq kodeksining qaysi moddasida aks ettirilgan?

- a. 192-modda;
- b. 191-modda;
- c. *189-modda;
- d. 190-modda.

15. Agar soliq to'lovchi daromadga ega bo'lib, lekin jami yillik daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organi....

- a. ma'muriy javobgarlikka tortadi;
- b. penya undiradi;
- c. *o'zidagi mavjud ma'lumotlar asosida soliq summasini hisoblaydi;
- d. jinoiy javobgarlikka tortadi.

16. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya shakli kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi;
- b. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- c. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis;
- d. *O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2017 yildagi PQ-3454-son qarori asosida Toshkent shahrida uy-joyi ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovi stavkasi 1 m². uchun qancha bo'lgan?

- a. 1500 so'm;
- b. 3000 so'm;
- c. *10000 so'm;
- d. 9000 so'm.

18. Yangi tashkil qilinayotgan qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar hisob-kitoblarni qaysi muddatda taqdim etadilar?

a. davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran 15 kundan kechiktirmay;

b. *davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran 10 kundan kechiktirmay;

c. davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran 5 kundan kechiktirmay;

d. davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran 3 kundan kechiktirmay.

19. Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq to'lovchilar tomonidan qaysi muddatda taqdim etiladi?

a. hisobot yilining 15 fevraligacha;

b. hisobot yilining 10 fevraligacha;

c. *hisobot yilining 10 yanvarigacha;

d. hisobot yilining 20 yanvarigacha.

20. 2019-yil uchun jismoniy shaxslarning turar joylari, kvartiralar (shaharlarda joylashgan umumiy maydoni 200 m². dan ortiq bo'lganlari bundan mustasno) dala hovli, garajlar va boshqa imoratlariga belgilangan mol-mulk solig'ining stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

a. 0,9;

b. 0,35;

c. *0,2;

d. 0,75.

21. Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solinadigan obyektiga to'g'ri keltirilgan?

a. motoaravachalar;

b. *uy joylar, kvartiralar, garajlar, bog' uylari, bino va inshootlari;

c. avtomobillar;

d. motorli qayiqlar.

22. Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solinadigan bazasi to'g'ri ko'rsatilgan?

a. *soliq solish obyektlarining kadastr qiymati;

b. soliq solish obyektlarining fizik ko'rsatkichdagi soni;

c. soliq solish obyektlarining bozor qiymati;

d. soliq solish obyektlarining birja bahosi.

23. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari..... bilan belgilanadi.

- a. Moliya vazirligining qarori;
- b. Vazirlar Mahkamasining qarori;
- c. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori;
- d. Davlat soliq qo‘mitasining qarori.

24. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq tomonidan hisoblab chiqariladi.

- a. jismoniy shaxslar;
- b. Davlat soliq boshqarmasi;
- c. *davlat soliq xizmati organlari;
- d. Davlat soliq qo‘mitasi.

25. Mol-mulkka mulk huquqi bir mulkdordan boshqasiga o‘tganda, yangi mulkdor soliqni e‘tiboran to‘laydi

- a. mulk huquqini qo‘lga kiritgandan keyingi yildan;
- b. mulk huquqini qo‘lga kiritgandan keyingi oydan;
- c. *mulk huquqini qo‘lga kiritgan oydan;
- d. mulk huquqini qo‘lga kiritgandan 3 oydan keyin.

26. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?

- a. egaligida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar;
- b. foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar;
- c. *mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari yer solig‘ini to‘lovchilardir;

d. o‘z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari yer solig‘ini to‘lovchilardir.

27. Ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini soliq solish obyekti bo‘ladimi?

- a. *ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘lmaydi;
- b. ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘ladi;
- c. Vazirlar Mahkamasining qarori asosida ayrim ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘ladi;
- d. Davlat soliq qo‘mitasining qarori asosida ayrim ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘ladi.

28. Jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomasini taqdim etish muddati qaysi satrda to'g'ri ko'rsatilgan.

- a. *joriy yilning 1 mayigacha;
- b. joriy yilning 25 apreiligacha;
- c. joriy yilning 15 iyunigacha;
- d. joriy yilning 5 yanvarigacha.

29. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari qanday me'yoriy hujjat bilan tasdiqlanadi?

- a. Vazirlar Mahkamasi qarori;
- b. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori;
- c. Moliya vazirligi qarori;
- d. mahalliy davlat hokimiyati organlari qarori.

30. Uchastka soliq inspektorining asosiy vazifasi nimadan iborat?

a. *belgilangan hududda mol-mulk solig'i, yer solig'i to'lovchi jismoniy shaxslarni, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni hisobga olish va soliqlarni to'lashlarini nazorat qiladi;

b. belgilangan hududda qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i tushumlarini nazorat qiladi;

c. belgilangan hududda aksizosti mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni nazorat qiladi;

d. belgilangan hududda norezidentlar hisobini yuritadi.

31. Uchastka soliq inspektori lavozimiga tayinlanadigan xodim qanday talablarga javob berishi kerak?

a. *davlat soliq tizimida 3 yillik staj, o'rta maxsus darajadan kam bo'lmagan iqtisodiyot, moliya yoki yuridik ixtisoslik bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan xodim;

b. davlat soliq tizimiga yangidan tanlov asosida ishga qabul qilingan xodim;

c. davlat soliq tizimida kamida 5 yil xizmat qilgan xodim;

d. davlat soliq tizimida kamida 1 yil xizmat qilgan xodim.

32. AQShda jismoniy shaxslar daromadini deklaratsiyalash jarayonida deklaratsiya topshiruvchilar necha toifaga ajratiladi?

- a. 2 toifaga;
- b. 3 toifaga;
- c. *4 toifaga;

d. 5 toifaga.

33. Jismoniy shaxsning soliq majburiyati quyidagi qaysi hollarda tugatiladi?

- a. *jismoniy shaxsning vafot etishi bilan;
- b. jismoniy shaxsning doimiy yashash joyi o'zgarishi munosabati bilan;
- c. jismoniy shaxsning asosiy ish joyi o'zgarishi munosabati bilan;
- d. nafaqaga chiqishi munosabati bilan.

34. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan mahalliy soliqlar tarkibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a. jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- b. jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- c. jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qat'iy belgilangan soliq;
- d. *jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i.

35. Qaysi javobda jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan majburiy to'lov ko'rsatilgan?

- a. ish haqidan ixtiyoriy sug'urtaga ajratma;
- b. yo'l jamg'armasiga majburiy ajratma;
- c. *yagona ijtimoiy to'lov;
- d. pensiya jamg'armasiga sug'urta badali.

36. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- a. *mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, boshqa daromadlar;
- b. moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- c. tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- d. mulkiy daromadlar.

37. I-II guruh nogironlari uchun jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha qanday imtiyoz ko'zda tutilgan?

- a. soliqqa tortiladigan daromad 30%ga kamaytiriladi;
- b. soliqqa tortiladigan daromad 50%ga kamaytiriladi;
- c. soliqqa tortiladigan daromad 30%, agar 16 yoshgacha ikkita bolasi bor bo'lsa kamaytiriladi;
- d. *har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining 4 baravari miqdorida kamaytiriladi.

38. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri umumdavlat solig'i hisoblanmaydi?

- a. *yer solig'i;
- b. qo'shilgan qiymat solig'i;
- c. aksiz solig'i;
- d. jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq.

39. 2019-yil uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi necha foiz?

- a. 25%;
- b. 20%;
- c. 16%;
- d. *12%.

40. Quyidagilardan qaysi biri jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan to'liq ozod etilgan?

- a. byudjet tashkilotlari xodimlari;
- b. nodavlat tashkiloti xodimlari;
- c. *xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari, agar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa;
- d. qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari xodimlari.

41. Qaysi daromad jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyekti bo'lmaydi?

- a. mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- b. moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- c. mulkiy daromadlar;
- d. *yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar.

42. Jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar soliqqa tortiladimi?

- a. soliqqa tortiladi;
- b. quyi stavkada soliqqa tortiladi;
- c. *soliqqa tortilmaydi;
- d. yuqori stavkada soliqqa tortiladi.

43. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lashga quyidagilardan qaysilari kiradi?

- a. kasb mahorati uchun maoshiga ustama;
- b. murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;
- c. *xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun haq to'lash;

d. ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar.

44. Qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta‘lim muassasalari tomonidan to‘lanadigan stipendiyalardan soliq undiriladimi?

- a. eng kam ish haqining 4 baravari miqdorigacha ozod etiladi;
- b. soliq davri uchun eng kam ish haqining 12 baravari miqdorigacha ozod etiladi;
- c. soliqqa tortiladi;
- d. *soliqdan ozod etiladi.

45. Quyidagi qaysi jismoniy shaxs soliq solishdan daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining 4 baravari miqdorida ozod qilinadi?

- a. *Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar;
- b. xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarigi, konsullik muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar;
- c. prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo‘lgan xodimlari;
- d. gastrol-konsert faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo‘lgan shaxslar.

46. Deklaratsiya yuzasidan to‘lov xabarnomasi qanday holatlarda jismoniy shaxslarga yuboriladi?

- a. agar olingan deklaratsiya yuzasidan savollar tug‘ilsa;
- b. agar soliq ortiqcha to‘langan bo‘lsa;
- c. *agar deklaratsiya natijalariga ko‘ra soliq qo‘shimcha hisoblansa;
- d. agar soliqqa penya hisoblansa.

47. Jismoniy shaxslar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani topshirish muddati qachon?

- a. hisobot yilidan keyingi yilning 1 iyulidan kechiktirmay;
- b. hisobot yilidan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay;
- c. *hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay;
- d. hisobot yilidan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

48. Deklarant deklaratsiyani muddatida topshirmasa qanday chora belgilanadi?

- a. eng kam ish haqining 5 baravari miqdorida jarimaga tortiladi;
- b. *eng kam ish haqining 1 baravaridan 3 baravari miqdorida jarimaga tortiladi;

- c. eng kam ish haqining 1 baravari miqdorida jarimaga tortiladi;
- d. eng kam ish haqining 3 baravaridan 5 baravari miqdorida jarimaga tortiladi.

49. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2018 yildagi PQ-4086-son qarori asosida Nukus shahri va viloyat bo‘ysunividagi shaharlarda uy joyni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovi stavkasi 1 m² uchun qancha belgilangan?

- a. 4500 so‘m;
- b. 1500 so‘m;
- c. *6500 so‘m;
- d. 6000 so‘m.

50. Qaysi javobda mol-mulknii ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar dastlabki deklaratsiyani taqdim etishi to‘g‘ri ko‘rsatilgan:

- a. har chorakdan keyingi oyning 15 sanasigacha;
- b. *shunday daromadlar yuzaga kelgandan e‘tiboran bir oy o‘tgach, 5 kunlik muddatda;
- c. joriy yildan keyingi yilning 15 martidan kechiktirmay;
- d. o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 10 yanvariga qadar.

51. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar quyidagi qaysi toifaga kiradi?

- a. Mikrofirma;
- b. kichik korxonalar;
- c. *kichik biznes subyektlari;
- d. yirik biznes subyektlari.

52. Qat‘iy belgilangan soliq bo‘yicha soliq stavkasi qaysi mezon asosida belgilanadi?

- a. minimal ish haqi miqdori asosida;
- b. *faoliyat turi asosida;
- c. faoliyat turi asosida;
- d. mahsulotni sotish hajmi asosida.

53. Qaysi javobda mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar to‘g‘ri keltirilgan?

- a. *mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo‘lgan jismoniy shaxslar;
- b. II guruh nogironlari;
- c. mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo‘lgan fermer xo‘jaliklari;
- d. uchala darajadagi “Shuhrat” ordeni bilan taqdirlanganlar.

57. 2019-yil uchun jismoniy shaxslarning shaharda joylashgan umumiy maydoni 200 m² dan oshiq va 500 m² gacha bo'lgan turar joylar va kvartiralariga belgilangan mol-mulk solig'i stavkasi necha foiz?

- a. 1,1%;
- b. *0,25%;
- c. 1,8%;
- d. 0,35%.

58. Quyida keltirilgan jismoniy shaxslardan qaysilari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etilgan?

- a. *O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganlar;
- b. madaniyat va xalq ta'limi xodimlari;
- c. O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganlar, madaniyat va xalq ta'limi xodimlari;
- d. og'ir mehnat sharoitida ishlovchilar.

59. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan soliq solish obyektlariga nisbatan....

- a. *qo'llanilmaydi;
- b. qisman qo'llaniladi;
- c. qo'llaniladi;
- d. tegishli vazirlik qarorlari asosida qo'llaniladi.

60. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar.....

- a. mulkdorning barcha mol-mulk obyektlariga taalluqli bo'ladi;
- b. mulkdorning tadbirkorlik maqsadlarida foydalanayotgan mol-mulk obyektlariga taalluqli bo'ladi;
- c. *mulkdorning tanloviga binoan faqat bitta mol-mulk obyektga taalluqli bo'ladi;
- d. mulkdorning ijaraga bergan mol-mulk obyektlariga taalluqli bo'ladi.

61. Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan soliq qachondan undiriladi?

- a. *mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran;
- b. mulk huquqi vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab;
- c. mulk huquqi vujudga kelgan yildan keyingi yil boshidan;
- d. mulk huquqi vujudga kelgan kundan boshlab.

62. 2019-yilda jismoniy shaxslar mol-mulkini kadastr qiymati bo'lmasa soliq undirish uchun boshqa shahar va qishloq joylarda qanday shartli qiymat qabul qilinadi?

- a. *90 000 ming so'm;
- b. 18 480,0 ming so'm;
- c. 16 480,0 ming so'm;
- d. 6 080,0 ming so'm.

63. Mol-mulk yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor to'laydi.

- a. *yilning 1 yanvaridan e'tiboran mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar;
- b. mulk huquqini yo'qotgan yilning oxirigacha;
- c. mulk huquqini yo'qotgan oydan keyingi oygacha;
- d. mulk huquqini yo'qotgan chorakning oxirigacha.

64. Quyidagi jismoniy shaxslardan qaysilari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'idan ozod etilmagan?

- a. uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar;
- b. II guruh nogironlari;
- c. Sovet Ittifoqi Qahramoni;
- d. *yolg'iz bo'lmagan, boquvchisi bor pensionerlar.

65. Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan bazasi to'g'ri berilgan?

- a. *yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlar;
- b. yer uchastkalarining inventarizatsiya qiymati;
- c. yer uchastkalarining bozor qiymati;
- d. yer uchastkalarining me'yoriy qiymati.

66. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini byudjetga to'lash muddatini ko'rsating

- a. hisobot yilining 15 iyuli, 15 noyabriga qadar;
- b. hisobot yilining 15 iyunigacha, 15 dekabrigacha;
- c. hisobot yilining 15 dekabrigacha;
- d. *hisobot yilining 15 oktyabriga qadar.

67. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i summasi belgilangan tartibda qaysi byudjetga tushadi?

- a. Respublika byudjetiga;
- b. *mahalliy byudjetga;
- c. pensiya jamg'armasiga;
- d. yo'l jamg'armasiga.

68. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq davrini aniqlang.

- a. yil choragi;
- b. 1 oy;
- c. *kalendar yil;
- d. 6 oy.

69. Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i qanday stavkalarda undiriladi?

- a. *progressiv;
- b. proporsional;
- c. regressiv;
- d. aralash.

70. Uchastka soliq inspektorining ishini tashkil qilishda huquqiy, me'yoriy hujjatlar qaysilar?

- a. Soliq kodeksi;
- b. Fuqarolik kodeksi;
- c. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks;
- d. *"Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmonlari va Qarorlari, "Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida"gi nizom.

71. Uchastka soliq inspektori yashirin ishlab chiqarish va noqonuniy savdo faoliyatini aniqlaganda qanday choralar belgilaydi?

- a. o'zi mustaqil choralar ishlab chiqadi;
- b. hokimiyatga yozma axborot taqdim etadi;
- c. *davlat soliq inspeksiyasi rahbariyatiga yozma axborot beradi;
- d. ichki ishlar organlariga xabar beradi.

72. Jismoniy shaxslardan olinadigan mahalliy soliqlarning o'ziga xos xususiyatlari qaysi javobda aks etgan?

- a. hisoblangan soliq summalari faqat plastik kartalar orqali undiriladi;
- b. hisoblangan soliq summalari faqat pul o'tkazish usulida undiriladi;
- c. *hisoblangan soliq summalari asosan naqd pul va plastik kartalar orqali undiriladi;
- d. hisoblangan soliq summasi natura shaklida undiriladi.

74. Jismoniy shaxslardan olinadigan mahalliy soliqlarni hisoblash mas'uliyati kimga yuklatilgan?

- a. moliya bo'limiga;
- b. *soliq inspeksiyasiga;
- c. soliq to'lovchi jismoniy shaxsga;
- d. iqtisodiyot bo'limiga.

75. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i iqtisodiy mohiyatiga ko'ra....

- a. egri soliq;
- b. real soliq;
- c. *to'g'ri soliq;
- d. umumdavlat solig'i.

76. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari tarkibiga qanday daromadlar kiradi?

- a. rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar;
- b. *rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar, kompensatsiya to'lovlari, ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;
- c. ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;
- d. foiz va dividend ko'rinishida olingan daromadlar.

77. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga qanday daromadlar kiradi?

- a. *dividend, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- b. mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- c. tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- d. moddiy naf tarzidagi daromadlar.

78. Quyidagi qaysi to'lov ishlanmagan vaqt uchun haq to'lashga kirmaydi?

- a. o'qish bilan bog'liq ta'tilga va ijodiy ta'tillarga haq to'lash;
- b. qayta tayyorlash va malakasini oshirish vaqtida to'lanadigan ish haqi;
- c. *doimiy ishi yo'lda kechadigan, qatnov tusiga ega bo'lgan xodimlarning ish haqiga ustamalar;
- d. yillik ta'til uchun haq to'lash.

79. 2019-yil uchun O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning dividend va foiz ko'rinishida oladigan daromadlari qanday stavkada soliqqa tortiladi?

- a. 10%;
- b. 12%;

- c. 15%;
- d. *5%.

80. Yuridik shaxslar amalga oshiradigan quyidagi qaysi xarajat jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi?

- a. *xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari;
- b. ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar;
- c. maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo'shimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining 5 baravari miqdoridagi to'lovlar;
- d. o'qish bilan bog'liq ta'tilga va ijodiy ta'tillarga haq to'lash.

81. Chet davlatlar grantlari bo'yicha olingan summalar jismoniy shaxslarning qaysi daromadlari guruhiga kiradi?

- a. mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- b. mulkiy daromadlar;
- c. moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- d. *boshqa daromadlar.

82. O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki 26 yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summalar soliqqa tortiladimi?

- a. soliq davri uchun eng kam ish haqining 12 baravarigacha miqdorda ozod etiladi;
- b. *ozod etiladi;
- c. soliqqa tortiladi;
- d. soliq davri uchun eng kam ish haqining 20 baravarigacha miqdorda ozod etiladi.

83. O'zbekiston rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar deklaratsiya bo'yicha hisoblangan daromad solig'ini qaysi sanagacha to'lashlari lozim?

- a. 1 aprel;
- b. *1 iyun;
- c. 1 may;
- d. 1 sentyabr.

84. 2019-yilda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqa-siga majburiy ajratma miqdorini aniqlang.

- a. 2%;
- b. 0,1%;

- c. 1%;
- d. 1,5%.

85. Mol-mulkn ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etadimi?

- a. deklaratsiya taqdim etmaydi;
- b. *dastlabki deklaratsiyani taqdim etadi;
- c. yakuniy deklaratsiyani taqdim etadi;
- d. dastlabki va yakuniy deklaratsiyani taqdim etadi.

86. Qaysi toifadagi fuqarolar jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya topshiradi?

- a. hamma toifadagi fuqarolar;
- b. *ikki va undan ortiq daromad manbaiga ega bo'lgan hamma toifadagi fuqarolar;
- c. yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar;
- d. faqat o'rindoshlik bo'yicha ishlovchilar.

87. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2018 yildagi PQ-4086-son qarori asosida boshqa aholi punktlarida uy joyni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovi stavkasi 1 m² uchun qancha belgilangan?

- a. 4500 so'm;
- b. 2000 so'm;
- c. 3000 so'm;
- d. *3000 so'm.

88. Qaysi javobda qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari to'g'ri ko'rsatilgan?

- a. *yakka tartibdagi tadbirkorlar ;
- b. dehqon xo'jaliklari;
- c. fermer xo'jaliklari;
- d. konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lganlar.

89. Qat'iy belgilangan soliq bo'yicha soliq davrini aniqlang.

- a. *1 oy;
- b. 1 chorak;
- c. 1 yil;
- d. 6 oy.

90. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni to'lash muddatini ko'rsating.

a. har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilayotgan oyning 1 kunidan kechiktirmay;

b. *har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 10 kunidan kechiktirmay;

c. har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 15 kunidan kechiktirmay;

d. har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay.

91. Jismoniy shaxslarga mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomasi qaysi muddatdan kechiktirmay taqdim etiladi?

a. joriy yilning 5 yanvarigacha;

b. joriy yilning 25 aprelegacha;

c. joriy yilning 15 iyunigacha;

d. *joriy yilning 1 mayigacha.

92. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini qaysi muddatlarda to'laydilar?

a. 15-yanvarga qadar;

b. 15-noyabrga qadar;

c. *15-oktyabrga qadar;

d. 15-iyun va 15-dekabrga qadar.

93. 2019-yil uchun jismoniy shaxslarning shaharda joylashgan umumiy maydoni 500 kv.m dan oshiq bo'lgan turar joylar va kvartiralariga belgilangan mol-mulk solig'ining stavkasi necha foiz?

a. *0,35;

b. 1,35;

c. 1,4;

d. 1,2.

94. 2019-yilda agar jismoniy shaxslar mol-mulkinging kadastr qiymati bo'lmasa soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida qanday shartli qiymat qabul qilinadi?

a. 16480,0 ming so'm;

b. *210 000 ming so'm;

c. 8030,0 ming so'm;

d. 18550,0 ming so'm.

95. Qaysi javobda pensionerlar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdor to'g'ri ko'rsatilgan?

- a. umumiy maydonning 50 m² hajmida;
- b. *umumiy maydonning 60 m² hajmida;
- c. umumiy maydonning 65 m² hajmida;
- d. umumiy maydonning 55 m² hajmida.

96. Mol-mulk butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'ini undirish ... to'xtatiladi.

- a. mol-mulk butunlay vayron bo'lgandan keyingi yildan e'tiboran;
- b. *mol-mulk butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran;
- c. mol-mulk butunlay vayron bo'lgandan keyingi oydan e'tiboran;
- d. mol-mulk vayron bo'lgan kundan e'tiboran.

97. Yer solig'ini joriy etishdan ko'zlangan maqsadlarni ko'rsating.

- a. davlat byudjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash;
- b. *davlat byudjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va yer resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag'batlantirish;
- c. fiskal funksiyani bajarish;
- d. mahalliy byudjet daromadlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash.

98. Yer uchastkalarini Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar tatbiq etiladimi?

- a. *tatbiq etiladi;
- b. qisman tatbiq etiladi;
- c. tatbiq etilmaydi;
- d. pasaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llaniladi.

99. Quyida keltirilgan jismoniy shaxslardan qaysilari yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan?

- a. *I va II guruh nogironlari;
- b. madaniyat va xalq ta'limi xodimlari;
- c. yolg'iz bo'lmagan, boquvchisi bor pensionerlar;
- d. og'ir mehnat sharoitida ishlovchilar.

100. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan obykti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a. *yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- b. ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari;

- c. tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yer uchastkalari;
- d. sogʻlomlashtirish ahamiyatiga molik yer uchastkalari.

101. Jismoniy shaxslar yer soligʻini amalga oshirish maqsadida Toshkent shahri nechta zonaga boʻlinadi?

- a. 11 zona;
- b. 13 zona;
- c. *5 zona;
- d. 12 zona.

102. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi qaysi qaror asosida belgilanadi?

- a. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qarori;
- b. *Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori;
- c. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qarori;
- d. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori.

103. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan suv resurslaridan foydlanganlik uchun soliqning hisob-kitobini taqdim etish muddatini koʻrsating.

- a. har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10 kunidan kechiktirmay;
- b. *soliq davridan keyingi yilning 25 yanvarigacha;
- c. har chorakda, chorak ikkinchi oyining 25 kunidan kechiktirmay;
- d. yilda bir marta hisobot davrining 15 dekabrigacha.

104. Uchastka soliq inspektori lavozimi nima maqsadda tashkil etilgan?

- a. *belgilangan hududdagi soliq toʻlovchilar, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bogʻliq obyektlar toʻliq va oʻz vaqtida hisobga olinishini taʼminlash maqsadida;
- b. tumanda soliq toʻlovchilar va obyektlarni aniqlash maqsadida;
- c. soliq tushumlarini toʻgʻri prognoz qilish maqsadida;
- d. boqimanda qarzdorliklarni tugatish maqsadida.

105. Uchastka soliq inspektorlari ish faoliyatini asosan qayerda yuritadilar?

- a. hokimiyat tasarrufida;
- b. *soliq tayanch punktida;
- c. bank tashkilotlarida;
- d. ichki ishlar organlarida.

ATAMALAR SHARHI

Aksioner – aksionerlik jamiyatining aksiyalariga egalik qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. Aksiyalar turli shakllarda bo‘lishi mumkin.

Aksiya – aksionerlik jamiyatining kapitaliga hissa qo‘shilganligi to‘g‘risida guvohlik beruvchi qimmatbaho qog‘oz. Aksiya o‘zining egasiga dividend shaklida foydani bir qismini olish (o‘zlashtirish) huquqini beradi.

Amortizatsiya – kelgusida asosiy fondlarni to‘liq qayta tiklash uchun pul mablag‘larini jamg‘arish va ularning qiymatini tiklash maqsadida ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmatga asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatining ularning eskirishiga qarab uzluksiz o‘tkazish jarayoni. Ishlab chiqarish jarayoni va tashqi muhitning ta’siri natijasida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskiradi, ularning moddiy va ma’naviy eskirishi sodir bo‘ladi. Bunda mehnat vositalarining qiymati uzluksiz qismlarga bo‘linib, amortizatsiya hisoblash yo‘li bilan normativ xizmat qilish muddati davomida tayyor mahsulotga o‘tkaziladi.

Advalor soliq – tovar qiymatiga nisbatan qat’iy foiz stavkasida o‘rnatilgan to‘lov. Inflyatsiya sharoitida o‘zining funksiyalarini avtomatik ravishda saqlab qoladi. Bu soliqning tarkibiga savdo soliqlari, imoratga nisbatan ko‘pgina poshlinalar va boshqalar kiritilishi mumkin. Tovarlarini (import tovarlarini ham) jismoniy va yuridik shaxslarning mulklarini soliqqa tortishda qo‘llaniladi.

Asosiy ish joyi – ish beruvchi mehnati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo‘lgan ish joyi.

Asosiy faoliyat turi – yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo‘yicha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati

Balans qiymati – buxgalteriya balansida asosiy fondlar va aylanma mablag‘larning pulda ifodalangan bahosi.

Balans foyda – mahsulot tannarxiga kiritiladigan barcha xarajatlar va chiqimlar hamda majburiy to‘lovlar chegirilganidan so‘nggi korxonaga yalpi daromadning qismi. Balans foyda soliqqa tortulguncha qadar bo‘lgan yalpi foydadir.

Byudjet dotatsiyasi – o‘z daromadlari va byudjet tomonidan tartibga solinadigan barcha mablag‘lar yetishmagan holda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga tekinga (beg‘araz) ajratiladigan pul mablag‘lari.

Byudjet profitsiti – muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi.

Byudjet ssudasi – yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoki respublika byudjetidan rezident – yuridik shaxsga yoki xorij davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘.

Byudjet tizimi – turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, ularni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, shuningdek, byudjet jarayonida paydo bo‘ladigan ular o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi.

Byudjet subvensiyasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ma‘lum maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga tekingi (beg‘araz) ajratiladigan pul mablag‘lari.

Byudjet tashkilotlari – Davlat byudjetida unga zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq faoliyatni moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lgan byudjetdan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Byudjeti taqchilligi (defitsiti, kamomadi) – muayyan davrda byudjet xarajatlarning byudjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi.

Byudjet transferti – byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoki vakolotli organ orqali haq olmay (tekinga) ajratiladigan pul mablag‘lari.

Boqimanda – belgilangan muddatda o‘tkazilmagan va so‘zsiz undirilishi lozim bo‘lgan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovning summasi.

Bojlar – iste‘mol soliqlarining tarkibiga kiradi. Ularning maqsadi daromad olish bo‘lmasdan, balki ichki bozorni, milliy sanoatni va qishloq xo‘jaligini himoya qilishdir. Davlat iqtisodiy siyosatining dastagi sifatida maydonga chiqadi. Import qilinadigan tovarlarning

bahosi bilan ichki bozordagi xuddi shunga o'xshash tovarlarning bahosini tenglashtirish lozim.

Bojlarning stavkalari – hukumat tomonidan o'rnatilib, yagona hisoblanadi va chegaradan tovarlarni olib o'tuvchi shaxslarga bog'liq bo'lmagan holda o'zarmasdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni operativ ravishda tartibga solishning dastagi bo'lib xizmat qiladi. Ularning quyidagi turlari bo'lishi mumkin:

a) advalor stavkalar (boj undiriladigan tovarning boj qiymatiga nisbatan foizda o'rnatiladi);

b) maxsus stavkalar (boj undiriladigan tovarning birligiga nisbatan aniqlanadi);

v) aralash stavkalar (boj undirishning dastlabki ikki varianti qo'llaniladi).

Boj deklaratsiyasi – milliy qonunchilikning talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan, o'ziga chegaradan o'tayotgan yuklar (eksport yoki import qilinayotgan tovarlar, yo'lovchi yuki, uning qo'lidagi yuki, boyliklar va valyutalar) to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan hujjat. Bu hujjat yukni davlat chegarasi orqali o'tkazib yurishda asos bo'lib hisoblanadi.

Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot – birgalikdagi faoliyat natijasi bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

Byudjetdan ajratiladigan subsidiya – davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun byudjet hisobidan beriladigan pul mablag'lari; soliq to'lovchiga muayyan maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlar hisobiga bo'shaydigan mablag'lar.

Vakolatli organlar – vakolatli organlar quyidagilardir:

1) davlat soliq xizmati organlari — O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari;

2) bojxona organlari — O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari;

3) moliya organlari — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent

shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo'limlari;

4) boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari quyidagilardir:

Grant — davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatiga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk.

Davlat byudjeti daromadlari – o'z tarkibiga quyidagilarni oladi: 1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda soliqsiz boshqa tushumlar; 2) davlatning moliyaviy aktivlari va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotishga berilishidan olingan daromadlar; 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari; 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, xorijiy davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; 5) rezident-yuridik shaxslar va xorijiy davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar; 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Davlat byudjeti – davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalarining) markazlashtirilgan fondi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat ichki qarzlari – davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish natijasida paydo bo'lgan hukumat majburiyatlarining yig'indisi.

Davlat soliq xizmati organlari – davlat soliq xizmati organlari quyidagilardir: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari

Davlat soliq inspeksiyalarining vazifalari – 1) davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni ta‘minlash; 2) soliqlarning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlatning maqsadli jamg‘armalari hamda byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini ta‘minlash; 3) soliqlar yig‘ilishini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish, ma‘lumotlar kompyuter bazasining yagona tizimini yuritish asosida soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish mexanizmlarini takomillashtirish, ularga ko‘rsatiladigan axborot-maslahat xizmatlari sohasini kengaytirish, soliqlarga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish; 4) pul mablag‘larining g‘ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to‘liq va o‘z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta‘minlash; 5) xo‘jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini rag‘batlantirishga, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish; 6) bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo‘jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha surishtiruv o‘tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishlilikiga ko‘ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish; 7) xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo‘yicha nazorat qiluvchi organlar faoliyati muvofiqlashtirilishini ta‘minlash, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlash va suiiste‘molliklarga yo‘l qo‘ymaslik; 8) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operatsiyalari amalga oshirilganda qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan o‘z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish; 9) davlat soliq xizmati organlarini halol, yuqori malakali xodimlar bilan to‘ldirish, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish faktlariga barham berish bo‘yicha tizimli ishni amalga oshirish, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni doimiy asosda ta‘minlashdan iborat.

Davlatning tashqi qarzi – davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida paydo bo‘lgan hukumat majburiyatlarining yig‘indisi.

Davlat qarzi – davlat tomonidan ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida paydo bo‘lgan hukumat majburiyatlarining yig‘indisi.

Daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya – Dividendlar – taqsimlashga mo‘ljallangan aksionerlarning sof foydasi (daromadi); aksionerlik jamiyati yoki korxonada sof foydasidan har bir aksiya uchun aksionerlarga ma‘lum davrdan so‘ng (har yili, ayrim hollarda – har chorakda) to‘lanadigan daromad.

Dotatsiya – davlat byudjetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablag‘lari, zarar (ziyon)larni qoplash uchun korxonada va tashkilotlarga beriladigan davlat nafaqalari. Zarar (ziyon)lar korxonaga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra vujudga kelgan paytda istisno tariqasida dotatsiya berilishi mumkin.

Daromad solig‘i bo‘yicha jarimalar – Ushbu soliq to‘lanmaganda, noto‘liq to‘langanda yoki to‘lash tartibi buzilganda (rioya qilinmaganda), pulni undirish, moddiy ta‘sir ko‘rsatishdan iborat. O‘z vaqtida ushlab qolinmagan, noto‘liq ushlangan yoki tegishli byudjetga o‘tkazilmagan soliq summalari jismoniy shaxslarga daromad to‘laydigan korxonada, tashkilot va muassasalardan undirishga mo‘ljallangan summaning 10 foizi hajmidagi jarimani birgalikda qo‘shib, soliq organlari tomonidan so‘zsiz undirib olinadi. Korxonada, tashkilot, muassasalar va tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan jismoniy shaxslardan soliq o‘z vaqtida tegishli byudjetga o‘tkazilmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun to‘lov muddatidan keyingi kundan boshlab to‘langan kungacha (bu kun ham qo‘shiladi) 0,33 foiz miqdorida penya undiriladi. Penyaning undirilishi ularni javobgarlikning boshqa turlaridan ozod etmaydi.

Doimiy muassasa – norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda norezident O‘zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e‘tirof etiladi. Norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda O‘zbekiston Respublikasi hududida har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida bir yuz sakson uch kalendar kunidan ortiq davom etadigan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi ham e‘tirof etiladi.

Dividendlar – aksiyalar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o‘rtasida (ishtirokchilari, a‘zolari o‘rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalarini bo‘yicha) taqsimlanadigan sof foydani va (yoki) o‘tgan yillardagi taqsimlanmagan foydani bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek, muassis (ishtirokchi, a‘zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a‘zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi, taqsimlanmagan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish uchun yo‘naltirilgan taqdirda, yuridik shaxs aksiyadorining, muassisining (ishtirokchisining, a‘zosining) qo‘shimcha aksiyalar qiymati, aksiyalar nominal qiymatining oshishi, ulush (pay, hissa) qiymatining oshishi tarzida olingan daromadlari

Ikkiyoqlama soliqqa tortish – 1. Turli soliqlarni daromad (kapital)ning yagona manbaidan olinishi; 2. Qo‘shma korxonalar xorijiy ishtirokchisining foydasini xorijga o‘tkazilayotgan paytda soliqqa tortish va xuddi shu foydani xorijiy ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi; 3. Sof foyda (daromad) (korporatsiyalar foydasi) va undan to‘lanadigan dividendlarni ular shaxsiy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish. Boshqa mamlakatda to‘langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbaini ikkinchi mamlakatda soliqqa tortishdan ozod qilish yo‘li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutilish mumkin. 1979-yilda BMT tomonidan manfaatdor davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda ikki marta soliqqa tortishga barham berish uchun maxsus konvensiya ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosida ikki tomonlama bitimlar imzolandi. Ular tomonidan o‘rnatilgan soliqqa tortish tartibiga ko‘ra qo‘shma korxonalar xorijiy ishtirokchisi o‘z foydasini xorijga o‘tkazayotgan paytda qo‘shimcha soliqdan ozod qilinadi.

Investitsion soliq krediti – soliq to‘lovchi tomonidan ma‘lum bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha juda muhim buyurtmani bajarganligi yoki shu hudud aholisiga juda muhim xizmatni taqdim etganligi uchun unga mahalliy hokimiyat organlari tomonidan soliq summasi doirasida beriladigan yengillik, imtiyoz (soliq to‘lovini kechiktirilish). Bu kredit soliq to‘lovi va mahalliy ma‘muriyat o‘rtasida tuziladigan soliq bitimi bilan rasmiylashtiriladi.

Imtiyoz – ma’lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to‘liq) ozod etish, ma’lum bir afzalliklarga (qulayliklarga) ega bo‘lish, masalan, soliq imtiyoziga.

Ijara (lizing) to‘lovi – ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to‘laydigan summa;

Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi – buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to‘lovi summasi bilan ijara (lizing) obyektining qiymatini qoplash summasi o‘rtasidagi farq ko‘rinishidagi ijara (lizing) to‘lovining bir qismi;

Insonparvarlik yordami – aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo‘llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg‘araz ko‘maklashish. Insonparvarlik yordami dori vositalari va tibbiy ahamiyatga molik buyumlar, xalq iste‘moli tovarlari, boshqa tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar, transport va texnika, shuningdek, ixtiyoriy ravishdagi xayr-ehsonlar, bajarilgan ishlar va xizmatlar, shu jumladan insonparvarlik yordami yuklarini tashish, kuzatib borish va saqlash tariqasida beriladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan vakolatli tashkilotlar orqali taqsimlanadi;

Ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish – ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish) joyidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish;

Yig‘imlar – qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartibda va shartlarda to‘lovchilar tomonidan mahalliy byudjetlarga yoki byudjetdan tashqari jamg‘armalarga o‘tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im, Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar kiradi.

Kvotativ soliqlar – daromad yoki mulk qiymatining puldagi ifodasiga nisbatan stavkasi foizlarda o‘rnatiladigan soliqlar.

Kredit tashkilotlari – tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan banklar, mikro kredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

Kurs bo'yicha farq – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq.

Kameral nazorat – soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazorat.

Moddiy xarajatlar – xomashyo va asosiy materiallar, yordamchi materillar, yoqilg'i, energiya va boshqa xarajatlardan iborat. Moddiy resurslarning qiymati ularni sotib olish bahosi (qo'shilgan qiymat solig'isiz), ta'minot va tashqi iqtisodiy tashkilotlarga to'lanadigan ustamalar, komission mukofotlar, boj to'lovlari, tovarlar birjasining xizmat qiymatlari, tashish, saqlash va yetkazib berish haqlarining yig'indisidan tashkil topadi.

Muomala xarajatlari – tovarlar muomalasi jarayoniga xizmat qiluvchi xarajatlardan iborat. Bu xarajatlar ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin; 1) oldi-sotdi jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (sof muomala xarajatlari); 2) ishlab chiqarish jarayonining muomala sohasida ham davom etishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (tovarlarni saqlash, ortib jo'natish, qadoqlash va boshqalar). Muomala xarajatlari absolyut summalarda va tovar-oborotga nisbatan foizda ijtimoiy zaruriy xarajatlar chegarasida (doirasida) rejalashtiriladi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar – mahalliy byudjetga olinadigan jismoniy va yuridik shaxslarning majburiy to'lovlari. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig'i, yer solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im

Mahalliy byudjet - Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromad manbalari va ularning tushumlari miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Ma'muriy javobgarlik – ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va mansabdor shaxslar yuridik javobgarligining shakllaridan biri.

Moliyaviy ijara – mol-mulkni (moliyaviy ijara obyektini) egalik qilish va foydalanishga o‘n ikki oydan ortiq muddatga shartnoma bo‘yicha topshirishda vujudga keladigan ijara munosabatlaridir.

Mol-mulk – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish obyektlari bo‘la oladigan moddiy obyektlar, shu jumladan pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy obyektlar.

Moliyaviy sanksiyalar – soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo‘lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo‘llaniladi.

Notijorat tashkilotlari – foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji – soliq to‘lovchining naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji xronometraj o‘tkazilgan davrda haqiqatda kelib tushgan naqd pul tushumini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Ortiqcha to‘lovlar – to‘lovning byudjetga tushgan ortiqcha summasi. Odatda soliq to‘lovchining boshqa to‘lovlar bo‘yicha mavjud bo‘lgan boqimandalarini uzish uchun hisobga olinadi va bu to‘g‘risida unga ma‘lum qilinadi yoki moliya organining qarori nusxasi va bankning tegishli ko‘chirmasi asosida soliq to‘lovchiga qaytariladi.

Oila a‘zolari – er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan farzandlikka olinganlar;

Operativ ijara – moliyaviy ijara shartnomasi bo‘lmagan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish

Progressiv soliq – soliqqa tortish bazasining oshishi bilan soliq stavkasining ko‘tarilishi xarakterlidir. Progressiv soliqlarning orasida eng ko‘p uchraydigani jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqdir.

Proporsional soliq – soliq shaklida olinishi mumkin bo‘lgan summa soliqqa tortish bazasining o‘lchamiga (miqdoriga, hajmiga) proporsionaldir. Bu soliq yagona stavkali soliqlar jumlasiga kiradi.

Proporsional soliqqa tortish – soliqning stavkasi soliq to‘lovchi daromadining hajmiga bog‘liq bo‘lmagan holda uning daromadiga nisbatan foizda o‘rnatiladi (foйда solig‘i).

Progressiv soliqqa tortish – soliqqa tortiladigan summaning o‘shishiga mos ravishda soliq stavkasi ham ortadigan soliqqa tortish tizimi. Ular quyidagi shakllarda mavjud bo‘ladi: 1) oddiy progressiya – daromadning barcha summasi uchun soliqning stavkasi daromadning o‘shishiga muvofiq o‘sadi (ortadi); 2) murakkab progressiya – daromad qismlarga bo‘linadi va ularning har biri o‘z stavkasi bo‘yicha soliqqa tortiladi. Daromadning har bir keyingi qismi uchun soliqning stavkasi oldingisiga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi.

Penya – fuqarolik huquqida jazo choralarining (jarimalarning) ko‘rinishlaridan biri, qonun yoki shartnomaga muvofiq to‘lovlar muddatini buzganlik uchun undiriladigan moliyaviy jazoning shakli. Uning miqdori qonunga ko‘ra to‘lovning har bir kechiktirilgan kuni uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan summaga nisbatan foizda belgilanadi. Korxonadan to‘langan penya summasi noishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiga kiritiladi.

Preferensiya – investitsion va innovatsion xarajatlarni moliyalashtirish uchun investitsion soliq krediti va maqsadli soliq imtiyozini ko‘rinishida belgilangan (o‘rnatilgan) imtiyoz, afzallik.

Regressiv soliq – soliqqa tortiladigan daromadning oshishi bilan soliq stavkasining pasayishi xarakterlidir. Bunday soliqlar toifasiga, xususan, egri (bilvosita) soliqlarni kiritish mumkin. Regressiv soliqlarning yuki (og‘irligi) boylarga nisbatan kambag‘al qatlamlar uchun og‘irroq deb sanaladi. Masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash uchun kambag‘allar boylarga nisbatan o‘z daromadlarining ko‘proq qismini (hissasini) sarflaydilar. Proporsional soliq ham regressiv bo‘lishi mumkin.

Regressiv soliqqa tortish - soliq asosi (bazasi)ning o‘shib borishi bilan soliq stavkasining pasayishini taqozo etadi. Soliq undirish og‘irligi daromadga teskari proporsionaldir: daromad qancha kam bo‘lsa, soliq to‘lovchi uchun soliqning og‘irligi shuncha og‘irdir. Hozirgi paytda qo‘shilgan qiymat solig‘ining joriy etilishi bilan egri (bilvosita) soliqlarning regressivligi kuchayib bormoqda.

Real soliq – soliq to‘lovchining ayrim mulklarini soliqqa tortadigan to‘g‘ri soliqlardan iboratdir.

Rezidentlar – O‘zbekiston Respublikasining rezidenti deb quyidagilar e‘tirof etiladi:

- O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs;

- O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O‘zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

Respublika byudjeti – Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Realizatsiya qilish – sotish, ayirboshlash, beg‘araz berish maqsadida tovarlarni jo‘natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, garovga qo‘yilgan tovarlarga bo‘lgan mulk huquqini garovga qo‘yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish. Hisobvara-q-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko‘rsatilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, tovarlar jo‘natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko‘rsatilganligini tasdiqlovchi kvitansiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir;

Royalti – quyidagilar uchun har qanday turdagi to‘lovlar:

- fan, adabiyot va san‘at asarlaridan, shu jumladan elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar obyektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini berganlik uchun;

- sanoat mulki obyektiga, tovar belgisiga (xizmat ko‘rsatish belgisiga), savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomadan) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun;

Soliqlar – Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari.

Soliq inspeksiyalari – Davlat soliq qo‘mitasining yagona tizimi tarkibiga kiruvchi tuzilmaviy birlik. Ularning tarkibiy tuzilishi funksional belgiga ko‘ra aniqlanadi. Buning asosi sifatida turli belgilar: mulkchilik shakli, xo‘jalik faoliyatining turi, to‘lovlar hajmi, soliqlarning turlari va h.k.lar olinishi mumkin. Fuqarolarning faoliyati

ustidan nazoratni amalga oshirish uchun soliq inspeksiyasi nazorati ostida bo‘lgan hudud uchastkalarga bo‘linadi.

Soliq davri – u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir.

Soliq majburiyati – soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e‘tirof etiladi.

Soliq stavkasi – soliqqa tortish birligiga to‘g‘ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi). Qat‘iy soliq stavkalari daromadlarga bog‘liq bo‘lmagan holda soliqqa tortish birligiga nisbatan qat‘iy summalarda o‘rnatiladi.

Soliq tizimi - mamlakat doirasida (hududida) to‘lovlardan (yuridik va jismoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakli va uslublari yig‘indisi.

Soliq qonunchiligi – davlatda soliqlarning turi, ularni undirish mexanizmi va soliq majburiyatlarining vujudga kelishi, o‘zgarishi va to‘xtatishini tartibga solib turuvchi yuridik me‘yorlar yig‘indisi; moliyaviy huquq instituti. Soliq huquq davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi (qurilishi), uning vazifa va funksiyalari bilan belgilanadi.

Soliq to‘lovlari – soliq qonunchiligi bo‘yicha belgilangan tartibda va muddatda soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan, hisoblangan yoki qat‘iylashtirilgan summalaridir. Ularni hisoblash tartibi har bir soliq turi bo‘yicha qonunga binoan aniqlanadi.

Soliq tushumlari – Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasining daromadlari qismidagi har bir soliq va boshqa majburiy to‘lovlarga mo‘ljallangan qism, band, kod va moddaga muvofiq vakolatli banklarning hisob-kitob raqamiga yoziladigan, hisoblangan va haqiqatda kelib tushgan soliq to‘lovlari va moliyaviy sanksiyalar.

Soliq hisoboti – soliq to‘lovchining soliq va boshqa majburiy to‘lovning har bir turi bo‘yicha yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek, hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan hujjati bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi.

Soliq nazorati – soliq to‘lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olishning, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimi.

Soliq to‘lovchilar – Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalaridir.

Soliq agentlari – Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

Soliq to‘lovchining vakillari – qonunga yoki ta‘sis hujjatiga muvofiq soliq to‘lovchining vakili bo‘lishga vakolatli shaxslardir.

Soliqqa tortish obyektlari – qonunga muvofiq foyda (daromad), ma‘lum bir tovarlar qiymati, yuridik va jismoniy shaxslarning mulki, mol-mulkni berish, (meros, taqdim etish), qimmatbaho qog‘ozlar bo‘yicha operatsiyalar, faoliyatning ayrim turlari va boshqalardan iborat. Soliqqa tortishning bir obyekti bir turdagi soliq bilan belgilangan muddatda (oy, chorak, yarim yil, yil) bir marta soliqqa tortilishi mumkin.

Soliqqa tortish prinsiplari – soliq siyosatini amalga oshirishni belgilab beradigan va soliqlar bo‘yicha byudjet topshiriqlarini tuzish orqali realizatsiya qilinadigan mustahkam o‘rnashib qolgan qoidalar yig‘indisi.

Soliq elementlari – davlatning qonun hujjatlari asosida aniqlangan soliqlarning tuzilishi (qurilishi) prinsiplari va ularni undirishni tashkil qilish, soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini o‘zida aks ettiradi.

Savdo faoliyati – qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

Soliq qarzi – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarz summasi, shu jumladan ushbu Kodeksda belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar.

Sof tushum – tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum;

Sof foyda – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda.

Soliq siri – davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to‘lovchi to‘g‘risida olingan har qanday ma‘lumot.

Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR) – muayyan soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilganda unga beriladigan raqam.

Soliq tekshiruvi – davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirish.

Soliqqa oid huquqbuzarlik – soliq to‘lovchining Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi).

Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek, tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Tovar oboroti – muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog‘ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo‘lgan), pulda ifodalangan mablag‘lar.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum – realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo‘lgan) mablag‘lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to‘lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati.

Tovarlarni eksport qilish – O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

To‘lov manbai – soliq to‘lovchiga to‘lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Umidsiz qarz – sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarz.

Favqulodda holatlar – taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko'chkilar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar bo'lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi.

Foizlar – har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek, depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

Yutuq – lotereyalar, o'yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holidi yoki pulda ifodalangan to'lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar.

Yakka tartibdagi tadbirkor - tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqsiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

Yaqin qarindoshlar – er-xotin, ota-ona, bolalar, tug'ishgan hamda aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar.

O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reyestri – soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi.

Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallar – buyurtmachiga tegishli xomashyo va materiallar bo'lib, buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat – sotilgan (realizatsiya qilingan) tovarlar, ishlar va xizmatlar qiymati bilan ishlab chiqarish va muomala xarajatlarining tarkibiga kiritilgan moddiy xarajatlarining qiymati o'rtasidagi farq.

Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar – operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 2017.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -T.: «Adolat», 2019.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi: Rasmiy nashr T.: “Adolat”, 2014 y. 296 b.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonuni, 1997-yil 29-avgust

1.5. O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida»gi qonuni, 1998- yil 24-dekabr, №717-I

1.6. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida” qonuni

1.7. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 24-dekabrda “Soliq va byudjet siyosatining 2019-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-508-son qonuni

1.8. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-dekabrda “Soliq va byudjet siyosatining 2018-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-454-sonli qonuni

1.9. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 30-dekabrda “Soliq ma‘muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-455-sonli qonuni

1.10. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-yanvardagi “Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-456-son qonuni.

1.11. O‘zbekiston Respublikasining «Soliq va byudjet siyosatining 2015-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-379-sonli qonuni, 2014-yil 4-dekabr

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 26-martdagi «Eksport qiluvchi korxonalarni rag‘batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-1731-son qarori

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-4434-sonli farmoni

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-maydagi «2012-2016-yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to‘g‘risida»gi PQ-1754-son qarori

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 24-yanvardagi «Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida hisob-kitoblar mexanizmini yanada tartibga solish to‘g‘risida»gi 1910-son qarori

1.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 17-apreldagi «2013-2016 yillarda qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-1957-son qarori

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-2270-son qarori

1.18. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

1.19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-yanvardagi «Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2746-sonli qarori.

1.20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-martdagi “Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2844-sonli qarori

1.21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi PF-5468-son farmoni

1.22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3168-son qarori

1.23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2699-sonli qarori

1.24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 3454-sonli qarori

1.25. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-son qarori

1.26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 2-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga axborot xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 125-son qarori

1.27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 677-sonli qarori

1.28. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-iyuldagi “Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga yangi maxsus kiyim bosh va farqlovchi belgilarni joriy qilish to‘g‘risida”gi 545-sonli qarori

1.29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-sonli farmoni

1.30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-sentyabdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-704-sonli qarori

1.31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5490-sonli farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari.

2.1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 88 b.

2.2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2.3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

2.4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 32 b.

2.5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

3. Kitob va turkum nashrlar

3.1. Alimardanov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho‘lpon” nomidagi NMIU, 2013. -296 b.

3.2. Adizov A. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya, 2012. – 124 b.

3.3. Абдуганиева Г., Бабабекова Н. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Tafakkur-bo‘stoni”, 2012. -160 с.

3.4. Vaxabov A.V, Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik- T: “Iqtisod-Moliya”, 2018.- 448 b

3.5. A.Jo‘rayev, M.Usmanova, Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma, –T.: “Sano-standart”, 2015. - 216 b.

3.6. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Akademnashr», 2011. - 472 b.

3.7. Gadoyev E. va boshqalar. Bilvosita soliqlar: QQS, Aksiz solig‘i. O‘quv qo‘llanma. - T.: Norma, 2011.- 328 bet.

3.8. Gadoyev E va boshqalar. Foyda solig‘i. O‘quv qo‘llanma. - T.: Norma, 2011.- 408 bet.

3.9. Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008. –203 b.

3.10. Jo‘rayev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. Monografiya. –T.: «Fan», 2004. – 243 b.

3.11. Amanov A.M. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini soliqqa tortishning metodologik asoslari. Monografiya. -T.: “Tamaddun”, 2015 y. 115 bet.

3.12. Usmanova M.S. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish muammolari. Monografiya. -T.: “Tamaddun”, 2013 y. 144 bet.

3.13. Абдурахмонов О. Хорижий мамлакатларда солиқ тизимлари. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2003. 158-бет.

3.14. Т.Маликов. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. –Т.: «Академия», 2002

3.15. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T: Moliya, 2003 y.

3.16. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для академического бакалавриата /под ред. Д.Г.Черника, Ю.Д.Шмелева. — 3-е изд., перераб. и доп. -М.: Издательство «Юрайт», 2019. -408 с.

3.17. Маршавина, Л. Я. Налоги и налогообложение. /под ред. Л.Я.Маршавиной, Л.А.Чайковской. -М.: Издательство «Юрайт», 2019. -503 с.

3.18. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для СПО /Л.И.Гончаренко и др. 2-е изд., перераб. и доп. -М.: Издательство «Юрайт», 2019. -524 с.

3.19. Черник Д.Г. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для СПО / под ред. Д.Г.Черника, Ю.Д.Шмелева. -3-е изд., перераб. и доп. -М.: Издательство «Юрайт», 2019. -408 с.

3.20. Пансков В.Г. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для СПО /В.Г.Пансков. -6-е изд., перераб. и доп. -М.: Издательство «Юрайт», 2019. -436 с.

3.21. Налогообложение организаций. /под науч. ред. Гончаренко Л.И., -М.: «КноРус», 2018. -512 с.

3.22. Налоги и налогообложение. Учебник. /под общ. ред. Владыка М.В. Сапрыкина Т.В., -М.: «КноРус», 2018. -496 с.

3.23. Налоги и налогообложение. Учебник. /Гончаренко Л.И. –М.: «КноРус», 2018. -240 с.

3.24. Налогообложение организаций. Задачи и тесты (для бакалавров). Учебник /Жукова Е.И., Гончаренко Л.И. –М.: «КноРус», 2018. – 192 с.

3.25. Романов А.Н., Колчин С.П. Налоги и налогообложение. –М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2018. - 391 с.

3.26. Митюкова Э.С. Налоговое планирование: более 60 законных схем. –М.: Издательство Айси, 2017. - 360 с.

3.27. Налоги и налогообложение. Учебник. //под ред. И.А. Майбурова –М.: «Юнити-Дана», 2016. - 487 с.

3.28. Черник Д.Г., Шмелев Ю.Д. Теория и история налогообложения. Учебник. –М.: «Юрайт», 2016. - 364 с.

3.29. Налоговое право: учебник для бакалавров/ отв. Ред. Е.Ю.Грачева, О.В.Болтинова. –М.: «Проспект», 2017. - 312 с.

3.30. Романовский М.В., Иванова Н.Г. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: «Юрайт», 2015. - 441 с.

3.31. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. //под ред. А.Е. Суглобова, Н.М. Бобошко. –М.: «Юнити-Дана», 2015. - 543 с.

3.32. Гончаренко Л.И. Налоги и налоговая система Российской Федерации. Учебник. –М.: «Юрайт», 2015. - 541 с.

3.33. Налоговая система зарубежных стран. Уч. для вузов. М.: Финансы и статистика, 2007. – 218 с.

3.34. Пансков В.П., Князев В.Г. Налоги и налогообложения. – М.: МТсФЭР, 2003. –с. 57-59.

4. Journallardagi maqolalarga va konferensiya ishlariga havolalar

4.1. Jo'rayev A. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ayrim masalalari. //Moliya. 2017, №1. –63 b.

4.2. Abdurahmonov X. Soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini oshirish. //Moliya. 2015, №6. –80 b.

4.3. Гимранова О. Налоговое стимулирование в Узбекистане на этапе углубления экономических реформ. //Молия. 2015, №5. – 71 с.

4.4. Jo'rayev A., Amonov A. Qishloq xo'jaligini soliqqa tortishda xorijiy davlatlar tajribasi //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqqa tortish va sug'urta faoliyatini takomillashtirish yo'llari: Xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. 11–12 fevral 2004 y. –Toshkent, 2004. B. 44–46.

4.5. Jo'rayev A. Davlat byudjeti daromadlarini tasniflash mezonlari //Xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya: 25may 2004. – Toshkent, 2004. B. 246 – 247.

4.6. Jo'rayev A. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. –2004. –№5–6. –B. 61.

4.7. Jo'rayev A. Davlat byudjeti taqchilligini qoplash va uning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati //Bozor, pul va kredit. –2004. –№4(83). –B. 28–29.

4.8. Jo'rayev A. Daromad, byudjet va soliqlar //Soliq to'lovchining jurnali. –2004. –№4 –B. 21–23.

4.9. Jo'rayev A. Soliq–byudjet siyosati yaxlitligi va uning davlat byudjeti daromadlari ijrosidagi ahamiyati //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. –2005. –№1–2. –B. 34–35.

4.10. Jo'rayev A. Soliqqa oid jinoyatlarga soliq tizimi orqali ta'sir etish //Jamiyat va boshqaruv. –2004. –№3. –B. 28–29.

4.11. Jo'rayev A. Soliqqa oid qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish //Bozor, pul va kredit. –2004. –№9(88). –B. 45–48.

4.12. Jo'rayev A. To'g'ri (bevosita) soliqlar: ularni davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. –2004. –№9–10. –B. 58–59.

4.13. Jo'rayev A. Soliqlarning byudjet tizimi bo'g'inlariaro taqsimlanishi //Bozor, pul va kredit. –2004. –№11. –B. 18–21.

4.14. Jo'rayev A. Umumiylik va o'ziga xoslik //Soliq to'lovchining jurnali. –2004. –№9. –B. 26–28.

4.15. Jo‘rayev A., Usmanova M. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda xorijiy tajriba.// Moliya. - 2012, -№ 2.- В. 34

4.16. Usmanova M.S. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish. // Moliya. - 2010, -№ 4.- В. 52

4.17. Бурков С. Неналоговые доходы от госсобственности и бюджетный потенциал страны. //Российский экономический журнал. №9, 2006. С.25

4.18. Нечаев А. Налоговая система подталкивает бизнес к уходу в теневой сектор. //Финансовые известия, 1995. №56. С.4

4.19. Макаров Д.Г. Уголовный кодекс в борьбе с теневой экономикой. Проблемы и перспектива. //Налоговый вестник. 2000, №1. С.120

4.20. Пансков В.Г. Налоговое бремя в российской налоговой системе. //Финансы. –1998. №11. С.20

4.21. Ковалевская Д.Е. Налоговые преступления в уголовном праве Российской Федерации. //Налоговый Вестник. –2000. №11. С.101

4.22. Черник Д. Налоги в рыночной экономике. Журнал «Финансы», 1992, №3, С.19

5. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati

5.1. Гуров М.П. Теневая экономика: сущность, структура и особенности проявления в условиях перехода к рыночной экономике в России: Автореферат канд. экон. наук. –СПБ, 1998. С.14

5.2. Зябриков В.В. Налоговое планирование - как способ согласования интересов фирмы и государства. Автореферат дис. кан. экон. наук. –СПб., 1997. С.7

5.3. Перцхалава К.А. Выявление и первоначальный этап расследования уклонений от уплаты налогов или страховых взносов в государственные внебюджетные фонды. Дис. на соис. уч. степени к.э.н. –М., 1999. С.86

5.4. Haydarov N.X. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya–soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari (xorijiy investitsiyali korxonalar misolida): Iqtisod fanlari doktori diss. –Toshkent, –2003. –268 b.

5.5. Jo‘rayev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari. Iqtisod fanlari doktori diss. – Toshkent, –2005. –320 b.

5.6. To‘rayev Sh.Sh. Xo‘jalik subyektlarining soliq yukini optimallashtirish masalalari. Iqtisod fanlari nomzodi diss. avtoreferati. –Toshkent, –2007. –24 b.

6. Xorijiy tilda yozilgan adabiyotlar

6.1. Pratt and Kulsrud, Corporate, Partnership, Estate and Gift Taxation, 2015 Edition, Van-Griner Publishing, 2015. USA

6.2. Murphy and Higgins, Concepts in Federal Taxation 2015, Twenty-Second Edition, South-Western College Publishing, 2015. USA

6.3. Examples & Explanations: Federal Income Taxation by Joseph Bankman Paperback, July 21, 2014 Wolters Kluwer. Law and Business. 636 pages

6.4. Federal Income Tax: Code and Regulations--Selected Sections (2014-2015) Perfect Paperback – July 2, 2014 by Martin B. Dickinson

6.5. Federal Taxation: Comprehensive Topics (2015), 2015 Edition, CCH INC., 2015. USA

6.6. Pratt and Kulsrud, Individual Taxation, 2015 Edition, Van-Griner Publishing, 2015. USA

6.7. Am P. La fiscalite en France. –Hachette, 1998, p. 186

6.8. Hofer A. La fraude fiscale en Suisse. –Editions Grounauver. Geneve, 1978. p. 141

6.9. Tanzi V. Taxation an Integrationg World. –Washington.: The Brooklngs Institut, 1995

6.10. Farmer P., Lyal R. EC Tax Law.-Oxford.: Clarendon Press, 1994

6.11. Sauvageot G. Precis de fiscalite. – Nathan, 1990

6.12. Mariette D. Bercy report a zero sur le dossier du Gredit Jonciur. //Tribune. -P., 1998

6.13. Steinbery A. An innovatori package for financial sector reforms // Journal of Banking and finance. 2001.

6.14. Seminar on Tax Adminstration 8-22 february 2010. Tokyo.JICA.23 p.

7. Elektron ta'lim resurslari

- 7.1. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
- 7.2. <http://www.soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi
- 7.3. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
- 7.4. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi
- 7.5. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
- 7.6. <http://www.ziyonet.uz> - Jamoat axborot ta'lim tarmog'i
- 7.7. <http://www.nalog.ru> - Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati
- 7.8. <http://www.fmc.uz> - «FINMANCONSULT» kompaniyasi
- 7.9. <http://www.norma.uz> - «NORMA HAMKOR» MchJi
- 7.10. <https://www.sciencedirect.com> (Sciencedirect Elsevier Tadqiqotchilarning xalqaro axborot bazasi)

ILOVALAR

1-ilova

Soliq solish tartibini qo'llash to'g'risida XABARNOMA

(soliq to'lovchining to'liq nomi)
Joylashgan manzili _____

(pochta indeksi, shahar (tuman, qishloq),

,

ko'cha nomi va uy (xonadaon) raqami

faoliyatini amalga oshiruvchi

(asosiy (soha) faoliyat turi)

Sizni xabardor qiladiki, _____ faoliyat
turi bo'yicha

(o'tish sanasi)

(faoliyat turi)

_____ to'lash
tartibiga o'tadi

(soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar)

Asos _____

Xabarnomani taqdim etish muddati
(kun/oy/yil)

--	--	--	--	--	--	--	--

_____ ga daqdim etiladi

(hisobda turgan Davlat soliq xizmati organining nomi)

Soliq to'lovchi to'g'risida ma'lumotlar

1. Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risida guvohnoma

2. Tashkil topgan sana (kun/oy/yil)

3. STIR

4. XXTUT

5. Hisobot davrida o'rtacha xodimlar soni

6. Telefon: kod nomer

7. Faoliyati:

Asosiy faoliyat turi	Har bir faoliyat turining				%
Boshqa faoliyat turlari:					
1.	tovarlar (ish, xizmatlar)				%
2.	sotishdan yalpi tushumidagi ulushi				%
3.					%
4.					%
5.					%
6.					%
	Jami:			1 0 0	0

Soliq to'lovchi to'g'risida ma'lumotlar

1. Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risida guvohnoma

2. Tashkil topgan sana (kun/oy/yil)

3. STIR

4. XXTUT

5. Hisobot davrida o'rtacha xodimlar soni

6. Telefon: kod nomer

7. Faoliyati:

Asosiy faoliyat turi Boshqa faoliyat turlari:	Har bir faoliyat turining	tovarlar (ish, xizmatlar)	sotishdan yalpi tushumidagi ulushi	%
1.				%
2.				%
3.				%
4.				%
5.				%
6.				%
Jami:				%
	1	0	0	0

Mazkur Ma'lumotnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchligini tasdiqlayman:	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Rahbar	Mazkur Ma'lumotnomoma
STIR	(kerakligiga "V" belgisi qo'yilsin)
F.I.O.	
Imzo	<input type="checkbox"/> Shaxsan <input type="checkbox"/> pochta orqali
Bosh buxgalter	
STIR	<input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> varaqda taqdim etilgan
F. I. O.	
Imzo	Taqdim etilgan sana <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> (kk/oo/yy)
Sana (kk/oo/yy)	F.I.Sh.
	Imzo

**Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyatini vaqtinchalik to'xtatganligi to'g'risida
A X B O R O T**

_____ tuman (shahar) xokimligi huzuridagi Tadbirkorlik
subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiyasi Sizga

(yakka tartibdagi tadbirkorning F.I.O.)

o'zining faoliyatini _____ dan _____ gacha vaqtinchalik
to'xtatganligini ma'lum qiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyatini vaqtinchalik to'xtatish to'g'risidagi arizasi
_____ qayd qilingan. Ariza nusxasi ilova qilinmoqda.

(sanasi va raqami)

**Faoliyatini vaqtinchalik to'xtatgan yakka tartibdagi tadbirkor to'g'risida
M A ' L U M O T L A R**

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Pasport ma'lumotlari: seriyasi

--	--	--	--	--	--	--	--

 raqami

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

berilgan

--	--

--	--

--	--	--	--	--	--

 Kim tomonidan berilgan _____

Doimiy viloyat

--	--	--	--	--	--	--	--

 Shahar

--	--	--	--	--	--	--	--

yashash joyi tuman

--	--	--	--	--	--	--	--

 aholi punkti

--	--	--	--	--	--	--	--

manzili: ko'cha

--	--	--	--	--	--	--	--

 uy

--	--

 xonadon

--	--	--	--	--	--

Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnoma: raqami

--	--	--	--	--	--	--	--

_____ tuman (shahar) xokimligi huzuridagi Tadbirkorlik
subyektlarini

davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiyasi tomonidan berilgan

--	--

--	--

--	--	--	--	--	--

(berilgan sana)

amal qilish muddati

--	--

--	--

--	--	--	--	--	--

 gacha

Telefon: kodi

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

 raqami

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi tomonidan to'ldiriladi	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Rahbar: F.I.O. _____	Ushbu Axborot (kerakligiga "V" belgisi qo'yilsin)
Imzo _____	<input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta orqali
Sana <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>	<input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> varaqda taqdim etildi
Qayd raqami <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>	Taqdim etilgan sana <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> (kk/oo/yy)
	F.I.O. _____ Imzo _____

**Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyatini qaytadan boshlaganligi to'g'risida
A X B O R O T**

_____ tuman (shahar) xokimligi huzuridagi
Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiyasi Sizga

_____ (yakka tartibdagi tadbirkorning F.I.O.)
o'zining faoliyatini _____ dan qaytadan boshlaganligini
ma'lum qiladi.

**Faoliyatini qaytadan boshlagan yakka tartibdagi tadbirkor to'g'risida
MA'LUMOTLAR**

STIR

Pasport ma'lumotlari: seriyasi raqami

berilgan Kim tomonidan berilgan _____

Doimiy viloyat Shahar

yashash joyi tuman aholi punkti

manzili: ko'cha uy xonadon

Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnoma:

raqami _____ tuman (shahar) xokimligi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiyasi tomonidan berilgan

(berilgan sana)

amal qilish muddati gacha

Telefoni: kodi raqami

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi tomonidan to'ldiriladi	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Rahbar	Ushbu Axborot (kerakligiga "V" belgisi qo'yilsin)
F.I.O. _____	<input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta orqali
Imzo _____	<input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> varaqda taqdim etildi
Sana <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>	Taqdim etilgan sana <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>
Qayd raqami <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>	(kk/oo/yy)
	F.I.O. _____
	Imzo _____

**Chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi
tadbirkorning tovar operatsiyalari va daromadlarini
hisobga olish
KITOBI №. ____**

**Chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkor
to'g'risida
MA'LUMOTLAR**

STIR

Yakka tartibdagi tadbirkorning _____
familiyasi, ismi va otasining _____
ismi _____

Pasport ma'lumotlari: seriyasi raqami
berilgan Kim tomonidan berilgan _____

Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnoma:
raqami

_____ tuman (shahar) xokimligi huzuridagi Tadbirkorlik
subyektlarini

davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiyasi tomonidan
berilgan (berilgan sana)

amal qilish muddati gacha

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tijorat faoliyati uchun
chetdan tovar olib keluvchi yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi
guvohnomasi: _____ raqami

_____ tuman (shahar) DSI tomonidan berilgan
(berilgan sana)

amal qilish muddati gacha

Doimiy yashash joyi manzili _____
Faoliyatni amalga oshirish joyi _____

Telefoni: kod raqami

Mazkur Kitobda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini tasdiqlayman:	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Yakka tartibdagi tadbirkor	Kitob _____ tuman (shahar) DSIda ro'yxatga olingan
STIR <input type="text"/>	raqami <input type="text"/> Kitobning varaqlari
Familiyasi _____	tikilgan, raqamlangan va _____
Ismi _____	tuman (shahar) DSI muhri bilan tasdiqlangan
Otasining ismi _____	Kitob <input type="text"/> varaqda <input type="text"/> da <input type="text"/> gacha
Imzo _____	n
	Qayd qilingan sana <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> (kk/oo/yy)
	F.I.O. _____
	Imzo _____
	M.O'. _____

Kitobga kiritish sanasi

Tovarning nomi _____

Tovarning manbaini tasdiqlovchi hujjat: nomi raqami sanasi

Kirim hujjati: nomi raqami sanasi

To'lov hujjati: nomi raqami sanasi

Tovar kodi O'lchov birligi

Xarid narxi

Bojxona rasmiylashtiruvi xarajatlari*

Boshqa xarajatlar

Miqdori

O'rtacha narxi, tovarni xarid qilish xarajatlarini hisobga olgan holda

Oylar	Oy boshiga qoldiq	Sotildi		Oy oxiriga qoldiq	Xarajalar	Daromad
		miqdori	Summasi			
Yanvar						
Fevral						
Mart						
April						
May						
Iyun						
Iyul						
Avgust						
Sentyabr						
Oktyabr						
Noyabr						
Dekabr						
Jami kalendar yil uchun						

*- yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan import qilingan tovarlar sotilganda to'ldiriladi.

TOVAR CHEKLARI KITOBCHASI

Tovar cheklari kitobchasining titul varag'i

<i>Tikish joyi</i>	STIR	<input style="width: 100px; height: 15px;" type="text"/>
	Familiyasi, ismi, otasining ismi	<input style="width: 450px; height: 20px;" type="text"/>
	Faoliyatni amalga oshirish joyi	<input style="width: 450px; height: 20px;" type="text"/>
	Kitobcha	<input style="width: 220px; height: 20px;" type="text"/> tuman (shahar) DSIda qayd qilindi
	raqami	<input style="width: 160px; height: 20px;" type="text"/>
	Kitob ip bilan tikilgan va DSI muhri bilan tasdiqlangan	<input style="width: 290px; height: 20px;" type="text"/> tuman (shahar)
	Tovar cheklari raqamlari	<input style="width: 60px; height: 20px;" type="text"/> dan <input style="width: 60px; height: 20px;" type="text"/> Gacha
	Qayd qilish sanasi (kk/oo/yy)	<input style="width: 40px; height: 20px;" type="text"/> <input style="width: 40px; height: 20px;" type="text"/> <input style="width: 80px; height: 20px;" type="text"/>
	F.I.O.	<input style="width: 590px; height: 20px;" type="text"/>
	Imzo M.O'.	<input style="width: 300px; height: 20px;" type="text"/>

Tovar cheki

<i>Tikish joyi</i>	Tovar cheki №	STIR	<input style="width: 210px; height: 20px;" type="text"/>		
		Sana	<input style="width: 40px; height: 20px;" type="text"/>	<input style="width: 40px; height: 20px;" type="text"/>	<input style="width: 80px; height: 20px;" type="text"/>
		Tovar nomi (kodi)	Narxi	Miqdori	Summasi
		Jami			
		(sotuvchining F.I.O.)		(imzo)	

STIR

Hujjat turi / Hisobot davri Oy Kalendar yil

Hujjat turi: 1 –hisobot, 2 – aniqlashtiruvchi (kasr orqali aniqlashtiruv raqami)

Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni chetdan olib keluvchi yakka tartibdagi tadbirkor to'g'risida ma'lumotlar

Yakka tartibdagi tadbirkorning familiyasi, ismi va otasining ismi _____

Pasport ma'lumotlari: seriyasi raqami

berilgan Kim tomonidan berilgan _____

Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnoma:

_____ tuman (shahar) xokimligi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiya tomonidan berilgan (berilgan sana)

amal qilish muddati gacha

Tijorat faoliyati uchun tovarlarni chetdan olib keluvchi yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomasi: raqami

_____ tuman (shahar) DSI tomonidan berilgan (berilgan sana)

Amal qilish muddati Gac ha

Doimiy yashash joyi manzili _____
Faoliyatini amalga oshirish joyi _____

Telefoni: kod raqami

Ushbu Hisobotlar	<input type="text"/>	varaqda tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjatlar yoki ularning nusxalari	<input type="text"/>	varaqda	O'lchov birligi	<input type="text"/> so'm
------------------	----------------------	--	----------------------	---------	-----------------	---------------------------

Hisobotni taqdim etish muddati (kun/oy/yil)

_____ ga taqdim etiladi
(soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

Mazkur Hisobotlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini tasdiqlayman:	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Yakka tartidagi tadbirkor STIR <input type="text"/>	Ushbu Hisobotlar (kerakligiga "V" belgisi qo'yilsin) <input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta orqali <input type="text"/> varaqda taqdim etildi Taqdim etilgan sana <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> (kk/oo/yy) F.I.O. _____ Imzo _____
F.I.O. _____	
Imzo _____	
Sana <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> (kk/oo/yy)	

STIR

Hujjat turi / Hisobot davri Chorak Kalendar yil

Hujjat turi: 1 – hisobot, 2 – aniqlashtiruvchi (kasr orqali aniqlashtiruv raqami)

**Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor to'g'risida
MA'LUMOTLAR**

Yakka tartibdagi tadbirkorning
familiasini, ismi va otasining ismi _____

Pasport ma'lumotlari: seriyasi	<input type="text"/>	raqami	<input type="text"/>
berilgan	<input type="text"/>	<input type="text"/>	Kim tomonidan berilgan _____

Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnoma: raqami	<input type="text"/>
_____ tuman (shahar) xokimligi huzuridagi	
Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiya tomonidan berilgan	<input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>
	(berilgan sana)
amal qilish muddati	<input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> gacha

Doimiy yashash joyi manzili _____

Faoliyatni amalga oshirish joyi _____

Telefon: kod raqami

Ushbu Hisobot	<input type="text"/>	varaqa tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjatlar yoki ularning nusxalari	<input type="text"/>	varaqa	O'lchov birligi	<input type="text"/>
---------------	----------------------	---	----------------------	--------	--------------------	----------------------

Hisobotni taqdim etish muddati (kun/oy/yil)

□□	□□	□□□□
----	----	------

ga taqdim etiladi

(soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

Mazkur Hisobotda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini tasdiqlayman:	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi														
Yakka tartibdagi tadbirkor STIR <table border="1" data-bbox="434 568 751 607"><tr><td>□</td><td>□</td><td>□</td><td>□</td><td>□</td><td>□</td><td>□</td><td>□</td></tr></table> F.I.O. _____ Imzo _____ Sana <table border="1" data-bbox="434 748 794 786"><tr><td>□□</td><td>□□</td><td>□□□□</td></tr></table> (kun/oy/yil)	□	□	□	□	□	□	□	□	□□	□□	□□□□	Ushbu Hisobot (kerakligiga «V» belgi qo'yilsin) <input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta orqali <input type="checkbox"/> varaqda taqdim etildi Taqdim etigan sana <table border="1" data-bbox="1107 819 1430 857"><tr><td>□□</td><td>□□</td><td>□□□□</td></tr></table> (kk/oo/yy) F.I.O. _____ Imzo _____	□□	□□	□□□□
□	□	□	□	□	□	□	□								
□□	□□	□□□□													
□□	□□	□□□□													

STIR

□	□	□	□	□	□	□	□
---	---	---	---	---	---	---	---

□	□
---	---

STIR Hujjat turi / Hisobot davri Chorak Soliq davri
Hujjat turi: 1 – ma'lumotlar, 2 – aniqlashtiruvchi (kasr orqali aniqlashtiruv raqami)Yuridik shaxsning
to'liq nomi _____Yuridik shaxsning
joylashgan eri _____
Pochta manzili _____Telefon: kod raqam Ma'lumotlarni topshirish muddati (kun/oy/yil) _____ ga taqdim etiladi
(soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)**Hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summalari to'g'risidagi
M A ' L U M O T L A R**
(yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan to'ldiriladi)*(so'zda)*

T/r	Ko'rsatkichlar	Satr kodi	To'lovchining ma'lumotlari bo'yicha
1	Yil boshidan daromad olgan jismoniy shaxslar soni, jami (kishi)	001	
	shu jumladan:		
	asosiy ish joyi bo'yicha	002	
	asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha	003	
2	Hisoblangan daromadlarning umumiy summasi	004	
2.1	shulardan soliq agenti bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan jismoniy shaxsning yozma arizasiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlab qolinmagan moddiy naf tarzidagi daromadlar	005	
3	Soliq solishdan ozod qilinadigan daromadlarning umumiy summasi	006	
4	Soliq solinadigan daromadlarning umumiy summasi (soliq solinadigan baza), shu jumladan: (004-satr-005-satr-006-satr)	007	
4.1.	–soliq solish shkalasi bo'yicha soliq solinadigan daromadlar	008	
4.2	–dividend va foizlar tarzidagi daromadlar	009	
4.3	– O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 181-moddasida ko'rsatilgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam stavkasi bo'yicha soliq solinadigan daromadlar	010	
4.4	– jismoniy shaxsning arizasiga asosan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi bo'yichasoliq solinadigan daromadlar	011	

5	Byudjetga hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi, shu jumladan: (1-ilova 5-ustunining "Yil boshidan jami" satri + 014-satr)	012	
5.1	– 008-satrda ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha	013	
5.2	– 009-satrda ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha (2-ilova 3-ustunining "Yil boshidan jami" satri)	014	
5.3	– 010-satrda ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha	015	
5.4	– 011-satrda ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha	016	
6.	ShJBPHga hisoblangan badallarning umumiy summasi (1-ilova 4-ustunining "Yil boshidan jami" satri)	017	
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va fuqarolarning sug'urta badallari chegirilgan holdagi hisoblangan daromadlarning umumiy summasi (004-satr – 012-satr – 017-satr – fuqarolarning sug'urta badallari hisoblangan summasi)	018	
8	Jismoniy shaxslarga to'langan daromadlarning umumiy summasi (1-ilova 6-ustunining "Yil boshidan jami" satri + 2-ilova 5-ustunining "Yil boshidan jami" satri)	019	
9	Byudjetga to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi (1-ilova 12-ustunining "Yil boshidan jami" satri + 2-ilova 8-ustunining "Yil boshidan jami" satri)	020	
10	ShJBPHga to'langan badallarning umumiy summasi (1-ilova 11-ustunining "Yil boshidan jami" satri)	021	

Izoh:

1. Hisoblangan va to'langan daromadlar summasi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 172-178-moddalariga muvofiq aniqlanadi.

2. Yil yakunlari bo'yicha 004-satr qiymati 3-ilovaning "Daromadlar summasi" ustuni 01-satri qiymatiga teng bo'lishi lozim.

3. Yil yakunlari bo'yicha 006-satr qiymati 4-ilovaning "Daromadlar summasi" ustuni 01-satri qiymatiga teng bo'lishi lozim.

Mazkur Ma'lumotlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini tasdiqlayman:	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Rahbar:	Ushbu ma'lumotlar (keragiga "V" belgisi qo'yilsin)
STIR <input type="text"/>	
F.I.O. _____	<input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta orqali <input type="checkbox"/> _____ varaqda taqdim etildi
Imzo _____	
Bosh buxgalter	Taqdim etilgan sana <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> (kk/oo/yy)
STIR <input type="text"/>	
F.I.O. _____	F. I. O. _____ Imzo _____
Imzo _____	
Sana (kk/oo/yy) <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>	

M.O'.

Jami:									
Chorak oxiriga qoldiq x									
Yil boshidan jami **									

* ushbu satr o'tgan chorakning "Yil boshidan jami" satri bilan joriy chorakning "Jami" satri yig'indisi sifatida aniqlanadi. Birinchi chorakda "Yil boshidan jami" satri birinchi chorakning "Jami" satri qiymati ko'rsatiladi.

Izoh:

1. «Chorak boshiga qoldiq» satrida o'tgan chorak uchun bo'lgan Rasshifrovkaning «Chorak oxiriga qoldiq» tegishli ustundaridan ko'chiriladigan summalar ko'rsatiladi.

«Chorak oxiriga qoldiq» satrida:

3-ustun = «Chorak boshiga qoldiq» satrining 3-ustuni + «Jami» satrining 3-ustuni – «Jami» satrining 8-ustuni;

4-ustun = «Chorak boshiga qoldiq» satrining 4-ustuni + «Jami» satrining 4-ustuni – «Jami» satrining 5-ustuni;

Rahbar

(Imzo)

Bosh buxgalter

(Imzo)

M.O'.

Hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summolari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summolari to'g'risidagi ma'lumotlarga 3-ilo

**20 __ yil uchun
jismoniy shaxslarga hisoblangan daromadlar
RASSHIFROVKASI**

(so'm)

Ko'rsatkich nomi	Satr kodi	Yil boshidan daromad olgan jismoniy shaxslar soni	Daromad summasi
Jismoniy shaxslarning daromadlari – jami (02-satr + 03- satr + 04-satr + 06- satr)	01	X	
shu jumladan:		X	X
a) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 172, 173, 174, 175-moddalari)	02		
shundan:		X	X
– predmeti ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lovlar	021		
– yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar	022		
b) mulkiy daromadlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 176-moddasi)	03		
shundan:		X	X
mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar	031		
dividendlar	032		
foizlar	033		
v) moddiy naf tarzidagi daromadlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 177-moddasi)	04		
shundan:			
soliq agenti bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan jismoniy shaxslarning yozma arizasiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlab qolinmagan moddiy naf tarzidagi daromadlar	05		
g) boshqa daromadlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 178-moddasi) ¹	06		

¹ jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari bundan mustasno.

Izoh: Ushbu Rasshifrovka yil yakuni bo'yicha Ma'lumotlar taqdim etilganda yilda bir marta taqdim etiladi.

Rahbar

Bosh buxgalter

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

--	--

*Hisoblangan va amalda to'langan daromadlar
summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan
daromad solig'ining ushlab qolingani summalari
to'g'risidagi ma'lumotlarga 4-ilova*

**20 ___ yil uchun jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlari
rasshifrovkasi**

(so'm)

Ko'rsatkich nomi	Satr kodi	Imtiyozlar qo'llanilgan jismoniy shaxslar soni	Daromad summasi
Imtiyozlar summasi - jami (02- satr+ 05-satr)	01	X	
shu jumladan:		X	X
a) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq - jami (03-satr + 04 -satr):	02		
– O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 179-moddasi bo'yicha (bandi va imtiyoz mazmuni ko'rsatiladi) (031-03...- satrlar yig'indisi) ¹	03		
shu jumladan:		X	X
	031		
25) davlat pensiyalari	032		
	033		
30) yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalari	034		
30) "Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat bankining, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va "Ipoteka bank" ATIB kreditlari hisobiga qishloq joylarida namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalari	035		
31) O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromad summalari	036		
31) O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan fuqarolar ish haqi va boshqa daromadlari summalari	037		
	03...		
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 180-moddasi bo'yicha (bandi va imtiyoz mazmuni ko'rsatiladi) (041-04...- satrlar yig'indisi)	04		
shu jumladan:		X	X
	041		
	042		
	04...		
b) boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq – jami:	05		

(normativ-huquqiy hujjatning nomi, sanasi, raqami, shuningdek imtiyoz bandi va uning mazmuni ko'rsatiladi) (051-05... -satrlar yig'indisi)			
shu jumladan:		X	X
	051		
	052		
...	05...		

¹ jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari bundan mustasno.

Izoh: Ushbu Rasshifrovka yil yakuni bo'yicha Ma'lumotlar taqdim etilganda yilda bir marta taqdim etiladi.

Rahbar _____
Bosh buxgalter _____

To'langan daromadlar va ushlab qolingani jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summolari to'g'risida ma'lumotnoma (20__ yil uchun)

Yuridik shaxs (ish beruvchi) to'g'risida ma'lumotlar

STIR

Yuridik shaxsning to'liq nomi _____

Yuridik shaxsning joylashgan eri _____
Faoliyat yuritish joyi _____
Pochta manzili _____

Telefon: kod raqami

Jismoniy shaxs (daromad oluvchi) to'g'risidagi ma'lumotlar

STIR	<input type="text"/>
ShJBPH	<input type="text"/>

F.I.O. _____

Maqomi (1-rezident / 0 – norezident) Ish joyi (1 - asosiy/ 0 - asosiy bo'lmagan)

Pasport ma'lumotlari: seriyasi	<input type="text"/>	raqami	<input type="text"/>
Berilgan sana	<input type="text"/>	<input type="text"/>	Kim tomondan berilgan _____

Doimiy yashash joyining manzili	viloyat	<input type="text"/>	shahar	<input type="text"/>
	tuman	<input type="text"/>	aholi punkti	<input type="text"/>
	ko'cha	<input type="text"/>	uy	<input type="text"/>
			xonadon	<input type="text"/>

Ushbu ma'lumotnoma	<input type="text"/>	varaqda tuzilgan	O'lchov birligi	<input type="text"/>
--------------------	----------------------	------------------	-----------------	----------------------

Mazkur ma'lumotnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini tasdiqlayman:		Bosh buxgalter (jismoniy shaxsning yangi ish (xizmat, o'qish) joyidagi) yoki davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi	
Rahbar	<input type="text"/>	Ushbu ma'lumotnoma (kerakligiga "V" belgisi qo'yilsin)	
STIR	<input type="text"/>		
F. I. O.	<input type="text"/>		
Imzo	<input type="text"/>		
Bosh buxgalter	<input type="text"/>	<input type="checkbox"/> shaxsan	<input type="checkbox"/> pochta orqali
STIR	<input type="text"/>	<input type="text"/> varaqda taqdim etildi	
F. I. O.	<input type="text"/>	Taqdim etilgan sana <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>	
Imzo	<input type="text"/>	(kk/oo/yy)	
Sana	<input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>	F. I. O. <input type="text"/>	
(kk/oo/yy)		Imzo <input type="text"/>	

M.O'.

I. O‘zbekiston Respublikasi rezidentining daromadlari

Daromad turlari	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining umumiy summasi	shundan:	
			byudjetga ushlab qolingan summa	ShJBPH ga ushlab qolingan summa
1. Soliq solinadigan shkaladagi stavkalar bo‘yicha soliq solinadigan daromadlar				
Soliq solinadigan shkaladagi stavkalar bo‘yicha soliq solinadigan daromadlar – jami				
shundan:		x	x	X
Ayollarning o‘ta zararli, o‘ta og‘ir mehnat sharoitlariga ega bo‘lgan ishlab chiqarishlarda olgan daromadlari summasi		x	x	X
Vafot etgan xodimning oila a‘zolariga yoki oila a‘zosi vafot etganligi munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalari		x	x	X
Favkulotda holatlar munosabati bilan to‘lanadigan moddiy yordam summalari		x	x	X
Boshqa hollarda ish beruvchi tomonidan beriladigan moddiy yordam summalari		x	x	X
Natura shaklida xodimlarga berilgan sovg‘alar		x	x	X
Ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo‘lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a‘zolariga berilgan sovg‘alar va boshqa turlardagi yordam.		x	x	X
Mehnat shartnomasi bekor qilinganda to‘lanadigan ishdan bo‘shatish nafaqasi		x	x	X
Soliq agenti bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lmagan jismoniy shaxsning yozma arizasiga ko‘ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ushlab qolinmagan moddiy naf tarzidagi daromadlar		x	x	X
2. Eng kam stavka bo‘yicha soliq solinadigan daromadlar				
Baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasi tomonidan belgilangan koeffitsiyentlar bo‘yicha qo‘shimcha to‘lovlar tariqasida olingan daromadlar				
Korxonada, muassasalar, tashkilotlar tomonidan qishloq xo‘jaligi ishlariga yuborilganda shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlar (qishloq xo‘jaligi korxonasi tomonidan to‘ldiriladi)				
Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar				
Jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar				
Jami daromadlar				

Rahbar
Bosh buxgalter

(imzo)
(imzo)

Daromad turlari	Hisoblangan daromad	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining umumiy summasi	Shundan	
			byudjetga ushlab qolingan summa	ShJBPH ga ushlab qolingan summa
3. Dividendlar va foizlar shaklidagi daromadlar				
Dividendlar				X
Foizlar				X

4. JAMI 1,2,3-BANDLAR BUYICH A				
---------------------------------------	--	--	--	--

5. Imtiyozlar (soliq solishdan ozod etilgan daromadlar)

Daromad turi	Satr kodi	Daromad summasi
JAMI (01-satr+02-satr+03-satr):	01	
1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 179-moddasiga muvofiq (imtiyozning bandi va mazmuni ko'rsatiladi) (021-02...- satrlar yig'indisi) ¹	02	
shu jumladan:		X
...	021	
19) dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar	022	
...	023	
31) O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromad summalari	024	
31) O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan fuqarolar ish haqi va boshqa daromadlari summalari	025	
	02...	
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 180-moddasiga asosan (imtiyozning bandi va mazmuni ko'rsatiladi) (031-03...- satrlar yig'indisi)	03	
shu jumladan:		X
	031	
	032	
	03...	
3. Boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida – jami (normativ- huquqiy hujjatning nomi, sanasi, raqami, shuningdek imtiyozning bandi va mazmuni ko'rsatiladi) (041-04... -satrlar yig'indisi):	04	
shu jumladan:		X
	041	
	042	
	04...	

¹ jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari bundan mustasno

Rahbar (imzo)
 Bosh buxgalter (imzo)
 M.O'.

II. O‘zbekiston Respublikasi norezidentning daromadlari

Daromadlar turi	Hisoblangan daromad	Jami jismoniy shaxslardan olinadigan daromad summasi solig‘i
Dividendlar va foizlar (10%)		
O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 155-moddasi uchinchi qismining 9-bandiga muvofiq belgilanadigan xalkaro tashishlarida transport xizmatlari ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar) (6%)		
Intellectual mulk obyektlariga bo‘lgan mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o‘tkazganlik uchun mukofot, ijara bo‘yicha daromadlarga hamda ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan, mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy tusga ega shartnomalar bo‘yicha olingan boshqa daromadlar (20 %)		
JAMI DAROMADLAR		

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O‘.

To'langan daromadlar va ushlab qolingani jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risida ma'lumotnomaga ilova

--	--

OYLAR BO'YICHA HISOBLANGAN DAROMADLAR RASSHIFROVKASI

Jismoniy shaxsning STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

 Jismoniy shaxsning F.I.O. _____

Oylar	Soliq solinadigan shkaladagi stavkalar bo'yicha soliq solinadigan daromadlar - jami	shundan:							Eng kam stavka bo'yicha soliq solinadigan daromadlar	Dividendlar va foizlar		
		Ayollarning o'ta zararli, o'ta og'ir mehnat sharoitlariga ega bo'lgan ishlab chiqarishlarda olgan daromadlari summasi (20%dan ko'p emas)	Vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalari	Boshqa vaziyatlarda ish beruvchi tomonidan beriladigan moddiy yordam summalari	Natura shaklida berilgan ishchiga sovg'alar	Ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo'lgan ishlayotgan pensionerlar va mexnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolariga berilgan sovg'alar va boshqa turlardagi yordam.	Mehnat shartnomasi bekor qilinganda to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi	Soliq agent bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan jismoniy shaxsning yozma arizasiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlab qolinmagan moddiy naf turlardagi daromadlar		Jami	Shu jumladan (**)	4 karrali imtiyoz (*)
Yanvar												
Fevral												
Mart												
April												
May												
Iyun												
Iyul												
Avqust												
Sentyabr												
Oktyabr												
Noyabr												
Dekabr												
Jami:												

Izoh:

* Agar jismoniy shaxs eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida imtiyozga ega bo'lsa, har bir ishlangan oy uchun 4 raqami qo'yiladi.

** Yuridik shaxsdan olinib, uning aksiyalarini sotib olishga yoki ustav kapitaliga yo'naltirilgan dividendlar.

Rahbar Bosh buxgalter

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

**Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana
savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar
ko'rsatish huquqi uchun yig'imlar
HISOB-KITOB**

Faoliyat turi	Ruxsat guvohnomasi (mahalliy ijro etuvchi xokimiyat organining qarori)		Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorda)	Eng kam ish haqining miqdori	Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yig'im summasi (4-ust. x 5-ust.)
	raqami	berilgan sanasi			
1	2	3	4	5	6

Izoh:

1. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im bo'yicha hisob-kitob faoliyat amalga oshirilayotgan joydagi davlat soliq xizmati organiga:

yil davomida tegishli ruxsat guvohomasini (mahalliy ijro etuvchi xokimiyat organining qarorini) olgan soliq to'lovchilar tomonidan - ruxsat guvohomasi (mahalliy ijro etuvchi xokimiyat organining qarori) berilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmasdan;

faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan - har yili hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

2. Yig'im obykti va eng kam ish haqining miqdori o'zgargan taqdirda soliq to'lovchilar aniqlashtirilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lov muddatidan kechiktirmay taqdim etishi shart.

Rahbar

 (imzo)

Bosh buxgalter

 (imzo)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 252-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida” Nizomning 1-Ilovasi

**Urush qatnashchilariga tenglashtiriladigan shaxslar
RO‘YXATI**

1941 yil 22 iyundan 1945 yil 9 maygacha Ikkinchi jahon urushi (keyingi o‘rinlarda Ikkinchi jahon urushi deb yuritiladi) va boshqa urushlar davrida harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o‘tagan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishda ishtirok etgan harbiy xizmatchilar «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 28-moddasi “j” bandiga muvofiq pensiyalarga ustama pul olishga haqli bo‘lgan urush qatnashchilari hisoblanadilar.

Quyidagilar urush qatnashchilariga tenglashtiriladilar:

a) 1941 yilning 22 iyunidan 1954 yilning 31 dekabrigacha bo‘lgan davrda qiruvchi batalonlar, vzvodlar va xalqni himoya qiluvchi otryadlar tarkibida sobiq SSSR hududida jangovar harakatlarda ishtirok etgan shaxslar;

b) Ikkinchi jahon urushi va fuqarolar urushi davrida partizan otryadlari va qo‘shilmalarida yoki yashirin ishlarda bo‘lgan shaxslar;

v) Ikkinchi jahon urushi yillarida harakatdagi armiya tarkibida yoki harakatlar ketayotgan joylarda xizmatni o‘tagan sobiq SSSRning Ichki ishlar vazirligi organlari va Davlat xavfsizligi qo‘mitasi organlarining boshliqlar hamda oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslar;

g) Ikkinchi jahon urushi davrida harakatdagi armiya va flotlar tarkibidagi qismlar hamda bo‘linmalarda balog‘at yoshiga etgunga qadar polk o‘g‘illari va yungalar sifatida yurgan shaxslar;

d) Ikkinchi jahon urushi davrida temir yo‘llarning front yaqinidagi uchastkalarida, mudofaa chizig‘i inshootlarida ishlagan, harbiy-dengiz

bazalari, aerodromlar hamda harbiy harakatlar ketayotgan joylardagi boshqa harbiy obyektlar qurilishi ishlarida qatnashgan xodimlar;

e) harakatdagi armiya tarkibida ishlagan yollanma xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslar;

j) Ikkinchi jahon urushi davrida fashist konslagerlari (getto va zo‘rluk bilan ushlab turiladigan boshqa joylar)da bo‘lgan (tutqunlar, shu jumladan, bolalar) shaxslar;

z) Leningrad shahri qamali davrida shaharning korxonalarini, muassasalari va tashkilotlarida mehnat qilgan va «Leningrad mudofaasi uchun» medali hamda «Qamaldagi Leningrad fuqarosiga» nishoni bilan taqdirlangan shaxslar;

i) 1956 yilning 24 oktyabridan 1956 yilning 10 noyabrigacha bo‘lgan davrda Vengriya hududidagi jangovar harakatlar davrida harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o‘tagan harbiy xizmatchilar;

k) harbiy harakatlar ketayotgan mamlakatlarda o‘z baynalmilal burchlarini ado etgan, tinchlik o‘rnatuvchi kuchlar tarkibida ishtirok etgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslar.

“Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida” Nizomning 2-Ilovasi

Urush nogironlariga tenglashtiriladigan shaxslar RO‘YXATI

1941 yil 22 iyundan 1945 yil 9 maygacha Ikkinchi jahon urushi (keyingi o‘rinlarda Ikkinchi jahon urushi deb ataladi) va boshqa urushlar davrida harakatdagi armiya tarkibidagi harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o‘taganda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilar «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi «a» bandida va 28-moddasining «a» va «b» bandlarida nazarda tutilgan shartlar va normalarga ko‘ra pensiya bilan ta‘minlanishga haqli urush nogironlari hisoblanadilar.

Quyidagi nogironlar urush nogironlariga tenglashtiriladilar:

a) sobiq SSSR va O‘zbekiston Respublikasi chegaralarini qo‘riqlash paytida yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilar;

b) 1941 yilning 22 iyunidan 1954 yilning 31 dekabrigacha sobiq SSSR hududida harakat qilgan hamda qiruvchi batalonlar, vzvodlar va xalqni himoya qiluvchi otryadlarda xizmat qilgan davrda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo‘lib qolgan shaxslar;

v) temir yo‘llarning front yaqinidagi uchastkalarida ishlagan, mudofaa inshootlari, harbiy-dengiz bazalari, aerodromlar va boshqa harbiy obyektlar qurilishi ishlarida qatnashgan hamda Ikkinchi jahon urushi davrida urush bo‘layotgan joylarda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo‘lib qolgan xodimlar;

g) Ikkinchi jahon urushi davrida partizan otryadlari va qo‘shilmalari tarkibida yoki yashirin ishlarda bo‘lgan davrda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo‘lib qolgan shaxslar;

d) harakatdagi armiya tarkibidagi ishlarda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo‘lib qolgan yollangan tarkibdagi shaxslar;

e) Ikkinchi jahon urushi davrida fashist konslagerlarida (getto va zo‘rlik bilan tutib turiladigan boshqa joylarda) bo‘lgan davrda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo‘lib qolgan shaxslar (tutqunlar, shu jumladan, bolalar);

j) tinchlik o‘rnatuvchi kuchlar tarkibida qatnashish, shuningdek, harbiy harakatlar ketayotgan mamlakatlarda baynalmilal burchlarini ado etish tufayli yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish tufayli nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmatining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslar;

z) harbiy xizmatdagi vazifalarini (xizmat vazifalarini) bajarish paytida yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmatining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslar;

i) o‘quv mashg‘ulotlari yoki tekshirish uchun yig‘inlarga chaqirilgan va shu yig‘inlarda o‘z xizmat burchlarini bajarayotib yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo‘lib qolgan harbiy majburiyatli shaxslar.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. “JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH” FANINING PREDMETI VA METODI	7
---	----------

1.1. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanini o‘qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi	7
1.2. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanining predmeti, vazifasi va o‘rganish usullari.....	8
1.3. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli.....	10
1.4. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanini o‘qitishda soliq xizmati organlari axborot tizimi tarkibidagi asosiy dasturiy mahsullarni qo‘llash tartibini o‘rganishning ahamiyati	12

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR VA ULARNING AHAMIYATI	27
--	-----------

2.1. Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlar va ularni guruhlariga ajratilishi	27
2.2. Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlar.....	28
2.3. Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan to‘g‘ri va egri soliqlarning tarkibi va ularning byudjet daromadlaridagi ahamiyati	36
2.4. Soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilar faoliyatiga oid dasturiy mahsullarni mohiyati va ahamiyati	39
2.5. Soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlari.....	46

III BOB. JISMONIY SHAXSLARNING JAMI DAROMADLARI TARKIBI VA ULARNI SOLIQQA TORTISHNING ASOSLARI	52
---	-----------

3.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyati, soliq to‘lovchilar, soliq obyekti va bazasi.....	52
3.2. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi	55
3.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari.....	66
3.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar.....	68
3.5. Chet ellik jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solishning xususiyatlari.....	76
3.6. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish tartibi	78

3.7. Soliq agentlarining daromad solig'ini ushlab qolish va byudjetga o'tkazish bo'yicha majburiyatlari.....	79
3.8. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar faoliyatiga oid dasturiy mahsullarning mohiyati va ahamiyati.....	82

IV BOB. JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI DEKLARATSIYA ASOSIDA SOLIQQA TORTISH

XUSUSIYATLARI	137
4.1. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni zarurligi va ahamiyati	137
4.2. Jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlari tarkibi.....	143
4.3. Deklaratsiyani to'ldirish tartibi. Soliq to'lovchining majburiyatlari.....	146
4.4. Deklaratsiya taqdim etuvchi chet ellik jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	148
4.5. Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi	151
4.6. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromadlarini soliqqa tortish tartibi	154
4.7. Jismoniy shaxslar tomonidan elektron tarzda deklaratsiya topshirish xususiyatlari va elektron deklaratsiya topshirilishi bilan bog'liq dasturiy mahsullar.....	157
4.8. Jismoniy shaxslar tomonidan daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya ma'lumotlarini internet tarmog'i orqali elektron tarzda taqdim etish tartibi	165

V BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATI BILAN SHUG'ULLANUVCHI JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH.....

188	
5.1. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning huquqiy asoslari. Qat'iy belgilangan soliqning joriy etilishi va soliq to'lovchilar tarkibi.....	188
5.2. Yakka tartibdagi tadbirkorlarga qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari	196
5.3. Xodimlarni yollagan holda faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari	198
5.4. Qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....	201
5.5. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi.....	209
5.6. Yakka tartibdagi tadbirkorlarga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari va preferensiyalar	214

VI BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN MOL-MULK SOLIG‘I	224
6.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining joriy etilishi, maqsadi va iqtisodiy mohiyati.....	224
6.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq to‘lovchilari, soliq obyekti va bazasi.....	225
6.3. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq stavkalari va soliq imtiyozlari	226
6.4. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash tartibi	229
6.5. «Davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkkar hisobini yuritish» dasturiy mahsulining mohiyati va ahamiyati.....	231

VII BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN YER SOLIG‘I	236
7.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining to‘lovchilari, soliq obyekti va bazasi.....	236
7.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari va soliqdan imtiyozlar	238
7.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi.....	246
7.4. «Yer fondi va yer solig‘i to‘lovchilari hisobini yuritish» dasturiy mahsulining mohiyati va ahamiyati	248

VIII BOB. AYRIM TOIFADAGI JISMONIY SHAXSLARGA SOLIQ SOLISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI.....	256
8.1. Jismoniy shaxslar tomonidan davlat bojini to‘lash tartibi.....	256
8.2. Yuridik shaxslarni tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jalikliklarini soliqqa tortish xususiyatlari.....	279
8.3. Konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi.....	281

IX BOB. JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN SOLIQ MAJBURIYATLARINI BAJARILISHINI NAZORAT QILISH	284
9.1. Jismoniy shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish maqsadida uchastka soliq inspektori faoliyatini tashkil qilish.....	284
9.2. Uchastka soliq inspektorining asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari.....	287
9.3. Uchastka soliq inspektorining ish faoliyatini tashkil qilish, nazorat qilish va lavozimiga tayinlanadigan xodimga qo‘yiladigan talablar....	294
9.4. Soliq tayanch punktining tashkiliy va huquqiy asoslari.....	298

9.5. Soliq qonunchiligini buzgan jismoniy shaxslarga qo‘llaniladigan choralar	304
9.6. Jismoniy shaxslarga soliq solishda amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullar va interfaol soliq xizmatlari	307

**X BOB. JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISHNING XORIJIY
MAMLAKATLAR AMALIYOTI**

MAMLAKATLAR AMALIYOTI	317
10.1. Zamonaviy soliq tizimida soliqqa tortish shakllari va usullari.....	317
10.2. Jahon soliq modellari va ularning tahlili	326
10.3. Amerika Qo‘shma Shtatlarida jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibi	328
10.4. Buyuk Britaniya soliq tizimida jismoniy shaxslarni soliqqa tortish mexanizmi.....	333
10.5. Yaponiya soliq tizimida jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari	337

JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH’ FANI BO‘YICHA TEST VARIANTLARI	345
ATAMALAR SHARHI.....	365
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	382
ILOVALAR	392

**JO'RAYEV ABDUG'AFFOR SAFAROVICH
USMANOVA MUHLISA SAGDULLAYEVNA
AMANOV AKRAM MIRZAYEVICH
QIYOSOV SHERZOD URALOVICH**

**JISMONIY SHAXSLARNI
SOLIQQA TORTISH**

Darslik

*Muharrir Z.Bazarova
Badiiy muharrir K.Boyxo'jayev
Kompyuterda sahifalovchi O.Fozilova*

Nashr. lits. AI № 305.
Bosishga ruxsat 15.07.2019-yilda berildi.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qog'ozi №2.
"Times New Roman" garniturasini.
Shartli b.t. 24,9. Nashr hisob t. 25,9.
Adadi 50 dona. 23-buyurtma.

"IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».

"HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI"
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60 «A».